



# FAN VA JAMIYAT ILIM HÁM JÁMIYET



2025/3-2




ISSN 2010-720X

2004-jildin mart ayidan boshlab shuğa basladi

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI JOQARI  
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR  
MINISTRILIGI**



**ÁJINIYAZ ATÍNDAGÍ NÓKIS MÁMLEKETLIK  
PEDAGOGIKALIQ INSTITUTI**



**ILIM hám JÁMIYET**

**Ilimiy-metodikaliq jurnal**

**Seriya: Pedagogika ilimleri. Psixologiya ilimleri**

**Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat  
pedagogika instituti**

**FAN va JAMIYAT**

**Ilmiy-uslubiy jurnal**

**Seriya: Pedagogika fanlari. Psixologiya fanlari**

**Нукусский государственный педагогический  
институт имени Ажинияза**

**НАУКА и ОБЩЕСТВО**

**Научно-методический журнал**

**Серия: Педагогические науки. Психологические науки**

**Nukus State Pedagogical Institute  
named after Ajiniyaz**

**SCIENCE and SOCIETY**

**Scientific-methodical journal**

**Series: Pedagogical sciences. Psychological sciences**

**№3/2**

**Shólkemlestiriwshi: Ájiniyaz atındaǵı Nókis  
mámleketlik pedagogikalıq institutı hám jurnal redakciyası jámaáti  
Shólkemlestiriw komiteti baslıǵı: K.A.KADIROV – NMPI rektori  
Bas redaktor: A.K.PAZÍLOV**

**REDKOLLEGIYA AǴZALARÍ**

p.f.b.f.d. **Abdazimov A.** (Tashkent);  
t.i.d., prof. **Abdullaeva Ya.** (Nókis);  
ps.i.d., prof. **Abdirasulov R.** (Jizzax);  
p.i.d.(DSc), doc. **Allambergenova M.X.** (Nókis);  
p.i.b.f.d., doc. **Babaniyazova N.P.** (Tashkent);  
p.i.d. (DSc), doc. **Bekimbetova G.** (Nókis);  
p.i.k., doc. **Darmenov J** (Nókis);  
f.i.k., doc. **Dilmanov I.** (Nókis);  
ps.i.d. (DSc), prof. **Elmuratova A.** (Nókis);  
f.i.b.f.d., prof. **Fedakar P.** (Turkiya);  
p.i.d., prof. **Xodjaniyazov S.** (Urgench);  
p.i.k., doc. **Jumabaev N.** (Nókis);  
b.i.d., prof. **Jumamuratov M.** (Nókis);  
p.i.d., prof. **Jumasheva G.** (Nókis);  
f.i.d., prof. **Ibragimov Yu.** (Nókis);  
p.i.d. (DSc), doc. **Kadirov K.A.** (Nókis);  
f-m.i.f.d., doc. **Kalxanov P.** (Nókis);  
f.i.k., prof. **Kochanov Q.** (Nókis);

p.i.d. (DSc), prof. **Qarlibaeva G.** (Nókis);  
f.i.d. (DSc), prof. **Qurambaeva G.** (Tashkent);  
f.i.d. (DSc), prof. **Qurbaniyazov G.** (Nókis);  
p.i.d.(DSc), prof. **Qurbaniyazova Z.** (Nókis);  
p.i.k., doc. **Makovchik A.** (Minsk);  
p.i.k., doc. **Mamirbaeva D.** (Nókis);  
b.i.d., prof. **Markov M.** (Moskva);  
p.i.d. (DSc), prof. **Matjanov N.** (Nókis);  
f.i.d., aǵa il.xız. **Najimov P.** (Nókis);  
p.i.k., prof. **Nauruzbaeva A.** (Nókis);  
p.i.k., prof. **Pazilov A.** (Nókis);  
p.i.d. (DSc), prof. **Pazilova M.** (Nókis);  
f.i.d. (DSc), prof. **Pirniyazova A.** (Nókis);  
p.i.k., prof. **Seytjanova U.** (Nókis);  
p.i.k., doc. **Tajieva A.** (Nókis);  
p.i.k., prof. **Tlegenov A.** (Nókis);  
p.i.d., prof. **Utebaev T.** (Nókis);  
p.i.k., doc. **Ermolich S.Ya.** (Minsk).

**Q.Biysenbaev – juwaplı xatker  
Z.Xodjekeeva – korrektor  
N.Allamuratova – operator**

**Juwaplı redaktorlar:  
f.i.d. (DSc), doc. S.Matyakupov – ózbek tili boyınsha  
f.i.d. (DSc), doc. G.Kdirbaeva – rus hám inglis tilleri boyınsha  
f.i.d. (DSc), doc. B.Yusupova – qaraqalpaq tili boyınsha**

*Jurnal 1992-jıldan «Qaraqalpaqstan muǵallımı» atamasında shıǵarıla baslaǵan. 2004-jılda «Ilim hám jámiyet» atamasına ózgertilip, 01-022-sanlı gúwalıq penen Qaraqalpaqstan Respublikası Baspasóz hám xabar agentligi tárepinen dizimge alınǵan.  
2020-jılı 7-avgustta Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administracyası janındaǵı xabar hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen qayta dizimge alınıp, 1098-sanlı gúwalıq berilgen.*

*«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan Respublikası Ministrler kabineti janındaǵı Joqarı Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı menen tómende kórsetilgen ilimler boyınsha ilim doktori dárejesin alıw ushın maqalalar járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine kirgizilgen:*

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

## ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН СТРАТЕГИЯСИДА ЁШЛАР ТАРБИЯСИ

К.Кадиоров – педагогика фанлари доктори (DSc)

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти ректори

Мамлакатимизда маънавий-маърифий ишларни тизимли ташкил этиш, бу борада амалга оширилаётган чора-тадбирларнинг самарадорлигини ошириш, аҳоли, айниқса, ёшларнинг интеллектуал салоҳияти, онгу тафаккури ва дунёқарашини юксалтириш, мафкуравий иммунитетини мустаҳкамлаш, ватанпарварлик, халққа муҳаббат ва садоқат туйғуси билан яшайдиган баркамол авлодни тарбиялашга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

Президентимиз Ш.М.Мирзиёев таъкидлаганидек, бугунги кунда мамлакатимиз эзгу мақсадлар билан, “Миллий тикланишдан – миллий юксалиш сари” шиори остида тараққиётнинг учинчи даври, Янги Ўзбекистонни қуришга киришмоқда. Бу эса халқимизни ёруғ келажакка чорлаб ва янгилашга сафарбар қилиб, умумий мақсадлар йўлида бирлаштириб турадиган яхлит маънавий асос ва мезонга айланиб, ўз куч ва имкониятларига бўлган Янги Ўзбекистонни барпо этиш ва Янги Ўйғониш даври пойдеворини яратишдек улғу мақсад йўлида жипслаштириб, янада кучли ва мустаҳкам қилмоқда.

Тарихан маълумки, она диёримиз дунё цивилизациясига муносиб ҳисса қўшган - муҳташам иккита Ренессансга бешик бўлган.

Дунё тамаддуни тан олган **Биринчи Ренессанс** даври Имом Бухорий, Имом Термизий, Муҳаммад Хоразмий, Абу Наср Форобий, Аҳмад Фарғоний, Абу Мансур Мотуридий, Абу Райҳон Беруний, Абу Али ибн Сино каби мутафаккир боболаримиз ҳаёти, фаолияти билан боғлиқ бўлиб, улар ўзларининг дунёга машҳур асарлари билан жаҳонда ном қозонган.

Бу улғу алломаларимиз мероси Маҳмуд Замахшарий ва Нажмиддин Куброни уйғотди, олий мақсад сари интилиш масаласи уларнинг ғояларида, асарлари ва хайрли амалларида акс этди.

Шунингдек, буюк давлат қуришдек аждодларимизнинг эзгу ғоялари Соҳибқирон Амир Темур бобомизни жаҳон саҳнасига олиб чиқди ва Темурийлар Ренессанси, **Иккинчи ўйғониш** даври ғоялари ва халқимизнинг бунёдкорлик фаолиятига кучли таъсир кўрсатди. Марказлашган қудратли давлат ва қонун устувор бўлган адолатли жамият ғоясида мужассам бўлди.

Айнан халқ армонини рўёбга чиқаришга бўлган интилиш Амир Темур ибн Тарағай Баҳодир даврида нафақат мамлакат мустақиллигини таъминлаш, балки қудратли давлат барпо этиш, иқтисодиёт, маданият, санъат ва илм-фан соҳаларини ривожлантиришга хизмат қилди.

Халқимизнинг орзу-интилишлари Мирзо Улуғбек, Қозизода Румий, Али Қушчи, Давлатшоҳ Самарқандий, Алишер Навоий, Заҳрирдин Муҳаммад Бобур каби **Иккинчи ўйғониш** даврининг буюк сиймоларини уйғотди, уларнинг асарлари ва фаолиятида ўз талқинини топган комил инсон ғояларида намоён бўлди.

Давр фарзандларини юксак фазилатли инсонлар этиб тарбиялаш ўша замон маърифатпарварларининг ҳаётий ва фуқаролик эътиқодига айланди.

Бу орзу Машраб, Комил Хоразмий, Мунис ва Огаҳий, Бердақ ва Ажиниёз, Аҳмад Дониш сингари маърифатпарварларни уйғотди. Муқимий, Фурқат, Завкий, Нодира ва Дилшоҳи Барно, Анбар Отин асарларида ўз ифодасини топган билим ва маърифатга интилиш ғояларида мужассам бўлди.

Бу орзу маънавият ва маърифатни одамни нафақат комилликка, эркин ва фаровон турмушга етакловчи, балки халқни миллий мустақилликка элтувчи бекиёс куч сифатида англаб етиш имконини берди. Бугун эса, иродаси, шахду шиддати буюк халқимизнинг бундай ёруғ ва теран орзуси бугунги кунда жамиятимизнинг янги қиёфасини яратиш учун юксак марраларга интилаётган халқимизни **Учинчи Ренессанс** ғояси атрофида янада жипслаштирмоқда.

Таъкидлаш лозимки, дунёда рўй бераётган бугунги глобаллашув жараёни ўзининг ижобий жараёнлари билан бирга, бу жараёнларга тўсқинлик қилаётган мураккаб ва тенденциялар мавжудлигига гувоҳ бўлмоқдамиз. Яъни, жаҳонда, жумладан, Жануби-Шарқий Осиёдан тортиб Яқин Шарқкача бўлган маконда қуролли тўқнашувлар кучайиб, ўзаро ишончсизлик ва низолар, миллатлараро ва конфессиялараро ихтилофлар чуқурлашиб бораётгани, барқарор тараққиётга қарши бошқа глобал таҳдид ва хатарлар пайдо бўлмоқда. Бундай мураккаб ва таҳликали жараёнларда барчамизнинг фаолитимиз ҳар томонлама огоҳлик, сергаклик ва илму-маърифатга таянишни тақозо қилмоқда.

Негаки, биз ўз олдимизга Ўзбекистонни ривожланган мамлакатга айлантиришни мақсад қилган эканмиз, бунга фақат аждодлар меъроси, мукаммал тарбия, илму-маърифат ва инновация орқали эриша оламиз.

Айни пайтда ислохотчи бўлиб майдонга чиқадиган, стратегик фикр юритадиган, билимли ва малакали янги авлодларни тарбиялаш устувор масаладир. Нафақат ёшлар, балки бутун жамиятимиз аъзоларининг билими, савиясини ошириш учун аввало илм-маърифат, юксак маданият зарур. Илм йўқ жойда қолоқлик, жаҳолат ва, албатта, тўғри йўлдан адашиш бўлиши табиий.

Энг катта бойлик – бу ақл-заковат ва илм, энг катта бу мерос бу яхши тарбия, энг катта қашшоқлик билимсизликдир!

Таъкидлаганимиздек, жаҳонда ғоявий-мафкуравий курашлар кескин давом этаётган, маънавий таҳдидлар кучайиб бораётган ҳозирги даврда ёшлар ўртасида миллий қадриятларга беписандлик, зарарли ёт ғоялар таъсирига берилиш, жинойatchилик ва экстремизм ҳаракатларига адашиб қўшилиб қолиш ҳолатлари ҳамон учрамоқда.

Шу боис ҳам, Президент Ш.Мирзиёев «Маънавий-маърифий ишлар тизimini тубдан такомиллаштириш, бу борада давлат ва жамоат ташкилотларининг ҳамкорлигини кучайтириш» масалалари бағишланган йиғилишида: «...бугун дунёда кескин кураш ва рақобат ҳукм сурмоқда, манфаатлар тўқнашуви кучаймоқда. Глобаллашув жараёнлари инсоният учун бекиёс янги имкониятлар билан бирга қутилмаган муаммоларни ҳам

келтириб чиқармоқда. Миллий ўзлик ва маънавий кадриятларга қарши таҳдид ва хатарлар тобора ортмоқда. Фақат ўзини ўйлаш, меҳнатга, оилага енгил қараш, истеъмолчилик кайфияти турли йўллар билан одамлар, айниқса, ёшлар онгига устамонлик билан сингдириляпти. Шунингдек, терроризм, экстремизм, трансмиллий ва кибер-жиноятчилик, одам савдоси, наркотрафик каби таҳдидлар хавфи ошиб бормоқда. Баъзи ҳудудларда атайин беқарорлик юзага келтирилиб, норозилик кайфияти авж олдирилмоқда», – деб аҳолида таъкидладилар.

Шу боис, ёшлар тарбияси, ғоявий тарбия масаласи Президентимиз раҳбарлигида давлат сиёсатининг устувор йўналиши этиб белгиланди: «Агар жамият ҳаётининг танаси иқтисодиёт бўлса, унинг жони ва руҳи маънавиятдир. Биз янги Ўзбекистонни барпо этишга қарор қилган эканмиз, иккита мустақкам устунга таянамиз. Биринчиси – бозор тамойилларига асосланган кучли иқтисодиёт. Иккинчиси – аждодларимизнинг бой мероси ва миллий кадриятларга асосланган кучли маънавиятдир» – деб алоҳида таъкидладилар.

Мамлакатимиз таълим муассасаларида амалга оширилаётган маънавий-маърифий ишларнинг асл моҳияти ва пировард мақсади - бугунги мураккаб ва таҳликали замонда халқимиз маънавиятини ёт ғоялардан ҳимоя қилиш, азалий миллий кадриятларимизни сақлаб қолиб, ривожлантириш, ёшларимизни Ватанимизга, миллий ғоямизга садоқат руҳида тарбиялашдир. Бу борада кейинги йилларда бир қанча муҳим ҳужжатлар, жумладан, олий таълим тизимини модернизациялаш, ёшларнинг китобхонлик маданиятини ошириш, ёшларни адабиёт, маданият ва санъат соҳаларига қизиқтириш, диний маърифатни такомиллаштириш ва бошқа муҳим масалалар тўғрисида қарор ва фармойишлар қабул қилинди. Зеро, давр биздан «Бугунги мураккаб мафкуравий глобаллашув замонида халқимиз, ёшларимиз маънавий ҳаёти қандай кечаяпти?» «Қандай қилиб Интернет ва юксак технологиялар асрида миллий маънавиятимизни сақлаб қолиб, юксалтирамиз?», «Жаҳолатга қарши маърифат билан қандай курашишимиз керак?», деган саволларга илмий асосли, амалий ишларимиз билан жавоб беришни талаб қилмоқда.

Ёшларимизни ғоявий тарбиясини модернизациялаш – мамлакатимизда Муҳтарам Президентимизнинг “Янги Ўзбекистон - стратегияси” китобида белгилаб берилган устувор вазифалар ҳамда 2025 йил «Атроф муҳитни асраш ва “Яшил” иқтисодиёт» йили Давлат дастурида белгиланган жараёнлар билан уйғун бўлиши

#### **Адабиётлар**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси. 2024 йил, 29 ноябрь. [www. lex.uz](http://www.lex.uz).
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисидаги ПФ-60-сон Фармони, 2022 йил, 28-январь.
3. Очилдиев А. Глобаллашув ва мафкуравий жараёнлар. –Т.: «Муҳаррир», 2009. 50-б.
4. Маънавият: асосий тушунчалар изоҳли луғати. – Т.: «Ғ.Ғулом номидаги НМИУ», 2009. 255-б.

талаб этилмоқда. Мана шундай янги тарихий вазиятда «Янги Ўзбекистонни ҳар томонлама инновацион ривожлантириш учун, Учинчи Ренессанс пойдеворини яратишимиз учун халқимиз, ёшларимизда қайси фазилатларни кучайтириб, қайси иллатларга чек қўйишимиз керак?», деган саволларга илмий жавоблар керак. Бу саволга маънавият жавоб бериши ва халқимизни бунёдкор ишларга даъват қилиши лозимдир.

Юкоридаги фикрлардан келиб чикиб, қуйидаги таклиф-тавсияларимизни беришни маъқул топдик:

1. Бугунги кунда Олий таълим тизимида фаолият юритаётган ҳар қандай бўғиндаги ходим, аввало, юртимизда ҳамда дунё ҳамжамиятида рўй бераётган воқеалар мазмунидан хабардор бўлишлиги, воқеа моҳиятини чуқур англаган ҳолда дарс машғулотида давомда ёшларимизга биринчилардан бўлиб тўғри ва аниқ етказиш;

2. Юртимизда таълим жараёнига тадбиқ қилинган “Ўзлуксиз маънавий тарбия” концепциясининг Олий таълим тизимига қўйилган талабларини тўлақонли адо этиш;

3. Олий таълим муассасаларининг ижтимолий-гумантар фанлар йўналишидаги кафедралар томонидан ўқитувчиларнинг ишчи фан дастурлари ва маъруза матнлари мазмунини йилига бир марта эмас, балки тизимли равишда бугунги ғоявий ислохотлар, ёшлар тарбиясига қўйилаётган талаблар асносида доимий янгиллаб, бойитиб бориш;

4. Олий таълимнинг ҳар қандай бўғиндаги масъули Президентимиз раҳбарлигида олиб борилаётган давлат сиёсати нафақат олий таълимда, балки маҳалларда ва бошқада бириктирилган ўринларда ҳам энг фаол ва ташаббускор тарғиботчиси бўлишлиги лозим.

**Хулоса сифатида** таъкидлаш лозимки, айна йўналишда ёшлар билан бевосита яқиндан ишлашадиган синф раҳбарлари, тьюторлар, ота-оналар кенгаши, жамоатчилик кенгаши, устоз шогирд тизими ва Ёшлар иттифоқи ташкилотининг ўрни ҳамда масъулиятини ошириш, шунингдек, доимий назорат ва бирга ишлашишни тизимли амалга ошириш лозим. Чунки, бугун давлатимиз Ўзбекистон тараққиётнинг янги босқичи – Учинчи Ренессанс даврининг пойдеворини яратишга қадам қўймоқда. Бугунги кун талабаси, бўлажак мутахассисларни Ўзбекистон тараққиётининг янги даври талаблари негизда ғоявий тарбиялаш, уларни мустақил касбий маънавий ҳаётга тайёрлаш – таълим-тарбия муассасаларининг барча бўғинларида фаолият кўрсатувчи ўқитувчи, устоз ва мураббийларнинг фаолиятига боғлиқдир.

## PEDAGOGIKA ILIMLERI

### Pedagogika teoriyasi hám tariyxı

#### DASTURLASH TILLARI RESURSLARIDAN FOYDALANIB TALABALARNING MALAKA AMALIYOTI JARAYONLARINI PEDAGOGIK LOYIHALASHTIRISH

M.A.Avezov – *assistent o'qituvchi*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** dasturlash tillari, AKT, zamonaviy ta'lim tizimi, dasturiy ta'minot, ochiq ta'lim resurslari, ta'lim turlari.

**Ключевые слова:** языки программирования, ИКТ, современная система образования, программное обеспечение, открытые образовательные ресурсы, виды образования.

**Key words:** programming languages, ICT, modern education system, software, open educational resources, education types.

**Kirish.** O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risidagi (2023 yil 11-sentyabrda PF-158-son) Farmonining maqsad va talablaridan kelib chiqqan holda hozirgi kunda umumiy o'rta ta'lim tizimida "Ta'lim uchun qulay muhit" dasturini amalga oshirish, umumiy o'rta ta'lim tizimini yangi bosqichga olib chiqish, pedagog kadrlar maqomini oshirish, ularning bilimi va malakasini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, professional ta'lim tizimini rivojlantirish orqali o'quvchilarni zamonaviy bilim va ko'nikmalarga o'rgatish hamda oliy ta'lim bilan qamrovni kengaytirish, oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirish vazifalari berilgan.

Shuningdek, ta'lim tizimi, fan va ishlab chiqarish o'rtasida puxta o'zaro hamkorlik va foydali aloqalarni rivojlantirish orqali kadrlar tayyorlashning mavjud tizimidagi jiddiy kamchiliklarni yo'qotishga alohida e'tibor berilmoqda [1].

Bugungi kunda yaratilgan infrastruktura axborot resurslari, ma'lumot uzatishning global tarmoqlari, kompyuter va telekommunikatsiya vositalari yig'indisidan iborat. U o'qituvchi va ta'lim oluvchilarga, olim va tadqiqotchilarga axborotning amalda barcha manbalariga kirish, axborot, jumladan, ta'lim resurslarining yangi elektron ko'rinishlaridan o'quv jarayonida chunonchi masofaviy ta'lim turlarida ham keng foydalanish imkonini beradi. Sanab o'tilgan dasturlar, amalga oshirilgan tadbirlar doirasida ta'lim makonining AKTdan foydalanish imkoniyatlari sezilarli ravishda kengaydi. Ayni paytda AKT takomillashtirish dinamikasi ularni ta'limda, asosiysi – fanda samarali qo'llashni ta'minlay oladigan infrastrukturani doimiy yangilash va rivojlantirib borishni talab etadi. Ta'lim tizimida foydalaniladigan va talab qilinadigan elektron ta'lim resurslari yetishmasligi hamon sezilib turadi [2]. Bularsiz ta'limda AKT dan foydalanish yetarlicha samara bermaydi. Ta'lim va fan sohasida AKT ni rivojlantirish va joriy etishning asosiy yo'nalishlari bir qator chora-tadbirlar kompleksini o'z ichiga oladi. Ularni amalga oshirish ham ta'lim-fan texnologiyalarini, ham ta'lim jarayonining barcha bosqichlari qatnashchilarini metodik qo'llab-quvvatlash mazmuni, ham pirovardida boshqaruv tizimi hamda mexanizmlarini, huquqiy-me'yoriy bazani takomillashtirishni ko'zda tutadi. Bu ta'limning butun paradigmasi o'zgarishiga olib kelmog'i kerak.

Zamonaviy ta'lim tizimida dasturlash tillari va kompyuter texnologiyalarining roli tobora ortib bormoqda. Talabalarning malaka amaliyotini samarali tashkil etish uchun dasturlash tillari resurslaridan foydalanish muhim

ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada talabalarning malaka amaliyoti jarayonlarini pedagogik loyihalashtirishda dasturlash tillaridan foydalanish imkoniyatlari va usullari ko'rib chiqiladi [3].

Dasturlash tillarini oliy ta'lim tizimida sifatli o'qitish orqali bugungi kundagi eng dolzarb muamollardan biri hisoblangan malakali dasturchilar tayyorlash masalasining muvaffaqiyatli yechimiga erishishimiz mumkin. Demak urg'u o'qitishning qanchalik zamonaviy va qiziqtiruvchanlik xususiyatlarini o'zida jamlagan samarali usullarga berilishi lozim.

Talabalarning malaka amaliyoti jarayonlarini pedagogik loyihalash uchun dasturlash tillari resurslaridan foydalanishning bir qancha tizimlari mavjud.

**1. Integratsiyalashgan rivojlanish muhitlari (IDE).** IDElar dasturiy ta'minotni ishlab chiqish uchun qulay muhitni ta'minlaydi, jumladan disk raskadrovka, kodni to'ldirish va versiyani boshqarish. Turli xil dasturlash tillari uchun mashhur IDElardan ba'zilar C# uchun Visual Studio, Java uchun Eclipse va Python uchun PyCharmni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar IDE dan topshiriqlar yaratish va talabalar ishini tekshirish uchun foydalanishlari mumkin.

**2. Dasturlashni o'rgatish uchun onlayn platformalar.** Interfaol darslar va amaliy mashg'ulotlar orqali dasturlash bo'yicha ta'limni taklif qiluvchi ko'plab onlayn platformalar mavjud. Ulardan ba'zilar Codecademy, Coursera va HackerRankni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar ushbu platformalardan kurslar yaratish va talabalar taraqqiyotini kuzatish uchun foydalanishlari mumkin.

**3. Virtual mashinalar va konteynerlar.** Virtual mashinalar va konteynerlar dasturiy ta'minotni ishga tushirish uchun alohida muhitlarni yaratishga imkon beradi. Bu o'qituvchilar uchun talabalarga ma'lum dasturlash tillari va vositalariga mahalliy kompyuterlarga o'rnatmasdan kirish imkonini berish uchun foydali bo'lishi mumkin. Ba'zi mashhur virtual mashinalar va konteynerlar orasida VirtualBox va Docker mavjud.

**4. Onlayn manbalar va hujjatlar.** O'qituvchilar talabalar uchun materiallar va topshiriqlarni yaratishda foydalanishlari mumkin bo'lgan turli dasturlash tillari uchun ko'plab onlayn manbalar va hujjatlar mavjud. Ulardan ba'zilar rasmiy dasturlash tili hujjatlari, ishlab chiquvchilar forumlari va GitHubdagi jamoalarni o'z ichiga oladi.

Ushbu tizimlarning barchasi o'qituvchilar tomonidan dasturlash sohasida talabalarning malakaviy amaliyoti jarayonlarini samarali loyihalash uchun ishlatilishi mumkin.

Ular talabalarining bilim olishi va baholashi uchun qulay va samarali muhitni yaratishga yordam beradi, shuningdek, zarur resurslar va vositalardan foydalanishni ta'minlaydi. Ochiq ta'lim resurslarining turlariga to'liq kurslar, kurs materiallari, modullar, o'quv obyektlari, ochiq darsliklar, ochiq litsenziyaga ega (ko'pincha oqimli) videolar, testlar, dasturiy ta'minot va bilimlarga kirishni qo'llab-quvvatlash uchun foydalaniladigan boshqa jihozlar, materiallar yoki texnikalar kiradi. OTR erkin va ochiq mavjud bo'lgan statik manbalar, bilim izlovchilar bilan o'zaro aloqada bo'lgan va yangilanadigan dinamik resurslar yoki ushbu resurslar bilan birgalikdagi o'quv dasturi yoki modul bo'lishi mumkin [5].

Endi ochiq ta'lim resurslari siyosatini tartibga solishda foydalanish haqida gapirip o'tsak.

Ochiq ta'lim resurslari siyosati – bu ta'lim muassasalarida ochiq materiallar va amaliyotlardan foydalanishni qo'llab-quvvatlash uchun boshqaruv organlari tomonidan qabul qilingan tamoyillar. Ushbu siyosatlarining aksariyati davlat tomonidan moliyalashtiriladigan resurslarning ochiq litsenziyalanishini talab qiladi. Bunday siyosatlar mamlakat, viloyat va ko'proq mahalliy darajalarda tobora kuchayib bormoqda [6].

OTR ta'lim kontekstlarida turli usullarda qo'llanilgan va tadqiqotchilar va amaliyotchilar bunday amaliyotlar uchun turli nomlarni taklif qilishgan. Wiley & Hilton (2018) ga ko'ra, ikkita mashhur atama “ochiq pedagogika” va “ochiq ta'lim amaliyoti”dir. Bu ikki atama bir-biri bilan chambarchas bog'liq, ko'pincha farq qilmaydi. Masalan, Weller (2013) ochiq pedagogikaga shunday ta'rif beradi: “Ochiq pedagogika bu mo'l-ko'l, ochiq kontentdan (masalan, ochiq ta'lim resurslari, videolar, podkastlar), shuningdek, tarmoqlar va uning ichidagi talabalar aloqalaridan foydalanadi”. Ochiq ta'lim amaliyotlari, masalan, “ta'limni loyihalash va ta'limni qo'llab-quvvatlashga mo'ljallangan voqea va jarayonlarni amalga oshirish bilan bog'liq tadbirlar majmuyi” deb ta'riflangan. Bularga Ochiq ta'lim resurslari (OTR) va ularni yaratish, ishlatish, shuningdek, qayta foydalanish kiradi. Moslashuv - “OTR-ni qo'llab-quvvatlovchi pedagogika” “ta'lim” deb nomlangan va “to'plam” deb ta'riflangan. OTRni tavsiflovchi 5R ruxsatnomalari kontekstida mumkin bo'lgan yoki amaliy bo'lgan o'rganish amaliyotlari, ochiq litsenziyalardan foydalanish orqali yoqilgan 5R ruxsatlarini ta'kidlaydi.

Stiven Daunsning ta'kidlashicha, kombinasion nuqtayi nazardan, OTR ishlab chiqarish istehzoli, chunki yakuniy tahlilda biz odamlar uchun bilim ishlab chiqara olmaymiz.

Bu resurslarga misollar ko'rib chiqamiz:

- Bookboon (reklama dasturi). Bookboon - bu raqamli ta'lim platformasi bo'lib, asosan elektron darsliklar va o'quv qo'llanmalar bilan shug'ullanadi.

- Masofaviy ta'lim. Masofaviy ta'lim - bu o'qituvchi va talaba bir-biridan geografik jihatdan uzoqda bo'lgan holda, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida ta'lim jarayonini tashkil etish shaklidir.

- Ta'lim tadqiqotlari. Ta'lim tadqiqotlari - bu ta'lim jarayonining turli aspektlarini o'rganish, tahlil qilish va takomillashtirish maqsadida olib boriladigan ilmiy-tadqiqot faoliyatidir.

- Ta'lim texnologiyasi. Ta'lim texnologiyasi - bu ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'qitish sifatini oshirish va

belgilangan maqsadlarga erishish uchun qo'llaniladigan usullar, vositalar va yondashuvlar tizimidir.

- FlexBook (CC BY-NC). CK-12 tashkiloti tomonidan yaratilgan bepul raqamli ta'lim platformasi. Creative Commons Attribution-NonCommercial (CC BY-NC) litsenziyasi asosida ishlaydi. Moslashuvchan elektron darsliklar yaratish imkoniyatini beradi.

- Bepul ta'lim. Bepul ta'lim resurslari zamonaviy dunyoda bilim olishning muhim vositasi hisoblanadi. Ulardan samarali foydalanish orqali yuqori malakaga ega bo'lish va professional rivojlanish mumkin.

- Bepul o'rta maktab fan matnlari. Bu resurslar o'quvchilar va o'qituvchilar uchun qo'shimcha o'quv materiallari sifatida xizmat qiladi.

- Bepul va ochiq kodli dasturiy ta'minot. Bu turdagi dasturiy ta'minotdan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining muhim elementi hisoblanadi va kelajakda uning ahamiyati yanada ortib boradi.

- Internet arxivi (Internet Archive) - bu bepul va ochiq raqamli kutubxona bo'lib, millionlab kitoblari, filmlar, audio fayllar, veb-sahifalar va dasturiy ta'minotlarni saqlovchi notijorat tashkilotdir.

- Xon akademiyasi(Khan Academy) - bu butun dunyo bo'ylab bepul ta'lim beruvchi notijorat tashkilot. Uni 2008-yilda Salman Xon (Sal Khan) tashkil etgan. Akademiya turli fanlar bo'yicha video darslar, mashqlar va testlarni taqdim etadi.

- MOOC (Massive Open Online Courses) - Ommaviy Ochiq Onlayn Kurslar. MOOC - bu internet orqali ochiq va bepul yoki arzon narxda taqdim etiladigan onlayn kurslar bo'lib, dunyoning istalgan joyidan har kim ularga qatnasha oladi. Ushbu kurslar universitetlar, notijorat tashkilotlar va xususiy kompaniyalar tomonidan taqdim etiladi.

Bunnan tashqari bepul bilim, merlot, OER4 maktabi, ochiq kirish, ochiq tarkib,

Ochiq darslar kutubxonasi, ochiq kurs Ware, OpenLearn, ochiq kutubxona, ochiq manba kurslari, openstax, PhET interaktiv simulyatsiyasi, Gutenberg loyihasi, So'rovlar va testlarning birgalikda ishlashi spetsifikatsiyasi, Stiven Dauns, Onlayn o'quv ma'lumotlari bazasi bordir [7].

Shu bilan birga akademik axborot tizimlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishda tadqiqot ishimizda amaliyot rahbarlari va professor-o'qituvchilar bilar birga talabalarining ham o'rganish va tajriba-sinov ishlarida bosqichma-bosqich o'zlashtirishlari davomida ularning kognitiv, psixologik va hissiy o'zgarishlari hamda o'zlashtirishlari ham kuzatib boriladi. Bu boradagi asosiy tashabbuslar quyidagilardir:

- ta'lim jarayonining barcha qatnashchilariga sifatli ta'lim olish uchun teng imkoniyatlarni ta'minlash uchun elektron ta'lim resurslari afzalliklaridan foydalanishga asoslangan AKTni joriy qilish va rivojlantirish.

- AKTni joriy qilish va ulardan keng foydalanish asosida ta'lim oluvchilarning individual ta'lim olish imkoniyatlarini ta'minlash; bilimlarni yaxshiroq o'zlashtirish va shaxs salohiyatini namoyon qilish maqsadida o'quv materialini ta'lim oluvchining qobiliyatlariga bog'liq ravishda tabaqalashtirish;

- ilmiy-pedagogik salohiyatni saqlash, rivojlantirish va samarali foydalanish uchun axborot texnologiyalarini keng joriy qilish;

- AKT asosida ta'lim sifatini ta'minlashning yangi darajasiga bosqichli o'tish uchun sharoit yaratish; nafaqat milliy ta'lim tizimida, jumladan, masofadan turib, balki dunyo ta'lim tizimida bilim olish imkoniyatlarini yaratish;

- ta'lim texnologiyalari va elektron ta'lim resurslaridan ommaviy foydalanish uchun o'qituvchilarni qayta tayyorlash tizimini ta'minlash;

- o'qituvchilarning elektron ta'lim resurslarini yaratish va qo'llashini, ta'lim sifatini oshirishini rag'batlantirish va qo'shimcha motivatsiyalash mexanizmini shakllantirish.

Ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'quv dasturlarini takomillashtirish va ta'lim sifatini ta'minlash jarayonida e'tiborga olinadigan muhim element - bu professor - o'qituvchilarning, ma'muriyatning alohida bo'limlari ishining sifatini baholaydigan bitiruvchilarning kasbiy taqdiri monitoringi va ta'lim sifatining alohida yo'nalishlari, shu jumladan o'quv dasturi. Malaka oshirish o'qishni tugatgandan keyin 1 yil va 5 yil o'tgach amalga oshiriladi. Ushbu ma'ruzalar komissiyaning yo'nalishli tahlilining predmeti bo'lib, ulardan olingan xulosalar ta'lim va ishlab chiqarish korxonalari o'rtasidagi hamkorlik orqali raqamli texnologiyalar muhitida ta'lim sifatini oshirishga olib keladi - ular dastur va o'quv natijalariga ta'sir qiladi [4].

- Bundan tashqari, ma'lum bir o'quv yilida o'qishdan qoniqish o'rganiladi. Tadqiqotning maqsadi talabalarining va ta'lim yo'nalishida o'qishdan qoniqish darajasini nazorat qilish, o'qish taklifini yaxshilash va talabalar va universitet o'rtasidagi ijobiy munosabatlarni mustahkamlashdan iborat. Bitiruvchilar - bu ma'lum bir o'quv yilidagi oxirgi o'qish yilidagi talabalarining umumiy soni. Tadqiqotning tematik ko'lamida ta'lim yo'nalishi bo'yicha o'qishdan qoniqishni baholashni, shuningdek, haq to'lanadigan ish va keyingi ta'lim rejalari haqidagi savollarni o'z ichiga oladi.

Talabalarining malaka amaliyot jarayonlarini pedagogik loyihalashda dasturlash tillari resurslaridan foydalanish zamonaviy ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv ta'lim jarayonini innovatsion texnologiyalar bilan boyitib, talabalar uchun yanada samarali o'quv va amaliyot muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Dasturlash tillari va raqamli resurslardan foydalanish quyidagi afzalliklarni ta'minlaydi:

Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish - talabalar real loyihalar ustida ishlash orqali nazariy bilimlarini mustahkamlaydi va bozor talablari darajasida dasturlash ko'nikmalariga ega bo'ladi.

Moslashuvchan va interaktiv o'qitish - virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar va avtomatlashtirilgan baholash tizimlari yordamida ta'lim jarayoni interaktiv va qiziqarli kechadi.

Ish beruvchilar talabalariga mos tayyorgarlik - talabalar amaliy loyihalar orqali sanoatda qo'llaniladigan dasturiy vositalar bilan tanishib, ish bozorida raqobatbardosh bo'lishadi.

O'z-o'zini o'qitish va mustaqil izlanish imkoniyati - onlayn kurslar, ochiq manba kodlari va dasturiy platformalar yordamida talabalar o'z malakalarini mustaqil ravishda rivojlantirishlari mumkin.

Xulosa qilib aytganda, dasturlash tillari resurslaridan foydalanish orqali talabalarining malaka amaliyot jarayonlarini pedagogik loyihalash ta'lim jarayonini ilg'or texnologiyalar bilan uyg'unlashtiradi, ta'lim sifatini oshiradi va kelajakdagi kasbiy faoliyatiga mustahkam poydevor yaratadi. Bu esa ta'lim va ishlab chiqarish o'rtasidagi uzviylikni ta'minlab, zamonaviy talabalar uchun innovatsion o'quv muhitini shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi «O'zbekiston – 2030» strategiyasi to'g'risida»gi PF-158-son Farmoni.
2. Isakov A.Yu. Professional ta'limda o'quv va ishlab chiqarish amaliyotlarini tashkil etishdagi muammolar va ularni hal qilish yo'llari. // NamDU ilmiy axborotnomasi ilmiy-uslubiy jurnal. –Namangan: 2021. №6, 628-633-b.
3. Нестерова Л.В. Педагогическая информатика. 2011. № 4. - С. 79-86.
4. Xodjaboev A.R., Xusanov I.A. Kasbiy ta'lim metodologiyasi. – Toshkent: «Fan texnologiya», 2007.
5. Qunnazarov A. Zamanagóy dástúrlew tilleri járdeminde mobil qosímshalar jaratıw metodikası. –Nukus: // «Fan va jamiyat», 2024. № 6/2, 84-86-b.
6. Asanova U.S. The use of modern teaching technologies in the educational process. // Web of Technology: Multidimensional Research Journal 2.6 2024. –P. 41-46.
7. Otepbergenov J.S. Issues of Developing Intellectual and Cognitive Potential of Students in the Credit-module System. // European Journal of Humanities and Educational Advancements Journal. 2021-10-30. –P. 215-219.
8. Ilyasova Z. K. The Use of the Project Method to Develop Students' Information Competence. // International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. 02-02-2022. P 65–69.

**REZYUME.** Maqolada dasturlash tillari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari yordamida talabalarining malaka amaliyot jarayonlarini pedagogik loyihalash masalalari yoritilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются вопросы педагогического проектирования процессов квалификационной практики студентов с использованием языков программирования и информационно-коммуникационных технологий.

**SUMMARY.** The article discusses the issues of pedagogical design of students' qualification practice processes with the help of programming languages and information-communication technologies.

## PEDAGOGIKALÍQ DIAGNOSTIKA MASHQALALARÍNÍN AYÍRÍM ASPEKTLERİ

**I.B.Allaniyazov** – *pedagogika ilimleriniń kandidati*

*Ájinyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı*

**Tayanch so'zlar:** pedagogik diagnostika, bahalash tizimi, test nazorati.

**Ключевые слова:** педагогическая диагностика, оценочная система, тестовый контроль.

**Key words:** pedagogical diagnostics, evaluation system, test control.

**Kirisiw.** Mámleketimizde bilimlendiriw tarawınıń rawajlanıwına úlken itibar qaratılıp atırǵan búgingi kúnde oqıtıw nátiyjelerin obyektiv bahalawǵa erisiwde pedagogikalıq diagnostikanıń tutqan ornı girewli. Sistemanı jetilistiriwdiń eń zárúr wazıypalarınan biri tálim sapasın, onıń fundamental maqset mazmunın saqlap qalıw. Tálimniń shaxs, jámiyet hám mámlekettiń búgingi hám keleshek máplerine muwapıq keliwin támiyinlew. Demek, joqarı bilimlendiriw mákemelerinde tálim sapasın basqarıw, qadaǵalaw hám bahalawda pedagogikalıq diagnostika jumıların jetilistiriw - aktual mashqalardıń biri.

**Ádebiyatlar analizi.** Nemis pedagogı K.Ingenkamp pedagogikalıq diagnostikanı, tar hám keń mániste kórip shıǵıw múmkin, tar mániste, «diagnostika - oqıw hám biliw (oqıw) procesin rejelestiriw hám baqlawdı quraytuǵın - pán. Bul jerde pedagogikalıq diagnostika talabalardıń bilimlerdi ózlestiriw hám oqıtıw sharayatları arasındǵı baylanıstı ornatiw, anıq oqıtıw sharayatında oqıw maqsetlerin tańlawdıń tuwrılıǵın bahalaw quralı. Keń mániste diagnostika bilimlendiriwde tálim-tárbiya mashqalaları boyınsha máslahát beriw deregi bola otırıp, diagnostikalıq jumıslardıń barlıq wazıypaların óz ishine aladı. Pedagogikalıq diagnostika tálim procesi subyekteriniń rawajlanıw procesin baqlaw hám optimallastırıw quralı wazıypasın atqaradı» [1] – dep táriyip bergen.

Usı kózqarastan, pedagogikalıq diagnostika aldına tómendegi mashqalalı wazıypalar qoyıladı:

-tálim alıwshılardıń keyingi oqıw yamasa kásiplik iskerlikke tayarlıǵın anıqlaw;

-tálim procesinde olardıń ózbetinshe isley alıw iskerligi haqqında maǵlıwmat alıw;

-oqıtıw usılları hám texnologiyaların shólkemlestiriw natiyjeliligin anıqlaw;

- metodikalıq támiynattı proektlestiriwde oǵada zárúr bolǵan bilim, qábilet, kónlikpelerdi ózlestiriwdiń tuwrılıǵı, kólemi, tereńligin anıqlaw t.b.

Pedagogikalıq diagnostikanı izertlewshi alım V.M.Polonskiydiń pikirinshe «oqıw procesin tabısı alıp barıw ushın kásiplik joqarı bilimlendiriwdiń barlıq basqırshlarında talabalardıń bilimlerin baqlaw hám ólshew zárúr. Pedagogikalıq diagnostikalıq maǵlıwmatlar talabalardıń oqıw programmaların ózlestiriwi tiykarında oqıwshılardıń oqıwdaǵı qıyınshılıqları kólemin hám qábiletlerin anıqlaw» [2]. Pedagogikalıq diagnostika oqıw procesindegi kemshiliklerdi, talabalar bilimindegi boshlıqlardı anıqlaw, oqıw jobaları, dástúrleri, oqıwlıq, oqıw hám metodikalıq qollanbalardı tayarlaw, oqıw jumısların shólkemlestiriw hám basqarıwdı proektlew barısında atı atalǵan kemshiliklerdi saplastırıw jolların belgilewge tikkeley járdem beredi.

**Talqılaw hám nátiyjeler.** Házirgi waqıtta joqarı oqıw orınlarında qollanılauǵın tiykarǵı pedagogikalıq diagnostika quralları hám ilajları – kúndelik, aralıq, juwmaqlawshı qadaǵalaw, awızsha hám jazba imtixanlar, sınaqlar, kolokviumlar, qadaǵalaw hám kurs jumısları, individual úy tapsırmaları, referatlar h.t.b.

Búgingi kúni joqarı oqıw orınlarında didaktikalıq qadaǵalaw hám bahalawdıń "dástúriy" kórsetkishleri sisteması oǵada keń qollanıladı, oǵan minanday kórsetkishler: pedagogikalıq baha, ortasha ball, ulıwma úlgeriw hám oqıwdaǵı tómeyen yaki joqarı jetiskenlikleri kiredi. Bahalaw talabanıń reyting kitapshasınıń, maǵlıwmat orınları - maǵlıwmat banklerinde shártli (baha, payız-% t.b.) belgiler menen belgilenip barıladı.

Ádette, baha degende oqıwshınıń oqıw iskerliginiń nátiyjelerin túsinemiz. Pedagogikalıq texnologiyalar tiykarın salıwshılardıń biri V.P.Bespalko didaktikalıq diagnostikanıń áhmiyetli wazıypalarınan biri bahalaw haqqında, «bahalaw degende oqıwshınıń oqıw nátiyjesi túsiniledi. Baha - qabıl etilgen bahalaw shártleri (gradaciya) sisteması tiykarında oqıwshınıń bilimi hám tárbiyası nátiyjeleri (tabısıları) haqqındaǵı juwmaq» [3] – degen pikir bildirgen.

Pedagogikalıq qadaǵalaw nátiyjeleri oqıwshılardıń bilimlerde ózlestiriw dárejesin bahalaw ushın tiykar bolıp bunda, bilim alıwshılardıń sapa hám muǵdar (san) kórsetkishleri esapqa alınadı. San kórsetkishler ballarda yamasa procentlerde, sapa kórsetkishleri bolsa "jaqsı", "qanaatlandıradı" sıyaqlı bahalarda sáwlelendiriledi. Hár bir bahalaw juwmaǵına belgili bir ball qoyıladı. Tilekke qarsı, baha - bul ólshew hám esaplaw nátiyjesinde alınatuǵın san emes, bálkim bahalaw tártip-qaqıydalarına súyengen oqıtıwshınıń insaniy oy-pikir hám sezimlerine tiykarlanıp qoyılǵan, oqıwshı ushın ruwqıy baylıq baha ekenligin ayırım oqıtıwshılar, báhá túsine bermeydi. Sol sebepli bahalawda hesh qanday muǵdarlıq basım, (bahanı tiykersiz kóteriwi) yamasa kemsitiwge jol qoyılmay adamgershilik hám ádillik qatnas saqlanıwı shárt. «Dúnyanıń kóplegen mámleketlerinde bahalar hárıp belgilerine iye, misalı, A,B,C hám basqa belgiler menen belgilenedi. Bunday bahalar hár qıylı arifmetikalıq juwmaqlaw - kórsetkish, payız (%), esap-sanaq jumısların iske asırıwda qıyınshılıqlar tuwdıradı» [2]. Ámeldegi bahalaw sistemasiniń taǵı bir kemshiligi - bes ballı shkalada bahalawdı itibarsız qaldırıw múmkin emes. Sebebi, házirgi kúnde kópshilik tárepinen dáreje – dep atalıp júrgen «1», bahası júdá kem qollanıladı, bul bolsa bul shkalanı tórt ballı bahaǵa aylandıradı. Bunday bahalaw sisteması talabalardıń oqıw qábiletin qalıs bahalawǵa múmkinshilik bermeydi.

Pedagogikalıq diagnostikanıń dástúriy metodları bahalardıń subyektivligi hám qadaǵalaw nátiyjeleriniń qatań tártipte ózgerilmeytuǵınlıǵı (stereotip) sebepli báhá durıs hám ádilligi gúmanlı bahalar boyınsha qararlar, aytayıq, apellyaciyalıq sheshimler qabılawda qıyınshılıqlar tuwdıradı. Bahalawshı ekspert tárepinen oqıwshılardıń miynetin bunday bahalaw oqıwshınıń juwabınıń logikalıq mazmunınıń izbe-izligi, tereńligi hám kólemi esapqa alınbaǵan (algoritmlestirilmege), kóbirek intuitiv xarakterde bolıwı, bahalaw dizimine salmaqılı ózgerisler endiriwdi talap etedi.

V.S.Avanesov óziniń «Tes tapsırmaları kompoziciyası» oqıw kitabında [5] test túrlerindegi tapsırmalardı analizlep,

test tapsırmaların olardıń túrleri boyınsha klassifikaciyalap berdi. Tapsırmalar ulıwma keń málim bolǵan (jabıq hám ashıq túrdegi, juwaplardıń uyqaslıǵı hám izbe-izlikti tuwrı anıqlaw ushın tapsırmalar) testlerden basqa (keyingi tapsırmaǵa tuwrı juwap, aldınǵı tapsırmaǵa tuwrı juwap penen baylanıslı) izbe-izligine baylanıslı; bir tema menen baylanıslı tematikalıq tapsırmalar, tekstli (oqıw teksti boyınsha bilimlerin baqlaw ushın ashıq formadaǵı tapsırmalar kompleksi); situaciyalıq (ámeliy yamasa ekstremal jaǵdaylarda bilim, qábilet hám kónlikpelerdi tekseriw ushın) test tapsırmaları túrindegi teslerdi islep shıqtı.

Pedagogikalıq diagnostikada test sınaqlarınıń óz-ara baylanıslı tiykarǵı ush funkciyası belgilengen:

- *diagnostikalaw funksiyası* - oqıwshınıń bilim, uqıp,qábilet hám kónlikpeleri dárejesin anıqlawdan ibarat. Bul test sınaqlarınıń anıq hám eń tiykarǵı wazıypası bolıp, diagnostika jumıslarınıń obyektivligi, keńligi hám tezligi boyınsha pedagogikalıq qadaǵalawdıń basqa formalarınan ústin turadı.

- *bilim beriw funksiyası* - oqıwshınıń oqıw materialın ózlestiriw boyınsha jumısların jedellestiriw.

- *tárbiyalıq funksiyası* – anıq, belgili waqıtta ótkereriwi menen taladada jıynaqlı bolıwdı tártiplestiredi, bilimindegi kemshiliklerin anıqlaw hám saplastırıwǵa járdem beredi, óz qábiletlerin rawajlandırıwǵa umtılawshılıq qalıplestiredi [7].

Test tapsırmalarınń túrlerin tańlaw testtiń maqset, mazmunına, oqıtıwshılardıń texnikalıq múmkinshilikleri hám tayarlıq dárejesine, úyreniwdiń teoriyalıq, ámeliy yamasa metodikalıq bilimler tarawlarına, sonıń menen birge, talabanıń oqıw múmkinshiligi dárejesi (tańlanǵan pán modeline muwapıq) menen de baylanıslı.

Test sınaqları qadaǵalawlarınan paydalanǵan halda tálim alıwshılardıń jumısın bahalawdıń qalıslıǵı hám isenimliliğin asırıw múmkin. «Test sınaqları - bul insan jetiskenlikleri dárejesin maksimal dárejede qalıslı bahalaw hám bul múmkinshiliklerdi muǵdarlıq san túrinde ańlatıw imkaniyatın beretuǵın ilimiy arnawlı islep shıǵılǵan, optimal jetilistirilgen attestaciya tártip-qaqıyda» [4:195]. Test sınaqları dástúriy qadaǵalaw usılları menen salıstırǵanda bir qatar artıqmashılıqlarǵa iye:

1. Bilimlerdi baqlawdıń keskin joqarı obyektivligi, bahalawda hesh qanday subyektiv jantasıwlarǵa jol qoymaydı.

2. Test boyınsha oqıw procesinde alıńǵan kúndelik, aralıq hám juwmaqlawshı qadaǵalaw boyınsha bahalawdı gradaciya shkalalarınan patdalanıp differenciayllaw mımkin.

3. Test boyınsha bahalaw test túrleri hám maqsetine muwapıq hár túrli bolıwı múmkin.

4. Test sınaqlarınıń joqarı natiyjeliligi. Talabalardıń úlken toparlarınń bilimlerin bahalaw, natiyjelerin tez qayta islew múmkin.

5. Bahalawda alıńǵan natiyjelerdi júdá anıq bahalaw itimalı kúshli.

Semestr dawamında talabalardıń oqıw materialın ózlestiriw barısın tekseriw ushın, test tapsırmalarınan paydalanıw oǵada qolay. Test sınaqlarınıń abzallıqlarına onıń sistemalıǵı hám talabanıń bilimlerdi ózlestiriwin ballı reyting bahalaw múmkinshiligi de kiredi. Qadaǵalawdıń bul túri dástúriy oqıtıw procesinde oqıwshılardıń miynetin xoshametlew, pánniń oqıtıw mazmunı hám metodikasın

jetilistiriw ushın zárúr bolǵan oqıtıwshı hám talaba arasındǵı "keri baylanıstı" támiyinlewdiń tiykarǵı quralı [4:196].

Test qadaǵalawınan paydalanıwıń boslıqlarında joq emes:

- test sınaqları járdeminde talabanıń úyrenilgen pándi tereń túsinenin, onıń pánge degen qızıǵıwshılıǵın, pikirin, bilimlerin ámeliy paydalana alıw usılları hám múmkinshiliklerin biliw, bahalaw múmkin, degen menen, kópshilik jaǵdayda oǵada qıyın;

- tekseriwdiń fragmentallıq hám lokallıq xaraxterine baylanıslı talabanıń bilim, qábilet, kónlikpe t.b. sıyaqlı kompetenciya belgilerin bahalawǵa erisiw derlik múmkin emes.

- sapalı test sorawları, tapsırmaların islep shıǵıw - uzaq, mashaqatlı hám qımbat process;

- oqıtıwshınıń alǵan test sınaqları natiyjeleri, belgili bólimler boyınsha bilimlerdegi boslıqlar haqqında maǵlıwmatlardı óz ishine alǵanı menen, bul boslıqlardıń kelip shıǵıw sebepleri haqqında anıq pikir aytp, juwmaq shıǵarıw múmkinshiligin bermeydi;

- test talabanıń dóretiwsilik qábileti menen baylanıslı kreativ iskerligin, abstrakt hám metodologiyalıq bilimlerin tekseriw hám bahalaw imkaniyatın bermeydi;

- testte kóp temalardı qamtıp alıw múmkinshiligi keń, lekin test sınaqları menen qadaǵalaw hám bahalawdıń awızsha yamasa jazba imtixanlar menen salıstırmalı kemshiligi, materiyaldı tereń analiz qılıw imkaniyatınıń bolmawı;

- testtiń qalıslıǵı hám ádillığın támiyinlew, test tapsırmalarınń jasırınlıǵın támiyinlew mashqalasın kórip shıǵıwdı talap etedi [6].

Testti tákirar qollanıwda test tapsırmalarına ózgeritiwler kirgiziw maqsetke muwapıq. Tákirarda tosınarlı element mısalı, ápiwayı sorawǵa tuwrı juwap bere almaǵan oqıwshı, qıyınlaw sorawǵa tuwrı juwap beriwı múmkin. Óytkeni birinshi sorawdaǵı tosadıy qáte, ekinshi sorawdaǵı juwaptıń durılıǵın shamalap biliw múmkin. Bul test natiyjelerin buzıp kórsetedi hám natiyjeni analiz qılıwda itimal (shama menen) esapqa alıw zárúrligin asıradı.

Joqarıda keltirilgen bul kemshilikler, bilimlerdi ólshew hám qadaǵalawda bárha test sınaqlarınan paydalanıw zárúr – degen pikirdi biykarlaydı. Sebebi, bilim, uqıp, qábilet hám kónlikpelerdi ózlestiriwdiń barlıq zárúr sırların hám insaniy paziyetlerdi test quralları járdeminde alıw múmkin emes. Aytayıq, talaba óz juwapların mısallar menen dálillew qábileti, faktler keltiriwdi biliw, pikirleriniń logikalıq óz ara baylanıslı hám tiykarlı tastıyqlanǵanın kórsetiw t.b. uqıp, qábilet hám kónlikpelerdi test qadaǵalawları járdeminde diagnostikalaw múmkin emes.

Bul, testlerdi oqıwshılardıń bilimlerin tekseriw hám bahalawdıń basqa forma hám metodları menen uyǵınlastırıw yamasa almasırıw zárúrligin keltirip shıǵaradı [7].

Test sınaqlarınıń basqa qadaǵalaw túrlerinen úlken bir parqı – ol adamnıń kúshli yadlaw qábiletine tiykarlangan. Adamǵa oǵada kerekli adamgershilik, hújdan, minnet, ásirese, xalqın hám Watanın súyiw hám basqa da insanılıq sezim-túsiniklerdi qalıplestire almaydı.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyevtiń bassılıǵında mámleketimiz korrupciyaǵa qarsı qatań gúresip atır. Usınday bir aktual máselede atı atalǵan adamgershilik paziyetlerine iye bolmaǵan erteńgi lawazım iyeleri

arasınan qanday adamlar ósip shıǵıwına kim, qanday kepillik bere aladı? Soraw, juwaptı filosofıyanıń sebepti aqıbet baylanısları nátiyjelerinen tabıwdı talap etedi.

Pedagogikalıq diagnostika máselelerin izertlewlerden alınǵan diagnostikalıq nátiyjelerge muwapıq joqarı bilimlendiriw sistemasınıń effektiv dárejede tabıslı islewı, diagnostika tártip-qagıyda dástúrlerin, bul sistemaniń nátiyjeli iske asıwın izertlewshi professor-oqıtıwshılar quramınıń metodologiyalıq tayınılıǵı olardıń zamangóy ilimiy ásbap-úskenerler menen támiyinleniw dárejesi menen tikkeley baylanıslı. Diagnostikalıq iskerlikte, shaxsqa jeke jantasıw principlerin metodologiyalıq qural sıpatında

qollanıw, diagnostika mashqalasın ámeliy hám teoriyalıq baǵdarda tálim procesi qatnasıwshılarınıń birgelikte islesiwi, oqıtıwshılar hám talabalar iskerligi túrlerine tán ózgeshelikleriniń hár qıylı aspektlerin esapqa alǵan halda kórip shıǵıwǵa múmkinshilik beredi.

**Juwmaq.** Juwmaqlap aytqanda, bilimlendiriwde tálim nátiyjelerin qadaǵalaw hám bahalawda obyektiv pedagogikalıq diagnostikalıq maǵlıwmatlarǵa tiykarlanıp alınǵan, talabalardıń bilim dárejesi boyınsha joqarı nátiyjeleri jáhán civilizaciya rawjlanıwı procesinde mámeletimizdiń tabıslı rawjlanıwınıń kepili bolıp tabıladı.

#### Ádebiyatlar

1. Ингенкамп К. Педагогическая диагностика. / К.Ингенкамп – М.: «Педагогика», 1991.
2. Полонский В.М. Оценка знаний школьников. – М.: 1981.
3. Фонды комплексных квалификационных заданий по специальностям высшего образования: Методические рекомендации по разработке. Под ред. В. П. Беспалько и Н.А.Селезневой – М.: 1990.
4. Сидорина В.А., Зайцева Е.М. Особенности педагогической технологии управления развитием информационной компетентности студентов в техническом вузе. // Актуальные проблемы гуманитарных и естественных наук. 2012. № 7.
5. Аванесов В.С. Композиция тестовых заданий. Учебная книга. 3 изд., доп. –М.: Центр тестирования, 2002.
6. [https://www.labrate.ru/azgaldov/expert\\_methods\\_in\\_evaluating\\_the\\_quality1974lpdf](https://www.labrate.ru/azgaldov/expert_methods_in_evaluating_the_quality1974lpdf)
7. [https://cyberleninka.ru/article/n/preimuschestva\\_i\\_nedostatki\\_testirovaniya\\_v\\_sravnenii\\_s\\_drugimi\\_metodami\\_kontrolya\\_znaniy](https://cyberleninka.ru/article/n/preimuschestva_i_nedostatki_testirovaniya_v_sravnenii_s_drugimi_metodami_kontrolya_znaniy).

**REZYUME.** Maqolada talabalarning ta'lim natijalarini pedagogik tashxislash va baholashning ayrim muammolari ko'rib chiqilgan. Diagnostikaning asosiy vositalari va muolajalari kursatilgan. Pedagogik diagnostikaning an'anaviy usullari bilan taqqoslaganda bilimlarni baholashda test nazoratining afzalliklari va kamchiliklari aniqlangan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются некоторые проблемы педагогической диагностики и оценивания результатов обучения студентов. Рассмотрены основные средства и процедуры диагностики. Выявлены преимущества и недостатки тестового контроля знаний по сравнению с традиционными методами педагогической диагностики.

**SUMMARY.** The article considers some results of pedagogical diagnostics and evaluation of students' learning outcomes. The main means and procedures of diagnosis are considered. The advantages and disadvantages of test control of knowledge in comparison with traditional methods of pedagogical diagnostics are revealed.

### ШАХСНИНГ МАЪНАВИЙ-АХЛОҚИЙ КОМПЕТЕНЦИЯСИ ТУШУНЧАСИ ВА УНИНГ МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ

**О.Х.Базаров** – *фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори*

*Ижтимоий маънавий тадқиқотлар институти*

**Таянч сўзлар:** шахснинг маънавий-ахлоқий компетенцияси, жамият, педагогика, ахлоқий кадриятлар, методология, таълим, тарбия,

**Ключевые слова:** духовно-нравственная компетенция, психология, педагогика, нравственное воспитание, методология, образование, воспитание.

**Key words:** spiritual and moral competence, psychology, pedagogy, moral education, methodology, education, upbringing.

**Кириш.** Ўзбекистонда мустақилликка эришилган дастлабки кундан бошлаб фан, таълим ва тарбия мазмунига алоҳида эътибор қаратилиб, мамлакатимизда баркамол авлодни шакллантириш, ёшларни маънавий-ахлоқий ва жисмонан соғлом этиб тарбиялаш, уларни олиб борилаётган ислохотларнинг фаол иштирокчисига айлантиришга қаратилган чора-тадбирлар изчил амалга оширилмоқда.

Жамият тараққиёти ҳар бир инсоннинг юқори даражада маънавиятга эга бўлишини тақозо этади. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб қаралса, ижтимоий фалсафа жамиятдаги маънавият борасида олиб борилаётган сиёсатни ўрганиши ва уни янада такомиллаштиришнинг муҳим омили саналади. Зеро, мамлакатнинг равнақи, фуқароларнинг юксак маънавиятлиги, баркамоллиги бу борадаги муаммоларга жиддий ёндашишни талаб қилади.

Жамият ривожига, албатта, унда фаолият юритадиган кадрлар масаласи муҳим ўрин тутаети. Унинг ахлоқий онги ва маънавий дунёқараши жамиятдаги муносабатларини белгилаети. Бу эса кадрларнинг маънавий-ахлоқий компетенциясига боғлиқ. Кадрларнинг ўз соҳасига нисбатан ахлоқий ёндашуви ва масъулияти юқори бўлса, давлат бошқаруви, ватани олдидаги бурчига садоқати, ижтимоий муносабатларда инсонийлик, адолат, шаффоқлик ва ватанпарварлик мезонлари устувор бўлати. Шунингдек, маънавий баркамол шахслар жамиятда адолат ва қонун устуворлигини таъминлаш, ижтимоий ҳамжихатликни мустаҳкамлаш, ижтимоий масъулиятни қучайтириш, маънавий ва маданий меросни асраш, коррупцияга қарши курашиш, инновация ва технологик тараққиётни маънавий кадриятлар билан уйғунлаштиришда фаол иштирок этади.

Шунинг учун ҳам, замонавий мутахассисларда юқори маънавий-ахлоқий компетенцияларни шакллантириш нафақат шахсий муваффақият, балки жамият тараққиёти учун ҳам муҳим омил ҳисобланади.

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Ҳозирги кунда таълим ва тарбия жараёнларида маънавий-ахлоқий компетенция масаласи долзарб аҳамият касб этмоқда. Маънавий-ахлоқий компетенция нима? Унинг мазмунини нимадан иборат? Бу борада тадқиқотчи ва олимлар изланишлар олиб боришган ва бугунги кунда ҳам олиб борилмоқда. Қадимдан Аристотел, Платон каби файласуфлар, шарқда Фаробий, Беруний, Ибн Сино, Хоразмий кабилар шахс ахлоқий тақомили ҳақида асарлар ёзган бўлишса, Европа ва рус олимларидан Г.В.Хандрикова, А.Е.Щербаков, Л.С.Выготский, П.П.Блонский, О.С.Газманов ва В.Н.Мищенконинг педагогик воситаларнинг ахлоқий-манавий тарбияга таъсири ҳақида шахснинг маънавий-ахлоқий компетенциясининг шаклланиши, ривожланиши ва унинг методологик асослари ҳақидаги тадқиқотлар олиб боришган. Бу адабиётлар мақоладаги асосий назарий асослар ва таклиф этилган методологик усулларнинг асосини ташкил этади.

**Тадқиқот методологияси.** Мавзу бўйича адабиётлар назарий таҳлил қилинди, яъни илмий ишлар ўрганилди, кузатув, анализ, синтез методларидан фойдаланилди, эксперимент ўтказилди ҳамда мантикий-таҳлилий метод қўлланилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Маънавий-ахлоқий компетенция деганда, шахснинг ахлоқий қадриятларни онгли равишда англаб етиши, уларга амал қилиши ва ижтимоий муносабатларда эътироф этиш жараёни ҳисобланади.

Компетенция латин тилидан таржима қилинганда, “қобилият” – шахснинг маълум бир иш турини амалга ошириш, асосли қарор қабул қилиш учун етарли билимга эга бўлишини ифодалайди.

“Компетентлик” тушунчаси таълим соҳасига педагогик-психологик изланишлар натижасида кириб келган тушунча ҳисобланади. Шу сабабли компетентлик “ноанъанавий вазиятлар, қўйилмаган ҳолларда мутахассиснинг ўзини қандай тутиши, мулоқотга киришиши, рақиблик билан ўзаро муносабатларда янги йўл тутиши, ноаниқ вазифаларни бажаришда, зиддиятларга тўла маълумотлардан фойдаланишда, изчил ривожланиб боровчи ва мураккаб жараёнларда ҳаракатланиш режасига эгалик”ни англатади [3].

“Компетенция – мавжуд билим, кўникма ва малакаларни кундалик фаолиятда қўллай олиш қобилияти” [1].

Компетенция – у ёки бу соҳа бўйича билимдонлик [4]. “Компетенция” (лот. *competo* – эришяпман, муносибман, лойиқман) – 1) муайян давлат органи (маҳаллий ўзини ўзи бошқариш органи) ёки мансабдор шахснинг қонун, устав ёки бошқа ҳужжат билан белгиланган ваколатлари, ҳуқуқ ва бурчлари доираси; 2) у ёки бу соҳадаги билимлар, тажриба [5].

Компетенция сўзининг 16 хил маъноларини психологлар томонидан 7 хил баҳолаш шкаласидан фойдаланилган (интернет-уюшма психологлар эксперт). Экспертлар томонидан қайд этилган тушунчалар қуйидагилардан иборат:

- ишлаб чиқариш масалаларини еча олиш қобилияти;
- аниқ вазиятларда билим ва кўникмаларни қўллай олиш қобилияти;
- касбий стандарт тавсифига мослиги;
- ташкилот томонидан субъектнинг сифатли фаолиятини шакллантириш мақсадида ишчиға қўйилган талаб;
- ишчининг хулқ-атвор меъёрлари ташкилотға мослиги;
- билим, кўникма ва малакалар (БКМ), қобилият, мотив, шахс, коммуникатив сифатлар ва бошқа тушунчаларнинг умумий йиғиндиси;
- сифатли ишға тайёргарлиги ва кўникмаси;
- лавозим вазифаларига масъуллиги ва ваколати;
- БКМ+касбий муҳим сифатлар;
- компетенциянинг турли жиҳатлари;
- касбий муҳим сифатлар ташкилотчилик контексти билан биргаликда;
- касбий тажрибани чуқур англаниши;
- шахсий хусусият, индивидуаллик;
- муваффақиятли фаолиятда инсон омили;
- самарали ишлаб чиқариш фаолияти мезонлари;
- ижодкорлик;
- аниқ ташкилотларда ишлаб чиқариш вазифалари.

Натижада, компетенция бу – билимлар, кўникмалар, малакалар, сабаб омиллари, шахсий сифатлар, мақсадли вазиятларнинг умумий уйғунлиги бўлиб, қайсики аниқ ташкилот, аниқ гуруҳ, аниқ иш жойида, аниқ ишлаб чиқариш жамоаси ижрочиларининг самарали ечимларини таъминлаб беради [2].

Компетенция деганда, нафақат когнитив ва операцион-технологик компонентлар, балки мотивацияни ўз ичига олган интеграл хусусиятлар – ахлоқий хулқ-атвор ва ижтимоий одатлар ҳам тушунилади ва бу **маънавий-ахлоқий компетенция** дейилади

**Маънавий-ахлоқий компетенция** инсоннинг ўзи ва атроф-муҳитға нисбатан муносабатини белгилаш билан биргаликда жамиятдаги ижтимоий масъулиятини англаш, ахлоқий қарорлар қабул қилиш қобилиятини ривожлантириш, касбий ва шахсий ҳаётда адолат, ҳалоллик ҳамда инсонийлик тамойилларига амал қилишға хизмат қилади. Шу билан бирга, у инсоннинг турли маданият ва қадриятларға ҳурмат билан ёндашишини, муаммоларни эзгулик ва ўзаро ҳамжиҳатлик, консенсус асосида ҳал этишини ҳам таъминлайди.

#### **Маънавий-ахлоқий компетенция турлари.**

Шахснинг маънавий-ахлоқий компетенциясини мазмун ва кўлам жиҳатидан турли йўналишларда таснифлаш мумкин:

**1. Шахсий маънавий-ахлоқий компетенция** – кишиларнинг шахсий ҳаётида ахлоқий меъёрларға амал қилиши.

**1. Шахсий (индивидуал) маънавий-ахлоқий компетенциялар.** Бу маълум бир касб ёки фаолият соҳаси учун муҳим бўлган индивидуал психологик фазилятлар ва қобилиятлар йиғиндиси ҳисобланади. **Инсоннинг ўзини англаш, мустақил дунёқараш позициясига эга бўлиши, ўзини бошқара олиши, виждон ва масъулият ҳиссини тушуниши ва амалга ошириш.** Бундан ташқари ўз-ўзини

такомиллаштиришга интилиши, шахсий камолоти устида ишлаши, яъни доимий равишда замонга мос равишда билим ва кўникмаларини ошириш учун қиладиган ҳатти-ҳаракатлари тушунилади.

**2. Ижтимоий маънавий-ахлоқий компетенция** – жамиятда ахлоқий нормаларга риоя қилиш ва жамоатчилик фикрини инобатга олиш.

Биргаликдаги касбий фаолият, ҳамкорлик кўникмаларини эгаллаш, ўз меҳнати натижаларига ижтимоий жавобгарлик сифатида намоён бўлиб, хушмуомалик, бағрикенглик, эмпатия (бошқа одамларнинг ҳис-туйғуларини тушуниш ва ҳис қилиш қобилияти), ижтимоий сезгирлик, толерантлик, очиклик, ижодкорлик, жамоавий ишлаш, ўзаро ҳурмат ва ҳамкорлик каби фазилатлар асосида шаклланади.

**3. Касбий маънавий-ахлоқий компетенция** – шахснинг ўз соҳаси ва касбий фаолиятида касб этикаси тамойиллари ва ахлоқий қадриятларга амал қилиш малакаси, бу борадаги масъулияти ҳамда касбга доир ахлоқ ва одоб меъёрларини англаб етган ҳолда, уларга амал қилиш қобилиятидир.

**4. Диний ва эътиқодий маънавий-ахлоқий компетенция** – шахснинг диний қарашлари ва эътиқоди асосида одоб-ахлоқ меъёрлари, ахлоқий қадриятлар ва ўзаро ижтимоий муносабатларда маънавий масъулиятни намоён эта олиш қобилиятидир.

Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, шахснинг маънавий-ахлоқий компетенцияси унинг жамиятда муносиб мавқега эга бўлиши ва ахлоқий меъёрларга амал қилиш қобилиятини белгилайди. Шунинг учун

таълим-тарбия жараёнида шахснинг маънавий-ахлоқий ривожланишига алоҳида эътибор қаратиш лозим.

Маънавий-ахлоқий компетенция жамият тараққиёти ва шахс камолоти учун муҳим бўлган таянч тушунчалардан бири ҳисобланади. У шахснинг маънавий қадриятлар, ахлоқий меъёрлар ва ижтимоий муносабатлар тизимини чуқур англаш, уларни ҳаётий ва касбий фаолиятда амалда қўллаш қобилиятини ифодалайди.

**Хулоса ва тавсиялар.** Маънавий-ахлоқий компетенция мутахассис кадрларда онгли қарорлар қабул қилиш, ижтимоий муносабатларда инсонийлик тамойилларини амалга ошириш ҳамда ўз касбий фаолиятида ахлоқий принципларга содиқ қолиш қобилияти билан белгиланар экан, уни талабалар онгида шакллантириш ва ривожлантириш долзарб масала сифатида ўрин олиши шарт.

Маънавий-ахлоқий компетенцияни ривожлантириш, жамиятда ижтимоий-маънавий адолат ва барқарорликни таъминлашга хизмат қилади. Унинг шаклланиши тарбия ва таълим жараёнлари ҳамда ижтимоий-маънавий муҳит билан боғлиқ бўлиб, ҳар бир инсоннинг ахлоқий дунёқараши ва сиёсий-маърифий қарашларига бевосита таъсир кўрсатади.

Демак, маънавий-ахлоқий компетенция шахснинг яқка тартибдаги ахлоқий меъёрларга риоя қилиши билан бирга жамиятда маънавий қадриятларнинг узлуксиз равишда сақланиши ва тараққий этиши учун зарур бўлган муҳим компетенциялардан бири сифатида қаралиши мақсадга мувофиқ экан.

#### Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 6-апрельдаги «Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимининг давлат таълим стандартларини тасдиқлаш тўғрисида»ги 187-сон Қарори.
2. Базаров Т.Ю., Ерофеев А.К., Шмелов А.Г. Коллективное определение понятия «компетенции»: попытка извлечения смысловых тенденций из размытого экспертного знания. // Вестник Московского университета. – Москва: 2014. № 1. Серия 14. Психология. –С. 87–99.
3. Рахмонова Г. Талабаларда маънавий-ахлоқий компетенцияларни шакллантириш технологиялари. // SCIENTIFIC PROGRESS VOLUME 2 | ISSUE 7 | 2021 ISSN: 2181-1601
4. Педагогикадан атамалар луғати. – Тошкент: «Фан», 2008. 196-б.
5. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 4-жилд. Зебуннисо-Кониғил. –Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2002. 704-б.

**РЕЗЮМЕ.** Ушбу мақолада шахснинг маънавий-ахлоқий компетенцияси ва унинг методологик асослари таҳлил қилиниб, уни шакллантиришда қўлланиладиган методологик асослар, таълим ва тарбия процессларидаги аҳамияти, педагогик воситалар ва усуллар ҳам кўриб чиқилади. Шу билан бир қаторда ахлоқий ва маънавий компетенцияларнинг жамиятда инсонларнинг ижтимоий ва шахсий ривожланишидаги ўрнига эътибор қаратилган.

**РЕЗЮМЕ.** В этой статье рассматриваются компетенции педагогического сообщества и его методологические основы, связанные с изучением, изучением и применением методологических основ в процессах обучения и воспитания, педагогических воспитаниях и методах обучения. Таким образом, в обществе сформировалось многообразие нравственных и нравственных компетенций, направленных на социальное и личностное развитие личности.

**SUMMARY.** This article examines the competencies of the pedagogical community and its methodological foundations related to the study, investigation and application of methodological foundations in the processes of teaching and upbringing, pedagogical education and teaching methods. Thus, the society has developed a variety of moral and ethical competencies aimed at the social and personal development of the individual.

# MAKTAB DIREKTORLARINING TAYM-MENEJMENT DIAGNOSTIKASI: HOZIRGI HOLATNI TAHLIL QILISH VA TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI

**B.S.Bekniyazov** - *pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so‘zlar:** maktab rahbari, rahbarning ish vaqti, boshqaruv algoritmi, boshqaruv faoliyati, taym-menejment diagnostikasi, rejalashtirish.

**Ключевые слова:** директор школы, рабочее время директора, алгоритм управления, управленческая деятельность, диагностика тайм-менеджмента, планирование.

**Key words:** school director, director’s working hours, management algorithm, management activities, time management diagnostics, planning.

Ta’lim muassasalari pedagog xodimlari uchun taym-menejment texnologiyasining zaruriyati hozirgi vaqtda quyidagi omillar bilan bog‘liq: tashqi muhitdagi o‘zgarishlarning tez sur‘ati; jahon iqtisodiyoti va bozor konyunkturasining beqarorligi; o‘zgarish va innovatsiyalarga doimiy ehtiyoj; ta’lim tashkilotning faoliyati bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan sifatli ta’limni oshirish.

Bularning barchasi ta’lim tashkilot xodimlariga nisbatan aniq talablarni quymoqda, ya’ni ta’lim tashkiloti rahbarlari va xodimlarga katta vakolatlar berishni, mustaqil hal qilishi kerak bo‘lgan vazifalar sonini doimiy ravishda ko‘paytirishni, erkin qarorlar qabul qilish va o‘z faoliyatini rejalashtirish imkoniyatini ta’minlashni talab qilmoqda. Shu bilan birga, ta’lim tashkiloti xodimlarning faoliyatini shunday tashkil etish muhimki, ular o‘z maqsadi va oldida turgan vazifalarni aniq tushunib olishlari, ustuvorliklarini to‘g‘ri belgilashlari va o‘z vaqtlarini moslashuvchan rejalashtirishni amalga oshirishlari mumkin. Taym-menedjment ham ta’lim rahbari bilan birga pedagog xodimlar uchun ham zarurdir, chunki u ilg‘or texnologiyalardan foydalanish, ta’lim tashkilotining umumiy maqsadlariga erishish uchun shaxsiy samaradorlikni oshirish imkonini beradi.

Ayniqsa, bugungi kunda davlat va xususiy ta’lim tashkilotlari orasida sifatli ta’lim berish bo‘yicha raqobatning kuchayishi ta’lim tashkiloti rahbari va pedagog xodimlariga o‘zlarining shaxsiy va ish vaqtlarini samarali tashkil qilish ko‘nikmalarini doimiy oshirib borishni taqozo qilmoqda. Ammo siz qanday qilib o‘z kasbiy faoliyatiningda yuqori ko‘rsatkichlarga erishmoqchi ekanligingizni tushunish uchun siz avvalo taym-menejment bo‘yicha ko‘nikmalingiz qay darajada ekanligini bilishingiz zarur. Buning uchun bugungi ta’lim tashkiloti rahbari kasbiy mahoratining aniq holatini ko‘rsatadigan TM diagnostikasini o‘tkazish kerak bo‘ladi.

Ta’lim tashkiloti rahbarlarining taym-menejment kompetentsiyalarni rivojlantirish bo‘yicha bir qator olimlar A.Arhangelskiy [2], S.Kovi [3], J.I.Zayvert [4], D.A.Granin [5] lap tomonidan tadqiqot ishlari olib borilgan.

N.V.Altinikov va A.A.Muzaev o‘qituvchilar va menejerlarning kasbiy mahorat darajasini baholashning yagona texnologiyasi yo‘qligini, shuningdek, kasbiy kamchiliklarni aniqlash vositalarining etarli darajada ishlab chiqilmaganligini ta’kidlaydi [1].

Ta’lim tashkiloti rahbarining taym-menejment kompetentsiyalari tarkibiga quyidagilar kiradi: o‘z shaxsiy va ish vaqtini samarali tashkil qilish, resurslarni boshqarish, jarayonlarni boshqarish, natijalarni boshqarish, xodimlarni boshqarish, axborotni boshqarish.

Biz TM diagnostikasini olib borishda so‘rovnoma va interv‘yu metodlaridan foydalanib, umumta’lim maktab

rahbarlarining taym-menejment TM kompetentsiyalari bo‘yicha muammoli vaziyatlarni aniqlashga harakat qildik.

TM diagnostikasi o‘tkazish uchun biz Qoraqalpog‘iston Respublikasi pedagogik mahorat markazida 2025-yil yanvar oyi tinglovchilari orasidan tarix va matematika fan o‘qituvchilarini tanglab oldik.

Biz belgilangan muammolarni hal qiladigan asosiy jihatlarni belgilab oldik. Ular asosida taym-menedjmentning to‘qqizta mezonlari ishlab chiqildi. (1-jadval)

| № | TM mezonlari                                                         | Mezonlarga tushunchalar berish                                                                                                                                                                                                                       |
|---|----------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1 | Vaqtning qadri                                                       | Inson o‘zining va boshqa odamlarning vaqtini qadrlaydi. Kechikish salbiy reaksiyaga sabab bo‘ladi. Buni «vaqt - bu pul» iborasi bilan tavsiflash mumkin. Vaqt eng qimmatli manba ekanligini tushunish va uni ongli ravishda boshqarishni angalatadi. |
| 2 | Vaqt etish-masligi                                                   | Har qanday inson ishda yoki shaxsiy hayotda bo‘lsin, vaqt etishmasligini boshdan kechiradi.                                                                                                                                                          |
| 3 | Tizimli rejalashtirish                                               | Ish va shaxsiy vaqtni rejalashtirish tizimli ravishda amalga oshiriladi; ishlar ro‘yxati tuziladi, maqsad va vazifalarni moddiy yoki elektron shaklda axborot vositalarida qayd etib boradi.                                                         |
| 4 | Maqsadlarni belgilash (qisqa va uzoq muddatli)                       | Qisqa va uzoq muddatlarga maqsadlar qo‘yish, ularga aniq muddatda erishish uchun vaqtni hisobga olish.                                                                                                                                               |
| 5 | Vakolatlarni taqsimlash                                              | Ta’lim tashkiloti oldiga qo‘yilgan vazifalarni aniq va o‘z vaqtida bajarish uchun kundalik amaliyotda vakolatlarni taqsimlash metodlaridan foydalanadi.                                                                                              |
| 6 | TMni takomillashtirish                                               | Ta’lim tashkiloti rahbari va pedagog xodimlari taym-menedjment kompetentsiyalarini takomillashtirib borishlari va buning uchun doimiy maxsus adabiyotlarni o‘qishlari, seminar-trenglarda e‘shirok etishlari zarur.                                  |
| 7 | Ta’lim tashkilotlarida ish vaqtini nazorat qilish va tartibga solish | Ta’lim tashkiloti ish operatsiyalari va jarayonlarini tizimli nazorat qilish va standartlashtirishni amalga oshirish. Ta’lim tashkiloti rahbariyati pedagog xodimlari ish vaqtini tartibga soladi va nazorat qiladi.                                 |

|   |                                          |                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|---|------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 8 | Ortiqcha yuklangan, yuqori bosimdagi ish | Ta'lim tashkilotlarida ortiqcha, yuqori bosimdagi ish doimiy hisoblanadi va buni aksariyat ta'lim tashkiloti rahbarlari va pedagog xodimlari yozilmagan qoida deb biladi. Pedagog xodimlar ko'pincha odatdagi ish vaqtidan tashqari vaqtlarda va dam olish kunlari ham ishlaydi. |
| 9 | Nazoratning samaradorligi                | Ta'lim tashkiloti rahbari va pedagog xodimlari vaqt xarajatlarini tahlil qiladi va optimallashtiradi.                                                                                                                                                                            |

#### **Jadval 1. Taym-menejment mezonlari.**

Ushbu mezonlarga asoslanib, biz to'rtta tematik bloklardan iborat savollar to'plamini ishlab chiqdik. Birinchi blok umumta'lim maktablari direktorlarining o'z ishini tashkil etishga umumiy baho berishga qaratildi.

Ikkinchi blok direktorlarning rejalashtirish va ustuvorliklarni belgilash qobiliyatiga baho berishga bag'ishlandi. Uchinchi blok direktorlarning vakolatlarini taqsimlash ko'nikmalari qay darajada ekanligini bilishga, to'rtinchi blok esa direktorning asosiy ishdan chalg'ishlar va stresslarni boshqarish qobiliyatlarini aniqlashga qaratilgan savollardan iborat edi. Ta'lim tashkiloti rahbarlarning ish vaqtini qanday nazorat qilish va tartibga solishga urg'u berildi.

Tadqiqot ishlariga Qoraqalpog'iston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablaridan 26 ta tarix fani o'qituvchilari va 25 matematika fani o'qituvchilari ishtirok etdi.

Keling, umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment kompetentsiyalarini diagnostika qilish jarayonida olingan tadqiqot natijalarini taqdim etamiz. Respondentlarga diagnostika topshiriqlari ikki qismda taklif qilindi, birinchisi anonim savolnomalar, ikkinchisi intervyu.

Maktab direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment kompetentsiyalarini diagnostik qilish uchun savollarga respondent tomonidan berilgan javoblarning natijalariga qarab, direktorning taym-menejment kompetentsiyalari darajalari 100 ball tizimida aniqlandi:

- 80-100 ball: Sizda taym-menejment ko'nikmalari yuqori darajada. Siz ish vaqtingizni yuksak darajada tashkil etish va samarali boshqarishingiz mumkin.
- 60-79 ball: Sizda taym-menejment ko'nikmalari yaxshi shakllangan. Siz ish vaqtingizdan unumli foydalana olasiz, ammo yanada yaxshilashingiz mumkin bo'lgan jihatlari ham bor.
- 40-59 ball: Sizda taym-menejment ko'nikmalari qoniqarli darajada. Siz o'zingizning zaif tomonlaringizga e'tibor berishingiz va ularni yaxshilash ustida ishlashingiz kerak.
- 20-39 ball: Sizning taym-menejment qobiliyatingiz past darajada. Siz vaqtingizni tartibga solish ustida jiddiy ishlashingiz va taym-menejmentning yangi metodlarini joriy qilishingiz kerak.

I-blok: Direktorning o'z ishini qay darajada samarali tashkil etish qobiliyatini aniqlash bo'yicha berilgan savollarga:

- 7 ishtirokchida past darajada (diagnostika ishtirokchilari umumiy sonining 13,7%);
- 9 ishtirokchida qoniqarli daraja (17,6%);
- 11 ishtirokchida yaxshi daraja (21,5%);
- 24 ishtirokchida yuqori daraja (47%).

II-blok: Direktorning rejalashtirish va ustuvorliklarni belgilash qobiliyatini aniqlash bo'yicha berilgan savollarga:

- 7 ishtirokchida past daraja (diagnostika ishtirokchilari umumiy sonining 14,2%);
- 9 ishtirokchida qoniqarli daraja (18,3 %);
- 15 ishtirokchida yaxshi daraja (30,6%);
- 18 ishtirokchida yuqori daraja (36,7%).

III-blok: Direktorning vakolatlarini taqsimlash qobiliyatini aniqlash bo'yicha berilgan savollarga:

- 5 ishtirokchida past daraja (diagnostika ishtirokchilari umumiy sonining 9,8%);
- 7 ishtirokchida qoniqarli daraja (13,7 %);
- 17 ishtirokchida yaxshi daraja (33,3%);
- 22 ishtirokchida yuqori daraja (43,1%).

IV-blok: Direktorning chalg'itishlar va stressni boshqarish qobiliyatiga aniqlash bo'yicha berilgan savollarga:

- 6 ishtirokchida past daraja (diagnostika ishtirokchilari umumiy sonining 11,7%);
- 8 ishtirokchida qoniqarli daraja (15,6%);
- 19 ishtirokchida yaxshi daraja (37,2%);
- 18 ishtirokchida yuqori daraja (35,2%).

Oddiy bo'lmagan muammolarni hal qilish uchun taym-menejment kompetentsiyalarini qo'llash qobiliyatining past darajasini diagnostika ishlarining birinchi qismida ishtirokchilarining 13% foizi ko'rsatdi.

Shunday qilib, diagnostika ishlari natijalariga ko'ra umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining boshqaruv faoliyatida taym-menejment kompetentsiyalarini aniqlashning to'rtta darajasi aniqlandi: yuqori (40%), yaxshi (30%), qoniqarli (15%), past (15%).

Bu natijalardan ko'rinib turibdiki maktab direktorlarining taym-menejment ko'nikmalari bugungi ta'lim tizimi talablariga mos kelmaydi. Shuning uchun maktab direktorlarining ish vaqtidan foydalanish samaradorligini oshirish uchun metodik tavsiyalar yaratish, seminar-trenglar tashkil qilish, Qoraqalpog'iston Respublikasi pedagogik mahorat markazida ma'sul mutaxassislarni jalb qilgan holda onlayn va oflayn qisqa kurslarni tashkillashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Tadqiqot natijalari umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining taym-menejment kompetentsiyalarining bugungi umumiy holatini va rivojlantirish istiqbollari aniqlash imkonini berdi. Olingan natijalarni tahlil qilish asosida maktab direktorlarining kasbiy kamchiliklari aniqlandi, ularni bartaraf etish ish vaqtdan samarali foydalanishni amalga oshirish imkonini beradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktablari direktorlarining taym-menejment ko'nikmalarini rivojlantirishning individual traektoriyalarini va pedagog xodimlarning ish vaqtidan samarali foydalanishni baholashning ilmiy asoslangan vositalarini ishlab chiqish tadqiqotning istiqbolli yo'nalishlari bo'lishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, maktab direktorlarining taym-menejment diagnostikasi ularning boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish va stress darajasini pasaytirish yo'lidagi muhim qadamdir. Turli diagnostika metodlaridan foydalanish va olingan ma'lumotlarni tahlil qilish bizga maktab direktorlarining ish va shaxsiy vaqtdan samarali foydalanishning kuchli va zaif tomonlarni

aniqlash, takomillashtirish yo'nalishlarini belgilash va individual harakatlar rejasini ishlab chiqish imkonini beradi.

Maktab direktorlarining ish vaqtini boshqarishni takomillashtirish nafaqat ularning shaxsiy mehnat unumdorligini oshirishga, balki o'quv jarayoni sifatiga va butun maktab hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar

1. Алтыникова Н.В., Музаев А.А. Оценка предметных и методических компетенций учителей: апробация единых федеральных оценочных материалов. // Психологическая наука и образование. 2019. Т. 24. № 1. -С. 31-41. Электронный ресурс. <https://cyberleninka.ru>.

2. Архангельский Г.А. Корпоративный тайм-менеджмент: энциклопедия решений. – Москва: «Альпина Паблишер», 2017. URL: <http://www.iprbookshop.ru/62045>.

3. Кови С. Семь навыков высокоэффективных людей. – Москва: «Попурри», 2018. <https://mybook.ru/author/stiven-kovi>.

4. Зайверт Л. Ваше время - в ваших руках. – Москва: «Интер эксперт», 1995.

5. Гранин Д.А. Эта странная жизнь. – Москва: «Фонд Духовное наследие», 2002. – С.255.

**REZYUME.** Mazkur maqolada umumiy o'rta ta'lim maktab direktorlarining ish va shaxsiy vaqtdan samarali foydalanish bo'yicha diagnostika natijalari tahlil qilinadi. Taym-menejment diagnostikasi vazifalari, metodlari, maqsadlari, direktorning ish vaqti va undan samarali foydalanish masalalari yoritilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье анализируются результаты диагностики директоров общеобразовательных школ по эффективному использованию рабочего и личного времени. Освещены задачи, методы, цели диагностики тайм-менеджмента, вопросы рабочего времени руководителя и его эффективного использования.

**SUMMARY.** The article analyzes the results of diagnostics of principals of secondary schools on the effective use of working and personal time. The tasks, methods, goals of diagnosing time management, issues of the manager's working time and its effective use are covered.

#### BASSHÍ MÁDENIYATÍ HÁM JUWAPKERSHILIGI

**G.J.Bektursinova** – *assistent oqıtıwshı*

*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı*

**Tayanch so'zlar:** rahbar, javobgarchilik, madaniyat, shaxs, bilim, vazifa, intellekt, qoida, halollik, milliylik, qadriyat, boshqaruv.

**Ключевые слова:** лидер, ответственность, культура, личность, знания, служба, интеллект, правило, честность, национальность, ценность, управление.

**Key words:** leader, responsibility, culture, personality, knowledge, service, intellect, rule, honesty, nationality, value, management.

**Kirisiw.** Basshı – jumıstıń kózin biletuǵın, óz kásibine mehir berip, shańaraǵı, el-jurtın oylap miynet etetuǵın, basqarıw iskerligin hadallıq, shın kewil menen súyip orınlayuǵın insan. Basshılıq joqarı aqıl-parasattı, kóp kúsh jiger, tınımsız izleniw, ornı kelgende isbilermenlikti talap etedi. Basshı mádeniyatınıń tiykarǵı belgilerinen biri - juwapkershilik esaplanadı. Juwapkershilik áwele hár bir insannıń hújdanı, imanı hám ózine isenim tuyǵısınan baslanadı. Juwapkershilik basshıǵa júkletilgen wazıypaǵa juwapkershilik sezimin, oǵan bolǵan jeke múnásibeti menen belgilenedi. Juwapkershilikli basshı eń áwele ózine, soń qol astındaǵı xızmetkerlerine talapshań boladı. Basqarıwdaǵı barlıq unamsız hádiyseler bolsa áne sol juwapkershilik seziminiń joqlıǵınan kelip shıǵadı.

Basshılıq lawazımındaǵı insannan - joqarı sana, durıs pikirlew hám aqıl talap etiledi. Jáne bir áhmiyetli máselelerden biri – basshınıń siyasiy mádeniyatı esaplanadı. Mádeniyat áwele ruwxıy baylıq miywesi bolıp, siyasiy mádeniyatı joqarı basshı millet, mámleket, xalıq mápin óz jeke mápinen ústin qoyadı. Mámleketimiz turmısında joqarı siyasiy mádeniyatlı basshı kadrlarǵa mıtájlik házirgi kúnde ayqın sezilmekte. Sol sebepten milliy kadrlar tayarlaw máselesi mámleketimiz siyasatınıń ústin turatuǵın baǵdarına aylandı.

Keleshekte bunday basshılardı qanday tárbiyalaw hám qay jerde tayarlaw múmkin? Áwele, basshılar hám

basshılıqqa dawager shaxslar ózlerin hár tárepleme tárbiyalap barıwları kerek. Onıń ushın siyasiy turmıstan xabardar bolıwı yamasa ekonomikalıq kásiplik bilimlerde ózlestiriwdiń ózi jetkilikli bolmaydı. Olar jáhán tájiriybeleri tiykarında qalıplesken, zamanagóy basqarıw tájiriybelerin ózlestirgen bolıwı kerek. Onıń ushın basshı birinshi náwbette ózine talapshań bolıwı kerek. Máselen, ol hár kúni qanshadan qansha gazeta jurnallar oqıwı, radio hám ǵalaba xabar quralları jańalıqlarınan xabardar bolıwı arqalı málim dárejede bilimge iye bolıwı múmkin. Taǵı da siyaset, ekonomika manawiyatqa tiyisli kitaplardı hám klassik ádebiyatlardı oqıwı, tariyxiy processlerdi tereń ańǵarıwı onıń dúnyaqarasın keńeytedi [1].

Bulardıń barlıǵı basshılardıń mádeniy dárejesiniń ósip barıwına siyasiy mádeniyatınıń rawajlanıwına úlken járdem beredi. Demokratiyalıq tiykarda qalıplesip baratırǵan jámiyetimizde, siyasiy tárepten jetik, puqta bilimge iye bolǵan tereń oy pikirli shaxslar ǵana basshı lawazımlardı atqara aladı.

Jamáátke basshılıq etiw úlken bir kórkem óner desek boladı. Basshı – ustaz, basshı - millet tárbiyashısı, ádebiyatqa tiyisli shaxs. Onıń mashaqatlı miyneti nátiyjesinde keleshegimiz iyeleri kamal tawıp baradı. Solay eken, basshılarǵa qaratılǵan itibar bul keleshekke qaratılǵan itibar esaplanadı.

**Ádebiyatlar analizi.** Baslıqtıń mádeniyatı hám juwapkerligi máselesi kóplegen ilimiy izertlewlerde, menejment hám etika baǵdarlarında keń úyrenilgen. Izertlewshilerdiń basshılıq iskerliginde mádeniyat hám juwapkerliktiń áhmiyeti, onıń shólkem nátiyjelerine tásiiri, sonıń menen birge, zamanagóy basqarıw principleri menen baylanıslılıǵın túrli teoriyalıq jantasıwlar tiykarında analiz etken. Kóplegen dereklerde baslıq mádeniyatı basqarıw procesiniń zárúrli bólegi retinde táriyplenedi. Atap aytqanda, P.Drucker (1993) óziniń menejment teoriyasında baslıqtıń intellektuallıq potencialı hám etikalıq qádiriyaatlarına tiykarlanǵan basqarıw modelin ilgeri súrgen. Sonıń menen birge, H.Mintzberg (1973) baslıqtıń baylanıs hám shólkemlestirilgen mádeniyatı menen baylanıslı táreplerin úyrenip, olardıń shólkem natiyjeliligine tásinin analiz etken. Baslıq juwapkerligi huqıqıy, etikalıq hám basqarıw kózqarasınan úyrenilgen. Mısalı, M.Weber (1922) byurokratik basqarıw principlerinde basshılıqtaǵı juwapkershilik hám huqıqıy-normativ talaplardı tiykarlab bergен. Zamanagóy izertlewlerde (Northouse, 2018) bolsa baslıq juwapkerligi jetekshilik usılı, xızmetkerlerdiń motivaciyası hám korporativ mádeniyatı menen baylanıslı ekenin aytıp ótkен” [4:349-351].

**Metodologiya.** Ilimiy izertlew dawamında analiz, sintez, sıyaqlı ilimiy izertlew hám de zamanagóy pedagogik usıllardı qollaw boyınsha metodologiyalardan paydalanıldı.

**Analiz hám nátiyjeler.** Búgingi kúnde basshı kadrardıń aldına qoyılıp atırǵan hám házirgi zaman talap etip atırǵan tiykarǵı wazıypalar tómendegilerden ibarat:

1. Basshı tárbıyalı, bilimli, ilimli bolıwı, isenim bildirip joqarı mártebege múnásip kórgen el-jurtına hadal xızmet qılıwı, wazıypasına juwapkershilik penen qarawı kerek.

2. Basshı aqıllı, tájiriybeli, óz isiniń bilimdanı bolǵan kadrılardı tayanıwı, olardıń pikirine qulaq salıwı hám soǵan tiykarlanıp juwmaq shıǵarıwı kerek.

3. Basshınıń bárshe islegen háreketleri xalqımızdıń turmısına unamlı tásir kórsetiwı kerek. Kimlergedur jaqsı kóriniw maqtanıw ushın qılınǵan is, basshınıń keleshekтегі iskerligine unamsız iz qaldırıwı múmkin.

4. Basshıda xalqı hám watanına pıdayılıq, shólkemlestiriwshilik, keń dúnyaqaras hám talapshanlıq bolıwı shárt. Menmenlik, qol astındaǵı xızmetkerlerine hádden tis qattıqollıq, ózgeler pikirine qulaq salmaslıq, basshı shaxslardı jaqsı kadrılar, miynetkesh hám bilimli bolǵan qanıgelерден uzaqlastırıp qoyadı. Basshınıń qol astındaǵı xızmetkerlerdi kópshilik aldında shaxsıyatına tiyip, onı kemsitiwi basshınıń ázziligi hám óz wazıypasına ılayıq emesliginiń belgisi esaplanadı.

5. Lawazımı úlken basshılardıń kishi basshılardı tanıs - biliwshilik, aǵayınshilik hám jeke mápine qarap tańlawı ashınarlı jaǵday bolıp, mámleket mápine úlken zıyan keltiredi. Jańadan lawazımǵa tayınlanǵan basshı ózinen aldın iskerlik kórsetken basshı dáwirinde jumıs islegen jaqsı qanıgelерді jumıstan bosatıwı, ózine qarsılas biliwi bul basshınıń sawatsızlıǵı hám ózine isenimsizliginiń belgisi.

6. Basshı hesh qashan mayda gáp sózlerge ermewi, ósek hám jaman illetlerden awlaq bolıwı kerek.

7. Basshı maqtawdan bası aylanıp “juldızlıq” keseline shalınıp qalmawı júdá zárúr. Bunday basshılardıń átirapında tek ǵana óz jeke mápin oylawshı, “másalahátgóyler” ámelparas, paraxor hám ápiwayı adamlarǵa zulım

kórsetiwshi kisiler toplanıp qaladı. Aqıbette xalq hám mámleket mápine úlken zıyan keltiredi.

8. Basshı nápsi bálesine qarsı turıwı, ózinen kishi basshılardı da bul báleden asırawı kerek.

9. Basshı ádalatsızlıqqa hesh qashan jol qoymawı kerek.

10. Basshı óz jeke ómiri hám turmıs keshiriwinde de basqalarǵa órnek bolıwı lazım.

11. Basshılardıń alıp barıp atırǵan jumısları ashıq-aydın bolıwı, waqtı-waqtı menen xalıqtıń aldında esabat berip turıwı olardıń basshılıq iskerligine abıroy keltiredi.

12. Basshı óz ideyası, pikiri, háreket dástúrine iye bolıwı menen birge, bársheni elimiz rawajlanıwı, xalqımızdıń tınısh-tatıwlıǵı, párawanlıǵı jolındaǵı ideya átirapında birlestiriwı shárt.

Keyingi jıllarda respublikamız joqarı oqıw orınlarında magistratura basqıshına talabalar arnawlı tańlaw tiykarında qabil etilmekte. Sonday eken basshı kadrılar tayarlaw wazıypasın bilimlendiriw sistemasındaǵı magistlar tayarlaw kurslarınan baslaw lazım. Bul iskerlikti tómende kórsetilgen 2–varianttıń birewinde shólkemlestiriw maqsetke muwapıq boladı.

1. Birinshi basqısh magistraturanıń eń áhmiyetli oqıw dástúrleri dizimine basqarıw hám huqıq pánleriniń kiritiliwi hám de bul pánler qanıgelik pánler qatarında oqıtılıwı kerek. Sondayaq magistrantlarǵa basqarıw hám huqıq pánlerinen tereń bilim beriw menen sheklenip qalmastan, olardı basshılıq iskerligi boyınsha ámeliy kónlikpelerge de úyretiw lazım. Ekinshi basqısh magistratura bólimin tamamlap atırǵan eń jaqsı talabalar tańlap alınıp, olarǵa joqarı basqarıw pánleri boyınsha jáne qosımsha keminde yarım jıl bilim beriliwi kerek. Olar oqıwın tamamlǵannan soń, orta hám joqarı bilimlendiriw mákemeleriniń eń tómengi basqarıw organlarındaǵı lawazımlarına arnawlı jollama tiykarında jiberiliwi kerek.

2. Birinshi basqısh, túrli joqarı oqıw orınların pitkerген magistrardı basqarıw tarawı boyınsha tayarlaw ushın tańlaw tiykarında qabil etiletuǵın joqarı oqıw orını shólkemlestiriwi jaqsı nátiyjeler beriwı múmkin. Bul joqarı oqıw orını tamamlǵan tayar basshı kadrılardı jumısqa jaylastırıw tártibi orta hám joqarı bilimlendiriw mákemeleriniń basqarıw organlarındaǵı lawazımlarına basshılardı tayınlaw tártibi menen nızamlastırılса basshı kadrılardı tańlaw hám olardı jumıs penen támiyinlew jańa zaman talabına juwap beriwı múmkin.

Basshılardı ullı danıshpanlarımız miyras etip qaldırǵan qádiriyaatlarımız, shıǵıs xalıqlarınıń milliyiligine tán bolǵan úrp-ádetler tiykarında tárbıyalaw, olardı ullı keleshekke, rawajlanıwǵa bolǵan isenimin, óz jámaáti menen erkin hám párawan turmıs qurıwǵa qaratılǵan ideyasın qalıplestiriw tiykarǵı wazıypalardıń biri bolıp esaplanadı.

Basshı ádebi joqarı mánawiy, mádeniy, ádep-ikramlılıq shegarası, talap hám principler bolǵan erkinlikke tiykarlanadı. Basshı shaxs tek ózi erkin bolıp qalmastan, ózi iskerlik kórsetip atırǵan jámaát aǵzalarınń da erkinligin húrmet etiwı kerek. Basshı iskerligine hesh kim nızamsız aralasıwı múmkin emes. Basshı qol astındaǵı xızmetkerlerdiń mayda-shúyde kemshiliklerine sabırılı bolıwı, olarǵa ózine isengendey iseniwi lazım. Óz ara kelispewshiliklerge jol qoymaslıq basshı mádeniyatınıń ayırıqsha belgisi esaplanadı. Óz ara múnásibetlerde hár túrli kelispewshilikler, qarama-qarsılıqlar, pikirler hár túrliligi

bolıp turadı. Sonıń ushın ádep basshıǵa eń zárúr bolǵan pazıyetlerden biri esaplanadı.

Shólkem kópshilikten quralǵan, oǵan basshılıq etiw bul júdá qıyın is esaplanadı. Solay eken, olardıń pikirleri, dúnya qarası, xarakteri, psixologiyası, hár túrli. Basshı shaxs xızmetkerleriniń jaqsı-jaman islerinen xabardar bolıwı, olardıń iskerligin gúzetip barıwı, hesh bir jumıs basshınıń názerinen shette qalmawı zárúr. Óz jámaátı aǵzalarınıń is-háreketlerinen xabarsız bolıwı, jámaátıń bir neshe tárepke bóliniwine alıp keledi. Nátiyjede bunday basshı mámleketke hám shólkemge úlken zıyan keltiredi [2].

Basshılıq iskerliginiń jáne bir áhmiyetli bólegi - basshınıń sóylew mádeniyatı bolıp, jaǵımlı hám múlayım sáwbetlesiw basshılıq iskerliginde úlken tabıslarǵa alıp keledi. Basshı óziniń kúndelik ámeliy iskerligi dawamında túrli ushırıswlar, sáwbetlesiwler, múnásibetlerdiń qatnasıwshısı boladı. Sol sebepli qaysı ushırısw yaki sáwbetlesiwlerdiń basshıǵa áhmiyetli bolıp kórinıwıne qarap onıń sóylew mádeniyatın úyreniw múmkin. Kópshilik tájiriyebeli basshılar, xızmetkerler menen til tabısw, mámilede tásir kórsetiw, olardıń miynetin durıs shólkemlestiriw hám basqarıw eń quramalı jaǵdaylardıń biri ekenligin ayıp ótken. Bárshe insanlar da oratorlıq sheberligine iye bola bermeydi. Biraq basshı shaxs, ápiwayı, túsiniqli, tásirli hám isenimli sóylep biliwi kerek.

Usı orında kóp jıllıq basshılıq tájiriyesine iye bolǵan Ózbekstan qaharmanı, pidáyı insan, Murodulla Saidovtıń tómendegi pikirlerin keltirip ótemiz: "...Jas basshılarǵa sonı ayıp ótpekshimen, úlken yamasa kishi jámaátte jumıs baslaǵanıńızda, eń áwele, qol astuńızdaǵı kisilerdiń jaǵdayı hám mıtájlikleri menen qızıǵıń. Insaniyat payda bolǵanlı berli ele jábir-zulım kórsetiw arqalı birde bir basshı jetiskenlikke erise almaǵan. Hár qanday shólkemde jámaátıń materiallıq jaǵdayın ósire almasańız, jumıslarıńızda rawajlanıw bolmaydı. Jaqsısı, óz qálewińız benen wazıypańızdı ózgertkenińız durıs". Sonday-aq, "Basshı óz jámaátı aldında qanshelli dábdebeli sóylemesin, adamlar onıń sózi óz is-háreketlerine tuwrı keleme-joqpa, óz tárezileri menen ólsheydi. Is-háreketleri, ámeli sózine tuwrı kelse ǵana, jámaát aldında bunday basshınıń abıroyı joqarı boladı"...degen pikirleri sózsiz barlıq taraw basshılarına paydalı pikirler bolıp esaplanadı.

Basshısız jámiyettiń, jámiyetsiz basshınıń bolıwı múmkin emes. Keleshegi ullı mámleketti múnásip basshılarǵa qaldırıw ushın, eń birinshi isenimli jaslardan basshılar komandasın tárbiyalap barıw maqsetke muwapıq. Jas basshı haqıyqatlıqı qollaytuǵın, siyasat, ilim-pán jetiskenliklerin keń en jaydıratuǵın, gozzallıqı kóre alatuǵın, nızamǵa hám ádillikke tayanatuǵın, insan psixologiyasın úyrengen, kórkem-óner, mádeniyat, ádebiyat

ıqlasbenti bolıwı zárúr. Basshılıq iskerligi júdá juwapkershilikli wazıypa sanalaıp, basshı ushın hár bir kún qandaydur jańalıq, ózgeris alıp keledi. Basshı shaxsı hár dayım bir qádem aldında júriwi, jámiyettegi adamlar arasında abıroy itibarın saqlawı ushın tınımsız óz ústinde islep barıwı zárúr.

Adamlar mánawiyatın qalıplestiriw, jaslardı milliy hám insaniylyq qádriyatlar ruwxında tárbiyalaw, olardıń qálbinde watanǵa muhabbat hám sadıqlıqı oyatıw, túrli jat ideyalarǵa qarsı gúresiw ruwxın qalıplestiriw, bilimli hám erkin pikirli insanlar etip kamalǵa jetkeriw, búgingi basshınıń baslı wazıypası esaplanadı.

Basqarıwdıń tiykarǵı maqseti - shólkem maqsetlerine xızmetkerler járdeminde erisiw eken, básekiden göre awızbirshilik hám sheriklikke súyeniw ádewir orınlı. Búgingi basshı óz tarawına tiyisli hár bir maǵlıwmattı biliwi, shólkemi iskerligindegi kommunikaciya sistemasınıń ulıwma jaǵdayın názerde tutıwı, hám zárúr bolǵan waqıtta ámeldegi maǵlıwmattan aqılǵa say paydalana alıwı júdá zárúrli.

Nátiyjeli basqarıwshı pazıyetleri haqqında toqtalǵanda, kópshilik izzertlewshilerdiń diqqat orayındaǵı tiykarǵı ayırıqshalıqlardan biri – basshı shaxsına tán dominantlıqqa umtılwı bolıp tabıladı. Áyne sol sapa basshınıń baslama kórsetiwı, toparǵa jetekshilik etiwı hám quramalı jaǵdayda juwapkershilikti óz moynına alıwına sharayat jaratadı. Izzertlewshi R.Stogdill qálemine tiyisli "Basshı qollanbası" nda dominantlıq basqarıw ushın zárúr sapalar diziminde birinshi orıńǵa qoyıladı.

**Juwmaq hám usınıslar.** "Dominantlıq" sózi bir neshe mánisti ańlatadı. Basshılıq teoriyası názerinen "ózgelerge tásir etiw" degen mániste qollanıladı. Dominantlıqtıń eń birinshi kórinisi basqarıwda basshınıń óz jeke kúsh jigerin tayanıwı bolıp tabıladı. Basshı moynında turıwshı tiykarǵı wazıypa shólkem maqsetine jámaát járdeminde erisiw esaplanadı. Bunıń ushın basshıdan maqsetti durıs belgilewi hám, túrli mashqalalardı jeńip ótiwde peshqádem bolıwı, jámaátı maqset tárepke jetelewde jeke kúsh jigerin kórsete alıwı siyaqlı pazıyetleri bolıwı talap etiledi.

Basqarıw iskerliginiń tabıslı bolıwın támiyinleytuǵın sapalardan taǵı biri, ózine hám óz kúshine isenim sezimi bolıp tabıladı. Baxtqa qarsı, ózine isenimi bolmaǵan basshı jaǵday ózgeriwı menen, óz sheshimin ózgertedi. Bunday basshı ózgeler menen óz ara kelisimler alıp barıwǵa da ılayıq emes. Sebebi óz shaxsı hám qábiletine isenbegen adam ózgelerde de isenim oyata almaydı. Basshıǵa tán pazıyetlerden biri – saldamlılıq hám sabır taqatlılıq, basqarıw iskerligi nátiyjesin támiyinlewde basshı ushın zárúr pazıyetlerden taǵı biri - tabısqa umtılwı bolıp, basshı óz aldına anıq maqset qoya alıwı hám oǵan umtılwı kerek.

#### Ádebiyatlar

1. Saidov M. Hayotim falsafasi. –Qarshi: «Nasaf», 2003, 26-27-b.
2. Xasanov A. Boshqaruv ma'naviyati va rahbar ma'naviy qiyofasi. –Toshkent: «Umid Design», 2021. 72-b.
3. Fayziyeva M. Zamonaviy rahbar ma'naviy qiyofasi va unga qo'yilgan talablar. – Samarqand: Samarqand viloyat xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi bosmaxonasi, 2020.
4. Abduraxmonov Q.X., Xolmo'minov Sh.R., Xayitov A.B. Personalni boshqarish. -Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot matbaa uyi», 2021.
5. <https://cyberleninka.ru/>
6. <https://arm.sammoi.uz/>
7. <http://kitob.sies.uz/>

**REZYUME.** Bu maqolada rahbar madaniyati hamda uning javobgarchiligi masalalari ko'rsatilgan. Muallif rahbarning shaxsiy madaniyati, etik qadriyatlari va boshqaruvdagi javobgarchiligi muassasaning foydasi va guruhning samaradorligiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatishini aytib o'tgan. Shu bilan birga, maqolada liderlik madaniyati tushunchasi, rahbarning kommunikativ qobiliyatlari, odilona qaror qabul qilish va javobgarlikli yondashish kabi taraflar tahlil qilinadi. Muallif rahbarning nafaqat kasbiy bilim va ko'nikmalarni egallashi, balki etik tamoiillarga amal qilishning ham zaruriyatini asoslaydi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматриваются вопросы культуры лидерства и его ответственности. Автор подчеркивает, что личная культура руководителя, моральные ценности и ответственность в управлении оказывают непосредственное влияние на успех организации и эффективность коллектива. Также в статье анализируются такие аспекты, как понятие культуры лидерства, коммуникативные навыки лидера, справедливое принятие решений и ответственный подход. Автор обосновывает важность того, чтобы руководитель обладал не только профессиональными знаниями и навыками, но и соблюдением этических принципов.

**SUMMARY.** This article discusses the issues of leadership culture and its responsibility. The author emphasizes that the leader's personal culture, moral values, and management responsibility directly affect the success of the organization and the effectiveness of the team. The article also analyzes such aspects as the concept of leadership culture, the leader's communicative skills, fair decision-making, and a responsible approach. The author substantiates the importance of a leader not only having professional knowledge and skills, but also adhering to ethical principles.

## SAHNALASHTIRISH FAOLIYATINING TA'LIMDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

**F.G'Erkaboyeva – doktorant**

*Farg'ona davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** sahnalashtirish faoliyati, maktabgacha ta'lim, syujetli-rolli o'yinlar, ijodiy rivojlanish, muloqot ko'nikmalari, madaniyatlararo tushunish, hissiy rivojlanish, sahnalashtirish markazi, o'yin orqali o'qitish, interaktiv ta'lim.

**Ключевые слова:** театрализованная деятельность, дошкольное образование, ролевые игры, творческое развитие, коммуникативные навыки, межкультурное взаимопонимание, эмоциональное развитие, центр драматизации, обучение через игру, интерактивное обучение.

**Key words:** dramatization activities, preschool education, role-playing games, creative development, communication skills, intercultural understanding, emotional development, dramatization center, learning through play, interactive education.

**Kirish.** Sahnalashtirish faoliyati ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijodkorligini, ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini va hissiy rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan samarali pedagogik usuldir. Tadqiqotlarga ko'ra, sahnalashtirish metodikasi o'quvchilarning ijtimoiy-emotsional rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Ushbu faoliyat nafaqat bilim olish jarayonini qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishi va amaliy ko'nikmalarini shakllantirishga ham xizmat qiladi. Xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun sahnalashtirish faoliyati ta'limning o'yin orqali amalga oshiriladigan muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Heathcote [2] va Wagner tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dramatik faoliyat bolalarning muloqot va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi [3]. Bu uslub orqali o'quvchilar turli ijtimoiy rollarni sinab ko'rish, his-tuyg'ularini ifodalash va hayotiy vaziyatlarni tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar [4].

**Asosiy qism.** Sahnalashtirish faoliyatining asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ, ijtimoiy va madaniy ko'nikmalarini rivojlantirishdan iborat. Ushbu metod nafaqat muloqotga kirishish qobiliyatini oshirish, balki hissiy uyg'unlik va ijodiy yondashuvni shakllantirishga ham xizmat qiladi [1]. Teatrlashtirilgan o'yinlar orqali o'quvchilar turli ijtimoiy rollar bilan tanishib, real hayotdagi vaziyatlarni amaliyotda qo'llashni o'rganadilar [2]. Masalan, oilaviy hayot, kasbiy rollar yoki kundalik faoliyat asosida yaratilgan sahnalashtirilgan o'yinlar o'quvchilarning ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dramaga asoslangan ta'lim usullari o'quvchilarning tanqidiy fikrlash, empatiya va muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi [3], [4]. Shu sababli,

sahnalashtirish pedagogikasi ta'lim jarayonida nafaqat bilim olish, balki shaxsiy va ijtimoiy taraqqiyotga ham ko'maklashadigan muhim metodlardan biri hisoblanadi.

**Bolalarning ijodiy rivojlanishi.** Ijodkorlik bolalarning intellektual va shaxsiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Sahnalashtirish faoliyati bolalarga o'z tasavvurlarini ifoda etish, voqealarni ijodiy qayta tiklash va yangi g'oyalarni sinab ko'rish imkoniyatini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, teatr va dramatik o'yinlar bolalarning tasavvur qilish, muammolarni hal etish va innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradi [5]. Masalan, bolalar teatr orqali turli ertaklar yoki hikoyalarning qahramonlarini sahnalashtirishda o'z tasavvurlarini amalda sinab ko'rishadi. Bu jarayon ularning ijodiy tafakkuri, hissiy ifodalanish qobiliyatlari va hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi [6]. Shuningdek, dramatik faoliyat bolalarni alternativ nuqtai nazarlarni tushunishga, empatiya va o'z fikrlarini erkin ifodalashga o'rgatadi [7]. Ijodiy rivojlanishni qo'llab-quvvatlovchi sahnalashtirish metodlari orasida improvizatsiya, rolly o'yinlar, interaktiv teatr va hikoya yaratish kabilar mavjud bo'lib, ular bolalarning mustaqil fikrlash va o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi [8].

**Muloqot va ijtimoiy ko'nikmalar.** Sahnalashtirish faoliyati bolalarda muloqot kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali vositasidir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dramatik faoliyat bolalarning nutqiy rivojlanishi, til boyligi va ifoda qilish qobiliyatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi [1]. Sahna o'yinlari orqali bolalar tengdoshlar bilan muloqot qilish, o'z fikrlarini erkin ifodalash va o'zaro hamkorlik qilish ko'nikmalarini o'rganadilar. Bu jarayon ularning ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantirib, jamiyatda o'z o'rnini topishiga yordam beradi [6].

Misol uchun, sahna o'yinlari davomida bolalar boshqa personajlar bilan suhbatlashish, vaziyatga mos harakat qilish va ijtimoiy vazifalarni bajarishni o'rganadilar. Ushbu faoliyat ularga fikrlashning moslashuvchanligi, hamdardlik va jamoaviy hamkorlik kabi muhim qobiliyatlarni shakllantirish imkonini beradi [3]. Bundan tashqari, sahnalashtirish metodikasi verbal va neverbal muloqotni rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, bolalar tana tili, imo-ishoralar va yuz ifodalaridan foydalanib, o'z his-tuyg'ularini aniqroq ifoda qilishni o'rganadilar. Bunday jarayon esa bolalarning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirib, ularni ijtimoiy vaziyatlarga tez moslashishga o'rgatadi [4].

**Madaniyatlararo tushunishni rivojlantirish.** Sahnalashtirish faoliyati madaniyatlararo tushunishni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Sahnalashtirish jarayoni bolalarning nafaqat ijodiy salohiyatini rivojlantirish, balki ularning boshqa madaniyatlar bilan tanishishiga ham keng imkoniyat yaratadi. Sahna o'yinlari davomida bolalar turli millatlarning qadriyatlari, urf-odatlar va hayot tarzi aks etgan obrazlar bilan to'qnash kelishadi. Bu esa ularning madaniyatlararo tushunish qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Sahnalashtirish jarayonida bolalar turli milliy ertaklar, afsonalar va tarixiy voqealarga asoslangan sahnalarni namoyish qilish orqali boshqa xalqlarning hayot tarzini anglaydilar. Masalan, Sharq ertaklari, Yevropa afsonalari yoki Afrika folkloridan olingan syujetlar asosida sahna asarlari qo'yilganda, bolalar bu madaniyatlarining o'ziga xos jihatlari bilan yaqindan tanishadilar. Bu esa ularda turli xalqlarga nisbatan hurmat, bag'rikenglik va qiziqish uyg'otadi. Bundan tashqari, sahnalashtirish orqali bolalar o'zlarini turli personajlar o'rniga qo'yib, ularning fikrlarini, his-tuyg'ularini tushunishga harakat qiladilar. Bu esa empatiya hissini rivojlantirib, madaniyatlararo muloqot qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, bolalar o'zlarini sahnalashtirgan asarlarda xorijiy tillardan foydalanish orqali lingvistik kompetensiyalarini ham rivojlantirishlari mumkin. Umuman olganda, sahnalashtirish faoliyati bolalarning dunyoqarashini kengaytirib, ularni global muloqotga tayyorlaydi. Madaniy xilma-xillikka asoslangan sahna o'yinlari orqali bolalar har bir xalqning o'ziga xos an'analari va qadriyatlarini anglab yetadilar. Natijada, ular jamiyatda madaniyatlararo muloqotning muhimligini tushunib, kelajakda ochiq fikrli va bag'rikeng shaxslar bo'lib voyaga yetadilar.

**Hissiy rivojlanish.** Sahnalashtirish bolalar shaxsiy rivojlanishining muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib, ularning his-tuyg'ularni idrok qilish, tushunish va ifodalash qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Sahna o'yinlari jarayonida bolalar turli hayotiy vaziyatlarni aks ettirish orqali empatiya va hissiy moslashuvchanlikni o'zlashtiradilar. Bu ularning jamiyatda o'zlarini erkin his qilishlari, boshqa insonlarni tushunishlari va o'z his-tuyg'ularini boshqalar bilan to'g'ri baham ko'rishlari uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi. Sahnalashtirish jarayonida bola o'ziga yuklatilgan rolgaga kirishib, qahramonning his-tuyg'ularini chuqur anglashga harakat qiladi. Masalan, sahnada quvonchli, g'amgin yoki hayajonli holatlar aks ettirilganda, bola ushbu emotsional holatlarni boshidan kechirib, ularga mos harakat va ifodalarni shakllantirishga intiladi. Bu esa uning hissiyotlarini chuqurroq anglash va boshqalar his-tuyg'ulariga nisbatan sezgir bo'lish qobili-

yatini rivojlantiradi. Bundan tashqari, sahnalashtirish faoliyati bolalarni muayyan hissiy holatlarga mos ravishda harakat qilishga o'rgatadi. Masalan, agar qahramon qiyin vaziyatni yengib o'tishi kerak bo'lsa, bola ushbu jarayonni o'zida his qilgan holda, ichki hissiyotlarini nazorat qilish va to'g'ri ifodalashga harakat qiladi. Bu esa real hayotda ham hissiy barqarorlikni saqlash, stressli holatlarga moslashish va qiyinchiliklarni yengib o'tish qobiliyatini mustahkamlashga yordam beradi. Shuningdek, sahnalashtirish orqali bolalar o'z hissiyotlarini so'zlar, mimika va tana harakatlari orqali ifodalashni o'rganadilar. Ular sahnada turli qahramonlarning kayfiyatlarini aks ettirarkan, his-tuyg'ularni aniq yetkazish, auditoriya bilan hissiy aloqa o'rnatish kabi muhim ko'nikmalarga ega bo'ladilar. Natijada, bola o'z his-tuyg'ularini to'g'ri anglash va ifodalash bilan birga, boshqa insonlarning hissiy holatini ham yaxshiroq tushuna boshlaydi. Umuman olganda, sahnalashtirish faoliyati bolalarning hissiy ongini shakllantirish, empatiya va o'zini ifodalash qobiliyatlarini rivojlantirishda beqiyos ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon orqali ular hayotiy vaziyatlarni chuqurroq anglaydilar, o'z hissiyotlarini boshqarishni o'rganadilar hamda jamiyatda ochiq, ishonchli va hissiyotlarini boshqalar bilan samarali tarzda baham ko'ra oladigan shaxslar sifatida kamol topadilar.

**Ta'lim jarayonida sahnalashtirish markazining o'rni.** Maktabgacha ta'lim muassasalarida sahnalashtirish markazlarini tashkil etish bolalarning ijodiy va ijtimoiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashning samarali usullaridan biridir. Bunday markazlar orqali bolalar teatr san'ati bilan tanishib, sahna o'yinlarini o'rganish, rollarga mos kiyim-kechaklar va o'yinchoqlar bilan ishlash hamda sahna ijrosi uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon bolalarning faqat ijodiy salohiyatini oshiribgina qolmay, balki ularning muloqot qobiliyatlari, jamoada ishlash ko'nikmalari va o'z fikrlarini erkin ifoda etish qobiliyatini ham rivojlantiradi. Sahnalashtirish markazi bolalarga turli hikoya va ertak qahramonlarining obrazlarini jonlantirish orqali tasavvurlarini kengaytirish va o'z g'oyalarini erkin ifodalash imkoniyatini beradi. Masalan, bolalar o'zlarini eshitgan ertak yoki hikoya asosida sahna ko'rinishlarini yaratib, uni ijro etish orqali voqealar rivojini o'z tasavvurlariga muvofiq shakllantirishga harakat qiladilar. Bu esa ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, sahnalashtirish markazi bolalarga turli kasb-hunarlar bilan tanishish imkoniyatini ham taqdim etadi. Masalan, tibbiyot xodimi, o'qituvchi, olim, sportchi yoki san'atkor obrazlarini yaratish orqali bolalar ushbu kasblarning mohiyatini anglaydilar va ularning jamiyatdagi rolini tushunib boradilar. Bu esa ularning kelajakdagi qiziqishlari va kasb tanlash jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuningdek, bunday markazlarda sahna o'yinlari orqali bolalar o'zlarining hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradilar. Sahna ijrosi davomida ular bir-birlarini tinglash, hamkorlikda ishlash, turli emotsional holatlarga mos ravishda harakat qilishni o'rganadilar. Bu esa ularning jamiyatda o'z o'rnini topishiga, shaxslararo munosabatlarni yaxshilashga hamda empatiya va tushunish qobiliyatlarini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, sahnalashtirish markazi bolalar nutqining rivojlanishida ham muhim rol o'ynaydi. Ular spektakllar jarayonida dialoglar yod olish, so'z boyligini oshirish va aniq talaffuz qilishga e'tibor qaratadilar. Bu esa ularning nutqiy faolligini oshirib, muloqot qilish qobili-

yatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim muassasalarida sahnalashtirish markazlarini tashkil etish bolalarning har tomonlama rivojlanishiga katta hissa qo'shadi. Bu markazlar orqali bolalar nafaqat ijodiy salohiyatini oshirib, balki ijtimoiy, hissiy va intellektual jihatdan ham kamol topadilar. Shu boisdan, bunday sahnalashtirish markazlarini keng joriy etish va ularning samarali faoliyat yuritishini ta'minlash bolalar ta'limi va tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, sahnalashtirish faoliyatini o'quv jarayonida muntazam qo'llash bolalarning shaxsiy rivojlanishida ham, ularning bilim olish jarayonida ham muhim o'zgarishlarga olib kelishi mumkin. Bu usul nafaqat darslarni qiziqarli qiladi, balki bolalarning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish, ularni ijodiy fikrlashga o'rgatish va o'z his-tuyg'ularini to'g'ri ifodalashga yordam berish kabi ko'plab foydali jihatlarga ega. Shu bois, sahnalashtirish metodini ta'lim tizimiga keng joriy etish va uni samarali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar

1. Neelands J. Drama as Creative Learning. Routledge. 2009.
2. Heathcote D. Collected Writings on Education and Drama. Hutchinson. 1984.
3. Wagner B.J. Educational Drama and Language Arts: What Research Shows. Heinemann. 1998.
4. O'Toole, J., Dunn J. Pretending to Learn: Helping Children Learn Through Drama. Pearson. 2002.
5. Sawyer R.K. Explaining Creativity: The Science of Human Innovation. Oxford University Press. 2011.
6. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press. 1978.
7. Baldwin P. With Drama in Mind: Real Learning in Imagined Worlds. Continuum. 2012.
8. Winston J., Tandy M. Beginning Drama 4-11. Routledge. 2018.

**РЕЗЮМЕ.** Ushbu maqolada sahnalashtirish faoliyatining ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Sahnalashtirish faoliyati o'quvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirish, muloqot ko'nikmalarini mustahkamlash va hissiy moslashuvchanlikni shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Maktabgacha ta'lim muassasalarida sahnalashtirish markazlarini tashkil etish orqali bolalarning tasavvur va shaxsiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mumkin. Ushbu faoliyat bolalarda ijtimoiy moslashuvchanlik, madaniyatlararo tushunish va empatiya kabi qobiliyatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье освещаются роль и значение театрализованной деятельности в образовательном процессе. Драматизация служит эффективным инструментом развития творческого мышления учащихся, повышения коммуникативных навыков, воспитания эмоциональной адаптивности. Создание центров драматизации в дошкольных образовательных учреждениях может способствовать развитию воображения и личности детей. Эта деятельность способствует развитию социальной адаптивности, межкультурного понимания и эмпатии у детей, что делает ее жизненно важным аспектом целостного образования.

**SUMMARY.** This article highlights the role and significance of dramatization activities in the educational process. Dramatization serves as an effective tool for developing students' creative thinking, enhancing communication skills, and fostering emotional adaptability. Establishing dramatization centers in preschool educational institutions can support the imagination and personal development of children. This activity contributes to the development of social adaptability, intercultural understanding, and empathy in children, making it a vital aspect of holistic education.

#### СТОРИТЕЛЛИНГ МАКТАБДА ФИЗИКАНИ ЎҚИТИШНИНГ ИННОВАЦИОН МЕТОДИ СИФАТИДА

**И.Ерленисова – таянч докторант**

*Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти*

**Таянч сўзлар:** сторителлинг, физика таълими, ўқитиш методикаси, когнитив психология, ўқитишда хикоялар, педагогик инновациялар.

**Ключевые слова:** сторителлинг, обучение физике, методика преподавания, когнитивная психология, истории в обучении, педагогические инновации.

**Key words:** storytelling, teaching physics, teaching methodology, cognitive psychology, stories in learning, pedagogical innovations.

Замонавий таълим жараёнида ўқитишнинг самарали усуллари излаш масаласи бугунги кунда энг долзарб масалалардан бири бўлиб қолмоқда. Айниқса, бу физика каби фанларга тегишли бўлиб, физика фанидаги кўплаб тушунчалар ва қонунлар мактаб ўқувчиларида материални ўзлаштиришда қийинчиликларни келтириб чиқаради. Бу қийинчиликларни бартараф этишнинг истикболли йўналишларидан бири ўқитишда хикоя ва ривоя элементларидан фойдаланишдир.

Физика ўқитишнинг тарихий жиҳати ўқувчиларнинг билиш қобилиятларини ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди. Табиатнинг фундаментал қонунлари қандай кашф этилгани, илмий ютуқлар қандай меҳнат ва матонат билан қўлга киритилгани ҳақида хикоя қилиш ўқувчиларга илм-фан қуруқ назариялар тўплами эмас, балки доимий изланиш ва тажриба ўтказишнинг жонли

жараёни эканлигини кўриш имконини беради. Исаак Нютон, Галилео Галилей, Алберт Эйнштейн ва бошқа кўплаб таникли олимлар ҳақидаги хикояларни жалб қилиш физика дарсларини вақт бўйлаб қизиқарли саҳнатга айлантиради, бунда ҳар бир кашфиёт тадқиқотчининг шахсий тақдирининг драматизми ва ҳақиқат учун қураш олиб борилган давр контексти билан бирга келади [1-2].

Бугунги кунда таълимда бир вақтлар унутилган, аммо яхши синовдан ўтган «хикояларни хикоя қилиш» усули фаол жорий этилмоқда, у инглизча сторителлинг сўзидан келиб чиққан ҳолда "storytelling" деб номланган: *story* – хикоя ва *telling* – тақдимот, *storytelling* сўзи биринчи марта АҚШ корпорацияларидан бирининг раҳбари Девид Армстронг томонидан компаниянинг иш фаолиятини яхшилаш ва янги келганларни тезда

ўқитиш учун қўлланилган, бу ерда "назария ва амалиёт ўртасидаги боғлиқлик тамойиллардан бирига айланади" [3].

Сторителлинг ёки ҳикоя қилиш санъати узок вақтдан бери маданият ва таълимда мураккаб ғоялар ва тушунчаларни етказиш учун қўлланилади. Бу методика асосида ҳикоя кўринишида берилган маълумотлар яхши эсда қолади ва эмоционал идрок этилади деган тамойил ётади. Бунда ўқувчи ҳикояни фактлар тўплами сифатида қабул қилмайди, балки ўрганилаётган материални аниқ ҳаётий вазиятлар, муаммолар ва ечимлар билан боғлай бошлайди, бу эса барқарор билимларни шакллантириш жараёнини сезиларли даражада осонлаштиради. Бу, айниқса, кўплаб тушунчалар мавҳум фикрлашни ва оддий кўз билан кўриб бўлмайдиган жараёнларни тасаввур қилишни талаб қиладиган физикани ўрганишда долзарбдир [4-6].

Физика дарсларидаги ҳикоялар турли шаклларда бўлиши мумкин: бу буюк олимларнинг таржимаи ҳолларини қайта ҳикоя қилиш ҳам, физик қонунларнинг келиб чиқиши, ихтиролар тарихи ва ҳатто ўқувчиларга ғайриоддий ҳодисаларга дуч келган тадқиқотчилар ролига кириш таклиф қилинадиган ҳаёлий ҳикоялар ҳам бўлиши мумкин. Бундай ёндашув нафақат асосий физик тушунчаларни ўзлаштиришга ёрдам беради, балки танкидий фикрлашни ривожлантириш, олинган маълумотларни таҳлил қилиш ва шахсий ҳулосалар чиқариш қобилиятини рағбатлантиради. Айнан ҳиссий идрок ва ассоциатив тафаккур орқали ўқувчилар теварак-атрофда содир бўлаётган ҳодисаларнинг моҳиятини тушуна бошлайдилар [7-9].

Бундай ёндашувнинг фанлараро боғлиқлиги ҳам муҳим жиҳат ҳисобланади. Физика дарсларида ҳикоялардан фойдаланиш турли соҳалардаги билимларни бирлаштириш имконини беради: фан тарихи, фалсафа, психология, бу эса ўрганилаётган мавзуга яхлит қарашни шакллантиришга ёрдам беради. Ўқувчилар қонун ва формулаларни шунчаки эслаб қолмайдилар, балки фан ва ҳаёт, назария ва амалиёт ўртасидаги боғлиқликни кўра бошлайдилар. Натижада, дарс шунчаки билим бериш эмас, балки ўқувчининг ўзи қизиқарли тадқиқот иштирокчисига айланадиган ҳақиқий мулоқотга айланади [10-11].

Шуни ҳам таъкидлаш жоизки, ўқувчи кўплаб визуал ва аудиовизуал стимуллар билан ўралган замонавий ахборот асри шароитида анъанавий ўқитиш усуллари кўпинча самарасиз бўлиб қолмоқда. Ўқитишда ҳикоялардан фойдаланиш классик ёндашув ва янги таълим технологиялари ўртасидаги ўзига хос кўприк бўлиб, у медиа, интерактив тақдимотлар ва ҳатто ролли ўйинлар элементларини бирлаштиришга имкон беради. Бундай метод нафақат материални яхшироқ идрок этишга, балки ўқувчиларнинг билиш фаоллигини фаоллаштиришга, уларнинг ижодий қобилиятлари ва мулоқот кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам беради.

Мақоланинг асосий қисмида физика ўқитишда ҳикоялардан фойдаланиш методологиясини батафсил кўриб чиқамиз, ушбу ёндашувнинг амалиётда қўлланилишига мисоллар келтирамиз ва унинг педагогик самардорлигини таҳлил қиламиз. Ушбу мавзуларнинг ҳар бирини батафсил ўрганиш ҳикоя қилиш мактаб дастурига қандай киритилиши мумкинлигини, ўқитувчилар қандай усуллар ва техникалардан фойдаланишини,

шунингдек, ҳикоялар мураккаб физик тушунчаларни яхшироқ ўзлаштиришга қандай ҳисса қўшишини тушунишга имкон беради.

**Асосий қисм.** Физика ўқитишда ҳикоялардан фойдаланиш нафақат инновацион усул, балки диалог, эмпатия ва шахсий ўзаро таъсирга асосланган анъанавий педагогик ёндашувларнинг табиий давомидир. Кейинги бўлимларда физика дарсларида сторителлингни қўллашнинг назарий жиҳатларини батафсил кўриб чиқамиз, аниқ мисолларни таҳлил қиламиз ва дарсларини янада жонли, қизиқарли ва самарали ўтказишга интилаётган ўқитувчилар учун амалий тавсияларни таҳлил қиламиз. Бундай фанлараро ёндашув назария ва амалиёт ўртасидаги тўсиқларни бартараф этиш, таълим жараёнини фан тарихи саҳифалари бўйлаб қизиқарли саёҳатга айлантириш ва ўқувчилар олдида дунёни англашнинг янги уфқларини очиш имконини беради.

Когнитив психология ва педагогика соҳасидаги замонавий тадқиқотлар шуни тасдиқлайдики, боғланган ҳикоя шаклида тақдим этилган маълумотлар ўқувчилар томонидан яхшироқ эслаб қолинади ва қайта тикланади. Ҳикоялар миянинг ҳиссий ва мазмунли маълумотларни қайта ишлаш учун масъул бўлган турли қисмларини фаоллаштиради, бу эса билимларни чуқурроқ мустаҳкамлашга ёрдам беради. Сторителлингни қўллаш орқали ўқитувчи шундай контекст яратадики, унда физик қонунлар ва назариялар жонланади, мавҳум формулалардан ҳақиқий ҳаётий ҳикояларга айланади.

Масалан, бутун олам тортишиш қонунини олайлик. Агар формулани шунчаки ёзиб қўйсангиз, ўқувчилар унинг моҳиятини тушунишга қийналишлари мумкин. Бироқ Исаак Нютон олмаларнинг тўкилишини кузатиб, ушбу қонунни кашф этгани ҳақидаги ҳикоя бу тушунчага жонлилик ва тарихийлик бағишлайди. Бундай ҳикоя нафақат қизиқиш уйғотади, балки "Нима учун айнан олма?" ёки "Қонуннинг кашф этилишига қандай ҳолатлар таъсир кўрсатди?" деган саволларни ҳам рағбатлантиради. Бу саволлар дарсда кейинги изланиш-лар ва муҳокамалар учун бошланғич нукта бўлади.

*Физика дарсларида ҳикояларни интеграциялашнинг амалий усуллари.* Физика дарсларида ҳикоя элементларини киритишнинг кўплаб усуллари мавжуд. Самарали усуллардан бири *мультимедияли тақдимотлардан* фойдаланиш бўлиб, унда матн иллюстрациялар, архив фотосуратлари, анимациялар ва ҳатто видеоматериаллар билан бирга келади. Бундай комплекс ёндашув ўқувчилар материални визуал ва ҳиссий идрок эта оладиган "жонли ҳикоя" муҳитини яратишга ёрдам беради.

*1-мисол. Инерция қонунининг кашф этилиши тарихи.* Дарсда, ривоятларга кўра, Галилей қия текисликда жисмлар билан тажрибалар ўтказганлиги ҳақида ҳикоя қилиш мумкин. Сўнгра тажрибанинг ўзини батафсил тавсифлаш, бунда нафақат техник тафсилотларга, балки олимнинг ҳиссий ҳолатига, унинг шубҳаларига ва ўз кузатувларининг ҳақиқатлигини исботлашга интилишига ҳам эътибор бериш керак. Бундай ҳикоя қадимги лабораторияларнинг тасвирлари, тажрибаларнинг реконструкциялари ва ҳатто Уйғониш даври адабий тасвирларининг парчалари билан тушинтирилади, натижада ўқувчилар инерция қонунини эслаб қоладилар.

2-мисол. Нисбийлик назариясининг ривожланиши ҳақида ҳикоя. Алберт Эйнштейн ва унинг нисбийлик назарияси соҳасидаги инқилобий кашфиётлари тарихи мураккаб ғояларни қандай қилиб қизиқарли ҳикоя шаклида тақдим этиш мумкинлигига ёрқин мисол бўла олади. Ўқитувчи Эйнштейн ёруғлик ва вақтнинг табиати ҳақида ўйлаганини, унинг фикрлари аста-секин олам ҳақидаги тасаввурларни ўзгартирувчи инқилобий назарияга айланганини сўзлаб беради. Таъсирни кучайтириш учун архив фотосуратлари, олимнинг мактубларидан иқтибослар келтирилган слайдлар, шунингдек, замонавий олимлар унинг кашфиётларининг аҳамиятини муҳокама қиладиган қисқа видеолардан фойдаланилади. Бундай дарс физикага қизиқишни рағбатлантиради, ўқувчиларга энг мураккаб тушунчалар ҳам қизиқувчанлик ва атрофдаги дунёни чуқур таҳлил қилиш натижасида туғилишини тушунишга ёрдам беради.

3-мисол. Физикада афсона ва ривоятлар. Физик ходисаларни тушунтириш учун мифология элементларидан фойдаланиш қизиқарли ёндашув бўлиши мумкин. Масалан, қадимги маданиятларнинг чакмоқ ва момақалдиروқни тушунтиришга уринишлари ҳақидаги ҳикояни замонавий электр разрядлари тушунчаси билан такқослаш мумкин. Ўқитувчи чакмоқни бошқарувчи худо Зевс ҳақидаги қадимги юнон афсоналарини келтиради, сўнгра электр табиати ҳақидаги тасаввурлар ҳозирги замон электродиникасининг яратилишигача қандай ривожланганлигини тушунтиради. Бундай усул ўқувчиларга билимлар эволюциясини кўриш ва фан доимий равишда ривожланиб боришини тушуниш имконини беради, афсоналарни эмпирик маълумотлар ва назарий моделлар билан алмаштиради [8-10].

Ҳикоялардан фойдаланишнинг афзалликлари яққол кўриниб турибди: улар дарсларни жонли қиладди, ўқувчиларга материални яхшироқ эслаб қолишга ёрдам беради, ҳиссий интеллект ва танқидий фикрлашни ривожлантиришга кўмаклашади. Бироқ, ҳар қандай инновацион усул сингари, ҳикоя қилишнинг ҳам ўзига хос муаммолари мавжуд. Муаммолардан бири материални пухта тайёрлаш зарурати: тарих нафақат қизиқарли, балки ўқув дастурига мос келиши, бадий баён қилишда илмий аниқликни йўқотмаслиги керак. Ўқитувчи ҳиссий компонент ва баённинг объективлиги ўртасидаги мувозанатни сақлай олиши керак.

Яна бир муаммо - ўқувчилар идрокининг хилма-хиллигидир. Индивидуал хусусиятларга қараб, баъзи ўқувчилар ҳиссий ҳикояга кўпроқ моил бўлишлари мумкин, бошқалари эса анъанавий схемалар ва графиклар орқали тушунчаларни кўшимча тушунтиришлари керак бўлади. Бу ерда ҳикоялар кўргазмалар куруллар, тажрибалар ва амалий топшириқлар билан тўлдирилганда комбинацияланган ёндашув ёрдам беради. Шундай қилиб, физика дарсларида сторителлингни қўллаш ўқитувчидан нафақат ижодий ёндашувни, балки психологик-педагогик тамойилларни чуқур тушунишни ҳам талаб қиладди.

#### Адабиётлар

1. Абутинов М.В., Колинский К.П., Чирцов А.С. Серия электронных сборников «Физика: модель, эксперимент, реальность». Старшеклассникам о гравитации. Компьютерные инструменты в образовании, №. 6, 2004. –С. 3-16.
2. Лопатухина И.Е. и др. Очерки по истории механики и физики: Учебное пособие для студентов и аспирантов, обучающихся по направлениям: астрономия, математика, механика, прикладная математика, физика. – СПб.: ВВМ, 2016. –С. 204.

Физика ўқитишда ҳикоялар методини муваффақиятли амалга ошириш учун қўйидаги жиҳатларни ҳисобга олиш зарур:

- Ҳикоя ўқувчиларнинг ёши ва тайёргарлик даражасига мослаштирилиши керак. Кичик синфлар учун содда ва кўргазмалар мисоллардан фойдаланган маъқул, катта синфлар учун эса мураккаб илмий тафсилотлар ва фалсафий мулоҳазаларни киритиш мумкин.

- Ўқувчиларни муҳокама жараёнига жалб қилиш, саволлар бериш, ролли ўйинлар ва ақлий ҳужумлар ўтказиш муҳим, шунда ҳикоя мустақил билим излаш учун бошланғич нуктага айланади.

- Ҳар бир ҳикоя дарсининг тузилишига мантиқан мос келиши ва механика, электр ёки оптика қонунлари бўладими, аниқ физик тушунчаларни ўзлаштиришга ёрдам бериши керак.

- Ҳикоядан сўнг суҳбат уюштириш, ўқувчиларга саволлар бериш ва ўз таассуротлари билан ўртоқлашиш имкониятини яратиш керак. Бу қайси жиҳатлар ўзлаштирилганини, қайсилари эса кўшимча тушунтиришни талаб қилишини аниқлашга имкон беради.

Шундай қилиб, сторителлинг нафақат ўтмиш ҳақида ҳикоя қилиш усули, балки ўқувчиларнинг илмий дунёқарабини шакллантиришнинг кучли воситасига айланади. Илм-фан тарихидан олинган мисоллар визуал ва ҳиссий элементлар билан биргаликда физиканинг мавҳум қонунларини осон эслаб қолинадиган ва мавзунини янада ўрганишга қизиқиш уйғотадиган жонли ҳикояларга айлантиришга ёрдам беради.

Умумий таълим мактабларида асосий физик тушунчалар ва назарияларни ўқитишда ҳикоялардан фойдаланиш усулини педагогик амалиётнинг инновацион ва юқори самарали воситасидир. Мақола давомида биз ушбу ёндашувни қўллашнинг амалий мисолларини кўриб чиқдик ва ўқитувчилар ўқув жараёнига ҳикоя элементларини жорий этишда дуч келадиган афзалликлар билан бирга юзага келиши мумкин бўлган қийинчиликларни ҳам аниқладик.

Хулоса қилиб шунини таъкидламоқчимизки, физикани ўқитишда ҳикоя қилиш - бу дунёни чуқурроқ ва мазмунли идрок этиш йўли бўлиб, унда ҳар бир формула ва қонун ўз тарихига эга бўлади, ҳар бир кашфиёт эса инсониятнинг табиатни тушуниш йўлидаги улкан йўлнинг бир қисмига айланади. Шундай қилиб, физика ўқитишда ҳикоялардан фойдаланиш замонавий таълим жараёнининг ажралмас қисмига айланиб, ҳар бир ўқувчининг ақлий, ҳиссий ва ижодий салоҳиятини уйғун ривожлантиришга хизмат қилмоқда. Бу усул ўқитувчи ва талабалар учун янги уфқларни очиб беради, жонли ва самимий ҳикоя қилинган фан нафақат ўқув жараёнини, балки тинглашга, тушунишга ва буюк кашфиётларни орзу қилишга тайёр бўлган ҳар бир кишининг ҳаётини ўзгартиришга қодир эканлигини кўрсатади.

3. Пяткова О.Б. Метод сторителлинга в обучении. //Школьные технологии. 2018. №. 6. -С. 41-45.
4. Тихонова Е.В. "Storytelling" в преподавании: вызовы современности и педагогическая практика //Психология образования в поликультурном пространстве. 2016. №. 2. - С. 136-143.
5. Dudacek O. Transmedia storytelling in education //Procedia-Social and Behavioral Sciences. T. 197. 2015. –P. 694-696.
6. Satriani I. Storytelling in teaching literacy: Benefits and challenges //English Review: Journal of English Education. 2019. T. 8. №. 1. –P. 113-120.
7. Ремизова Е.С. "Проблема изучения вопросов истории физической науки в средней общеобразовательной школе в условиях применения компьютерных технологий обучения" Вестник Пермского государственного гуманитарно-педагогического университета. Серия: Информационные компьютерные технологии в образовании. №. 5, 2009. –С. 53-64.
8. Оспенникова Е.В., Шестакова Е.С. "Принцип историзма в обучении физике: содержание и модели реализации в средней общеобразовательной школе" Педагогическое образование в России. №4, 2010. –С. 67-75.
9. Капралов А.И. Историзм как критерий модификации содержания школьного учебника физики. // Образование и наука. № 9, 2009. –С. 82-90.
10. Андреева Н.С.. Использование межпредметных связей при изучении географии и физики в процессе обучения школьников. // Вестник науки. vol. 4, №. 6 (75), 2024. –С. 524-531.
11. Хизбуллина Р.З., Еникеев Ю.А. Использование междпредметных связей при изучении географии и физики в процессе самообразования школьников. // Современные проблемы науки и образования. 2020. № 1. -С.18-41.

**РЕЗЮМЕ.** Мақолада мактабда физика ўқитишнинг самарали усули сифатида сторителлинг методининг қўлланилиши кўриб чиқилади. Методнинг назарий асослари таҳлил қилинади, уни амалга ошириш бўйича амалий мисоллар келтирилади ва педагоглар учун тавсиялар берилади.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается метод сторителлинга как эффективный инструмент преподавания физики в школе. Применение историй о научных открытиях и выдающихся ученых позволяет сделать уроки более эмоционально насыщенными, увлекательными и запоминающимися. В статье анализируются теоретические основы метода, приводятся практические примеры его реализации и даются рекомендации для педагогов.

**SUMMARY.** The article examines the use of the story-telling method as an effective method of teaching physics at school. The theoretical foundations of the method are analyzed and are given practical examples of its implementation and recommendations for pedagogues are given.

## ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ ДЛЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ В ШКОЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

**А.Б.Камалов** – доктор физико-математических наук, профессор

**Н.Ж.Нажиматдинова** – магистрант

*Нукусский государственный педагогический институт имени Ажинияза*

**Таянч сўзлар:** электродинамика, ахборот технологиялари, виртуал лабораториялар, симуляциялар, мактаб таълими, физика, визуализация, танқидий фикрлаш.

**Ключевые слова:** электродинамика, информационные технологии, виртуальные лаборатории, симуляции, школьное образование, физика, визуализация, критическое мышление.

**Key words:** electrodynamics, information technologies, virtual laboratories, simulations, school education, physics, visualization, critical thinking.

**Введение.** В последние десятилетия в образовательных процессах значительно возросла роль информационных технологий (ИТ), которые оказывают мощное влияние на различные аспекты школьного образования. Использование современных ИТ в обучении физике и, в частности, в изучении электродинамики, открывает новые возможности для улучшения восприятия материала, повышения интереса учеников и эффективности усвоения знаний. Такие технологии включают мультимедийные пособия, симуляции, виртуальные лаборатории, онлайн-платформы для общения и сотрудничества, а также другие инструменты, которые помогают создавать интерактивные и гибкие условия для учебного процесса.

Современные ИТ-ресурсы позволяют учителям создавать более наглядные и увлекательные уроки, которые подчеркивают связь теории с практическими экспериментами, позволяют быстро и точно моделировать различные физические процессы, а также позволяют детям самостоятельно исследовать научные явления в цифровой среде. Эти инструменты не только

помогают ученикам лучше понять сложные концепции, но и позволяют адаптировать образовательный процесс под индивидуальные потребности и способности каждого школьника [1-4].

**Основная часть.** В основной части статьи будут рассмотрены различные аспекты применения информационных технологий в изучении электродинамики в школьном курсе. Мы охватим как общие подходы, так и конкретные примеры использования ИТ-инструментов, которые могут способствовать улучшению восприятия материала, развитию критического мышления и самостоятельной исследовательской деятельности школьников.

Раздел электродинамики, как правило, включает в себя несколько ключевых тем, таких как законы Кулона и Ампера, электрическое и магнитное поле, электромагнитные волны и взаимодействие зарядов и токов. Все эти явления можно проиллюстрировать с помощью виртуальных моделей и симуляций, которые делают физику не только более доступной, но и более увлекательной для учеников. Например, с помощью

соответствующих программ можно наблюдать за движением зарядов в разных типах полей, анализировать результаты взаимодействий и проводить виртуальные эксперименты, что невозможно при традиционном подходе к обучению.

### **Визуализация физических процессов**

Одним из главных преимуществ применения ИТ в обучении электродинамике является возможность визуализации процессов, которые трудно воспроизвести в реальной жизни или они слишком сложны для восприятия без наглядных моделей [5, 6]. Например, электростатическое взаимодействие зарядов можно проиллюстрировать с помощью интерактивных симуляторов, где ученики могут изменять параметры зарядов и наблюдать, как меняются силы взаимодействия и линии поля.

Пример: в одной из популярных образовательных платформ, таких как PhET (виртуальные лаборатории для школьников), существует симулятор, который позволяет изучать взаимодействие электростатических зарядов. Ученики могут изменять расстояние между зарядами, их величины, а также наблюдать за изменениями в электрическом поле, что позволяет более глубоко понять принцип работы закона Кулона и его применение на практике.

На платформе действительно существует симулятор, который позволяет учащимся исследовать взаимодействие электростатических зарядов. В этом симуляторе школьники могут менять различные параметры, такие как величина зарядов, расстояние между ними, а также наблюдать за поведением электрического поля, что делает сложные физические принципы более доступными и наглядными.

Давайте подробнее разберемся, как этот инструмент работает на практике и что он дает учащимся.

- *Изменение расстояния между зарядами:* В симуляторе учащиеся могут перемещать два или более заряда, увеличивая или уменьшая расстояние между ними. Это позволяет визуально наблюдать, как изменяется сила взаимодействия между зарядами в зависимости от расстояния, что соответствует закону Кулона. Ученики могут увидеть, как при увеличении расстояния сила уменьшается, а при уменьшении — усиливается. Это наглядно демонстрирует основной принцип: сила взаимодействия обратно пропорциональна квадрату расстояния между зарядами.

- *Изменение величины зарядов:* Учащиеся также могут изменять величины самих зарядов, наблюдая, как это влияет на силу взаимодействия. Например, при увеличении заряда сила взаимодействия возрастает, что подкрепляет понимание того, что сила пропорциональна произведению величин зарядов. Это помогает понять, как закон Кулона влияет на реальные физические процессы.

- *Наблюдение изменений в электрическом поле:* Виртуальная лаборатория PhET дает возможность увидеть, как электрическое поле меняется в зависимости от положения зарядов. Ученики могут наблюдать распределение линий поля, что позволяет более глубоко понять структуру электрического поля и его связь с расположением зарядов. Таким образом, они могут увидеть, как линии поля идут от положительных

зарядов и к отрицательным, и как это взаимодействует с другими объектами в поле.

Этот симулятор является отличным примером того, как ИТ могут использоваться для углубленного понимания теоретического материала. Он позволяет учащимся не только лучше понять закон Кулона, но и применить полученные знания для анализа различных ситуаций, что невозможно было бы сделать без таких интерактивных инструментов.

Кроме того, возможность работы с таким симулятором позволяет ученикам развивать навыки самостоятельного экспериментирования и научного подхода, улучшая их способность анализировать физические явления и находить закономерности в том, что они наблюдают. Это очень важно, поскольку активное вовлечение учеников в процесс исследования значительно повышает их мотивацию и интерес к учебному процессу.

### **Создание интерактивных учебных пособий**

ИТ также позволяют создавать интерактивные учебные пособия и учебные курсы, которые могут быть использованы как на уроках, так и для самостоятельного обучения. Эти пособия могут включать в себя видеоуроки, анимации, задачи с пошаговыми решениями, а также тесты и квизы для контроля усвоения материала [7, 8].

Пример создания анимаций для иллюстрации движения зарядов через проводник с постоянным током — это отличная возможность для школьников понять, как этот процесс происходит на микроскопическом уровне. В обычных условиях трудно увидеть, как именно движутся электроны в проводнике, но с помощью анимации процесс становится наглядным и доступным для восприятия. Это позволяет ученикам понять, что происходит внутри проводника при прохождении электрического тока, что является важным аспектом изучения электродинамики.

- *Демонстрация движения зарядов через проводник:* Анимации позволяют увидеть, как электроны в проводнике начинают двигаться, когда в цепи появляется электрическое поле. Визуализируя это движение, ученики могут наблюдать, как электроны сталкиваются с атомами в проводнике, создавая сопротивление и выделяя тепло. Это помогает объяснить, почему проводники с разным сопротивлением по-разному проводят ток, а также демонстрирует физические основы таких явлений, как нагревание проводников при протекании тока.

- *Микроскопический взгляд на процессы:* Анимации показывают не просто общий процесс, но и детали, такие как скорость движения электронов, их взаимодействие с атомами в решетке и влияние внешних факторов, например, температуры. Это позволяет глубже понять, как макроскопические явления, такие как ток в проводнике, имеют свои микроскопические механизмы, которые не всегда видны на обычном уровне.

- *Виртуальные лаборатории и эксперименты:* В дополнение к анимациям, виртуальные лаборатории могут предложить школьникам различные интерактивные задания и эксперименты, которые помогают закрепить теоретические знания и применить их на практике. Например, ученики могут варьировать

параметры, такие как сила тока, напряжение, сопротивление проводника, и видеть, как это влияет на движение зарядов и характеристики тока. Эти эксперименты способствуют развитию аналитического мышления, так как ученики учат оценивать, какие изменения в условиях эксперимента приводят к изменениям в результатах.

• **Вычисление силы взаимодействия между зарядом и полем:** В виртуальных лабораториях ученики могут также заниматься вычислениями силы взаимодействия между зарядом и электрическим или магнитным полем. Используя численные методы, они могут вычислять величины, такие как напряженность поля, силу, действующую на заряд, или магнитное поле, создаваемое током в проводнике. Эти вычисления позволяют более точно понять математические законы электродинамики и научиться применять их для решения практических задач.

Одним из главных преимуществ ИТ является возможность повышения мотивации учеников. Применение технологий позволяет учителям разрабатывать интересные и разнообразные формы подачи материала, что делает уроки более увлекательными и динамичными [9].

Использование видеоконтента и анимаций является мощным инструментом в образовательном процессе, особенно в изучении таких сложных разделов, как электродинамика. Видео и анимации помогают визуализировать абстрактные физические концепции,

облегчая их восприятие и закрепление в памяти. Особенно полезно это для школьников, которые сталкиваются с трудностями в восприятии теоретического материала, связанного с микроскопическими процессами и сложными взаимодействиями.

**Закключение.** Применение информационных технологий в обучении физике, и в частности в изучении раздела "Электродинамика", представляет собой важный шаг к модернизации образовательного процесса. Современные ИТ-инструменты позволяют значительно повысить эффективность обучения, делая процесс более увлекательным, доступным и интуитивно понятным для школьников. Виртуальные лаборатории, симуляции, анимации и другие ресурсы создают условия для глубокого и всестороннего понимания сложных физических явлений, помогая учащимся осваивать теоретические концепции через практическое взаимодействие с материалом.

Таким образом, использование ИТ в учебном процессе способствует не только улучшению усвоения знаний, но и развитию критического мышления, исследовательских навыков и творческого подхода к решению задач. В будущем интеграция ИТ в образовательную практику продолжит играть ключевую роль в повышении качества школьного образования, что, в свою очередь, позволит готовить учеников к успешной научной и профессиональной деятельности.

### Литература

1. Копылов В.Б., Копылова О.С., Афанасьева В.С. Обучение физике в школе и вузе с использованием новых информационных технологий. // Новые технологии в сельском хозяйстве и пищевой промышленности с использованием электрофизических факторов и озона. 2012. – С. 140-142.
2. Врясова Н.П. Применение информационных технологий в процессе обучения физики. // Научно-методический электронный журнал Концепт. 2013. Т. 3. – С. 2241-2245.
3. Чирцов А.С. Информационные технологии в обучении физике. // Компьютерные инструменты в образовании. 1999. № 2.
4. Михайлусов А.Г. Информационные технологии на уроках физики. // Перспективы развития информационных технологий. 2015, № 23. –С. 138-142.
5. Палванов М.Р. Использование программных средств для визуализации моделирования физических процессов. // Современные исследования: актуальные вопросы теории и. 2024. – С. 49.
6. Марко А.А., Марко И.Г. Визуализация задачных ситуаций по физике средствами «1С: Физического конструктора». // Информатика и образование. 2014. №. 7. – С. 256.
7. Савицких Н.Т. Использование интерактивных учебных пособий «наглядная физика» в учебном процессе. // Наука и образование: новое время. Научно-методический журнал. 2019. №. 1. - С. 105-110.
8. Белинская С.И., Мамыкина А.Ю. Интерактивное пособие по физике для подготовки к ЕГЭ. // Мир науки и инноваций. 2015. Т. 2. №. 2. – С. 59-63.
9. Камалов А.Б., Аширбекова С.У., Кайпназаров С.Г. Влияние цифровой медиасреды на усвоение знаний по физике школьниками. // Science and innovation. 2024. Т. 3. №. Special Issue 57. – С. 96-99.
10. Крутова И. А. Создание и применение цифрового видеоконтента для организации учебных исследований на уроках физики. // Современные наукоемкие технологии. 2019. № 8. – С. 132-136.
11. Урунбаев С. С. Новые подходы и методы обучения физике в современной школе. // Современные инновации. 2018. №. 5 (27). – С. 67-69.

**РЕЗЮМЕ.** Мақолада мактаб физика курсида "Электродинамика" бўлими ўқитишда ахборот технологияларини қўллаш имкониятлари кўриб чиқилган. ИТ-ресурслар, масалан, виртуал лабораториялар, симуляциялар ва интерактив қўлланмалар ёрдамида таълим самарадорлиги ва тушунарлилигини оширишнинг афзалликлари таъкидланди. Технологияларни қўллаш мисоллари келтирилган бўлиб, улар мураккаб физик жараёнларни визуализация қилишда ва ўқувчиларда танқидий фикрлаш ва тадқиқот қўникмаларни ривожлантиришга ёрдам беради.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются возможности применения информационных технологий в обучении разделу "Электродинамика" в школьном курсе физики. Описаны преимущества использования ИТ-ресурсов, таких как виртуальные лаборатории, симуляции и интерактивные пособия, для повышения эффективности и доступности обучения. Приведены примеры применения технологий, которые помогают визуализировать сложные физические процессы и способствуют развитию критического мышления и исследовательских навыков у школьников.

**SUMMARY.** The article explores the potential of integrating information technologies in teaching the "Electrodynamics" section of high school physics. It highlights the advantages of using IT resources, such as virtual laboratories, simulations, and interactive materials, to enhance the effectiveness and accessibility of education. Examples of technology applications are provided, demonstrating how they aid in visualizing complex physical processes and fostering critical thinking and research skills among students.

## **BILIMLAR JAMIYATI: FALSAFIY YONDASHUVLAR, IJTIMOIIY TA'SIRI VA ZARURATI**

**K.G' Kamolova** – *falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti*

**Tayanch so'zlar:** bilim, globalizatsiya, "bilimlar jamiyati", texnologik rivojlanish, innovatsiya, ijtimoiy taraqqiyot, ijtimoiy tenglik, sun'iy intellekt, uzluksiz ta'lim.

**Ключевые слова:** знания, глобализация, "общество знаний", технологическое развитие, инновации, социальный прогресс, социальная справедливость, искусственный интеллект, непрерывное образование.

**Key words:** knowledge, globalization, "knowledge society", technological development, innovation, social progress, social justice, artificial intelligence, continuing education.

**Kirish.** Hozirgi davr ilmiy-texnikaviy inqilobning jadal rivojlanishi, bilimlarni tez yangilash, ilmiy va ilmiy-texnikaviy axborotlar hajmi hamda innovatsiyalarga ehtiyojning oshganli, fanlardagi taraqqiyotning jadallashuvi bilan oldingilardan farq qiladi. Bu jarayonlar o'z navbatida "bilimlar jamiyati"ga bo'lgan talabni ham kuchaytirmoqda. Bilimlar jamiyati tushunchasi hozirgi davr ta'limining asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, insonlarning bilimga bo'lgan ehtiyojini qondirish, ta'lim sifatini oshirish va innovatsion metodlarni qo'llash imkonini beradi.

Bu borada Prezident Shavkat Mirziyoyev shunday ta'kidlaydi: "Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish eng muhim vazifamizdir. Innovatsiya bo'lmas ekan, hech bir sohada raqobat, rivojlanish bo'lmaydi.

Bu sohadagi o'zgarishlarni xalqimizga keng targ'ib qilmasak, odamlarda ko'nikma paydo qilmasak, bugungi davr shiddati, fan-texnikaning mislsiz yutuqlari bilan hamqadam bo'lolmaymiz" [1]. Bunday rivojlanishni "innovatsion inson" yarata oladi. Innovatsion inson fuqaroning iqtisodiy taraqqiyotda, ijtimoiy hayotda, fan va texnologiyalar rivojlanishida ro'y berayotgan o'zgarishlarning faol tashabbuskori, yaratuvchisi bo'lishini va bu o'zgarishlar uning hayotiy prinsiplarining ajralmas qismi bo'lib qolishini anglatadi. Bu esa, har bir yoshning qanday mutaxassis bo'lib yetishishiga, tarbiyalanishiga bog'liq.

Biz shaxsning kamol topish imkoniyatlariga nisbatan gumanistik jamiyatning bilimlar jamiyati sifatida shakllanishi haqidagi tasavvurga asoslangan yondashuvlarga qo'shilamiz. "Bunga erishish uchun hozirgi jamiyatni shunday o'zgartirish, qayta qurish kerakki, bilimlar, madaniy boyliklar uning ma'naviy, ijtimoiy-siyosiy va moddiy ishlab chiqarishlarida yaratilsin. Hozirgi jamiyatni bilimlarni yaratish va ularning amal qilishiga qayta yo'naltirishning zaruriyati, avvalambor, shu bilan belgilanadiki, yaxlit shaxsni shakllantirish va kamol toptirish, insonning mohiyati individum hayotda

o'zlashtirgan bilimlar majmui bilan belgilanishiga erishish yangi jamiyatning oliy maqsadi hisoblanadi" [2:207]. Shaxs innovatsion tipining o'ziga xos xususiyatlariga ham hozirgi jamiyat o'zgarishining ayni shu g'oyasidan kelib chiqib yondashiladi.

### **Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.**

Bilimlar jamiyati insonning yashash sharoitlarini yaxshilash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan bilimlarni yaratadi, baham ko'radi va jamiyatning barcha a'zolariga taqdim etadi [4].

Bilimga asoslangan jamiyat axborot jamiyatidan farq qiladi, chunki bilimga asoslangan jamiyat ma'lumotni jamiyatga samarali choralar ko'rishga imkon beradigan resurslarga aylantirishga xizmat qiladi, axborotlashgan jamiyat esa faqat ma'lumotlarni yaratadi va tarqatadi.

Qadimdan insoniyat tarixi davomida ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish mavjud bo'lgan. Biroq, zamonaviy bilimlar jamiyati g'oyasi axborot texnologiyalaridagi innovatsiyalar natijasi bo'lgan ma'lumotlarni yaratish va axborotni tarqatish har qanday sohada ish unumdorligi hajmining sezilarli darajada oshishiga asoslangan.

Bilimlar jamiyati konsepsiyasini o'rganishda dastlab shu fenomen bo'yicha izlanishlar olib borgan Piter Drukerning "The Age of Discontinuity" (1969), Manuel Castellsning "The Rise of the Network Society" (1996), Karl Popperring "The Open Society and Its Enemies" (1945), Jurgen Habermasning "The Theory of Communicative Action" (1981) nomli asarlariga murojaat qilish mumkin. Ushbu manbalarda ochiq jamiyat tushunchasi va uning bilimlar jamiyatiga ta'siri, global axborot jamiyatining rivojlanishi, texnologik taraqqiyot va bilimning iqtisodiy o'rni, bilimlar jamiyatining shakllanishi va uning biznes hamda jamiyat rivojiga ta'siri, bilimlar jamiyatida kommunikatsiyaning ahamiyati va muloqot orqali bilish jarayonlari tahlil qilinadi.

YUNESKO tomonidan "Towards Knowledge Societies" (2005) tayyorlangan hisobotda axborot jamiyatlaridan bilim

jamiyatlariga o'tish jarayonini tahlil qilinadi va bilimga asoslangan iqtisodiyot, ta'lim, texnologiya va axborot erkinligi, bilimlar jamiyatining rivojlanish tendensiyalari, bilim iqtisodiyotining ahamiyati va global ta'lim tizimining kelajagi haqida ma'lumotlar muhokama qilinadi.

#### **Tadqiqot metodologiyasi.**

«Bilimlar jamiyati» konsepsiyasini falsafiy tahlil qilish jarayonida bilimlar jamiyatining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy jarayon ekanligini nazarda tutgan holda **dialektik metoddan** foydalanish mumkin. Ya'ni, agrar jamiyat → industrial jamiyat → axborot jamiyati → bilimlar jamiyati har bir bosqich o'zidan oldingi bosqich bilan bog'liq bo'lib, muayyan sharoit va ehtiyojlardan kelib chiqib rivojlanadi. Bundan tashqari ushbu usul qarama-qarshiliklar va ularning sinteziga asoslangan holda bilimlar jamiyatining imkoniyatlari va muammolarini tahlil qilishga yordam beradi.

“Bilimlar jamiyati” konsepsiyasini **mantiqiy-tahliliy metod** orqali o'rganilganda, uning mohiyati, asosiy xususiyatlari va zaruriyatini aniq va tizimli belgilashga erishiladi. Analiz (tahlil), sintez (birlashtirish), mantiqiy bog'liqlik va izchillik, abstraksiyalash va umumlashtirish metodlari asosida umumiy nazariy tamoyillar ishlab chiqiladi. Mantiqiy tahlil orqali bilimlar jamiyatining shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar: globalizatsiya, bilim iqtisodiyotining rivojlanishi, texnologik taraqqiyot kabilarga e'tibor qaratiladi.

Bilimlar jamiyating shakllanish jarayoni, kelajakda qanday o'zgarishlarga duch kelishi mumkin? unda qaysi yo'nalishlar ustuvor bo'ladi? kabi savollarga javob topish uchun **ilmiy prognostik** (bashorat) metodidan foydalaniladi.

**Tahlil va natijalar.** “Bilimlar jamiyati” tushunchasi XX asrning 1960-70-yillarida ilmiy muomalaga kiritildi. 1960-yillardayoq olimlar taraqqiy etgan mamlakatlardagi sanoat rivojlanishidan keyingi davrni “bilimlar iqtisodiyoti” deb atashgan edi. Amerikalik iqtisodchi olim Piter Druker birinchilardan bo'lib “bilimlar jamiyati” iborasini ilmiy muomalaga kiritdi. Olim bilimni “yangi jamiyat yaratishga qodir kuch” deb ta'riflaydi hamda bilimlar jamiyati ikkinchi jahon urushidan keyin, yangi bilimlarni ishlab chiqarish uchun foydalanilgan deb hisoblanadi. Uning fikricha, bunday jamiyatda har bir shaxs egallagan bilimlaridan samarali foydalana olishi hamda o'z qobiliyatini muttasil takomillashtirib borishi uchun umr bo'yi uzluksiz ta'lim olishi kerak.

Chunki, amerikalik olimlarning tadqiqotlari natijasiga ko'ra, 1940 yilda oliy ta'lim muassasasini tugallagan muhandisning bilimi 12 yildan keyin eskirgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 1960-yilda - 8-10 yilni, 1970-yilda - 4-5 yilni, XXI asr boshida esa atigi 2-3 yilni tashkil etishini ko'rsatdi. Hozirgi paytda oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari yiliga egallagan bilimlarining 20 foizini yo'qotishlari hisoblab chiqilgan [5].

Shuning uchun ham, 2005 yilda YuNeSKO bilimning insoniyat uchun hal qiluvchi ahamiyatini hisobga olgan holda o'zining umumjahon ma'ruzasini bevosita “bilimlar jamiyati”ni shakllantirish mavzusiga bag'ishlagan.

O'zbekistonning bundan buyongi taraqqiyoti ham birinchi navbatda ilm-fanga asoslanmoqda. Prezidentimiz “Biz maktabgacha ta'lim va maktab ta'limi, oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimi hamda ilmiy-madaniy muassasalarni bo'lg'usi Renessansning to'rt uzviy halqasi, deb bilamiz.

Bog'cha tarbiyachisi, maktab muallimi, professor-o'qituvchilar va ilmiy-ijodiy ziyolilarimizni esa yangi Uyg'onish davrining to'rt tayanch ustuni, deb hisoblaymiz”, deb alohida ta'kidladi.

Biz bilimlar jamiyati tushunchasini uning genezisi mantiqidan kelib chiqib talqin qilamiz, ya'ni, ushbu jamiyatda tadqiqotni olib borishda ilgari surilgan g'oyalar asosan ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmalarning o'zgarishi, yangi texnologiyalar va tendentsiyalarning jadal rivojlanishi bilan belgilanadi. Bunday o'zgarishlar odamlar, mamlakatlar va xalqlarning muhim manfaatlariga ta'sir qiladi, qobiliyat va iste'dodlarni amalga oshirish, taraqqiy qilayotgan dunyoda o'z faoliyatini qayta ko'rib chiqish, bilimi va salohiyatini aniqlab olish uchun imkoniyat yaratib beradi.

Bugungi kunda bilimlar jamiyati tushunchasi ilm-fan sohasida faol ekanligi simptomatik ravishda ko'rinadi, u olimlar tomonidan nafaqat jarayonlarni tushunish kontekstida foydalaniladi, balki iqtisodiy, siyosiy hayotda, shuningdek, axborot, ilmiy ta'lim sohasida, aloqa sohasida ham o'z o'rniga ega. Olimlar va tadqiqotchilar “bilimlar jamiyati”ning bugungi kundagi ahamiyatiga to'xtalib, quyidagicha tavsiflashdi:

➤ hozirgi kunda mintaqaviy, milliy va xalqaro tuzilmalarda bilimlar jamiyati strategiya va dasturlarning yo'nalishini belgilaydigan, o'ziga xos xususiyatlarga ega yangi ijtimoiy makon sifatida namoyon bo'lmoqda;

➤ Buyuk sanoat inqilobi, ya'ni eng yangi texnologiyalarning paydo bo'lishi, aslida yangi ijtimoiy-madaniy dinamikaning paydo bo'lishiga olib keldi;

➤ Kasbiy tayyorgarlik, ilmiy-texnikaviy yutuqlar, turli xil madaniyat shakllarining yangi ko'rinishda o'zini namoyon qilishi doimiy rivojlanish va taraqqiyot sari intilmoqda, bu esa yangi bilim shakllarining kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda.

Mashhur fransuz sotsiologi A.Gorz shunday ta'kidlaydi: kashfiyot ishi qayerdan boshlanishini va qaerda tugashini aniqlashning iloji yo'q, chunki, yangi bilimlar, bu ijodiy faoliyat, sevimli mashg'ulot, tekinga sarflanadigan vaqt bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, shakllar va bilimlar, ular o'rtasida ekvivalentlik munosabatlari mavjud emas. Har bir bilim bir-birining o'rnini bosa olmaydi, qiymatni esa hech narsa bilan taqqoslab bo'lmaydi.

Bilimning asosiy xususiyatlari qatorida biz quyidagilarni kiritamiz: talqin qilish (berilgan fan sohalari nuqtai nazaridan bilimlarni mazmunli ochib berish imkoniyati); tuzilish (ko'p sonli bilim birliklarida murakkab tuzilmalarning mavjudligi, tushunchalar va toifalarning rasmiy ierarxiyasi sifatida aks ettirilgan, mazmunli tuzilmalar, jarayonlar, hodisalar o'rtasidagi munosabatlar); bog'liqlik (ob'ektiv dunyoning birligini aks ettirish); faoliyat (bilish jarayoni bilimning rolini nafaqat natija sifatida aks ettiradi, balki, ushbu jarayonning sababi yoki boshlang'ich elementi sifatida ham tan oladi).

“Bilimlar jamiyati” g'oyasi olim D.Bellning falsafiy qarashlarida ham aks etgan, u ilmiy bilimlar jamiyatning postindustrial rivojlanishining yangi bosqichiga o'tishi uchun zarur ekanligini asoslab berdi. “Bilim” birgina dunyoni bilish vositasi sifatida emas, balki ijtimoiy va iqtisodiy tuzilmani rivojlantirish uchun asos – bu o'z-o'zidan qimmatbaho mahsulot, xizmat, kapital va oxir-oqibat ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishini belgilovchi omil ekanligini falsafiy fikr tarixida birinchi marta talqin qildi.

Rus olimi K.X.Delokarovning asarlarida bilimga asoslangan jamiyat haqidagi tasavvurlar, keng falsafiy va ijtimoiy-madaniy mazmunda ko'rib chiqilgan. Uning fikricha, "bilimga asoslangan jamiyat kontseptsiasining muvaffaqiyati ham, kamchiliklari ham, bu ratsionalizm va ma'rifat paradigmasining davomi ekanligi bilan bog'liq. Bilimlar jamiyati nafaqat kelajakda ijtimoiy rivojlanishning modeli, balki, bugungi kun uchun ham zarurat ekanligi haqiqatga aylanmoqda. Shuning uchun yangi jamiyat shakllanishining axloqiy jihatlariga, uning qadriyatlar asoslari, ijtimoiy adolat va ta'lim muammolari e'tibor berish kerak [3:11].

#### **Xulosa va takliflar.**

Bilimlar jamiyati – taraqqiyotga yuz tutgan globallashuv davrida hozirgi va kelajak avlod uchun muhim strategik maqsaddir. Demak, birinchidan, Jamiyatning rivojlanishi ta'lim, texnologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy sohalardagi o'zgarishlarga bog'liq ekan, bilimlar jamiyatini shakllantirish va rivojlantirish zamon talabi bo'lmog'i lozim.

**Ikkinchidan**, davlat va mutasaddi xodimlar – bilimlar jamiyati faqat nazariy konsepsiya bo'lib qolmasdan, balki amaliy jihatdan ham iqtisodiy rivojlanish uchun kuchli vosita ekanligini nazarda tutgan holda, intellektual mehnat va innovatsion g'oyalar asosida shakllanadigan iqtisodiyot uchun ilm-fan, texnologiya va kreativ sohalarga investitsiyalarni ko'paytirishi kerak.

**Uchinchidan**, bilimlar jamiyati tushunchasi faqat bitta mamlakat yoki mintaqaga, davlat yoki jamiyatgagina xos hodisa emas, balki butun dunyo miqyosida rivojlanayotgan jarayon ekanligi ochiq-oydin ravshan bo'lib turibdi. Shuning uchun, bu borada xalqaro hamkorlik, ilmiy tadqiqotlar almashinuvi va bilimlar integratsiyasini yo'lga qo'yish jamiyatning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

**To'rtinchidan**, bilimlar jamiyati zamonaviy ta'limning muhim strategik yo'nalishlaridan biri bo'lib, uning rivojlanishi inson kapitali, innovatsiya, texnologiya va ilm-fan taraqqiyotiga bevosita bog'liq ekan, bu jarayonni samarali rivojlantirish uchun ta'lim, iqtisodiyot va davlat siyosatining uzviy hamkorligi talab etiladi.

Bu borada O'zbekistonda siyosat olib borilmoqda: maktabgacha ta'lim, umumta'lim va oliy ta'limni tubdan isloh qilish, yangi turdagi ta'lim muassasalarini tashkil etish va ular sonini ko'paytirish, moddiy-texnik bazasini yanada mustahkamlash, pedagoglarning jamiyatdagi mavqeini oshirish bo'yicha strategik vazifalar belgilangan hamda bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

**Xulosa.** «Bilimlar jamiyati» yuksalgan davlat ko'proq taraqqiyotga erishadi, dunyo hamjamiyatida o'rini topadi. O'zbekiston bugungi kunda Yangi Renessans sari qadam qo'ygani ekan, har bir pedagog, targ'ibotchi, ilm-fan namoyondalari uning mas'uliyatini chuqur anglagan holda kelajak avlodni shunga yetaklashga harakat qilmoqlari lozim.

#### **Adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimiz dunyoqarashida innovatsiya muhitini yaratish – eng muhim vazifamiz. <https://uza.uz/posts/70937> (02.12.2017).
2. Волков Ю.Г. Homo Humanus. Личность и гуманизм. – Челябинск: «Книга», 1995. 207-б.
3. Делокаров К.Х. Является ли «общество, основанное на знаниях», новым типом общества? // Концепция «общества знания» в современной социальной теории: Сб. науч. тр. / РАН. ИНИОН. Центр социал. науч.-информ. исслед. -М.: 2010. 11-б.
4. Delokarov K.H. The Scientisation of Culture: risks and challenges. *Communicology*. 2018;6(2):125-132. (In Russ.) <https://doi.org/10.21453/2311-3065-2018-6-2-125-132>
5. Gorz Andre. The Immaterial: Knowledge, Value and Capital (Seagull Books, 2010, first published, Galilée, 2003)
6. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
7. <https://solanews.uz/kr/posts/view/>

**REZYUME.** Ushbu maqolada «bilimlar jamiyati» – jamiyat taraqqiyotining asosi ekanligi, insonlar tomonidan ularni o'zlashtirish va rivojlantirish zaruriyati, bu borada innovatsiyalarning roli haqida fikr yuritilgan. Bundan tashqari "Bilimlar jamiyati" tushunchasining falsafiy va nazariy asoslari, uning imkoniyatlari va zarurati tahlil qilinadi.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье рассматривается вопрос о том, что «общество знаний» - основа развития общества, о необходимости их усвоения и развития людьми, о роли в этом инноваций. Далее анализируются философско-теоретические основы понятия "общество знания", его возможности и необходимость.

**SUMMARY.** This article reflects on the fact that the «Society of knowledge» is the basis of the development of society, the need for their development and development by humans, the role of innovation in this regard. In addition, the philosophical and theoretical foundations of the concept of «knowledge society», its capabilities and necessity are analyzed.

## IMPROVING EFFICIENCY: EXERCISES AND ACTIVITIES AIMED AT DEVELOPING STUDENTS' ENGLISH COMMUNICATION SKILLS WITH ELECTRONIC PROGRAMS

**K.A.Khakimov** – senior lecturer

*Samarkand state institute of Foreign Languages*

**Tayanch soʻzlar:** samaradorlik, muloqot qobiliyatlari, ingliz tili, elektron dasturlar, raqamli oʻrganish, interfaol mashqlar, tilni bilish.

**Ключевые слова:** эффективность, коммуникативные навыки, английский язык, электронные программы, цифровое обучение, интерактивные упражнения, владение языком.

**Key words:** efficiency, communication skills, English Language, electronic programs, digital learning, interactive exercises, language proficiency.

**Introduction.** In today's fast-paced, technology-driven world, the ability to communicate effectively in English has become an essential skill for students across the globe. As educational paradigms shift towards more interactive and engaging methods of learning, electronic programs have emerged as powerful tools for enhancing language acquisition and communication proficiency. This article explores innovative exercises and activities designed to improve students' English communication skills through the integration of digital platforms. By leveraging technology, educators can create dynamic learning environments that foster collaboration, critical thinking, and creativity. We will examine various electronic resources and their potential to engage students, facilitate meaningful practice, and ultimately enhance their ability to communicate confidently and effectively in English. Through a comprehensive analysis of these strategies, we aim to highlight the importance of incorporating technology in language education and its role in preparing students for success in an increasingly interconnected world.

Electronic programs have greatly expanded the range of tools available for language learning. They provide interactive exercises, real-time feedback, and a variety of learning environments, which are crucial for developing communication skills. Yang, J., & Kwok, L. noted that technology-enabled language training provides an adaptive learning environment where students receive immediate feedback, leading to improved learning outcomes in communication skills [10:1087].

Orosoo highlighted the use of advanced speech recognition technologies to personalize English language learning experiences [5:21].

Their study demonstrated how machine learning-based models like MLP-LSTM enhance pronunciation and listening skills by offering individualized practice sessions. This aligns with the needs of learners who require more specific feedback in a self-paced manner.

**Methods.** To effectively research the topic of "Improving Efficiency: Exercises and Activities Aimed at Developing Students' English Communication Skills with Electronic Programs," a variety of research methods can be employed.

**Literature Review** whose objective was to gather existing knowledge and theories related to the use of electronic programs in language learning had the primary importance.

As a result of it Method's aim which was scientifically analyzing academic journals, books, articles, and previous studies focusing on language acquisition, technology in education, and communication skills development was reached. This helped establish a theoretical framework for the research.

By employing a combination of these research methods, educators and researchers can gain a comprehensive understanding of how electronic programs can improve students' English communication skills. This multifaceted approach will allow for a richer analysis of data and insights that can contribute to more effective teaching strategies in the digital age.

### Results.

1. **Listening and Comprehension Tools:** Digital platforms such as language apps, podcasts, and interactive video lessons help students develop their listening skills. These tools often include comprehension questions and automatic feedback, which allow students to self-assess their understanding. Listening and Comprehension Tools: Digital platforms such as language apps, podcasts, and interactive video lessons help students develop their listening skills. These tools often include comprehension questions and automatic feedback, which allow students to self-assess their understanding. Salimi and Ranjbar explored the use of Augmented Virtual Reality (AVR) to improve students' listening skills in immersive environments [6:1].

2. **Speaking and Pronunciation Practice:** Technologies like speech recognition software are instrumental in helping students correct their pronunciation. Programs like ELSA Speak have been particularly effective in providing feedback on spoken language. Sridhivya and Gurusamy reported that using mobile applications like ELSA and Busuu significantly improved students' speaking skills by providing real-time correction and pronunciation guidance [7:1717].

3. **Gamified Learning for Vocabulary and Grammar:** Apps such as Duolingo and Kahoot engage students in language exercises through gamification. Ardini and Burhayani found that such tools not only make learning more interactive but also improve vocabulary retention and grammar through competitive quizzes and challenges [1:42].

4. **Virtual Language Exchange:** Online platforms connecting learners with native speakers are becoming popular for practicing conversational English. This interaction helps students build confidence in real-world communication. Haerudin and Falah highlighted the effectiveness of technology-mediated task-based learning (TTL) in enhancing productive skills like speaking and writing through structured virtual exchanges [2:42].

5. **AI-Assisted Learning Tools:** Chatbots and AI-based platforms can simulate conversation and provide immediate responses. These tools offer practice scenarios that help students adapt to different conversation contexts. Haerudin and Falah studied the effectiveness of AI-driven chatbots in English language classes and found them beneficial for

practicing written dialogue and refining communication strategies.

Benefits of Using Electronic Programs:

- **Personalization:** Technology allows for customized learning experiences. Digital tools can adapt exercises to focus on areas where a student struggles, providing additional practice in those skills. This targeted approach helps in refining specific language competencies.

- **Flexibility and Accessibility:** Online tools allow students to practice at their own convenience, making language learning accessible to those with varying schedules. Orossoo found that this flexibility encourages sustained engagement and improves long-term retention of language skills [5:30].

- **Engagement through Gamification:** Learning through games and challenges increases motivation among students. Ardini and Burhayani emphasized that gamified platforms contribute to a more active learning process, leading to better outcomes in grammar and vocabulary [1:145].

The success of integrating electronic programs in language education depends on effective implementation. Teachers need to ensure that digital tools align with curriculum goals and serve as a complement to traditional teaching methods rather than a replacement. There is also a need for technical training for educators and students to fully utilize these resources, as highlighted by Salimi and Ranjbar in their study on AVR-based learning [6:30].

**Discussion.** The integration of electronic programs into language learning has shown significant potential in enhancing students' English communication skills. This research aimed to explore various exercises and activities that leverage technology to improve efficiency in language acquisition. The findings indicate that electronic programs can serve as effective tools for fostering communication skills, but their success largely depends on how they are implemented and utilized within the educational context.

Tuxtasinov I. M. agrees that the language teachers barely taught the four language skills to gain integration in speaking, writing listening and reading lessons. For this aim, it is obvious that teachers carrying out EFL classes were frequently using a lonely/separate language skills mode of instruction at the expenditure of integrated language skills. It is not enough of theoretical orientations and practical awareness on the establishment and distribution of EFL lessons which was solely responsible for difficulties encountered in the implementation and achievement of integration of language skills in the teaching of English as a Foreign Language [8:238].

One of the most notable outcomes of this research is the increased engagement and motivation among students when using electronic programs. Traditional methods of language instruction often fail to captivate the interest of digital-native learners. In contrast, interactive exercises that incorporate multimedia elements – such as videos, games, and simulations – tend to hold students' attention more effectively. This aligns with previous studies suggesting that gamification and interactive content can lead to higher levels of student involvement. As students engage more deeply with the material, they are likely to practice their communication skills more frequently, leading to improved proficiency.

The ability of electronic programs to offer personalized learning experiences emerged as a crucial factor in

developing communication skills. Many platforms utilize adaptive learning technologies that tailor exercises to individual student needs, allowing them to progress at their own pace. This personalization not only addresses diverse learning styles but also helps identify specific areas where students may struggle. For instance, students who find speaking challenging can be directed towards targeted speaking exercises, while those needing improvement in writing can focus on relevant activities. This targeted approach has been shown to enhance learning outcomes [4:42].

Another significant finding is the role of electronic programs in facilitating collaborative learning. Many applications allow for peer interaction through discussion forums, group projects, or pair work activities, which are essential for developing communication skills. Collaborative tasks encourage students to practice speaking and writing in real-world contexts, thereby reinforcing their language skills. Research supports the idea that collaborative learning environments foster higher-order thinking and improve language acquisition [3:135].

Despite the positive findings, several challenges were identified in implementing electronic programs for language learning. Technical issues, such as access to devices and reliable internet connections, can hinder students' ability to fully engage with these resources. Additionally, not all educators are equally trained in using technology effectively, which can lead to inconsistent application across different classrooms. Furthermore, there is a risk that reliance on electronic programs may diminish traditional communication practices that are equally important for language development.

**Conclusion.** Electronic programs have transformed the landscape of English language education by offering dynamic and interactive learning experiences. The integration of AI, gamification, and digital communication platforms provides students with varied opportunities to practice and enhance their communication skills. As technology continues to evolve, these tools will become increasingly important in shaping effective language learning strategies.

In summary, we would like to highlight the potential of electronic programs to improve students' English communication skills through engaging exercises and activities. While challenges remain, the benefits of personalized learning experiences and collaborative opportunities present a compelling case for the continued integration of technology in language education. By addressing the identified limitations and providing adequate support for educators, we can create a more effective and efficient learning environment for developing essential communication skills in today's digital age.

**Future Research Directions.** Future research should explore longitudinal studies that assess the long-term impact of electronic programs on students' communication skills. Additionally, investigating the effectiveness of specific types of exercises – such as role-playing simulations or interactive storytelling which could provide deeper insights into best practices for language instruction. Finally, examining the role of teacher feedback within electronic programs could further illuminate how educators can enhance student learning experiences.

**Implications for Educators.** The results of this research underscore the need for educators to receive proper training in integrating technology into their teaching practices. Professional development programs should focus on equipping teachers with the skills necessary to

effectively utilize electronic tools and create engaging, communicative activities. Moreover, educators should be encouraged to blend traditional methods with technological resources to provide a balanced approach to language instruction.

#### References

1. Ardini F., Burhayani B. Kahoot! In English Classroom to Improve Reading Students in Madrasah Aliyah Jamiat Kheir. // Scripta: English Department Journal. – 2024. – T. 11. – №. 2. – C. 142-150.
2. Haerudin D. A., Falah I. F., Kusumah R. Technology-mediated task-based learning (ttl) to improve student's productive skills in primary school. // Eltin Journal: Journal of English Language Teaching in Indonesia. – 2024. – T. 12. – №. 2. – C. 421-432.
3. Johnson D. W., Johnson R. T. Cooperative, competitive, and individualistic learning. // Journal of Research & Development in Education. – 1978. C. 135-142.
4. Kulik J.A., Fletcher J. D. (2016). Effectiveness of Intelligent Tutoring Systems: A Meta-Analytic Review. Review of Educational Research, 86(1), 42-78. <https://doi.org/10.3102/0034654315581420>
5. Orosoo M. et al. Transforming English language learning: Advanced speech recognition with MLP-LSTM for personalized education. // Alexandria Engineering Journal. – 2025. – T. 111. – C. 21-32.
6. Salimi E.A., Ranjbar M. Bridging Cultural Divides: A Comparative Analysis of AVR and Conventional Approaches in EFL Teacher Professional Development. // Teaching English as a Second Language Quarterly (Formerly Journal of Teaching Language Skills). 2024. – T. 43. – №. 4. – C. 1-31.
7. Sridhivya D., Gurusamy K., Balamurali E. Utilizing ELSA Speak and Busuu apps to enhance English for professional purposes among Indian students: An Education 4.0 approach. // Australian Journal of Applied Linguistics. – 2024. – T. 7. – №. 3. – C. 1717-1717.
8. Tukhtasinov I., Otabek Y. Teaching a Foreign Language According to Age Groups. // Journal of Higher Education Theory and Practice. – 2022. – T. 22. – №. 2. – C. 238-246.
9. Tuxtasinov I.M. The importance of integrating language skills in the process of teaching english language // Проблемы инновационного и интегративного развития иностранных языков в многоязычной среде. – 2024. – С. 291-296.
10. Yang J., Kwok L. (2019). Gamification in language learning: A study on the impact of game elements in oral proficiency development. Interactive Learning Environments, 27(8), 1087-1102.

**REZYUME.** Ushbu maqolada talabalarga ingliz tilidagi muloqot ko'nikmalarini yaxshilashga yordam beradigan texnologiya yordamida amalga oshiriladigan, so'nggi ilmiy va akademik tadqiqotlarga asoslangan holda turli mashg'ulotlar va mashqlar muhokama qilinadi.

**РЕЗЮМЕ.** В этой статье рассматриваются различные виды деятельности и упражнения, облегчаемые технологиями, которые помогают студентам улучшить свои навыки общения на английском языке, ссылаясь на недавние академические исследования.

**SUMMARY.** This article discusses various activities and exercises facilitated by technology that help students improve their English communication skills, with references to recent academic studies.

#### SPORT VA ATROF-MUHITNING O'Z ARO TA'SIRI: TALABALAR FIKRI

**P.Qaljanov** – dotsent

*Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Nukus filiali*

**R.Qaljanov** – assistent o'qituvchi

*Innovatsion texnologiyalar universiteti*

**Tayanch so'zlar:** sport, ekologiya, o'zaro ta'sir, atrof-muhit, salomatlik, sport faoliyati, respondent, anketa.

**Ключевые слова:** спорт, экология, взаимодействие, окружающая среда, здоровье, спортивная деятельность, респондент, анкетный опрос.

**Key words:** sports, ecology, interaction, environment, health, sports activities, respondent, questionnaire.

**Kirish.** Bugungi kunda insonning tabiat bilan o'zaro munosabati masalalari global ekologik muammo sifatida qaralmoqda, chunki uning tarqalish ko'lamini bo'yicha u butun sayyorani va inson faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi. Asosiy ekologik muammolar odatda quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ifloslantiruvchi moddalar va radioaktiv moddalarning haddan tashqari ko'p chiqishi va "issiqxona" effektining kuchayishi natijasida Yer iqlimining o'zgarishi;
- stratosfera ozon ekranining umumiy zaiflashishi va sayyoramizning ayrim hududlarida "ozon teshiklari" paydo bo'lishi;
- atmosferaning kislotali muhit hosil bo'lishi va sog'liq uchun zararli yog'ingarchilik bilan ifloslanishi;

• okeanning undagi zaharli va radioaktiv moddalarning ko'milishi natijasida ifloslanishi, okean va quruqlik suvlari o'rtasidagi normal ekologik aloqalarning uzilishiga olib keladi;

• yer usti suvlarining kamayishi va ifloslanishi, yer usti va er osti suvlari o'rtasidagi muvozanatga ta'sir qiladi;

• ayrim hududlar va mahalliy hududlarning radioaktiv ifloslanishi; • sayyoraning cho'llanish jarayonining tezlashishi;

• o'rmonlar maydonining qisqarishi, bu kislorod muvozanatining buzilishiga va hayvonlar va o'simliklarning ayrim turlarining yo'q bo'lib ketishiga olib keladi;

• shaharlar va qishloq joylarida yashash muhitining yomonlashishi: shovqinning kuchayishi, stressli vaziyatlar va boshqalar [1, 2, 3].

Bu real vaziyat jahon hamjamiyatini inson faoliyatining atrof-muhitga zararli ta'sirini minimallashtirish, tabiiy resurslardan foydalanishni optimallashtirish, jamiyat va tabiat o'rtasidagi uyg'un munosabatlarga erishishga qaratilgan samarali choralar ko'rishga majbur qiladi [4]. Ko'kalamzorlashtirish global miqyosda sport sohasiga bevosita ta'sir ko'rsatganligi bejiz emas, chunki ekologiya va sport o'rtasidagi munosabatlar markazida inson va uning faoliyati turadi. Bundan tashqari, bu munosabatlar ikki tomonlama. Bir tomondan, sport inshootlarini qurish va ulardan foydalanishda, turli darajadagi sport musobaqalarini tashkil etish va o'tkazishda va hokazolarda amalga oshiriladigan sport tadbirlari atrof-muhitga ta'sir etsa, ikkinchi tomondan, atrof-muhit holatiga ta'sir qiladi. inson tanasiga, shu jumladan sportchilarning salomatligi, xavfsizligi va sport ko'rsatkichlariga ta'sir qiladi [5].

Zamonaviy sport sanoati iqtisodiyot tarmog'i sifatida bugungi kunda dunyoda etakchi o'rinlardan birini egallaydi. Bu iqtisodiy munosabatlarning turli sohalari elementlarini o'z ichiga olgan murakkab mexanizm bo'lib, unda ko'plab tashkilotlar (turli xil korxonalar, sport birlashmalari va boshqalar) va sport faoliyatini qo'llab-quvvatlovchi shaxslar (sportchilar, murabbiylar, muxlislar va boshqalar) ishtirok etadilar. Har bir inson, tabiiyki, o'z manfaatlarini, o'z maqsad va vazifalariga ega bo'lib, ularning yechimi sayyoramizning ekologik holatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Binobarin, hozirgi bosqichda sport va ekologiya o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish, salbiyini minimallashtirish va bir hodisaning boshqa bir hodisaga ijobiy o'zaro ta'sirini kuchaytirish juda dolzarbdir. Bu savollar Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti ta'lim muassasasining ekologiya mutaxassisligi talabalarini ham qiziqtiradi.

**Metodlar:** Tadqiqot muammosi bo'yicha adabiy manbalarni tahlil qilish va sintez qilish, 1-3 kurs talabalarini o'rtasida anonim so'rov, matematik statistika usullari.

Tadqiqotning ko'rsatilgan maqsadiga muvofiq, biz talabalarining sport va atrof-muhit o'rtasidagi munosabatlar bo'yicha pozitsiyasini aniqlash uchun so'rov o'tkazdik.

Biz ishlab chiqqan so'rovnoma respondentlarning jinsi va yo'nalishini, sport va ekologiya o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik haqidagi fikrlarini, shuningdek, zamonaviy faol sport turlari natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarni hal qilishning sabablari va yo'llarini aniqlash imkonini beruvchi savollar mavjud edi.

Olingan ma'lumotlarga ko'ra, so'rovnoma Nukus konchilik institutining kunduzgi ta'lim bo'limining ekologiya mutaxassisligining 1-3-kurslarida 75 nafar talaba ishtirok etdi. Respondentlar orasida 1-kursda 25,3%, 2-kursda 33,3%, 3-kursda 41,3%, tahsil oladi. Bular 44% ayollar (mos ravishda 33 kishi) va 56 % erkaklar (mos ravishda 42 kishi).

**«Atrof-muhitning ifloslanishi iqlim o'zgarishiga ta'sir qiladimi?»** Quyidagi javoblar olindi: aniq ta'sir qiladi - 52 kishi (69,3%), ozgina ta'sir qiladi - 17 talaba (22,6%), ta'sir qilmaydi - 3 respondent (4%), javob berishga qiynaladi - 3 (4%). javob beruvchi.

Ko'rib turganimizdek, zamonaviy jamiyatda bu masala bo'yicha juda faol munozaralar va ayni paytda juda

qarama-qarshi fikrlar mavjud bo'lsa-da, Nukus konchilik institutining deyarli barcha talabalarini an'anaviy nuqtayi nazarga amal qiladi: atrof-muhitning ifloslanishi sayyoramizdagi iqlim o'zgarishiga salbiy ta'sir qiladi.

Keyin talabalar **sizningcha, sport faoliyati atrof-muhitga ta'sir qiladimi?** degan savolga javob berishdi. Ma'lum bo'lishicha, albatta ta'sir qiladi pozitsiyasini 25 respondent (33,3%), "bir oz ta'sir qiladi" - 35 talaba (46,6%), "ta'sir qilmaydi" - 10 talaba (13,3%), "javob berish qiyin" - afzal ko'rgan. 5 (6,6%).

Shunday qilib, ko'pchilik talabalar sport faoliyati atrof-muhitga ta'sir qiladi, deb hisoblashadi, ammo bu ta'sir boshqa mavjud omillarga nisbatan ahamiyatsiz. Ko'rinib turibdiki, bu fikr talabalarining bu masaladan xabardorligi yo'qligi bilan bog'liq, chunki talabalar zamonaviy sport industriyasining ko'lamini to'liq anglamaydilar. Buni, shuningdek, juda ko'p sonli talabalar taklif qilingan savolga javob berishga qiynalayotgani (5 respondent) yoki sport mashg'ulotlari atrof-muhitga umuman ta'sir qilmasligiga ishonishlari (10 kishi) dalolat berishi mumkin.

Albatta, bizni teskari munosabat ham qiziqtiradi, ya'ni o'quvchilarga quyidagi savol berildi: **"Sizningcha, tabiiy muhit sport faoliyatiga ta'sir qiladimi?"** Javoblar natijalari: "albatta ta'sir qiladi" - 46 kishi (61,3%), "bir oz ta'sir qiladi" - 16 (21,3%), "ta'sir qilmaydi" - 8 (10,6%) va "javob berish qiyin" - 12 (16%).

**Natija.** Ko'rib turganimizdek, ko'pchilik o'quvchilar atrof-muhitning sport faoliyatiga ta'siridan xabardor. Biroq, oldingi tegishli savolga javobda bo'lgani kabi, respondentlarning etarlicha katta qismi har doim ham sportning atrof-muhitga o'zaro ta'sirini yetarli darajada baholay olmaydi va aksincha. Ushbu hodisaning sabablarini, afidan, har doim ham u yoki bu pozitsiya foydasiga aniq talqin etilmaydigan zamonaviy voqeiklarda izlash kerak. Bugungi kunda inson faoliyati sayyoramizning ekologik holatiga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatayotganini aniq aytish mumkin emas. Shunday qilib, Nukus konchilik institutining talabalarining javoblari bizning fikrimizcha, ushbu muammoga ekologik yo'naltirilgan yondashuvning umumiy qabul qilingan konsepsiyasiga asoslanadi (jadval).

Jadval –1. **Atrof-muhit ifloslanishining iqlimga ta'siri va sport va ekologiyaning o'zaro ta'siri to'g'risida talabalarining fikrlari,**

| Javob variantlari            | Savollar va talabalar soni,%                                                 |                                                                 |                                                             |
|------------------------------|------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
|                              | Sizningcha, atrof-muhitning ifloslanishi iqlim o'zgarishiga ta'sir qiladimi? | Sizningcha, sport mashg'ulotlari atrof-muhitga ta'sir qiladimi? | Sizningcha, tabiiy muhit sport faoliyatiga ta'sir qiladimi? |
| albatta ta'sir qiladi        | 69,3                                                                         | 33,3                                                            | 61,3                                                        |
| ahamiyatsiz ta'sir qiladi    | 22,6                                                                         | 46,6                                                            | 21,3                                                        |
| ta'sir qilmaydi              | 4                                                                            | 13,3                                                            | 10,6                                                        |
| javob berishga qiynalayapman | 4                                                                            | 6,6                                                             | 16                                                          |

**Muhokama.** Quidagi savollarga: “Insonning sport faoliyati natijasida atrof-muhitning ifloslanishining sabablari nimada?” va “Atrof-muhitni sport faoliyati natijasida ifloslanishini qanday oldini olish mumkin?” Siz bir nechta javob variantlarini tanlashingiz va ushbu muammoga o‘zingizning yechimingizni taklif qilishingiz mumkin.

Oxirgi savolga “**Atrof-muhitni sport faoliyati natijasida ifloslanishini qanday oldini olish mumkin?**” talabalarning mutlaq ko‘pchiligi bu muammoni hal qilish uchun ekologik ta’lim va tarbiya salohiyatidan samaraliroq foydalanish kerak, deb hisoblaydi - 44 kishi, shuningdek, tegishli qonunni qabul qilish - 11 kishi. “Ommaviy axborot vositalarida targ‘ibot” va “shaxsiy namuna” pozitsiyalarini

respondent (8 talaba) tanlagan va 6 respondent “ta’sir qilmaydi” pozitsiyasiga kirgan - 3. Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu va oldingi savollarga berilgan javoblarga ko‘ra, xulosa “ekologik toza” sport mashg‘ulotlarining atrof-muhitga mumkin bo‘lgan zararli ta’sirini targ‘ib qilish zarurligini ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Shunday qilib, o‘tkazilgan so‘rov Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti huzuridagi Nukus konchilik instituti talabalarining sport va ekologiya o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, shuningdek, zamonaviy faollik natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarni hal qilish sabablari va yo‘llari haqidagi fikrlarini aniqlash imkonini berdi. Olingan ma’lumotlar ushbu sohani rivojlantirish zarurligini ko‘rsatadi.

#### **Adabiyotlar**

1. Основные экологические проблемы. / Режим доступа: [natura.ru/ekologiya/ekologicheskie-problemy](http://natura.ru/ekologiya/ekologicheskie-problemy). – Дата доступа: 20.02.2020.
2. Экологические проблемы планеты: вызов человечеству. / Режим доступа: [mentamore.com/eko-frendli/ekologicheskie-problemy-planety.html](http://mentamore.com/eko-frendli/ekologicheskie-problemy-planety.html). – Дата доступа: 20.02.2020.
3. Бушкевич Н.А. Минимизация отрицательных воздействий загрязняющих веществ городской среды на занятиях физической культурой. Бушкевич Н.А., Онищук О.Н., Круталевич М.М. // Проблемы физической культуры населения, проживающего в условиях неблагоприятных факторов окружающей среды [Электронный ресурс]: материалы XIII Международной научно-практической конференции, посвященной 70 летию факультета физической культуры учреждения образования «Гомельский государственный университет имени Франциска Скорины», Гомель, 10–12 октября 2019 г. / Гомельский гос. ун-т им. Ф.Скорины; редкол. Г.И.Нарский [и др.]. – Гомель : ГГУ им. Ф.Скорины, 2019. – С. 236–240.
4. Борисевич А.Р. Экологическое образование будущего педагога: дидактический аспект: монография. – Минск: БГПУ, 2010. – С.244.
5. Онищук О.Н. Экологически направленная деятельность в олимпийском движении. /О.Н.Онищук, М.М.Круталевич //Ценности, традиции и новации современного спорта: материалы Междунар. науч. конгр., Минск, 18-20 апр. 2018 г. : в 2 ч. / Белорус. гос. ун-т физ. культуры ; редкол.: С.Б.Репкин (гл. ред.) [и др.]. – Минск: 2018. Ч. 1. – С. 297–299.

**REZYUME.** Maqolada atrof-muhit muammolari va uning ma’lum darajada inson hayotining barcha jabhalariga shu jumladan iqtisodiyot, siyosat, jamiyatning ma’naviy hayoti, sport va boshqalarga ta’sir qiluvchi ekologik muammolarning mohiyati keng talqin qilingan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье широко трактуется сущность экологических проблем и их влияние в той или иной степени на все стороны жизни человека, включая экономику, политику, духовную жизнь общества, спорт и другие.

**SUMMARY.** The article broadly interprets the nature of environmental problems and their impact, to a certain extent, on all aspects of human life, including economics, politics, the spiritual life of society, sports, and others.

#### **TALABALARDA PEDAGOGIK KASBIY IDENTLIKNI SHAKLLANISH BOSQICHLARI**

**F.M.Qurbonova – o‘qituvchi**

*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so‘zlar:** kasbiy identlik, psixologik xususiyatlar, hamkor tashkilotlar, professional kompetensiyalar, shaxsiy va kasbiy rivojlanish, pedagogika tushunchasi hamkorlik, qonunchilik ta’lim dasturlari, uzluksiz ta’lim.

**Ключевые слова:** профессиональная идентичность, психологические характеристики, партнерские организации, профессиональные компетенции, личностное и профессиональное развитие, педагогическая концепция сотрудничества, законодательные образовательные программы, непрерывное образование.

**Key words:** professional identity, psychological characteristics, partner organizations, professional competencies, personal and professional development, the concept of pedagogical cooperation, legislative educational programs, continuing education.

Ident tushunchasi lotincha identus so‘zidan olingan bo‘lib aynanalik, mansublik degan ma’nolarni anglatadi [1:344]. Identlik – bu shaxsning o‘zini qanday tasavvur qilishi, o‘zini kim deb his qilishi, uning o‘zlikni anglash va jamiyatdagi o‘rni haqida tushunchalar to‘plamidir. Identlik, asosan, shaxsning ijtimoiy, psixologik, madaniy va shaxsiy jihatlaridan iborat bo‘lib, vaqt o‘tishi bilan o‘zgarishi va rivojlanishi mumkin. Identlik shaxsning o‘zini qanday his qilishidan tashqari, uning jamiyatdagi o‘rni va boshqa odamlar bilan aloqalarini ham belgilaydi. Misol uchun, insonning ijtimoiy identligi (masalan, o‘qituvchi, talabalar,

ota-ona) yoki madaniy identligi (millat, etnik guruh, diniy qarashlar) bor.

Shaxs “Men kimman?” degan savolga javobdir. U ijtimoiylashuv jarayonida ular bilan identifikatsiya qilish natijasida shakllanadigan muayyan ijtimoiy guruhlariga (ijtimoiy o‘ziga xoslik) shaxsning tegishli tajribasini, shuningdek, shaxsning boshqa shaxslar va guruhlardan farqlari, xatti-harakatlari, qadriyatlar haqidagi g‘oyalarini o‘z ichiga oladi. “Identlik - bu shaxsning shaxsiy o‘zini o‘zi belgilashi va o‘zini o‘zi anglashining markaziy jihatlaridan biri, shu jumladan o‘zgaruvchan vaziyatlarda, u atrofda

dunyoni baholash va o'zini o'zi baholash mezonlarini ifodalaydi" [2:349]. Kasbiy identlik shaxsiy o'z-o'zini belgilash natijasidir. Shakllangan kasbiy o'ziga xoslikka ega bo'lgan shaxs o'zini kasbiy o'ziga xosligi ilan tanishtiradi va o'zini kasbiy hamjamiyat vakili deb biladi [3:4].

Pedagogik kasbiy identlik esa, aynan pedagog sifatida o'zini qanday ko'rishi va o'qituvchilik kasbini qanday anglashiga asoslangan tushuncha bo'lib, u kasbning talablariga, maqsadlariga va javobgarliklariga mos ravishda shakllanadi. Bu kasbiy identlik talabaning pedagog sifatida o'zini qanday belgilashi, qaysi qadriyatlarga amal qilishini, o'qituvchilik faoliyatini qanday olib borishini tushinishiga yordam beradi.

Talabalarda pedagogik kasbiy identlikni shakllantirish, o'ziga xos psixologik va ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Bu jarayon, asosan, talabaning pedagog sifatida o'zini tanib, kasbiy rolini anglashiga yordam beradi. Pedagogik kasbiy identlikni shakllantirish bosqichlari quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- Kasbiy identlikning dastlabki shakllanishi: Bu bosqichda talaba pedagogik faoliyat haqida umumiy tasavvurlarni shakllantiradi. U o'zini pedagog sifatida ko'ra boshlaydi, lekin bu hali biror aniq kasbiy pozitsiya emas, balki umumiy qiziqish va o'rganish jarayonidir. O'quv jarayonida o'qituvchidan o'rganish, o'z tajribasini shakllantirish boshlanadi.

- Kasbiy qiziqish va motivatsiyaning kuchayishi: Talaba pedagogik faoliyatga qiziqishni chuqurlashtiradi va bu qiziqish pedagogik kasbga bo'lgan haqiqiy motivatsiyaga aylanishi mumkin. Bu bosqichda talaba o'zining kelajakdagi faoliyatiga nisbatan ilgariroq tasavvurlarni aniqlashtirib, o'qituvchilik kasbini tanlashda o'zining ichki sabablarini anglaydi.

- Kasbiy rolni anglash: Bu bosqichda talaba pedagog sifatida kasbiy rolini chuqurroq anglashni boshlaydi. U o'qituvchilikning nafaqat bilim berish, balki tarbiyaviy va ijtimoiy jihatlariga ham e'tibor qaratadi. Bu vaqtda talaba kasbiy ta'lim jarayonida muvaffaqiyatli ishlash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishni boshlaydi.

- Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish: Talaba kasbiy kompetensiyasini rivojlantirishga intiladi. Bu, o'z navbatida, turli pedagogik metodlarni o'rganish, sinfda ta'lim berish jarayoniga bog'liq muammolarni hal qilish, va o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishni o'z ichiga oladi. Talaba pedagogik faoliyatini yanada mustahkamlashga va o'ziga xos yondoshuvlarni sinashga harakat qiladi.

- Kasbiy identlikning yakuniy shakllanishi: So'nggi bosqichda talaba pedagogik kasbiy identlikni to'liq shakllantiradi. U o'zini professional sifatida anglab, o'z kasbiga nisbatan barqaror va mas'uliyatli yondashuvni o'zlashtiradi. Kasbiy identlikning yakuniy shakllanishi — bu talabaning o'z o'rganish jarayonini samarali va ijobiy ravishda tugatganligini anglatadi.

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy identlikni rivojlantirish, ularning o'z ishiga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish, pedagogik professional sifatida o'zini anglash va rivojlantirishni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi usullar bo'lajak pedagoglarda kasbiy identlikni rivojlantirishga yordam beradi:

| Kasbiy identlikni rivojlantirish usullari |                                              |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |
|-------------------------------------------|----------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1                                         | Amaliyot va tajriba orttirish                | Pedagogika fakultetida o'qiyotgan talabalarga amaliyotlar o'tkazish, turli yosh guruhlari va turli o'quvchilarga dars berish imkoniyatlarini yaratish, ularning kasbiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Amaliyotda o'qituvchilar real muammolar bilan yuzma-yuz keladilar va bu ularning kasbiy identliklarini mustahkamlaydi. |
| 2                                         | Refleksiya va o'z-o'zini tahlil qilish       | Bo'lajak pedagoglarga o'z faoliyatlarini muntazam tahlil qilish, o'z tajribalari haqida refleksiya o'tkazish, o'rganishlarini sinab ko'rish imkoniyatlarini yaratish muhimdir. Bu ularga o'z ishi haqidagi qarashlarini chuqurlashtirishga yordam beradi.                                                                     |
| 3                                         | Mentorlik tizimi:                            | Tajribali o'qituvchilar tomonidan bo'lajak pedagoglarga yo'l-yo'riq ko'rsatish, ularga o'z kasbiy yuksalishlarini rejalashtirishda yordam berish, tajriba almashish imkoniyatlari yaratilishi kasbiy identlikni shakllantirishga yordam beradi.                                                                               |
| 4                                         | Kasbiy qadriyatlar va prinsiplarni belgilash | Pedagogika fakultetida o'qiyotgan talabalarga pedagogik kasbning qadriyatlari va prinsiplarini o'rgatish, ularning pedagogik mas'uliyatni his qilishlariga yordam beradi. O'qituvchi sifatida o'z vazifalarini anglash va ularga sodiq bo'lish kasbiy identlikni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.                        |
| 5                                         | Pedagogik jamiyat va hamkorlik               | O'qituvchilar va talabalarining pedagogik jamoada faol qatnashishi, ilmiy va amaliy maqsadlar bo'yicha hamkorlik qilish, o'zaro fikr almashish, bir-biridan o'rganish kasbiy identlikni rivojlantirishga yordam beradi.                                                                                                       |
| 6                                         | Kasbiy o'zgarishlarga tayyorlik              | Bo'lajak pedagoglar kasbiy rivojlanishga, yangi metod va texnologiyalarni o'rganishga tayyor bo'lishi kerak. Ularni o'quv jarayoniga integratsiyalashgan yangi pedagogik yondashuvlar va texnologiyalar bilan tanishtirish ularga o'z ishi haqida yangicha qarashlarni rivojlantirishga yordam beradi.                        |

Bu usullar bo'lajak pedagoglarda kasbiy identlikni rivojlantirishda samarali bo'lishi mumkin, chunki ular o'zining pedagog sifatidagi rolini aniq belgilab, professional o'sish va rivojlanish uchun zarur asoslarni yaratadi.

**Xulosa** Pedagogik kasbiy identlik – bu o'qituvchining o'zining pedagogik faoliyatiga, uning maqsadlari, vazifalari, qadriyatlari va prinsiplariga bo'lgan ichki munosabatidir. U o'qituvchi sifatida o'zining professional rolini anglash, bu rolni bajarish uchun zarur bo'lgan bilim,

ko'nikma va malakalarni rivojlantirish jarayonida shakllanadi. Pedagogik kasbiy identlikning rivojlanishi uchun talabalarga amaliy tajriba, bilim va ko'nikmalarni shakllantirish, kasbiy qadriyatlarni anglash, jamoaviy va individual faoliyatni olib borish, mentorlik tizimidan foydalanish muhimdir. Bu jarayon davomida o'qituvchilar o'zlarini nafaqat bilimdon mutaxassislar, balki tarbiyachi, o'rgatuvchi, boshqaruvchi va innovator sifatida ham anglashlari lozim.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, pedagogik kasbiy identlik bo'lajak o'qituvchilarni nafaqat pedagog sifatida o'z vazifalarini bajarishga, balki o'z ishiga nisbatan ma'naviy va ruhiy sadoqatni rivojlantirishga undaydi. Bu

identlik o'qituvchining kasbiy qarorlar qabul qilishiga, o'z ishiga bo'lgan munosabatini aniqlashga, shuningdek, o'z kasbiy yuksalishiga harakat qilishga turtki beradi. Pedagogik kasbiy identlik o'qituvchining muvaffaqiyatli faoliyat yuritishi uchun muhim asosni tashkil etadi va uning professional rivojlanishi, kasbiy yuksalishi hamda o'zining ishiga bo'lgan sadoqati bilan bevosita bog'liqdir. Pedagogik kasbiy identlikni shakllantirish jarayoni o'qituvchilikka oid ko'nikmalarni rivojlantirish, professional qiziqish va ichki motivatsiyani kuchaytirish orqali amalga oshiriladi. Har bir bosqichda talaba o'zini kasbiy faoliyatga tayyorlaydi va o'zining pedagog sifatida o'zini anglashini chuqurlashtiradi.

#### **Adabiyotlar**

1. Абушенко В.Л. Идентичность. // Социология: Энциклопедия / Сост. А.А.Грицанов, В.Л.Абушенко, Г.М.Евелькин, Г.Н.Соколова, О.В.Терещенко. – Минск: Книжный Дом, 2003. – С. 344-349.
2. Лидия Бернгардовна Шнейдер. Профессиональная идентичность: Структура, генезис и условия становления. 2001. Архивировано 27 декабря 2018 года.
3. Профессиональная идентичность, её структура и компоненты. cyberleninka.ru. Дата обращения: 14 ноября 2018.

**REZYUME.** Ushbu maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy identligini rivojlanish uchun ta'lim sohasidagi munosabatlar va ishtirokchilar o'rtasidagi ilmiy va amaliy tadqiqotlariga bag'ishlangan. Talabalarda kasbiy rivojlanishda ijtimoiy muhitni o'rni hamda pedagogik- psixologik xususiyatlar haqida so'z yuritiladi. Talabalarida pedagogik kasbiy identlikni rivojlantirish usullari haqida ma'lumotlar berilgan.

**РЕЗЮМЕ.** Статья посвящена научно-практическому исследованию взаимосвязи образовательных учреждений и участников процесса развития профессиональной идентичности студентов вузов. Обсуждается роль социальной среды и педагогико-психологических особенностей в профессиональном становлении студентов. Студентам предоставляется информация о методах развития их педагогической профессиональной идентичности.

**SUMMARY.** This article is devoted to scientific and practical research on the relationship between participants and the educational sphere for the development of students' professional identity in higher educational institutions. The role of the social environment and pedagogical and psychological characteristics in professional development of students is discussed. Information is provided on methods for developing pedagogical professional identity in students.

### **BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINI INTERDISIPLINAR YONDASHUV ASOSIDA O'QUV FAOLIYATIGA JALB ETISH VA KREATIV FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI**

**N.M.Quchqorova** – professor

*Oriental universiteti*

**G.B.Jumaniyazova** – tayanch doktorant

*Urganch davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** interdisiplinar yondashuv, kreativlik, metakognitiv kompetensiya, pedagogika, ta'lim innovatsiyalari, ta'lim texnologiyalari, mustaqil fikrlash, talabalar faoliyati.

**Ключевые слова:** междисциплинарный подход, креативность, метакогнитивная компетентность, педагогика, образовательные инновации, образовательные технологии, самостоятельное мышление, студенческая деятельность.

**Key words:** interdisciplinary approach, creativity, metacognitive competence, pedagogy, educational innovations, educational technologies, independent thinking, student activity.

**Kirish.** Talabalarda kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish bugungi ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biridir. Pedagogik amaliyotda, ayniqsa, boshlang'ich ta'limda bu ko'nikmalarni shakllantirish, talabalarining muvaffaqiyatli o'rganish jarayonida markaziy o'rin tutadi. Talabalarining kreativ va metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirish, nafaqat bilim olishni, balki muammlarni hal qilish, tanqidiy fikrlash va o'z-o'zini boshqarish kabi yuqori darajadagi fikrlash jarayonlarini rivojlantirishga imkon yaratadi.

Zamonaviy ta'limda interdisiplinar yondashuvning qo'llanilishi, talabalarda kompleks fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishda samarali vosita sifatida ko'riladi. Bu yondashuv bir nechta fanlar va sohalarining integratsiyasiga asoslanib, talabalarda o'rganishning turli yo'nalishlarini birlashtiradi va ularning umumiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Bunda ona tili va o'qish savodxonligi kabi asosiy fanlar, talabalarining fikrlash va izlanish jarayonlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Mazkur maqola, interdisiplinar yondashuv asosida, talabalarda kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarni takomillashtirishga qaratilgan pedagogik metodlarni tahlil qiladi. Ushbu ishda ta'lim jarayonida innovatsion metodlar va pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali talabalarining o'z-o'zini boshqarish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarini rivojlantirishga qaratilgan yangi yondashuvlar taklif etiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Ta'lim sohasida kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi so'nggi yillarda ko'plab tadqiqotchilar tomonidan o'rganildi. Pedagogika fanida bu konseptlar talabalarda yuqori darajadagi fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish,

o'rganish jarayonini samarali tashkil etish va talabalarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega deb hisoblanadi. Kreativlik, ayniqsa, Sternberg (2003) va Runco (2004) kabi olimlar tomonidan keng o'rganilgan. Sternberg (2003) kreativlikni yangi g'oyalar yaratish va mavjud g'oyalarni yangi shakllarda birlashtirish qobiliyati sifatida ta'riflagan. Runco (2004) esa kreativ fikrlashni masalalarni yangi va innovatsion yondashuvlar orqali hal qilishni anglatadi. Interdisiplinar yondashuvni ko'plab tadqiqotchilar, jumladan Beane (1997) va Drake (2007) tomonidan o'rganilgan. Beane (1997) interdisiplinar ta'limning talabalarga real hayotdagi masalalarni hal qilishda yordam berishini, shuningdek, ularning kreativ fikrlash va problemalarni tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirishini ta'kidlagan. Drake (2007) esa interdisiplinar ta'limni ta'lim jarayonida talabalarning fikrlash ko'nikmalarini integratsiyalash orqali rivojlantirishni maqsad qilgan.

Ona tili va o'qish savodxonligi fanlari ta'limda markaziy o'rin tutadi. Turchi (2003) o'qish savodxonligi va uning pedagogik jarayonlardagi ahamiyatini o'rganib, bu ko'nikmalarni rivojlantirish orqali talabalarning ta'limdagi muvaffaqiyatini oshirish mumkinligini ko'rsatgan. Shu bilan birga, o'qish savodxonligi va ona tili ko'nikmalarining birgalikda rivojlanishi talabalarda integrativ fikrlashni qo'llab-quvvatlaydi va ularning kommunikativ qobiliyatlarini oshiradi.

Interdisiplinar yondashuv va metakognitiv kompetensiyalar sohasida faol bo'lgan bir nechta taniqli pedagoglar va ilmiy shaxslar quyidagilardir:

1. Howard Gardner (Amerikalik psixolog va pedagog). Faoliyat sohasi: Talabalarning turli intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish. Asosiy hissasi: Gardner "Ko'p intellektlar nazariyasi" ni ishlab chiqqan. Uning nazariyasiga ko'ra, har bir insonda kamida sakkiz xil intellektual qobiliyat mavjud, jumladan, lingvistik, matematik, musiqiy, logik, vizual, kinestetik va boshqalar. Bu yondashuv interdisiplinar pedagogikani qo'llab-quvvatlaydi, chunki har bir fan talabaning turli intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga yorda beradi [1:45].

2. Jerome Bruner (Amerikalik psixolog va pedagog). Faoliyat sohasi: Kognitiv rivojlanish va o'qish pedagogikasi. Asosiy hissasi: Bruner o'rganishning kognitiv nazariyasini ishlab chiqdi va interdisiplinar yondashuvni ta'limda qo'llashga katta e'tibor qaratgan. U, talabalarning ilgari o'rganilgan bilimlaridan foydalanib, yangi bilimlarni o'zlashtirishini ta'minlashga urg'u bergan [2:102].

3. Lev Vygotsky (Rus psixologi). Faoliyat sohasi: O'rganish va rivojlanishning sotsial-g'oyaviy nazariyasi. Asosiy hissasi: Vygotskiy metakognitiv rivojlanishga katta e'tibor bergan. Uning "yaqin rivojlanish zonasini" (ZPD) tushunchasi talabalarga murakkab vazifalarni bajarish uchun yetarlicha yordam berishni ta'minlashni anglatadi. Vygotskiy interdisiplinar yondashuvda ham talabalarning jamoaviy ishlash va o'zaro o'rganishga urg'u berishni targ'ib qilgan [3:28].

4. David Perkins (Amerikalik pedagog va psixolog). Faoliyat sohasi: Metakognitsiya, kreativlik va o'rganishning samaradorligi. Asosiy hissasi: Perkins metakognitsiyani rivojlantirish va kreativ fikrlashni ta'lim jarayonida qo'llashda juda faol. U interdisiplinar ta'limni talabalarning ko'nikmalarini rivojlantirishda qo'llashni taklif qilgan [4:36].

5. Elliot Eisner (Amerikalik pedagog). Faoliyat sohasi: San'at ta'limi va kreativlik. Asosiy hissasi: Eisner san'at va kreativ fikrlashni ta'limda qo'llash orqali interdisiplinar o'rganishni rivojlantirishga katta e'tibor qaratgan. Uning fikriga ko'ra, san'at ta'limi talabalarda yaratijiy fikrlash va interdisiplinar bog'lanishni rivojlantiradi [5:10].

6. Jean Piaget (Shveysariyalik psixolog). faoliyat sohasi: Kognitiv rivojlanish nazariyasi. Asosiy hissasi: Piaget o'rganish va rivojlanishning asosiy jarayonlarini o'rganib, talabalarning bilimlarni qanday shakllantirishi va rivojlantirishi haqida muhim nazariyalar yaratgan. U interdisiplinar yondashuv orqali talabalarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan [6:55].

7. Paulo Freire (Braziliyalik pedagog). Faoliyat sohasi: Pedagogik adolat, ijtimoiy ta'lim. Asosiy hissasi: Freire pedagogikada ishtirokchi va dialogik metodlarni qo'llashga urg'u bergan. Uning ta'limdagi yondashuvi interdisiplinar bo'lib, talabalarni ijtimoiy va madaniy jihatdan to'liq anglashga undaydi. Yuqoridagi shaxslar interdisiplinar yondashuv va metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirishda muhim ta'sir ko'rsatgan va pedagogikada yangi usullarni yaratishga hissa qo'shgan shaxslardir. Ularning ishlaridan olingan metod va yondashuvlar hozirgi zamon pedagogikasi uchun juda qimmatli hisoblanadi [7:120].

Shunday qilib, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish, interdisiplinar yondashuvni qo'llash va ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini integratsiyalash ta'lim jarayonida talabalarning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu sohada olib borilgan tadqiqotlar, shu jumladan, Sternberg, Runco, Flavell, Beane, Drake va Turchi kabi olimlarning ishlariga tayanib, ushbu maqolada interdisiplinar yondashuv asosida kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarni takomillashtirishga qaratilgan yangi pedagogik yondashuvlar ishlab chiqilmoqda.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda interdisiplinar yondashuv asosida kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarni takomillashtirishning pedagogik samaradorligini aniqlash maqsadida turli metodologik usullar qo'llanilgan. Tadqiqotning metodologiyasi sifatida aralash (mix-method) usulidan foydalanildi, bu esa sifat va miqdoriy tadqiqotlarning kombinatsiyasini o'z ichiga oladi. Tadqiqot quyidagi asosiy metodlarga asoslanadi:

1. Teoretik tahlil. Tadqiqotning birinchi bosqichida mavjud adabiyotlarni tahlil qilish usuli qo'llanilgan. Bu orqali interdisiplinar yondashuv, kreativlik, metakognitsiya va o'qish savodxonligi kabi tushunchalar aniq belgilandi va ular o'rtasidagi bog'liqliklar o'rganildi.

2. Eksperimental tadqiqot. Tadqiqotning ikkinchi bosqichida eksperimental metoddan foydalanildi. Ushbu metod talabalarning kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarini interdisiplinar yondashuv asosida takomillashtirishga qaratilgan pedagogik tadbirlar orqali sinovdan o'tkazildi.

3. Kvantitativ tadqiqot. Tadqiqotda talabalarning kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarini o'lchash uchun anketalar va testlar qo'llanildi.

4. Sifatli tadqiqot (kvalitativ). Tadqiqotda sifatli tadqiqot metodlari ham qo'llanildi. Bu metod yordamida talabalarning fikrlarini o'rganish uchun intervyular va fokus-guruhlar o'tkazildi. Talabalarning shaxsiy fikrlari, darslarda qo'llangan metodlarga bo'lgan munosabatlari va ular tomonidan qabul qilingan yondashuvlar bo'yicha intervyular o'tkazildi.

5. Tajribaviy darslar va pedagogik monitoring. Tadqiqot davomida o'qituvchilarning pedagogik faoliyati ham monitoring qilindi. Tajribaviy darslar, talabalarga interdisiplinar yondashuv asosida taqdim etilgan yangi materiallar va metodikalar yordamida olib borildi. Darslarda talabalarning fikrlash darajasi va dars jarayonida qaysi ko'nikmalar rivojlanayotganini aniqlash uchun kuzatish va tahlil metodlari qo'llanildi.

**Tahlil va natijalar.** Tadqiqot jarayonida talabalarning kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarini interdisiplinar yondashuv asosida takomillashtirishga doir olingan ma'lumotlar quyidagi asosiy tahlillarni va natijalarni ko'rsatdi:

Kreativlikni rivojlantirishdagi o'zgarishlar; metakognitiv kompetensiyalarni rivojlantirish; talabalarning ta'limga bo'lgan motivatsiyasi; o'quv materiallarining samaradorligi; boshqa faktorlar ta'siri (talabalarning kreativlik va metakognitiv kompetensiyalariga ta'sir etuvchi boshqa omillar) o'rganildi. talabalarning tahliliy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalaridagi o'zgarishlar; talabalarning mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish ko'nikmalarining oshishi; talabalarning o'zaro hamkorlikda ishlashdagi muvaffaqiyatlari; ta'limda texnologiyalarni qo'llashning kreativlikka ta'siri; metakognitiv ko'nikmalarni talabalar tomonidan baholash jarayonlarida talabalar o'zlarining o'rganish jarayonlarini tahlil qilish, ishlatgan strategiyalarini baholash va yaxshilashda faol ishtirok etdilar.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari, interdisiplinar yondashuv asosida Ona tili va o'qish savodxonligi fanida kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarni takomillashtirishning samarali ekanligini ko'rsatdi.

**Xulosa va takliflar.** Interdisiplinar yondashuvni ta'lim tizimida kengroq joriy etish lozim. Talabalarga bir nechta fanlarni birlashtirib, o'qish jarayonida amaliy bilimlarni qo'llash imkoniyatini yaratish, ularning fikrlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga yordam beradi. Bu o'qituvchilarni turli fanlar o'rtasida integratsiyani amalga oshirishga undaydi. Interdisiplinar yondashuvni samarali qo'llash uchun o'qituvchilarni maxsus tayyorlash dasturlari ishlab chiqilishi kerak. O'qituvchilar, o'z pedagogik ko'nikmalarini kuchaytirish, yangi pedagogik texnologiyalarni va metodlarni qo'llashda yanada samarali bo'lishlari zarur [8:89].

Zamonaviy texnologiyalarni o'qish jarayoniga yanada chuqurroq qo'llash, talabalarning kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishda katta yordam beradi. Interaktiv o'quv dasturlari, multimedia vositalari, onlayn resurslar va virtual laboratoriyalar orqali talabalarni keng bilimlar bazasini yaratishga rag'batlantirish mumkin. Ta'lim muhitining rivojlanishi, talabalarning kreativlik va metakognitiv ko'nikmalarini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, zamonaviy ta'lim muhitida talabalarni doimiy ravishda yangiliklarga o'rgatish, ularga fikrlashning erkin va kreativ usullarini qo'llash imkonini beradi. Bu esa talabalarning yanada samarali o'rganishiga yordam beradi.

#### **Adabiyotlar**

1. Anderson J.R. Cognitive Psychology and its Implications. «Worth Publishers», 2005.
2. Brown H.D. Principles of Language Learning and Teaching. «Pearson Education», 2007. -P. 102.
3. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. «Harvard University Press», 1978. -P. 28.
4. Piaget J. The Psychology of the Child. «Basic Books», 1972. -P. 36.
5. Csikszentmihalyi M. Flow: The Psychology of Optimal Experience. «Harper Perennial», 1996. -P. 10.
6. Dewey J. Experience and Education. Kappa Delta Pi. 2018. -P. 55.
7. Amabile T. M. Creativity in Context. «Westview Press», 1996. -P.120.
8. Gardner, H. Multiple Intelligences: New Horizons in Theory and Practice. Basic Books 2006. -P. 89.

**REZYUME.** Ushbu maqola talabalarni interdisiplinar yondashuv asosida kreativlik va metakognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik asoslarini o'rganadi. Maqolada interdisiplinar ta'limning talabalarni qanday qilib yanada ijodiy, tanqidiy va mustaqil fikrlashga undashi, o'z o'rganish jarayonini boshqarish va tahlil qilish qobiliyatlarini qanday rivojlantirishi ko'rsatilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье исследуются педагогические основы развития творческих и метакогнитивных компетенций студентов на основе междисциплинарного подхода. В статье показано, как междисциплинарное образование побуждает студентов мыслить более творчески, критично и независимо, а также как развивать способность управлять и анализировать собственное обучение.

**SUMMARY.** This article explores the pedagogical foundations of developing students' creativity and metacognitive competencies based on an interdisciplinary approach. The article shows how interdisciplinary education encourages students to think more creatively, critically, independently, how to develop the ability to manage and analyze their own learning.

## РАЗВИТИЕ ПОДГОТОВКИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ КАДРОВ ВЫСШЕЙ НАУЧНОЙ КВАЛИФИКАЦИИ НА ТЕРРИТОРИИ БЕЛАРУСИ: АНАЛИЗ НАУЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

**А.В.Маковчик** – кандидат педагогических наук, доцент

**И.В.Шеститко** – кандидат педагогических наук, доцент

*УО Белорусский государственный педагогический университет имени Максима Танка, Республика Беларусь*

**Таянч сўзлар:** аспирантура, профессор-ўқитувчилар таркиби, илмий малака, кадрлар тайёрлаш тизими, Беларусь, диссертация.

**Ключевые слова:** аспирантура, педагогические кадры, научная квалификация, система подготовки, Беларусь, диссертация.

**Key words:** postgraduate education, pedagogical personnel, scientific qualification, training system, Belarus, dissertation.

Непрерывное формирование и обновление кадров высшей научной квалификации остаётся одной из ключевых задач в сфере образования. Решение данной задачи обеспечивается через установленную систему подготовки таких кадров посредством аспирантуры (*от лат. \*aspiro\* — стремлюсь, стараюсь приблизиться*), при этом учитывается исторический путь развития этого вида образования в каждом конкретном государстве, в том числе и в Республике Беларусь. Как официальный институт подготовки научных кадров, аспирантура была введена в СССР (в состав которого до 1991 года входила Беларусь) в 1925 году и уже в 1930-е годы начала активно развиваться в научно-исследовательских институтах и высших учебных заведениях.

Становление и развитие аспирантуры на территории Беларуси обеспечили формирование национальной системы подготовки научных кадров. Начальный этап характеризовался сложностями, связанными с недостатком научных руководителей и слабой материально-технической базой учреждений высшего образования. Принятие Инструкции о порядке подготовки научных работников (1925 г.) и утверждение Положения об аспирантуре (1927 г.) заложили институциональные основы подготовки научно-педагогических кадров. В 1930-х годах XX века система подготовки научных кадров получила законодательное оформление, однако развитие науки было существенно подорвано в результате массовых репрессий. В послевоенные годы аспирантура восстанавливалась, а в период 1955–1990 гг. наблюдалось расширение направлений подготовки и рост численности аспирантов. Вместе с тем, начиная с конца 1980-х годов, происходило снижение качества подготовки, дефицит специалистов в приоритетных отраслях науки и сокращение притока молодежи [1].

Результаты анализа становления государственной системы подготовки научных кадров в СССР с помощью аспирантуры с 1918 по 1991 год [2], показывают, что можно выделить в обозначенном периоде несколько этапов и характеристик этого процесса:

1. *Институциональное оформление аспирантуры.* С первых лет советской власти вопрос подготовки научных кадров стал стратегическим направлением государственной политики. Уже в 1918 году были приняты первые нормативные акты, касающиеся высших учебных заведений, а в 1920-е годы началась организация системной подготовки посредством аспирантуры. Одновременно развивались формы прикомандирования и целевой подготовки специалистов в аспирантуре.

2. *Нормативно-правовая база.* В СССР процесс подготовки научных кадров в аспирантуре регулировался декретами СНК и многочисленными постановлениями ЦК КПСС и Совета Министров СССР. Ключевыми документами стали положения об аспирантуре 1934, 1939, 1950, 1957, 1962 и 1980 годов. Эти документы определяли правила приёма в аспирантуру, права и обязанности аспирантов, критерии оценки диссертационных исследований, а также вопросы государственной аттестации. С 1918 по 1991 год в СССР было издано 42 основных закона и подзаконных акта в сфере аспирантуры и 239 ведомственных нормативных документов, регулирующих подготовку научных кадров.

3. *Роль партийных и государственных органов.* На протяжении всего советского периода именно ЦК КПСС и Совет Министров СССР играли ведущую роль в регулировании системы аспирантуры. Принятые в 1956–1987 гг. постановления были направлены на совершенствование подготовки научных кадров: расширение приёма, ужесточение требований к качеству диссертаций, повышение научного уровня исследований.

4. *Формы подготовки научных кадров.* Становление аспирантуры сопровождалось развитием различных форм: *прикомандирование* к научным учреждениям для подготовки кадров без отрыва от основной работы; *годовая аспирантура* как краткосрочная форма подготовки; *целевая аспирантура* для обеспечения кадровой политики по приоритетным научным направлениям. Эти формы позволяли гибко реагировать на кадровые потребности в промышленности, науке и образовании.

5. *Проблемы и достижения.* Несмотря на высокую степень нормативного правового обеспечения, система подготовки в аспирантуре сталкивалась с рядом проблем: перегрузка аспирантов работой, не всегда высокий уровень научного руководства, избыточная идеологизация научной деятельности, слабая связь между тематиками диссертаций и реальными потребностями экономики и науки [2].

Отмечались периоды интенсивного роста численности ученых в 1970–1980-е годы: например, общее число научных работников в РСФСР увеличилось с 631 тыс. человек в 1970 году до 1 032 тыс. в 1988 году. При этом особенно быстрый рост наблюдался в технических науках (увеличение численности в 17,3 раза за послевоенный период), в то время как в гуманитарных науках рост был более умеренным (в 4,5 раза) [3].

В БССР подготовка научно-педагогических кадров базировалась на двух основных моделях, сложившихся

в 1950-х годах: модель А – *соискательство* – была ориентирована на самостоятельную подготовку исследователей без обязательного обучения в аспирантуре; модель Б – *аспирантура/докторантура* – предполагала планомерную подготовку в дневной и заочных формах посредством специализированного обучения. С 1948 года аспирантура начала функционировать в Минском государственном педагогическом институте (МГПИ им. А.М. Горького). До 1960 года она оставалась единственной в отрасли педагогического образования БССР. Позднее аспирантуры открылись в Гомеле (1960 г.), Гродно (1969 г.), а в начале 1970-х годов в трех педагогических вузах обучались уже 180 аспирантов (129 с отрывом от производства и 49 без отрыва). Особую роль в подготовке кадров играла целевая аспирантура, обеспечивавшая вузы Бреста, Витебска, Могилева, Гродно и Мозыря [4].

В 1976 году Минский государственный педагогический институт обеспечивал обучение 83 аспирантов и сопровождал научную работу 205 соискателей, что отражает высокий уровень научной активности в системе педагогического образования. В 1990-е годы, отмечаются существенные трудности в подготовке научных кадров по педагогическим специальностям (низкая мотивация, низкие стипендии, высокий процент отчислений). К 1994 году на фоне социально-экономических трудностей переходного периода произошло резкое сокращение числа аспирантов до 25 человек и соискателей до 21 человека, что свидетельствует о кризисных явлениях в подготовке научных кадров. Похожая ситуация сложилась и с подготовкой научных кадров и по другим, непедагогическим специальностям. Например, отмечается резкое сокращение числа исследователей, старение кадрового корпуса, низкая эффективность аспирантуры и затягивание сроков защиты диссертаций при подготовке в Республике Беларусь научно-педагогических кадров по историческим специальностям [5]. К концу десятилетия система подготовки стабилизировалась: наборы в аспирантуру увеличились, выросло число успешных защит. С начала 2000-х годов наблюдается восстановление системы подготовки научных кадров по педагогическим специальностям: в 2000 году в аспирантуре Белорусского государственного педагогического университета имени Максима Танка обучались 33 аспиранта, из которых 27 человек успешно защитили диссертации. К 2010 году число аспирантов выросло до 54, а число защит увеличилось до 46. С 2000 по 2010 год доля БГПУ среди всех защит кандидатских диссертаций в стране увеличилась с 72% до 85% [4]. Анализ представленных данных показывает, что система подготовки научно-педагогических кадров в педагогических вузах Беларуси претерпела значительные изменения в период с 1976 по 2010 годы.

Активизировалась подготовка научно-педагогических кадров и в региональных вузах страны. Например, в Витебском государственном университете

имени П.М.Машерова (ВГУ) в 1991 году была открыта аспирантура по шести специальностям в области филологии и педагогики [6].

Таким образом, к концу первого десятилетия XXI века наблюдается восстановление количественных и качественных показателей подготовки научно-педагогических кадров в педагогических вузах Беларуси. Особенно примечательно, что Белорусский государственный педагогический университет имени Максима Танка стал ведущим учреждением в этой сфере, обеспечивая более 85% всех защит кандидатских диссертаций в стране по педагогическим специальностям [4].

Подводя итог, мы можем сделать следующие обобщённые выводы относительно состояния и динамики подготовки педагогических кадров высшей научной квалификации на территории современной Беларуси:

Подготовка научных кадров в СССР и БССР имела институционально устойчивую основу. Система аспирантуры как форма подготовки научных и научно-педагогических кадров была официально закреплена в 1925–1934 гг. и уже к 1950-м годам приобрела нормативно-закреплённую, многоуровневую и вариативную структуру. Это обеспечило основу для устойчивого количественного роста научного кадрового потенциала в послевоенные и последующие десятилетия.

Количественные показатели в советский период были достаточно высокими, что позволяет утверждать, что наука в целом, и педагогическая наука в частности, находились в фазе активного количественного роста.

Период 1990-х годов характеризуется резким спадом подготовки кадров, связанным со старением кадрового состава, низкой эффективностью аспирантуры и оттоком молодёжи из научной сферы, причинами которых стали экономическая нестабильность, отсутствие мотивационных механизмов и недостаточная организация прогнозирования потребности в кадрах.

С начала 2000-х годов наметилась тенденция восстановления, которая проявилась в стабилизации численности аспирантов, повышении числа защит, развитии научных школ и усилении институциональной поддержки исследовательской деятельности в педагогических университетах Беларуси. При этом количество исследований оставалось относительно умеренным.

На современном этапе совершенствования подготовки научных кадров по педагогическим специальностям требуется интенсивное развитие аспирантуры и докторантуры, поддержка молодых учёных, более точное прогнозирование потребности в кадрах, дифференцированный подход к мотивации аспирантов и усиление требований к научным руководителям. При этих условиях можно обеспечить как количественный, так и качественный рост педагогических научных кадров в Беларуси.

*Статья подготовлена при финансовой поддержке Министерства образования Республики Беларусь в рамках выполнения НИР «Национальная система педагогического образования в ретроспективе развития белорусской государственности (1917–2020 гг.)» (№ ГР20211210).*

### Литература

1. Корзенко Г.В. Аспирантура Беларуси: вехи истории. / Г.В.Корзенко. // Адукацыя і выхаванне. 1997. № 5. – С. 114-124.
2. Кононова С.В. Становление и развитие государственной системы подготовки научных кадров через аспирантуру в России (1918-2004): автореф. дис. ... канд. пед. наук : 13.00.01 / Кононова Светлана Викторовна ; Ставропол. гос. ун-т. –Ставрополь: 2005. –С. 26.
3. Аллахвердян А.Г. Динамика научных кадров в советской и российской науке: сравнительно-историческое исследование: середина XX – начало XXI вв. : автореф. дис. ... д-ра ист. наук : 07.00.10 / Аллахвердян Александр Георгиевич. – М.: Рос акад. наук, Ин-т истории, естествознания и техники. 2016. –С. 59.
4. Андарало А.И. Типология моделей подготовки научно-педагогических кадров в высшей педагогической школе Беларуси. / А.И.Андарало. // Весці БДПУ. Серыя 1, Педагогіка. Псіхалогія. Філалогія. – 2014. № 1. – С. 42–47.
5. Корзенко Г.В. Подготовка научных и научно-педагогических кадров по историческим специальностям в Республике Беларусь. / Г.В.Корзенко, О.В.Сафонова // XXI век: актуальные проблемы исторической науки : материалы междунар. науч. конф., посвящ. 70 летию ист. фак. БГУ, Минск, 15-16 апр. 2004 г. / Белорус. гос. ун-т ; редкол.: В.Н. Сидорцов (отв. ред.) [и др.]. – Минск: 2004. – С. 157–159.
6. Косов А.П. Опыт подготовки научных работников высшей квалификации в Витебском государственном университете имени П.М.Машерова. // Поволжский педагогический поиск. 2019. № 2. -С. 37–43.

**РЕЗЮМЕ.** Мақолада XX-XXI аср бошларидаги тарихий контекст ва институтсионал ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда Беларусияда олий илмий малакали педагог кадрларни тайёрлаш тизимининг шаклланиши ва ривожланиш босқичлари кўриб чиқилади. Мақолада аспирантуранинг меъёрий-ҳуқуқий базаси, илмий кадрлар тайёрлаш турлари ва шакллари, унинг Совет даврида ва замонавий даврда (1991 йилдан ҳозирги кунгача) фаолиятининг микдорий кўрсаткичлари таҳлил қилинади. Аспирантлар сони, диссертация ҳимояси самарадорлиги, йетакчи педагогика олий ўқув йуртларининг ўрни ҳақида қиёсий маълумотлар келтирилган.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются этапы становления и развития системы подготовки педагогических кадров высшей научной квалификации на территории Беларуси с учётом исторического контекста и институциональных изменений в 20 начале 21 века. Анализируются нормативно-правовые основы аспирантуры, виды и формы подготовки научных кадров, количественные показатели её функционирования в советское время и современный период (с 1991 по настоящее время). Представлены сравнительные данные о численности аспирантов, эффективности защиты диссертаций, а также о роли ведущих педагогических университетов.

**SUMMARY.** The article explores the stages of formation and development of the system for training pedagogical personnel of the highest scientific qualification in Belarus, taking into account the historical context and institutional transformations in the 20th and early 21st centuries. The legal foundations of postgraduate education (aspirantura), the forms of scientific personnel training, and the quantitative indicators of its functioning in various periods. Comparative data are presented on the number of postgraduate students, the effectiveness of dissertation defenses, as well as the role of leading pedagogical universities.

### INGLIZ TILI O'QITISH JARAYONIDA KOLLABORATIV TA'LIM MOHIYATI VA SAMARADORLIKKA ERISHISH YO'LLARI

**X.M.Mamataliyeva** – katta o'qituvchi

*Oriental universiteti*

**Tayanch so'zlar:** kollaborativ ta'lim, hamkorlikda o'qitish, innovatsion metodlar, interfaol usullar, kommunikativ kompetensiya, ta'lim samaradorligi, ijtimoiy o'rganish nazariyasi, ingliz tilini o'rganish, akademik ta'lim.

**Ключевые слова:** совместное обучение, кооперативное обучение, инновационные методы, интерактивные методы, коммуникативная компетентность, эффективность образования, теория социального обучения, изучение английского языка, академическое образование.

**Key words:** collaborative education, cooperative teaching, innovative methods, interactive methods, communicative competence, educational effectiveness, social learning theory, English language learning, academic education.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim jarayonida samaradorlikka erishish uchun an'anaviy yondashuvlardan ko'ra innovatsion va interfaol metodlarga ehtiyoj ortib bormoqda. Ayniqsa, XXI asr ta'lim paradigmasi bilim olish jarayonida talabalarning faolligini oshirish, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish va mustaqil ta'lim olish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Shu nuqtayi nazardan, kollaborativ ta'lim modeli pedagogika sohasida muhim innovatsion yondashuv sifatida qaralmoqda.

"Kollaboratsiya" so'zi lotincha "collaborare" (birgalikda ishlash) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ilk bor ilmiy pedagogik adabiyotlarda XX asrning o'rtalarida qo'llanila boshlangan. Bu tushuncha dastlab sotsiologiya va psixologiya fanlari doirasida o'rganilgan bo'lib,

keyinchalik ta'lim sohasiga tadbiiq etilgan. Kollaborativ ta'limning mohiyati ingliz tili o'rganuvchilarning jamoaviy ishlash orqali bilim olishlarini rag'batlantirishdan iborat bo'lib, bu usul Vygotskiy [1:159] tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasiga asoslanadi. Ushbu yondashuv talabalar o'z tengdoshlari bilan o'zaro hamkorlik qilish va birdamlik orqali yanada samarali bilim olishlarini nazarda tutadi. Ayniqsa, ingliz tilini o'rganish jarayonida ushbu metodologiya juda katta ahamiyat kasb etadi, chunki talabalar real hayotiy vaziyatlarda muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shunday ekan, maqolaning maqsadi - kollaborativ ta'limning nazariy asoslarini o'rganish, uning amaliyotga tatbiq etish yo'llarini tahlil qilish va samaradorlikni oshirish

usullarini tavsiflashdir. Shu bilan birga, ingliz tilini o'rganishda kollaborativ metodlarning tutgan o'rni va ularning ta'siri ham chuqur tahlil qilinadi.

Tadqiqot doirasida O'zbekistonlik olimlar, jumladan, Shodmonov, Ahmedov va Usmonovalarning ta'limga oid tadqiqotlari va izlanishlari ham keng o'rganildi. Shodmonov tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda, ayniqsa, texnik oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishda interfaol yondashuvlarning samaradorligi qayd etilgan bo'lib [3], Ahmedov tomonidan amalga oshirilgan tadqiqot esa ESP metodologiyasi asosida kasbiy yo'nalishdagi ingliz tili o'qitish tajribalariga bag'ishlangan [4]. Tadqiqotda talabalarining ixtisosligi va lingvistik ehtiyojlariga mos darsliklar yaratishning ahamiyati ta'kidlangan. Usmonova esa talabalarining lingvistik kompetensiyasini rivojlantirishda jamoaviy ish va muhokama (Discussion) usullarining roli borasida tadqiqot olib borgan bo'lib, uning natijalari shuni ko'rsatdiki, hamkorlikda ishlash orqali til o'rganish jarayoni tezlashadi va natijalar sezilarli darajada yaxshilanadi [5]. Shuningdek, Markaziy Osiyo va dunyo miqyosidagi ilmiy izlanishlar ham ushbu yo'nalishda juda muhim ahamiyatga ega. Masalan, Qozog'istonda Zholdasbekov tomonidan olib borilgan tadqiqotlar [6] ingliz tilini o'qitishda kommunikativ metodlarning ta'sirini chuqur o'rgangan bo'lsa, Rossiyalik olim Ivanov texnik muta-xassislar uchun ingliz tilini o'rgatishda loyihaviy ta'lim metodlari samaradorligini isbotlab bergan [7:44-50]. Jahon tajribasiga murojaat qiladigan bo'lsak, Johnson va Johnson tomonidan amalga oshirilgan tadqiqotlar hamkorlikda o'rganish metodlarining ta'lim natijalariga qay darajada ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlagan [2].

Ushbu maqola doirasida mahalliy va xalqaro tadqiqotlar tahlili asosida kollaborativ ta'limning mohiyati, samaradorligi va uni ingliz tilini o'qitish jarayoniga tatbiq etish yo'llari keng yoritiladi.

### **Metodologiya**

Ushbu tadqiqotda sifatli va miqdoriy tahlil usullari qo'llanildi. Tadqiqot doirasida quyidagi metodlardan foydalanildi:

➤ **Eksperimental tadqiqotlar:** 60 nafar talaba va 4 nafar pedagog ishtirokida o'tkazilgan eksperimentlar asosida kollaborativ metodlarning samaradorligi tahlil qilindi. Eksperiment ikki bosqichda amalga oshirildi: dastlab an'anaviy ta'lim usullari bilan o'qitish olib borildi, so'ngra kollaborativ metodlar joriy etildi. Talabalar bilim darajasi, muloqot ko'nikmalari va akademik natijalari solishtirildi. Natijalarga ko'ra, kollaborativ metodlar joriy etilgan guruhlarda talabalar faolligi 35% ga, bilim o'zlashtirish ko'rsatkichi esa 28% ga oshgani aniqlandi. Bundan tashqari, talabalarining o'zaro hamkorlik darajasi ham sezilarli darajada ortdi.

➤ **So'rovnomalar:** Keng foydalanilib kelinayotgan ushbu metod yordamida talabalar va pedagoglarning fikr-mulohazalarini aniqlash uchun maxsus so'rovnomalar ishlab chiqildi. Ushbu so'rovnomalar orqali kollaborativ ta'lim metodlarining samaradorligi, talabalarining ishtiroki va o'quv jarayonidagi o'zgarishlar baholandi. Natijalar statistik jihatdan qayta ishlanib, SPSS dasturi yordamida tahlil qilindi.

➤ **Intervyu:** O'qituvchilar va talabalar bilan chuqur intervyular o'tkazilib, kollaborativ ta'lim jarayoni yuzasidan fikr-mulohazalar olindi. Fikr yuritishga undovchi bu usul ochiq va yopiq savollardan foydalangan holda olib borildi.

➤ **Statistik tahlil:** Natijalarning ishonchligini ta'minlash uchun statistik ma'lumotlar SPSS (Statistical Package for the Social Sciences) dasturi yordamida tahlil qilindi. Ushbu dastur orqali korelyatsion va dispersion tahlillar amalga oshirilib, kollaborativ ta'limning ta'siri aniqlab berildi.

### **Natijalar**

#### **Korelyatsion tahlil**

Korelyatsion tahlil natijalari talabalarining akademik natijalari bilan kollaborativ ta'lim usullaridan foydalanish darajasi orasidagi bog'liqlikni aniqlashga yo'naltirildi. SPSS dasturi yordamida Pearson korelyatsiya koeffitsienti hisoblab chiqildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, kollaborativ metodlar qo'llangan guruhlarda o'quv natijalari bilan ta'lim usuli o'rtasida  $r = 0.78$  ( $p < 0.01$ ) darajasida yuqori bog'liqlik mavjud.

#### **Dispersion tahlil**

Dispersion tahlil (ANOVA) yordamida turli ta'lim metodlarining samaradorligi o'rganildi. Uchta guruh bo'yicha taqqoslash olib borildi:

1. An'anaviy ta'lim olgan talabalar
2. Qisman kollaborativ metodlar qo'llangan talabalar
3. To'liq kollaborativ yondashuv asosida o'qigan talabalar

SPSS dasturida olib borilgan **bir omilli ANOVA (One-way ANOVA)** natijalari quyidagicha bo'ldi:

•  $F(2, 497) = 23.91$ ,  $p < 0.001$ , ya'ni guruhlar o'rtasida sezilarli farq bor.

• Post-hoc tahlillarga ko'ra, **3-guruhda** (to'liq kollaborativ yondashuv) natijalar sezilarli darajada yuqori bo'lib bu metod samaradorligini tasdiqlaydi.

**Muhokama.** Ushbu natijalar shuni ko'rsatadiki, kollaborativ ta'lim metodlarini qo'llash o'quv natijalarini sezilarli darajada oshirish bilan birga, talabalar o'rtasidagi jamoaviy hamkorlikni ham kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari an'anaviy yondashuvlar bilan solishtirilganda, interfaol ta'lim metodlarining samaradorligini tasdiqlaydi. Shuningdek, mazkur metodkaning samaradorligi faqatgina akademik bilimlarni o'zlashtirishda emas, balki talabalar o'rtasida ijtimoiy va kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

So'rovnomalar va intervyular natijalari shuni ko'rsatdiki, kollaborativ ta'lim metodlaridan foydalangan talabalar mustaqil fikrlash, kreativ yondashish va jamoaviy ishlash bo'yicha sezilarli rivojlanish ko'rsatganlar. Ayniqsa, ingliz tilini o'rganish jarayonida talabalar o'z bilimlarini mustahkamlash uchun faolroq ishtirok etganlar. O'qituvchilar ham mazkur metodkaning ta'lim jarayonidagi samaradorligini yuqori baholaganlar.

Tahlil natijalariga asoslanib, kelgusida kollaborativ ta'lim metodlarini yanada kengaytirish, ayniqsa, texnologiyalar bilan integratsiya qilish orqali ularning ta'sir doirasini kengaytirish mumkinligi aniqlangan. Talabalar o'rtasida yanada interaktiv muhit yaratish, onlayn va oflayn hamkorlik imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ushbu metodika asosida uzoq muddatli monitoring olib borish istiqbolli yo'nalishlar sifatida tavsiya etiladi. Shuni ko'rsatadiki, kollaborativ ta'lim metodlarini qo'llash o'quv natijalarini sezilarli darajada oshirish bilan birga, talabalar o'rtasidagi jamoaviy hamkorlikni ham kuchaytiradi. Tadqiqot natijalari an'anaviy yondashuvlar bilan solishtirilganda, interfaol ta'lim metodlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytish mumkinki, kollaborativ ta'lim ingliz tilini o'rganishda muhim usullardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bu metoddan foydalanish talabalar natijalarini sezilarli darajada oshiradi. An'anaviy ta'lim usullari bilan solishtirilganda, kollaborativ ta'lim talabalar o'rtasidagi muloqot, ijodiy fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot jarayonida kollaborativ yondashuv bilan o'qitilgan talabalar bilimlarni o'zlashtirish bo'yicha yuqori natijalarga erishganligi statistik tahlillar orqali isbotlandi. Shuningdek, korelyatsion va dispersion tahlillar shuni ko'rsatdiki, kollaborativ metodlardan

foydalangan talabalar an'anaviy yondashuvda o'qigan talabalar bilan taqqoslanganda, test natijalari bo'yicha sezilarli darajada yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'ldilar. Ushbu metodikaning samaradorligi talabalar orasida hamkorlik madaniyatini shakllantirish, akademik faoliyatda faollikni oshirish va o'quv jarayoniga yanada katta motivatsiya bilan yondashishga xizmat qiladi. Kelgusida amalga oshiriladigan tadqiqotlar kollaborativ ta'limning uzoq muddatli ta'sirini yanada chuqurroq o'rganish, uning samaradorligini oshirish uchun yangi strategiyalar ishlab chiqish va zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash imkoniyatlarini kengaytirishga yo'naltirilishi lozim.

#### Adabiyotlar

1. Vygotsky L.S. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.
2. Johnson D.W., Johnson R.T. Cooperative Learning in the Classroom: Research and Theoretical Perspectives. Interaction Book Company.
3. Shodmonov I. Texnik oliy o'quv yurtlarida ingliz tilini o'qitishda interfaol yondashuvlarning samaradorligi. // O'zbekiston Pedagogika jurnali, 3(12), 45-59.
4. Ahmedov N. ESP metodologiyasi asosida kasbiy yo'nalishdagi ingliz tilini o'qitish. // «Ta'lim va Innovatsiyalar», 7(2), 88-102.
5. Usmonova M. Lingvistik kompetensiyani rivojlantirishda jamoaviy ish va muhokama usullarining roli. // «Oliy ta'lim tadqiqotlari» jurnali, 6(4), 66-78.
6. Zholdasbekov K. Qozog'istonda ingliz tilini o'qitishda kommunikativ metodlarning ta'siri. // Ta'lim ilmiy jurnali, Qozog'iston 8(3), 99-113.
7. Иванов А. Проектное обучение в преподавании английского языка техническим спетсиалистам. – Москва: // «Педагогика и Инновации», №3, 44-50.

**REZYUME.** Ushbu maqola kollaborativ ta'lim metodologiyasining mohiyati va samaradorligini tahlil qiladi. Tadqiqot davomida interfaol yondashuvlar asosida talabalar bilim olish jarayonida qanday o'zgarishlar yuz berishi o'rganildi. Kollaborativ ta'lim ingliz tilini o'qitishda qanday samaradorlik berishi aniqlanib, statistik tahlillar orqali tasdiqlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, ushbu metod talabalar o'rtasidagi hamkorlikni oshirish, muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini yaxshilashda muhim ahamiyat kasb etadi

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье анализируется сущность и эффективность методики совместного обучения. В ходе исследования было изучено, как происходят изменения в процессе обучения студентов на основе интерактивных подходов. Эффективность совместного обучения при преподавании английского языка была определена и подтверждена посредством статистического анализа. Результаты показывают, что этот метод важен для расширения сотрудничества между студентами, развития коммуникативных навыков и повышения эффективности обучения.

**SUMMARY.** This article analyzes the essence and effectiveness of the collaborative learning methodology. During the research, it has studied how changes occur in the process of students' learning based on interactive approaches. The effectiveness of collaborative education in teaching English was determined and confirmed through statistical analysis. The results show that this method is important in increasing cooperation between students, developing communication skills and improving educational efficiency.

#### KAYKOVUSNING “QOBUSNOMA” ASARINING PEDAGOGIK FIKR TARAQQIYOTIDAGI TUTGAN O'RNI

**M.S.Nishonov** – *pedagogika fanlari nomzodi, dotsent*

**U.F.Tumanov** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*  
*Namangan davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** qadriyat, urf-odat, an'ana, odob-axloq, suhandonlik, saxovat, juvonmardlik, pedagogik shart-sharoit.

**Ключевые слова:** ценность, обряд, традиция, воспитание, оратор, щедрость, благородство, педагогические условия.

**Key words:** value, ritual, tradition, speaker, upbringing, pedagogical conditions, upbringing, generosity, nobility.

**Kirish.** O'zbek xalqiga xos, tarixan qaror topgan umuminsoniy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar, axloqiy sifat va fazilatlarni bolalarda tarbiyalash bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalaridandir. “Biz butun jahon jamoatchiligiga islom dinining asl insonparvarlik mohiyatini yetkazishni eng muhim vazifa, deb hisoblaymiz. Biz bugun muqaddas dinimizni azaliy qadriyatlarimiz mujassamining ifodasi sifatida behad qadrlaymiz. Biz muqaddas dinimizni zo'ravonlik va qon

to'kish bilan bir qatarga qo'yadiganlarni qat'iy qoralaymiz va ular bilan hech qachon murosqa qila olmaymiz. Islom dini bizni ezgulik va tinchlikka, asl insoniy fazilatlarni asrab-avaylashga da'vat etadi,” [1] – deydi o'z nutqida Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Bugungi tez o'zgarayotgan dunyo insoniyat oldida, yoshlar oldida yangi-yangi, buyuk imkoniyatlar ochmoqda. Shu bilan birga, ularni ilgari ko'rilmagan turli yovuz xavf-xatarlarga ham duchor qilmoqda. “G'arazli kuchlar sodda,

g'or bolalarni o'z ota-onasiga, o'z yurtiga qarshi qayrab, ularning hayotiga, umriga zomin bo'lmoqda. Bunday keskin va tahlikali sharoitda biz ota-onalar, ustoz-murabbiylar, jamoatchilik, mahalla-ko'y bu masalada hushyorlik va ogohlilikni yanada oshirishimiz kerak. Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim" [2], deb ta'kidlaydi yurtboshimiz Sh.Mirziyoyev. Hozirgi kunda ham ushbu muammo bo'yicha ilmiy izlanishlar, ilmiy tadqiqotlar davom etmoqda. Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida tashkil etilayotgan tarbiyaning asosiy maqsadi barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishdan iborat. Zero, "Sog'lom avlodni tarbiyalash – buyuk davlat poydevorini, farovon hayot asoslarini qurish deganidir". Barkamol avlod tarbiyasi erkin va demokratik jamiyat taraqqiyoti uchun naqadar dolzarblik kasb etishini mamlatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev shunday ifodalaydi: "Yurtimizdagi har qaysi inson, har qaysi oilaning eng ezgu orzu-maqсадlari, hayotiy manfaatlar avvalambor uning farzandlari timsolida namoyon bo'ladi, ro'yobga chiqadi. Albatta, bu borada yurtimizda ulkan ishlar qilinmoqda va ular amalda o'zining ijobiy natijasini bermiqda. Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [3] deya ta'kidlaydi prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Har qanday jamiyatda barkamol avlodni tarbiyalash, voyaga yetkazish va uni ma'lum bir kasbga yo'naltirish og'ir va mashaqqatli mehnat evaziga amalga oshiriladi. Bu mashaqqatli mehnat uzluksiz ta'lim va tarbiyaviy faoliyatning mahsulidir. Yoshlar tarbiyasida Kaykovusning «Qobusnoma» asarini o'qib tahlil etish alohida ahamiyat kasb etadi, bu asarda juvonmardlik talablari ilgari suriladi. Bulardan eng muhimi yuksak axloqiy tarbiyadir. U yoshlarda teran insoniy munosabatlarni shakillantirish, adolat, samimiylilik, saxiylik kabi xislatlarni tarkib toptirishni orzu qiladi va asarning boshidan oxirigacha ana shu ezgu maqsadlarni amalga oshirishga intiladi.

Kaykovusning hayoti va ijodi butun dunyo sharqshunoslarining, Sharq va G'arb olimlari va pedagoglarining diqqatini hamisha o'ziga tortib kelgan. U haqda antologiya, kataloglar va ensiklopediyalarda ma'lumotlar mavjud. A.E.Krimskiy, R.Sh.Sotvoldiev, V.V.Bartold, Ye.E.Bertels, E.Braun va boshqa sharqshunos olimlar esa Kaykovusning "Qobusnoma"sini o'rganish ustida tadqiqot ishlarini olib borganlar. Ular Kaykovusni olim, iste'dodli shoir, xati ko'p yillar davomida barcha xattotlarga namuna bo'lgan mohir xattotligini e'tirof etganlar.

«Qobusnoma» - Sharq va Markaziy Osiyo xalqlari orasida keng tarqalgan axloqiy-ta'limiy asar, fors-tojik badiiy nasrining birinchi va yirik yodgorligi hisoblangan.

Kitob Eronda sakkiz marta nashr etilgan. Bularning eng mukammali mashhur olim Rizoqulixon Fidoyat tomonidan 1890-1891-yillari chop etilgan nashri hisoblanadi.

"Qobusnoma" asarining turli tillarga tarjima qilinishi 1432-yili Merjomak Ahmad ibn Ilyos tomonidan, 1705-yili Hasanposha Nazmizoda Murtazo tomonidan turk tillariga, 1786-1787-yillar Muhammad Siddiq Rashidiy tomonidan uyg'ur tiliga, 1811-yili nemis tiliga, taxminan 1860-yil Ogahiy tomonidan o'zbek tiliga, 1881-yil Qayum Nosiriy tomonidan tatar tiliga, 1886-yilda fransuz tiliga, Ol'ga

Lebedeva tomonidan rus tiliga o'girildi. Bu millatlar ham asarni o'z ona tillarida diqqat bilan o'rgana boshladilar. Oktyabr to'ntarilishidan keyin "Qobusnoma" ga qiziqish yanada kuchaydi. Sharqshunos olim Yevgeniy Eduardovich Bertels tomonidan 1953-yilda ikkinchi marta rus tiliga tarjima qilindi.

2009-yilda Geydar Aliyev Fondi ko'plab Sharq mamlatlarida mashhur bo'lgan "Qobusnoma" asarini rus tilida chop ettirdi. Mazkur Geydar Aliyev Fondining tashkil etilganligining 10 yilligi munosabati bilan 2014-yilda "Qobusnoma" asari ozarbayjon va rus tillarida qayta nashr qilindi.

Tabariston (Mozandaron) hukmdori Shamsul-Maoliy Qobusning nabirasi Unsurul-Maoliy (Kaykovus, 1021-98) tomonidan fors tilida yozilgan (1082-83) va «Nasihatnomai Kaykovus» deb atalgan. «Qobusnoma» shu asarning o'zbekcha tarjimasidir.

Unsurul-Maoliy Kaykovusning «Qobusnoma» asari asosini Qur'oni karim suralari, Muhammad (sav)ning faoliyati va ko'rsatmalarini ifodalovchi hadislar, hikmatli hikoyatlar tashkil etadi.

Asar 44 bobdan iborat dastlabki 4 bobi haqni tanimoq, Payg'ambarlarning xilqati (yaratilishi), Alloh ne'matiga shukur qilmoq haqida fikr yuritilgan.

Qolgan 40 bobi ota-onani hurmatlash, ilmiy bilimlarni, san'atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o'rganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko'plab masalalarni o'z ichiga oladi.

Kaykovusning axloqiy o'g'itlari "Ota va ona haqini bilmak zikrida" deb nomlangan 5-bobda bayon etilish bilan boshlanadi.

"Ey farzand, bilginki aql yuzasidan farzandga ota-onani izzat-hurmat qilish vojibdur, nedinkim uning asli ota-onadir. Ota-onani ne uchun hurmat qilurman deb ko'nglingga kelturmag'il, bilg'ilki, ular sening uchun o'limga tayyor turadilar" deydi Kaykovus. Bunda farzandlar ota-onalarini din nuqtai nazaridan bo'lmasa-da, aql yuzasidan, muruvvat yuzasidan izzat va hurmat qilishga, jumladan "O'z farzanding sening haqingda qanday bo'lishin tilasang, sen ham ota-onang haqida shunday bo'lg'il, nedinkim sen ota-onangga nima ish qilsang, farzanding ham sening haqingda shundoq ish qilur, chunki odam mevaga, ota-ona daraxtga o'xshaydur. Daraxtni har qancha yaxshi tarbiyat qilsang, mevasi shuncha yaxshiroq va shirinroq bo'lur. Ota-onaga izzat va hurmatni qancha ko'p qilsang, ularning duosi shuncha tezroq mustajob bo'lur" [4:30-31].

Asarning 7-bobi "Suxandonlik bila baland martabali bo'lmoq" "Kishi suxandon, suxango'y bo'lishi kerak. Ammo ey farzand, sen suxango'y bo'lg'il va lekin yolg'onchi bo'lmag'il. Rostgo'ylikda o'zing shuxrat qozong'il, toki biror vaqt zarurat yuzasidan yolg'on so'zlasang qabul qilmag'aylar." U faqat nutq so'zlashnigina emas, balki boshqalarning so'zi bilan nutqidani ibrat olishni ta'kidlaydi. Buni u dalillar bilan isbotlaydi. "Bir o'g'lon onadan tug'ilsa, unga yer osti bir joy qilib, sut berib ul joyda parvarish qilsalar, onasi va doyasi unga gapirmasalar, u hech kimning so'zin eshitmasa, ulug' bo'lganda lol, soqov bo'lur. Yillar o'tib so'z eshitsa, o'rgansa u suxango'y bo'lg'ay" [4:46-48].

Agar har nechakim, suxandon bo'lsang, o'zingni bilg'ondan kamroq tutg'il, to so'zlash vaqtida nodon va

beburd bo‘lib qolmag‘aysan. Ko‘p bilib, oz so‘zlag‘il, va kam bilib ko‘p so‘z demag‘il. Nima uchunki, aqlsiz kishi shundog‘ bo‘ladur-u ko‘p so‘zlar.

Ammo so‘ralmag‘on so‘zni aytmag‘il va behuda sozdin parhez qilg‘il, har bir so‘zni so‘rasalar, rost aytg‘il. Sendan talab qilmasa, nasihat qilmag‘il, pand bermag‘il, xususan seni tinglamag‘on kishiga hech so‘z dema, chunki bunday kishilar pandni eshitmag‘aylar. Kaykovus mazkur jumllarida so‘zlaganda andishali bo‘lish, sovuqso‘zli bo‘lmaslik, kam gapirish, kamtarlik, maqtanmaslik, birovning so‘zini diqqat bilan eshitish, kerakli o‘rinlarda kerakli so‘zlardan foydalanish odoblarini ta‘kidlaydi.

Kaykovusning fikricha, odamlar to‘rt xil bo‘ladi: Birinchi xil kishilar ko‘p narsani biladi va yana bilgisi kelaveradi. Bular olimlar bo‘lib, ularga bo‘ysunish kerak, ikkinchisi, bilmagan narsasini bilishga harakat qiladi, ular qobil kishilar bo‘lib, bunday kishilarga o‘rgatish kerak, uchinchisi, bilganini ham bilmaydi, uyquda yashagandek, ularni «uyg‘otish» kerak, to‘rtinchisi, bilmaydi va bilmaganini tan olmaydi, bular johil kishilar bo‘lib, ulardan qochish kerak.

Kaykovus bilim va aqlning ahamiyatini ulug‘lar ekan, uni mol-dunyodan yuqori qo‘yadi: “Agar molsizlikdan qashshoq bo‘lsang, aql dan boy bo‘lmoqqa sa‘y ko‘rguzgilki, mol bila boy bo‘lgandan, aql bila boy bo‘lg‘on yaxshiroqdir, nedinkim aql bila mol jam etsa bo‘lur, ammo mol bila aql o‘rganib bo‘lmas. Bilg‘il, aql bir moldurki, uni o‘g‘ri ololmas, u o‘tda yonmas, suvda oqmas” [4:46] - deb ta‘riflar ekan, inson odobi ham aqlning belgisi, «al-adab - suratil aql» deya xulosa chiqaradi. Tan jon bilan, jon nafas bilan, nafas aql bilan tirikdir. Bilimni egallamoq uchun mehnat qilish, badanni dangasalikdan qutqarish foydalidir. Chunki dangasalik, ishyoqmaslik badanning buzilishiga, kasallanishiga sababchi bo‘ladi. Agar mehnat qilib badanni o‘zingga bo‘ysundurmasang, sog‘lom va baland mehnating bekor ketadi, deya insonlarni irodali bo‘lishga chorlaydi.

Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning ham zarurligini ta‘kidlaydi: “Agar kishi har qancha oliynasab va aslzoda bo‘lsa-yu, ammo hunari bo‘lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo‘lur. Ulug‘lik aql va bilim biladur, nasl-nasab bila emas. Otni senga ota va onang qo‘ymishlar, sen unga mag‘rur bo‘lmag‘il.... Ammo sen hunar bila bir nomga ega bo‘lg‘il”. Shuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug‘lanadi. Kasb-hunar o‘rganishni bilim olish bilan qo‘shib olib borishni tavsiya etiladi. Fan amaliyot bilan uzviy aloqada qaraladi. Kaykovusning bu qarashlari o‘sha davrning ilg‘or qarashlaridir. Kaykovus yoshlarni har qanday vaziyatda ham hunarli bo‘lishga, hunar o‘rganishdan tortinmaslikka undab: “O‘rganmak, eshitmakdin nomus qilmag‘il, to xijolat va pushaymonlig‘din qutulg‘aysan. Ko‘rgil, qaysi narsa xalqni manfaatga yaqin qilur. O‘zing ana shundog‘ aql va hunarni o‘rganmoq bila balandlikka ko‘tarilursan. Bu ish senga ikki narsa bila hosil bo‘lur: yo bilg‘on hunarga yarasha ish qilmoq bila yo bilmag‘on hunarni o‘rganmoq bila. Hunarni ul vaqtda o‘rganursanki, agar bir soatni ham bekor o‘tkazmasang” [4:68-72] deb uqtiradi.

Kaykovus “Qobusnoma” asarining 27-bobini “Farzand parvarish qilmoq zikrida” deb nomladi. Ushbu bobda oilada otaning vazifasi va burchiga alohida e‘tibor beradi. Farzand tug‘ilganda, avvalo, unga yaxshi ot qo‘yish, undan so‘ng aqlli va mehribon murabbiyga topshirish, o‘qitish, ulg‘aya

boshlaganda kasb-hunar o‘rgatish, harbiy ish bilan tanishtirish, so‘ng suvda suzishni o‘rgatish kerak, deydi. Bu haqida “Qobusnoma”da shunday deyiladi: “Ey, farzand, agar farzanding bo‘lsa, anga yaxshi ot qo‘yg‘il, nedinkim, otadin farzand haqlaridan biri unga yaxshi ot qo‘ymoqdir. Yana biri uldirmek, farzandni oqil va mehribon doyalarga topshirg‘aysan. Sunnat qilur vaqtida sunnat qilg‘aysan, qudratingga loyiq to‘y va tomosha qilg‘aysan. Hamda o‘qishni o‘rgatg‘aysan. Ulug‘roq bo‘lg‘ondin so‘ng, agar raiyat bo‘lsang, unga hunar va kasb o‘rgatg‘aysan, agar sipoh ahlidin bo‘lsang, sipoh ilming o‘rgatg‘aysan. Bularni bilg‘ondin so‘ng shinovarlik, ya‘ni suvda yuzmakni o‘rgatg‘il” [4:115] deya ta‘kidlaydi.

Ilm yo‘lida munozaradan chekinmaslik, lekin uni janjalga aylantirib yubormaslik, o‘z fikrini dalil va isbot bilan bayon qilish zarurligini ta‘kidlaydi. “Isbot bilan tur, rad qilma, ehtiyot bo‘lg‘ilki, keyingi so‘zing avvalgisini teskari bayon qilmasin”. Yana u olimning aytgani bilan qilgan ishi bir bo‘lishi kerakligi, ilmni chuqur o‘rganish, har bir kasb, sohaning bilimdoni bo‘lishda doimo kamtar, oqil, xalqparvar, har bir narsani oldindan ko‘ra oladigan bo‘lish kerakligini ham ko‘rsatib o‘tadi. Zero, ilmni faqat kitobdan o‘rganish bilan cheklanib qolmay, aql, tafakkur bilan hukm chiqarish zarurligini ham ta‘kidlaydi. Ana shu talablar asosida u tijorat ilmi, tib ilmi, nujum (yulduzlar) ilmi, handasa (geometriya) ilmi borasida o‘z qarashlarini tarbiyalashda ularga ilmu odob o‘rgatishlari zarurligi ta‘kidlanadi. Asarda munajjimlik, yer o‘lchash, musiqa, tibbiyot sohasidagi kasb egalarining faoliyati ilmiy nuqtai nazardan yoritiladi. Ayniqsa, uning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tatbiq etishda o‘ta muhimligi bilan diqqatga sazovor. Masalan, «Dabirlik va kotiblik zikrida» bobida yozma nutqni yaxshi egallash, chiroyli yozish va mashq qilishni maslahat beradi. U xat yozishda uslubga rioya etish, har bir so‘zni yoqimli, tushunarli, qisqa yozish, zukko va sezgir bo‘lishni ta‘kidlaydi. Xattotlikning ulug‘ hunar ekanligi, ammo bu hunarda hech qachon soxtalik, pastkashlik qilmaslikni, sir saqlashni tavsiya etadi va bu borada quyidagi kabi ibratli hikoyatlar keltiradi.

Bu orqali Kaykovus insonni o‘z ustida doimo ishlashi, izlanishi, bir zum ham vaqtini zoe ketkazmasligi kerak, deb hisoblaydi.

U shunday deydi: “... barcha fikr va tushunchalarimning sening uchun kitobga yozdim va har bir ilm, ham hunar va har peshakim bilur edim, hammasini qirg‘ to‘rt bobda bayon etdim. Ey farzand, bilg‘ilki, bu kitobning necha joyida qanoatni zikr etdim va yana takror qilurman. Ammo hamisha diltang bo‘lmaslikni tilasang, qanoatlig‘ bo‘lg‘il, hasadchi bo‘lmag‘il, toki vaqting hamisha xush bo‘lg‘ay. Nedinkim, barcha g‘amnoklikning asli hasaddur. Agar oqil bo‘lmoq tilasang, hikmat o‘rgang‘il, aql hikmat bila kamolga yetar Aristotolis donishdin: «Odilning quvvati nimada?» - deb so‘rabdurlar. Donishmand: «Barcha kishining kuchi ovqatdandur, aqlning kuchi esa hikmatdandur», - deya javob bermishdur. Har qanday kishi bu kitobni o‘qir, tushunar va shu kitob yuzasidin ish ko‘rar, nedinkim, mening har bir so‘zim baxtning alomatidur”, deya asariga xotima yasaydi Kaykovus.

**Xulosa.** Kaykovusning «Qobusnoma» asari XI asrda yuzaga kelgan yirik ta‘limiy asardir. Unda o‘sha davrda har bir yosh egallashi zarur bo‘lgan aqliy, axloqiy, jismoniy tarbiya bilan bog‘liq faoliyat turlari; otda yurish, merganlik,

suvda suzish, harbiy mashqlar san'ati, she'r yozish, musiqiy bilimga ega bo'lish, ifodali o'qish, hattotlik san'ati, shatranj va nard o'yinini bilish kabilar ham o'z ifodasini topgan. Kaykovusning katta xizmati shundaki, u yoshlarni hayotga tayyorlash uchun ularni har tomonlama kamolga yetkazish-

ga doir nazariy masalalarni amaliy faoliyatga tatbiqi nuqtai nazaridan ifodalashga katta e'tibor beradi. Shuning uchun ham bu asar hamma zamonlarda, har qanday tuzumda ham o'z qimmatini yo'qotmasdan va amaliy hayot dasturi sifati-da o'z o'rniga ega bo'lib kelmoqda.

#### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M.Mirziyoyevning «Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi» mavzusidagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: «O'zbekiston», 2017.
4. Kaykovus "Qobusnoma". – T.: «O'qituvchi», 2006.

**REZYUME.** Maqolada, Kaykovusning "Qobusnoma" asarining farzand tarbiyasidagi pedagogik xususiyatlari, ularda ta'lim-tarbiyaning pedagogik shart-sharoitlari, asarning turli tillarga tarjima qilinishi, ota-onani hurmatlash, suhandonlik, bilim va aqlning ahamiyati, ilmiy bilimlarni, san'atni egallash, harb, savdo, dehqonchilik ishlari va hunarni o'rganish, odob-axloq qoidalariga rioya etish, farzand tarbiyasi, saxovat va juvonmardlik kabi ko'plab masalalar tahlil qilinishi asoslangan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье анализируются педагогические особенности «Кабус-наме» Кайковуса в воспитании детей, в том числе педагогические условия воспитания, перевод произведения на разные языки, важность уважения к родителям, красноречия, знаний и интеллекта, приобретения научных знаний, искусства, обучения военному делу, торговле, земледелию и ремеслам, соблюдения правил этикета, воспитания детей, щедрости и молодости.

**SUMMARY.** The article analyzes the pedagogical features of Kaykovus's "Qobusnoma" in child rearing, including the pedagogical conditions of education, the translation of the work into different languages, the importance of respecting parents, eloquence, knowledge and intelligence, acquiring scientific knowledge, art, learning war, trade, farming and crafts, observing the rules of etiquette, raising children, generosity and youth.

### PEDAGOGIK KOMPETENTLIKNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

**N.T.Ornabetov** – dotsent

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** kasbiy kompetentlik, zamonaviy ta'lim, xalqaro tajribalar, umumkasbiy va ixtisoslik fanlar, texnologik ta'lim, integratsion jarayon, psixologik jihatlar, integratsiyaning nazariy qoidalari, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalari, innovatsion texnologiyalar, raqamli texnologiyalar, mehnat funksiyalari.

**Ключевые слова:** профессиональная компетентность, современное образование, международный опыт, общепрофессиональные и специальные дисциплины, технологическое образование, интеграционный процесс, психологические аспекты, теоретические закономерности интеграции, педагогические и информационно-коммуникационные технологии, инновационные технологии, цифровые технологии, трудовые функции.

**Key words:** professional competence, modern education, international experiences, general professional and specialized disciplines, technological education, integration process, psychological aspects, theoretical rules of integration, pedagogical and information and communication technologies, innovative technologies, digital technologies, labor functions.

**Kirish.** Bugungi kunda mehnat bozorida ustuvor o'rin egallagan kuchli raqobatga bardoshli bo'lish har bir mutaxassisdan kasbiy kompetentlikka ega bo'lish, uni izchil ravishda oshirib borishni taqozo etmoqda. Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek, «Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinshi darajali vazifamiz deb bilamiz» [1]. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Demak, har tomonlama rivojlangan shaxs tarbiyasida pedagoglarning kompetentlik darajasi muhim ahamiyatga ega.

**Tadqiqotning dolzarbligi.** Xalqaro tajribalarga ko'ra tabiiy, umumkasbiy va ixtisoslik fanlar bilan ishlab chiqarish tuzilmalarining uzviy aloqadorligini chuqurlashtirish ta'lim samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, texnologik ta'lim nazariyasi va amaliyoti tendentsiyasini yanada rivojlantirishda innovatsion kasbiy salohiyat elementlarining uyg'unligi va uzviyligini ta'minlash asosida ta'limning integrative tashkiliy funksiyasini yanada kengaytirish, ta'lim shakllari va

metodlarini modernizatsiyalash, shaxsiy va kasbiy muhim sifatlarni shakllantirish kabi integratsion jarayonlar muhim o'rin tutadi. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish hamda ularning amaliy ko'nikma va malakalarini ta'lim jarayonida erishilgan kadrlarining sifatini bitiruvchilarning kasbiy faoliyatdagi yutuqlariga ko'ra aniqlash, ta'lim muassasalarida faoliyat olib boruvchi kadrlarda professional kasbiy kompetentligini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirishga qaratilishi, pedagogik oliy ta'lim muassasalarida fanlarning integratsiyasini tashkil etish asosida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish dolzarb masala sifatida qaraladi.

**Maqola mavzusi bo'yicha ilmiy adabiyotlarning tahlili.** Respublikamiz oliy ta'lim tizimida bo'lajak texnologik ta'lim va kasb ta'limi o'qituvchilari kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning turli jihatlarini Sh.S.Sharipov, N.A.Muslimov, Q.T.Olimov, J.A.Hamidov, O'Q.Tolipov, O.A.Qo'ysinov, L.R.Zaripov, Z.K.Ismoilova, T. Everslar pedagogik integratsiyaning nazariy, kontseptual va texnologik asoslari R.X.Djo'raev, A.R.Xodjaboev, R.Mavlonova, N.Rahmonqulovlar,

pedagogik integratsiyani nazariy va uslubiy asoslari, kasbiy faoliyatga tayyorlash mazmunining integratsiya texnologiyalari E.O.Turdiqulov, O.Avazboev, M.J.Toshov, Z.Sh.To'xtayevlar kabi olimlar tomonidan o'rganilgan. MDH va xorijiy mamlakatlardan N.Rankin, Yu.V.Vardanyan, A.N.Daxina, I.A.Zimnyaya, A.K.Markovalar o'qituvchining asosiy kompetensiyalarini rivojlantirishning psixologik jihatlarini; V.A.Adolf, E.F.Zeer, V.I.Baydenko, D.S.Rychen, V.A.Bolotov, A.V.Xutorskogoylar kasbiy kompetentlikni shakllantirishni; N.N.Manko, D.V.Sannikov, A.A.Malixin, S.M.Godnik, A.N.Sergeevlar texnik va texnologik kompetentlikni shakllantirishni; V.S.Bezrukova, M.N.Berulava, E.V.Lopanova, V.N.Gorbunov, N.K.Chapaevlar pedagogik integratsiyaning nazariy qoidalarini; E.N.Volkova, V.I.Zagvyazinskiy, N.V.Kuzminalar integratsiya muammosining nazariy asoslarini; S.N.Babina, G.I.Kruglikov, S.Antera, Yu.L.Xotuntsevlar texnologiya fanida integratsiyasi muammolarini; M.D.Kitaygorodskiy, V.V.Krashennikov, I.Yu.Krivdina, R.M.Chudinskiy, K.V.Gogoldanova, W.Westera, G.N.Nekrasovalar bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda axborot va moddiy texnologiyalarni integratsiyalash metodikasi muammolari bilan shug'ullangan.

Tadqiqot muammosiga oid yuqoridagi ilmiy izlanishlar va manbalar tahlilidan ma'lumki, respublikamizda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha ilmiy xulosalar bor. Mavjud adabiyotlar, ilmiy-tadqiqot ishlari tahlilini o'rganishdan ko'rindiki, ta'lim samaradorligini innovatsion texnologiyalardan foydalanib oshirish, pedagogika oliy ta'lim muassasalarida fanlarning integratsiyasini tashkil etish, bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining texnik va texnologik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish masalalari maxsus, monografik tarzda tadqiq qilinmagan. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida innovatsion texnologiyalar, zamonaviy axborot jamiyatida umumkasbiy va ixtisoslik fanlarni rivojlantirish va integratsiyalashuvida raqamli texnologiyalardan foydalanish bugungi kunda innovatsion talablar darajasida shakllantirilmaganligi, bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini raqamlashtirilgan texnologiyadan foydalanib o'qitish metodikasini takomillashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lsada, ulardan psixologik va pedagogik jihatdan o'quv jarayonida foydalanish masalalari bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilmaganligi mazkur dissertatsiya ishi mavzusini dolzarb tadqiqot muammosi sifatida namoyon qiladi [3].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Dunyoda mutaxassisning professional kompetentligi va uning ilmiy-metodik ta'minotini shakllantirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning pedagogik-psixologik mexanizmlarini takomillashtirishga oid qator, jumladan,

- mutaxassislarda professional kompetentlikni shakllantirish asosida mutaxassislarning individual imkoniyatlarini takomillashtirish;

- mutaxassislarda kasbiy, kommunikativ, intellektual kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha psixologik ilmiy izlanishlar;

- kasbiy kamolotni tatbiq etishda tadqiqotga yo'naltirilgan ta'lim;

- kompetentlikni rivojlantirish asosida ta'lim jarayonini loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirish yo'nalishlarida tadqiqotlar olib borilmoqda.

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishi.

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Bo'lajak mutaxassislar kasbiy kompetentlikka quyidagi bosqichlarda erishishi mumkin:

- pedagogika, psixologiya fanlarini chuqur o'rganish;
- umumkasbiy va ixtisoslik fanlar, ularni o'qitish metodikasini chuqur bilish;

- o'z kasbiga qiziqish, pedagogik va axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish;

- o'z faoliyatini doimo tahlil qilib, unga nisbatan tanqidiy munosabatda bolish;

- o'z ustida mustaqil ishlash, shaxsiy malakasini muntazam

- oshirib borish;

- o'z-o'ziga talabchanlik, mas'uliyatni teran his etish;

- murakkab va muammoli vaziyatlardan chiqib keta olishi;

- rahbar va xodimlar o'rtasidagi qaytar aloqani to'g'ri ta'minlay olish.

Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik jihatdan tayyorlash negizida quyidagi asosiy tamoyillar mavjud, bular:

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini kasbiy-metodik jihatdan tayyorlashning insonparvarlashtirish;

- hozirgi axborot texnologiyalari rivojlangan sharoitda bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining ijodiy shaxsini shakllantirish va rivojlantirishga tizimli, pedagogik integratsiya asosida kasbiy faoliyat nuqtayi nazaridan va texnologik jihatdan yondashuv;

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini aniq dalillarga asoslangan bilimlar bilan bir qatorda metodologik bilimlar bilan qurollantirish;

- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash metodik tizimining tarkibi va mazmunini kengaytirish hamda chuqurlashtirish [3].

Texnologik ta'lim doimiy o'zgaruvchan kasbiy faoliyat sharoitida keng dunyoqarashni, bilim, ko'nikma va malakalarni erkin o'tkazishni ta'minlaydigan fundamental ilmiy-uslubiy bazani ta'minlashi kerak. XXI asrda shaxsning asosiy qadriyati rivojlanish qobiliyati, kognitiv salohiyatning mavjudligi ekanligi ayon bo'ladi. Bilish zarurati inson ma'naviyatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, ezgulik qilish, mehr-shafqatli bo'lish zaruratidir. Aqlli inson - va faqat u - insoniyatning kelajagini optimal tarzda belgilashga qodir, lekin uning o'limini o'z faoliyati bilan oldindan belgilamaydi.

**Tahlil va natijalar.** Texnologiya fani o'qituvchisini texnologik tayyorlash jarayonida uning kasbiy texnologik qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirish alohida ahamiyatga ega. Kompetensiya darajasi integratsiyalashgan bilimlar majmuasini o'zlashtirish usullarini tanlashda xabardorlik va faollikka bog'liq. Bu kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur potentsialni ta'minlaydigan bilimlarning integratsiyasidir. Shuningdek, biz talabaga kasbiy


kompetentlikni o'z ishida o'qituvchilik faoliyati va pedagogik muloqotning turli jihatlarini shakllantirishdir, bunda o'qituvchining shaxsiy talablari o'z-o'zini o'rganish va rivojlantirishda barqaror ijobiy natijalarni ta'minlaydigan darajada amalga oshiriladi.

Turli vaqtlarda va turli mualliflar tomonidan kasbiy kompetentlikning turlicha talqinlari mavjud. Bu ruhiy holat va muayyan mehnat funksiyalarini bajarish qobiliyati va qobiliyatiga ega bo'lish, ta'lim va umumiy madaniyat darajasi, pedagogik faoliyatini amalga oshirishga nazariy va amaliy tayyorgarlikning birligi.

Kasbiy kompetentlik o'qituvchi shaxsining integral xususiyati sifatida ta'rifi kelib chiqadi, uning psixologik, pedagogik va fan sohalaridagi bilimlari, kasbiy mahorati va shaxsiy tajribasini tavsiflaydi. Shu bilan birga, o'qituvchi

o'z faoliyatida kelajak istiqbollariga yo'naltirilgan bo'lishi, bilim bilan boyitish uchun ochiq, o'ziga ishongan, kasbiy natijalarga erisha oladigan bo'lishi zarur.

Bo'lajak mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish ta'lim mazmuni orqali amalga oshiriladi, u nafaqat fanni o'zlashtirish, o'quv fanlari ro'yxatini, balki kasbiy mahorat va ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi, shuningdek, talabaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi faol pozitsiyasi orqali amalga oshiriladi. Bularning barchasi birgalikda kelajakdagi texnologiya fani o'qituvchisining shaxsiyatini shakllantiradi va rivojlantiradi, unda o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini takomillashtirish usullari mavjud bo'lib, bu o'qituvchining "inson-inson" tizimi kasbiy subyekt sifatida samarali ishlashini ta'minlaydi.



**1-rasm. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisi kompetentligining tarkibi va tuzilishi**

Bugungi kunda texnologik ta'limning asosi bilimlarni uzatish, ko'nikmalarni shakllantirish emas, balki bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentlik va tegishli kompetensiyalarini rivojlantirish bo'lishi kerak. Bu bir tomondan, kasbiy kompetentlik kasbiy tayyorgarlik va kasbiy faoliyat sifatining ajralmas mezoni bo'lsa, ikkinchi tomondan, u mehnat funktsiyalarini bajarishning yuqori sifati, mehnat madaniyati va shaxslararo muloqot bilan tavsiflangan shaxsiy xususiyatdir, kasbiy muammolarni faol va ijodiy hal qilish qobiliyati, shuningdek, faoliyatning ko'p qirrali jihatlarini, tadbirkorlik va boshqaruv qarorlarini qabul qilishga, yangi ish sharoitlariga moslashishga tayyorligi (1- rasmga qarang) [2].

Kasbiy kompetentlikka ega bo'lgan mutaxassis o'z bilimlarini doimo boyitib boradi, yangi axborotlarni o'zlashtiradi, davr talablarini chuqur anglaydi, yangi

bilimlarni izlab topadi, ularni qayta ishlaydi va o'z amaliy faoliyatida samarali qo'llaydi.

**Xulosa va takliflar.** Texnologiya fani o'qituvchisini texnologik tayyorlash jarayonida uning kasbiy texnologik qadriyatlarini shakllantirish va rivojlantirish, kompetensiya darajasi integratsiyalashgan bilimlar majmuasini o'zlashtirish usullarini tanlashda xabardorlik va faollikka bog'liq. Bu kasbiy kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur potentsialni ta'minlaydigan bilimlarning integratsiyasidir. Shuningdek, biz o'qituvchining kasbiy kompetentligini o'z ishida o'qituvchilik faoliyati va pedagogik muloqotning turli jihatlarini shakllantirishdir, bunda o'qituvchining shaxsiy talablari o'z-o'zini o'rganish va rivojlantirishda barqaror ijobiy natijalarni ta'minlaydigan darajada amalga oshiriladi.

#### **Adabiyotlar**

1. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. –Т.: «Ўзбекистон», 2017. 22-б.
2. Orinbetov N. Mutaxassis tayyorlashda kasbiy kompetentsiyani rivojlantirishning ahamiyati. // Бердақ номидаги Қорақалпоқ давлат университетининг Ахборотномаси. 2024. №3. 118-121-б.
3. Orinbetov N. Bo'lajak texnologiya o'qituvchilarining texnik va texnologik kompetentsiyasini shakllantirish metodikasi. // O'zbekiston Milliy universiteti xabarlar. –Т.: 2024. №1/7. 154-156-б.
4. Ochilova G.O., Akbarova S.Sh. Kasbiy kompetentlik. (Darslik). – Т.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2022. 324-б.

**REZYUME.** Maqolada texnologik ta'lim yo'nalishlari talabalarni tayyorlashning zamonaviy holati va muammolari, texnologik ta'limda kompetensiyaviy yondashuv asosida mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlash, fanlarga singdirilgan faol bilimlar, yangiliklar bilan izchil tanishtirib borish, o'quv-bilish kompetentligini rivojlantirish, malakali mutaxassis sifatida shakllanish, kasbiy o'sishga erishish, talabalarda hayotiy va kasbiy faoliyatni tashkil etish uchun zarur ma'lumotlarni izchil, uzluksiz, maqsadli, tizimli o'zlashtirish, ularning maqsadli shakllanishlariga erishish zaruriyati masalalari talqin qilingan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматриваются современное состояние и проблемы подготовки студентов в сфере технологического образования, подготовки специалистов к профессиональной деятельности на основе компетентного подхода в технологическом образовании, активного использования знаний в дисциплинах, последовательного ознакомления с инновациями, развития учебно-познавательной компетентности, формирование квалифицированного специалиста, достижение профессионального роста, формирование у обучающихся вопросов необходимости целенаправленного и систематического усвоения информации, необходимой для организации жизни и профессиональной деятельности, и достижение их целенаправленного формирования, обсуждаются.

**SUMMARY.** The article discusses the current state and problems of training students in technological education, the need to prepare specialists for professional activity based on a competency-based approach in technological education, to consistently familiarize them with active knowledge and innovations in disciplines, to develop learning and cognitive competence, to form a qualified specialist, to achieve professional growth, to purposefully and systematically master the information necessary for students to organize their life and professional activities, and to achieve their purposeful formation.

### **BASLAWISH KLASS OQIWSHILARININ KREATIV PIKIRLEW KONLIKPELERIN QALIPLESTIRIW USILLARI**

**S.K.Paluanizayova – stajyor-oqitwshi**

*Ajiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı*

**Tayanch so'zlar:** kreativ, tanqidiy fikr, kategoriya, ijod, ideya.

**Ключевые слова:** креатив, критическая мысль, категория, творчество, идея.

**Key words:** creative, critical thought, category, contrivance, idea.

**Kirisiw.** Búgingi kúnde ámelge asırılıp atırǵan reformalar bilimlendiriw tarawında túpten ózgerisler júzege keliwine xızmet etpekte. Buǵan dálil sıpatında «Bilimlendiriw haqqındaǵı Nızam tiykarında islep shıǵılǵan jańa oqıw dástúrleri mazmunında baslawısh klass oqıwshılarına bilim beriwde dóretywshilik pikirlewiniń nátiyjeliligini asırıw boyınsha joqarı talaplar kiritiliwin atap aytıwǵa boladı.

Jáne de oqıtıw barısında qábiletli jaslardı anıqlaw, tańlaw, oqıtıw hám tárbiyalaw tarawında mámleketlik

siyasatın islep shıǵıw hám onı ámelge asırıw boyınsha bir qansha jumıslar kózde tutilǵan [1]. Bul bolsa házirgi zaman oqıtıwshılarına juwapkershilikli wazıypa júkleydi.

**Ádebiyatlarǵa sholw.** Jaslardıń qábiletin rawajlandırıwda olardıń kreativ iskerligin jetilistirip barıw zárúr. Bul boyınsha mámleketimizdiń pedagog hám psixolog ilimpazlarınan A.Aliyev [2], A.Ismailov [3], B.E.Karimova [4], R.A.Mavlonova [5] sıyaqlı ilimpazlar shaxstıń kreativ pikirlewiniń psixologiyalıq táreplerin izertlewge erisken.

Degen menen, baslawish klass oqıwshılarınıń kreativ pikirlew kónlikpelerin rawajlandırıw hám qalıplestiriw usılları óz izertleniwın kútip turǵan áhmiyetli máselelerden sanaladı.

Joqarıdaǵı pedagog ilimpazlar, ásirese, R.A.Mavlonova tárepinen alıp barılǵan izertlewler menen tanısar ekenbiz, oqıtıwshınıń kreativligi – bul oqıtıwshınıń bilim alıwında óziniń áhmiyetli kórinisin tabatúǵın dóretiwshilik xarakterge iye ekenligi hám olardı ulıwmalastırǵan halda biz tómendegi pikirlerge keldik: kreativlik oqıtıwshılardı innovatorlıqqa iytermelewshi pedagogikalıq kategoriya bolıp, oqıtıwshınıń kásiplik hám jeke sapasınıń integraciyası sıpatında kózge kórinedi degen pikirlerdi ayta alamız [5].

**Talqılaw hám nátiyjeler.** Kreativlik shaxstıń nátiyjeli iskerligin támiyinleytuǵın tiykarǵı kategoriyalardan biri bolıp, bilimlendiriw procesine kreativ jantasıw oqıtıwshılardıń bilimdi ózlestiriw sapasınıń dóretiwshilik iskerligi tiykarında rawajlandırıwǵa xızmet etedi. Sonday-aq, kreativlik – shaxstı rawajlandıratuǵın kategoriya sıpatında insan ruwxıylıǵınıń ajıralmas bir bólegi, shaxstıń ózin-ózi rawajlandırıw faktori bolıp tabıladı. Ol insannıń iye bolǵan bilimleriniń kóp qırılıǵında emes, bálkim jańa ideyalǵa umtılıwda hám ornatılǵan stereotiplerdi jańalıq jaratıw procesinde reformalaw hám ózgertiwde, turmıslıq mashqalalardı sheshiw procesinde tosattan hám ózgeshe qararlar shıǵarıwda óz kórinisin tabadı.

Kreativlik tikkeley innovaciya menen baylanıslı process bolıp tabıladı. Sebebi, oqıtıwshınıń kreativlik xızmet kórsetiwı ushın ol, álbette, óziniń tarawındaǵı eń sońǵı jańalıqlardan, sonıń menen bir qatarda, pútkil jámiyettegi waqıya hám hádiyselerden xabardar bolıwı, innovaciyaq jańalıqlardı óz iskerliginde orınlı paydalana alıwı kerek. Solay eken, baslawish klass oqıtıwshısı hár qanday jaǵday, hár qanday process hám hár qanday waqıtta eń nátiyjeli joldı izlep tabıwı jáne onı ámeliyatqa engiziw arqalı sabaq procesin nátiyjeli shólkemlestiriwı, baslawish klass oqıtıwshıları sanasına tez, túsiniqli, qolay hám nátiyjeli tárizde jetkiziwı de kreativliktiń bir kórinisi dep ataw múmkin.

Oqıtıwshınıń alıp barǵan jumısları tiykarında balalarda kreativlikti rawajlandırıwda tómendegilerge itibar qaratıw zárúr: olar tárepinen kóp sorawlar beriliwın xoshametlew; balalardıń erkin pikirlewın qollap-quwatlaw hám olarda juwapkershilikti kúsheytıw; balalar tárepinen ǵárezsiz iskerliktiń dúziliwı ushın múmkinshilik jaratıw; balalardıń qızıǵıwshılıqlarına itibar qaratıw [2].

Sonıń menen bir qatarda, tómendegi faktorlar shaxsta kreativlikti rawajlandırıwǵa tosqańlıq etedi: ózin táwekel etiwden alıp qashıw; pikirlew hám minez-qulqlarda turpaylıqqa jol qoyıw; shaxs fantaziyası hám oyda sáwlelendiriwdiń joqarı bahalanbawı; basqalarǵa baǵınıqılı bolıw; hár qanday jaǵdayda da tek tabıstı oylaw.

Bilimlendiriw procesinde kreativ jantasıw óziniń «kúndelik» formasına iye. Misalı, ol jazıw, sıziw, muzıka yamasa «kórkem óner»diń basqa tarawlarınan iskerligi, jańa bilim hám túsiniqler payda etiw yamasa túrli ashıq túrdegi sorawlarǵa kreativ sheshimler tabıw arqalı óz kórinisin tabadı. Usı tarawda kreativ pikirlew oqıtıwshılardıń innovaciyaq, sonıń menen birge, ámeliy sheshimler usınıs etetuǵın, emocional mazmunǵa iye ideyalardı alǵa súriw hám basqalar pikirine qayırqomlıq bildiriw qábiletine baylanıslı.

Shaxstıń kreativligi onıń oylawında, qarım-qatnasında, sezim-tuyǵılarında, arnawlı bir iskerlik túrlerinde kórinedi.

Baslawish klass oqıtıwshılarınıń kreativ qábiletin rawajlandırıw usılları hám qurallarına tásir etiwshi zárúrli faktorlardan biri *oqıtıwshi-oqıtıwshı* sherikligine ayrıqsha itibar qaratıladı. Bizge belgili, bilimlendiriw procesi eki tárepleme xarakterge iye bolıp, oqıtıwshı hám oqıtıwshılardıń teń qarım-qatnaslarınan quram tabadı. Bul proceske basshılıq etiwshi oqıtıwshı tálim procesiniń durıs shólkemlestiriliwı, bilimlendiriw maqsetleriniń tuwrı ámelge asırılıwı hám tálim nátiyjeleri ushın juwapker shaxs sıpatında sáwlelenedi. Biraq bul bilimlendiriw procesi oqıtıwshınıń tolıq basshılıǵı astında orınlanatuǵın process degen nadurıs pikirdiń júzege keliwıne tiykar bola almaydı. Házirgi zaman talabı da shaxstı baǵındırıw arqalı emes, bálkim sheriklik qatnası járdeminde unamlı nátiyjege erisiw bolıp tabıladı [4].

Biziń pikirimizshe, oqıw procesi bilimlendiriw procesin quraytuǵın ózgeriwsheń sistema bolıp, ol tómendegishe eki bólekten ibarat:

- oqıtıwshı menen oqıtıwshılar sherikligi;
- oqıtıwshılardıń óz ara bir-biri menen sherikligi.

Oqıtıw barısında mashqalalı tálimnen paydalanıw da kreativ qábilette qalıplestiriwde nátiyjeli esaplanadı. Oqıtıwshılardıń qandayda bir haqıyqatı ózbetinshe izlewı hám jańalıq ashıwı menen baylanıslı bolǵan tálim metodlarınan evristikalıq yamasa ilimiy-izertlew metodları menen birge oqıtıwshılardı dóretiwshilik pikir «laboratoriyası»na alıp kiretuǵın process te úlken áhmiyetke iye.

Kreativlik hám óz ara sheriklik bir-biri menen tıǵız baylanıslı. Sebebi, tek ǵana jańasha jantasıw tiykarında sheriklik payda boladı hám mine sol sheriklikte dóretiwshilik óz kórinisin tabadı. Pedagogikalıq kreativlikte tek ǵana jańalıqqa, tájiriybeler ótkeriwge umtılıw dep túsınbew kerek.

Baslawish klass sabaqlarında oqıtıwshılardıń kreativ qábiletin rawajlandırıwǵa xızmet etetuǵın tapsırmalar ústinde islew ayrıqsha áhmiyetke iye bolıp tabıladı. Oqıtıwshı ózi ushın qolay sharayatta turmıslıq hám oqıw tájiriyesine súylene otırıp, awızeki yamasa jazba sóylewı arqalı pikirlew iskerligin ámelge asıradı. Solay etip, hár bir pánniń ózi ushın belgisiz qırları boyınsha oqıtıwshı menen aktiv sheriklikte bolıw ushın psixikalıq tayarlıq payda boladı. Ol tema tuwralı berilgen sorawlarǵa tiyisli juwap qaytarıw ushın ózbetinshe dóretiwshilik etiwge háreket etedi. Oqıtıwshı bunday sheriklik procesinde oqıtıwshılardıń kreativligin rawajlandırıw menen birge, diagnostikalıq wazıyanı da atqaradı. Yaǵnıy, oqıtıwshılardıń qábileti, qızıǵıwshılıq sheńberin anıqlaydı, kreativlik qábiletin boljaydı. Kreativlikte rawajlandıratuǵın tapsırmalar ústinde islew procesinde bul júdá zárúrli bolıp tabıladı. Oqıtıwshılar óz-ózinen kreativ bolıp qalmaydı. Onıń kreativlik qábileti belgili waqıt ishinde izbe-iz oqıp úyreniw, óz ústinde islew arqalı qalıplestiriledi hám áste-aqırın rawajlanıp baradı.

Oqıtıwshılar oqıtıwshılar menen sheriklikte jumıs alıp barıp, olardıń hár bir pikirın inabatqa alıwı hám bunı oqıtıwshıǵa sezdiriwi sıyaqlı zárúrli wazıypalardı orınlaw arqalı oqıtıwshılardıń ózgeshe jantasa alıw qábiletine, yaǵnıy kreativ bolıwına erisiwı múmkin. Oqıtıwshı oqıtıwshılardıń mashqalalı jaǵdaylardı tapsırma etip berip, oqıtıwshınıń másele sheshimin tabıwǵa dóretiwshilik jantasıwı ondaǵı shıdamlılıq sapalardı rawajlanıwına járdem beredi. Bul

oqıwshılardı óz ústinde islew, ózbetinshe oqıp úyreniwine múmkinshilik jaratadı.

Biraq biz izertlewimizde kreativlikti sabaq procesinde berilgen wazıypağa ózgeshe jol tabıw hám onı ilimiy tiykarlay alıw, jańasha pikirlew, nátiyjeni ámelde qollana alıw qábileti dep aldıq. Yaǵnıy bilimlendiriw tarawına tiyisli kreativlikti, sol qatarda, baslawısh klass oqıwshılarınıń kreativ qábiletlerin rawajlandırıw metodikasın kórip shıǵamız. Ata-analar hám oqıtıwshılar balalarda kreativlikti rawajlandırıwda durıs qarım-qatnas alıp barıw usıllarınan mısalları keltirip ótemiz.

- balaların sorawlarına shıdamlılıq penen durıs juwap berin hám olardıń sorawları hám pikirlerin durıs qabil etin;

- waqıtı-waqıtı menen balalarǵa olardı jaqsı kóriwihizdi hám olardı qanday bolsa, sonday qabıllawıńızdı ámelde kórsetin;

- balalarǵa múmkinshiliklerine saykes jumislardı buyırın, olarǵa jeke rejelerin islep shıǵıw hám qarar qabıllawǵa kómeklesin;

- kemshiliklerin kórsetken halda basqalar menen salıstırmań, balanı kemsitpeń hám ózin jaman, ázzi dep esaplawına jol qoymań;

- onı erkin pikirlewge úyretin, onı túrli waqıyalardı oy-lap tabıwǵa, fantaziya etiwge májbúrleń, bul proceste oǵan járdemlesin;

- balanı jaslıqtan oqıp-úyreniwge ádetlendirin, mudamı balanın mıtájliklerine itibar qaratın;

- qáterleri ushın balanı masqara etpeń, hár bir jetiskenligi ushın maqtań;

- balanı túrli jastaǵı insanlar menen ushırasıwǵa úyretip bariń;

- onı menen talqılanatuǵın temalardı sheklemeń;

- balaǵa onıń shaxs bolıp qalıplesiwi ushın járdem berin;
- balaǵa «Men de bunı bilmeymen» dep onı itibarsız bolıwǵa úyretpeń;

- balaǵa eger ol jumistın unamlı nátiyjege iye bolıwına isenbese de, baslangan jumistı aqırına jetkiziwi ushın múmkinshilik jaratın hám t.b. [3].

Oqıwshılardıń kreativlik qábiletin rawajlandırıwda ata-analar hám oqıtıwshılardan joqarı sabırlılıq talap etedi.

Eń aldı menen, oqıtıw barısında hár bir sabaq procesi dúzilisinde anıqlıq bolıwı hám oqıtıwshı oqıwshılardı erkinlikti, álbette, normasında támiyinlep beriwı kerek.

Baslawısh tálimniń ózine tán ózgesheliklerinen biri bul – balaların mektepke tayarlıq dárejesi, social tájiriyesi, psixo-fiziologiyalıq rawajlanıwı birdey emesliginde bolıp tabıladı. Soǵan qaray baslawısh tálim oqıw dástúri programmalarında tapsırmalarda oqıwshılarda bilim, kónlik-pe hám uqıplılıqlardı qalıplestiriwge itibar berilgen bolsa da, biraq oqıwshılarda dóretiwshilik iskerlikti rawajlandırıw tiykarında olardı jetilistiriw zárúr. Yaǵnıy, oqıtıwshılar juwapkershilik hám itibar menen qarawı zárúr.

**Juwmaq.** Pikirimiz juwmaǵında sonı ayıp ótiwimiz múmkin, oqıwshılardıń qábiletin anıqlaw, olardıń kreativ pikirlewin ele de rawajlandırıw yamasa qanday da bir faktorlar sebepli olardaǵı kreativlik sapalardı hám ilimiy tájiriyelerdi rawajlandırıwda tosıqlıq júzege kelse, oqıtıwshı bul faktorlardı waqtında saplastırıwǵa itibar qaratıwı kerek.

Solay etip, qáte islewden hám sın pikirge ushırawdan qorqıw, hádden tis balalarǵa itibar qaratıw sezimi kreativlik qábiletti júzege shıǵarmaydı. Oqıwshılardıń qábiletleri xoshametlense hám unamlı ortalıq jaratılса ǵana, kreativ pikirlewdi ádetke aylandırıw múmkin.

### **Ádebiyatlar**

1. Ózbekstan Respublikasınıń 2020-jıl 23-sentyabrdegi «Bilimlendiriw haqqında»ǵı O'RQ-637-sanlı Nızamı.
2. Aliyev A. O'quvchilarning ijodkorlik qobiliyati. – Toshkent: «O'qituvchi», 1991.
3. Ismailov A. [va boshq.]. Kreativ fikrlashni baholash. –Toshkent: «Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish milliy markazining matbaa bo'limi», 2021.
4. Karimova B.E. Kreativ pedagogika. –Toshkent: «Innovatsion-Ziyo», 2022.
5. Mavlonova R.A., Abdurahimova D. Pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. –Toshkent: «Fan va texnologiya», 2012.

**REZYUME.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining kreativ fikrlashini shakllantirish va rivojlantirib borish usullari haqida so'z etilgan. O'quvchilarning fikrlashi orqali muvoffaqiyatga erishishi, ularning o'qituvchi tarafidan aniqlanishi va rag'batlantirib borilishi tadqiqot ishimizning asosini tashkil qiladi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье обсуждаются способы формирования и развития творческого мышления учеников начальной школы. Успех студентов с помощью творческого мышления, идентификации и поощрения каждого студента составляет основу исследования.

**SUMMARY.** The article discusses ways to form and develop creative thinking of primary school students. Students thinking, identification and stimulation of each student is the basis of the study.

### **ETNOPEDAGOGIK QADRIYATLARDIŃ TIKLENIWI – ÁDEP-IKRAM TÁRBIYASINIŃ GIREWI**

**A.K.Pazılov** – *pedagogika ilimleriniń kandidati, professor*  
*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti*

**Tayanch so'zlar:** etnopedagogika, xalq pedagogikasi, qadriyat, shaxs, milliy qadriyat, axloq, hurmat, izzat, ajdodlar merosi.

**Ключевые слова:** этнопедагогика, народная педагогика, ценность, человек, национальная ценность, нравственность, уважение, почёт, наследие предков.

**Key words:** ethnopedagogy, folk pedagogy, value, human, national value, morality, respect, honor, ancestral heritage.

**Kirisiw.** Ózbekstanda tariyx jılnamalarına altın háripler menen jazılǵan ǵárezsizligimizdiń sharapatı menen jergilikli xalıqlardıń ásirler dawamındaǵı erkin hám ǵárezsiz, teńler ishinde teń bolıp jasaw ármanı iske astı. Ǵárezsizlikke erisilgennen keyin pedagogikamız tariyxında uzaq waqıt qadaǵan etilgen, diqqat-itibardan shette qalǵan

milliy miyrasqa qızıǵıwshılıq arttı. Olardaǵı aldınǵı pedagogikalıq pikirler tálim-tárbiya procesine engizile basladı. Jańa sabaqlıqlar, oqıw qollanbalar payda bola bolıp, olardı jazıwda tariyxıy hújjetlerden, milliy-mádeniy, tariyxıy ádebiyatlardan keń paydalanıw isleri ámelge asırıldı.

Ğárezsizlikke erisilgen dáslepki jıllardan baslap tálim-tárbiya tarawın reformalaw, onı ótmishten qalqan ideologiyalıq sarqıtlardan tazalaw boyınsha da bir qatar jumslar alıp barıldı. Atap aytqanda elimizdiń Konstituciyası tiykarında Ózbekstan Respublikasınıń «Bilimlendiriw haqqında»ǵı Nızamınıń (1992, 1997, 2020) hám Kadrlar tayarlaw boyınsha Milliy baǵdarlamasınıń (1997) qabıl etiliwi bilimlendiriw sistemasın qayta qurıw islerine tiykar boldı. Jańa tiptegi oqıw orınları payda boldı, olarda sabaq beriwshi muǵallimler hám professor oqıtıwshılar qayta tayarlıqtan ótkerildi, jańa áwlad sabaqlıqları hám basqa da oqıw ádebiyatları payda bola basladı, tálim mazmunın belgilewshi huqıqıy hújjetler túpten jańalandı, oqıw orınları rekonstruksiya etilip, materiallıq-texnikalıq bazası jaqsılandı, jańadan oqıtıwdıń pedagogikalıq hám informaciyalıq texnologiyaları jaratıldı, oqıw ornı, kitapxanaları bayıtıldı. Xalıq pedagogikasına, ásirese, milliy qádriyatlarımızǵa bolǵan qızıǵıwshılıq kúnnen-künge artıp bardı.

**Ádebiyatlargá sholıw.** Xalqımız pedagogikasında insan, jer, suw, hawa muqaddes sanaladı. Olardı eń ıllı qádriyatlardan dep esaplaydı. Al, **qadriyat** túsiniǵine ilimpazlarımız tárepinen túrlishe pikirler ayıladı. Belgili filosof Q.Nazarov óziniń «Qádriyatlar filosofiyası (Aksiologiya)» atlı miynetinde, ilimpazlar tárepinen qádriyatqa otızdan ziyat táriyplewlerdiń berilgenligin, ele de táriyplewler beriliwi múmkinligin esletip ótedi hám «...qádriyat aksiologiya (qadriyattanıw)dan basqa pánlerdiń hesh biri ushın jeke kategoriya emes» [7:51] degen pikirde beredi. Jáne de óz pikirini dawam etip «Qádriyat zat hám buyımlardıń qádirine qarata qollanılmaı, al insan ushın qanday da bir áhmiyetke iye bolǵan waqıyanıń formaları, halatları, zatlar, waqıyalar, hádiyseler, processler, sıpatlar, talap hám tártipler hám basqalardıń qádirin bildiriw ushın qollanılatuǵın aksiologiyalıq kategoriya» [7:27] degen toqtamǵa keledi.

Ózbek pedagogikası antologiyasında qadriyatı keń qamrawlı, purmaǵanalı, hikmetli sóz dep túsindiredi. «Sebebi, óz qadiriń bilmegen adam basqalardıń qádirine jetpeydi. Tap sol sıyaqlı, óz milliy qádriyatların húrmet qılıp álpeshlemegen, rawajlandırıw haqqında oylamaǵan adam sol xalıqtıń wákili degen ıllı ataqqa miyasar emes. Sebebi, milliy qádriyat xalıq ótmishine, bugini hám kelesheǵine, ilm hám mádeniyatınıń rawajlanıwına, milliy ádep-ikramlılıqqa joqarı húrmet penen belgilenedi» [10:5-6].

Tárbiya enciklopediyasında kórsetiliwi boyınsha «Qádriyat – waqıyalıqtaǵı belgili bir hádiyselerdiń ulıwımanıy, social-ádep-ikramlılıq, mádeniy-ruwxıy áhmiyetin kórsetiw ushın qollanılatuǵın túsiniq. İnsan hám insaniyat ushın áhmiyetli bolǵan barlıq nárseler, máselen, erkinlik, tınıshlıq, ádalat, sociallıq teńlik, aǵartıwshılıq, haqıyqat, jaqsılıq, gózzallıq, materiallıq hám ruwxıy baylıqlar, dástúrler, úrp-ádetler hám basqalar qádriyat esaplanadı» [9:509] delinedi.

Degen menen Q.Nazarov dástúr menen úrp-ádetlerdi óziniń ataması menen ataǵandı, qádriyatqa aralastırmaǵandı maqul dep esaplaydı. Qadriyat sóziniń massalıq bolıp ketkenin jaqsı dep túsinedi de, lekin onnanda betererek «maǵanalarda isletiwge urınıw bul túsiniqtıń mazmunın zayıplastradı» [7:5] degen juwmaqqa keledi.

Ilimpazlardan A.Qaldıbekova hám B.Xodjaevlar ózleriniń «Pedagogikalıq aksiologiya» atlı metodikalıq qollanbasında «...nárseler hám hádiyselerdi bahalawǵa baylanıslı insannıń ámeliy hám emocional qatnasların táriyplew; insannıń psixologiyalıq sıpatların anıqlawshı ádep-ikramlılıq kategoriylardı sıpatlaw; adamlar arasındǵı qatnaslardı xarakterlewshı sociallıq hádiyselerdi táriyplew»lerdi [3:6] qádriyat dep túsindiredi.

Ózbek tiliniń túsindirme sózliginde «Qádriyat - reallıqtaǵı belgili hádiyselerdiń ulıwma insaniyılıq, sociallıq-ádep-ikramlılıq, mádeniy, ruwxıy áhmiyetin kórsetiw ushın qollanılatuǵın túsiniq. İnsan hám insaniyat ushın áhmiyetli bolǵan barlıq nárseler, máselen, erkinlik, tınıshlıq, ádillik, aǵartıwshılıq, haqıyqatlıq, jaqsılıq, materiallıq hám ruwxıy baylıqlarda qádriyat esaplanadı» [11:207].

Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózliginde qádriyat haqqında pikir júritilmeydi. Lekin qádir haqqında pikir júritilgende «...jámiyettegi adamlar arasındǵı sıylasıq, húrmet, izzet» [4:385] sıyaqlı qadriyat úlgerin bergendi maqul dep esaplaydı.

Biziń pikirimiz boyınsha qádriyat degenimizde adamlar tárepinen jaqsı menen jamannıń, ádeplilik penen ádepsizliktiń, aqıllılıq penen aqlısqızlıqtıń, súykimli minez-qulıq penen súykimsiz minez qulqtıń parqına barıw ushın jaratılǵan, oylap tabılǵan hám olardıń adamlar turmısında paydalanıwı, kóriwi, esitiwi, aqlı juwrtıwlarına imkaniyat jaratatuǵın biybaha baylıq túsiniledi. Jáne de, qaraqalpaq xalqınıń dástúrleri menen úrp-ádetleri xalqımız tárepinen qásterlenip, saqlanıp kiyatırǵan qádriyatlardı da ózinde jamleydi.

Adamlar arasında qádriyat sózin isletiwdiń óz aldına túsindiriw sheńberi hám ólsheimi bar. Usı táreplerin esapqa alıp qaraǵanımda «Qádriyat tek ǵana buyım hám nárselerdiń ekonomikalıq bahalılıǵın emes, jámiyet hám insan ushın qanday da bir áhmiyetke iye bolǵan waqıyalıqtıń formaları, halatları, nárseler, waqıyalar, hádiyseler, talap hám tártipler hám basqalardıń qádirin sáwlelendiriw ushın da isletiledi» [9:509]. Demek, turmısımızda ushırasatuǵın hám óziniń ájayıplıǵı menen kózge taslanatuǵın qanday da bir waqıya yaki hádiyselerdiń, kórinislerdiń ámelge asırılıw formaların qádriyat dep túsiniwimizge boladı.

Ilimpaz M.Farmonova da óz miynetinde «...qádriyatlar óz mánisleri boyınsha hár túrli. Olar arasında tábiyiy, materiallıq, ruwxıy, sociallıq-siyasiy, ádep-ikramlılıq qádriyatlar óz aldına ajırılıp turadı. Solay bolsa da, qádriyatlardıń eń ıllısı insannıń ózi, turmısı, huqıqı hám erki, salamatlıǵı hám parawan turmısı esaplanadı» [12:5] dep anıqlama beredi.

Qaraqalpaq xalqınıń ıllı shayırı Ájiniyaz Qosıbay ulı óziniń «Ayrılsa» atlı qosıǵında «Bul dúnyanıń kórki adam balası» [2:40] dep adamdı dúnyadaǵı barlıq janatlarıdıń ishindeǵı eń ıllısı hám eń qádirlisi dep túsiniw, onı eń joqarı qadriyat sıpatında bahalaydı. Al, ıllı túrkmen shayırı Maqtumqulı bolsa óziniń «El jaqsı» qosıǵında «Adam bolıp adam qádirin bilmegen, onnan kóre otlap júrgen mal jaqsı» [6:22] dep, birinshi náwbette adamlar bir-biriniń qádirlerin biliwi kerekligin, egerde bir-birleriniń qádirlerin bilmese olardıń maldan artıqmaslıǵınıń sezilmey qalatuǵınlıǵın esletip ótedi. Jáne de «Bolmasa» qosıǵında «Qádir bilgenlerden kewil

suwıtpa, qádir bilmeslerdi jańǵa juwıtpa» [6:22] dep óziniń danalıq pikirlerin bayanlawdan jalıqpaydı.

**Tiykargı bólim.** Degen menen xalqımız jaratqan etnopedagogikalıq qadıyatları úyreniw, bul ata miyrastı kózdiń qarashıǵınday abaylap saqlaw, onıń qádirine jetiw, onı túsiniw hám tárbiya islerinde sheberlik penen paydalanıw kommunistlik ideologiya húkım súrip turǵan bir waqıtları itibardan shette qaldı. Milliy qadıyatlarımızdı, úrp-ádet, dástúrlerimizdi, mádeniyatımızdı, ayırım milliy oınlarımızdı tálim-tárbiya islerinde paydalanıwǵa derlik ruxsat berilmedi. Olar ashıqtan ashıq qısımǵa ushıradı. Qadaǵan etildi. Mektep baǵdarlamalarına kirgizilmedi. Onıń ornına Evropa hám rus xalqınıń ádebiyatın, mádeniyatın, tariyxın, pedagogikası, psixologiyasını úyreniw isleri zorlıq penen kirgizildi.

Qaraqalpaqstandaǵı birinshi ilim doktorı N.Dáwqaraev Berdaq Gargabay ulı haqqındaǵı materiallardı, ayırım dástanlardı járiyalatıwǵa háreket etkeni ushın náhaqtan jabılǵan jalalardıń qurbanına aylandı. 1937-jılı baspadan shıǵarılǵan «Edige» dástanı izertlew obyektine aylana almay qaldı. Hátteki Moskva kitapxanasında onı ksereokopiyalatıp alıwǵa 1977-1978-jılları ózime de ruxsat etilmedi. Orazı tutqanlarǵa komissiya bolıp júrip, nan jegizip azabın berdi. Namaz oqıw qadaǵan etildi. 1980-1989-jıllar aralıǵında awqattan keyin jaqsı tilekler aytıp pátiya islew ge de tıyım salındı. Ólgen adamlardıń janazasını oqıwǵa da ruxsat etilmedi. 1939-jıl 14-oktyabr kúni «SSSR IIXK UsazLagtıń «Málik» sovxozı 4-b. L/P III de saqlanǵan №156725 sanlı jinayatlı is boyınsha tutqındaǵı Joldasov Lepsten «Keshirim tuwralı arza»sında [8:30-31] kórsetiliwi boyınsha qońsısınıń janaza namazına qatnasqanı ushın 10 jıl qamaqqa húkım etilgenligi haqqında maǵlıwmatlar tabılǵan.

Ólini áwliyege alıp barǵan avtomashinalar áwliyege kiriw waqtında irkinishsiz ótse de, áwliyeden shıqqan waqıtlarında sol jerde júrgen ishki isler bólimi inspektorları tárepinen uslanıp, hálekshilikke salındı. Hápteniń piyshembi kúnleri áwliyege ata-anaların, tuwǵan-tuwısqanların zıyarat etiwge barǵanlardıń basına «Jumıs waqtında áwliyege kelip júripti» degen ayıplawlar qoyıldı. Dindi áshkaralaǵanlar marapatlandı. Muqaddes qurandı, hádislerdi, diniy kitaplardı awdarma jasaw, onı mektep oqıwshılarınıń oqıp, tanısıwına jol qoyılmadı.

Qaraqalpaqstandaǵı eń úlken Qaraqum iyshan medresesi 1925-jılı jabıldı. Áwladları Tájetdiyin, Idiris, Ilyas iyshanlar quwdalandı. Maǵlıwmatlarǵa qaraǵanda eń ullı qadıyatlarımızdan biri bolǵan «İyesiz qalǵan medreseniń úlken kitap qorı talan-taraj etiledi. Kitaplardıń bir bólegi altı ógiz arbaǵa tiyelip, Shımbaydıń qaq ortasına ákelinip, pútkil xalıqtıń kózinshe órteledi» [8:39].

Ayırım, ertede álemnen ótken shayır hám jazıwshılar shıǵarmalarınń mazmunı zamǵa beyimlestirilse ǵana basıwǵa ruxsat etildi. Máselen, ullı Berdaq shayırdıń qosıǵındaǵı «Shar kitap»tan tura qashtım» degen qatarlardı Berdaq jazdı degenge heshkim isenbeydi. Sebebi, ol oqımıs adam bolǵanı ushın Shar kitaptan tura qashıwı múmkin emes. Ol negizinde «Shar kitap»qa qushaq ashtım» dep jazǵan bolıwı múmkinligi waqtında eske alına bermese de endi eske alınıp atr. Mine usınday orınsız kemsitiwler, quwdalawlardıń nátiyesinde xalqımız óziniń ózligin derlik umıta basladı. Óziniń dinge hám erteńgi

kúline bolǵan iseniminen ayrıldı, anıǵıraq etip aytqanda, xalqımız «orıslastı».

Bul dáwirde mektepte bilim alǵan oqıwshılar, olardıń ata-anaları ushın qádirli sanalǵan muǵallimlerde bolǵan húrmette joǵala basladı. Ustaz atańday ullı degen ibratlı sózler ápsanaǵa aylana basladı. Ǵárezsizlikten aldınǵı hám ǵárezsizliktiń dáslepki jıllarında da respublikamızda muǵallimlerdiń ahwalı jaqsılalıp kete bermedi. Olar jergilikli basqarıw uyımlarınıń qoljawlıǵına aylandı. Olar óz jumıslarınan tısqarı paxta atızlarında paxta terdi, otaq otadı, hár bir shańaraqtıń paydalanǵan gaziniń, svetiniń esabın alıp shıqtı. Bul azday gazden, svetten, salıqtan qarızdar xojalıqlarǵa barıp, «Qarızlarıńızdı tóleyǵoyıń» dep jalınıp júrdi. Qarızdar xojalıq qarızın tólemese muǵallimniń aylıǵınan óndiriletuǵınlıqları eskertildi. Muǵallimler bunday qorlıqlarǵa shıdadı. Shıdamaganlar jumısların taslap ketti. Tek ǵana Sh.Mirziyoyev hákimiyat basına kelgennen keyin muǵallimler bul qorlanıwlardan qutıldı.

Usınday oǵada ullı tárbiyalıq áhmiyetke iye bolǵan etnopedagogikalıq miyraslarımız ǵárezsizligimizden aldınǵı jılları durıslap qádirilenbedi, shala orıslasıp baslaǵan jaslarımız «pátiya waqıttı aladı» dep túsindi, nannıń usaqların terip jewge umılǵanlardıń ústinen kúldi, azanda ata-enesiniń chayın qaynatıwdıń ornına ata-eneleri kelinniń chayların qaynattı, nan awız tiygiziw dásturi joǵala basladı, toy-merekelerdi úylerde emes, al, kafe hám restoranlarda beriw ádetke aylandırıla basladı. «Tariyxıy miyrastı asırıp-abaylaw, olardı úyreniw hám áwladlardan áwladlarǵa qaldırıw...» [1:29] kerekligin hesh kim túsingisi kelmedi. Tek ǵana ǵárezsizligimizdiń sharapatı menen bul másele «...mámleketimiz siyasatınıń eń áhmiyetli baǵdarlarınń biri» [1:29] ne aylandı.

Házirgi waqıtta xalqımızdıń «Ruwxıy dúnya – insannıń, xalıqtıń, jámiyettiń, mámleketiń kúsh qúdireti» [5:5] ekenligine isenimi arttı. Tek ǵana awıl hám qalalardı abadanlastırıw emes, al, qoyımshılıqlardı da abadanlastırıw isleri joǵa qoyıldı. Kem támiyinlengen xojalıqlardıń halınan xabar alıp turıw, úylerin remontlap beriw, ayrımlarına jańadan jay salıp beriw, balalarınń, aqlıqlarınıń súnnet toyların biypul ótkerip beriw, súnnet etilgen balalardı at arbalarda qıdırtıw isleri joǵa alındı. Olardıń ul-qızlarına da ǵamxorlıq kórsetilip, joqarı oqıw orınlarına oqıwǵa kiriwleri ushın múmkinshilikler jaratıldı, qosımsha kvotalar ajratıldı, ayrımlarınıń kontrakt tólemleri tólep berildi. Elimiz miyrim-shápáat nırı menen bezetildi.

Eń quwanarlısı bunday ibratlı isler jaslarımızdıń kóz aldında ámelge asırıldı. Sonlıqtan da, jaslarımız sawap isti hár kimniń, hár kúni islewleri kerekligin túsindi hám olardıń ózleri de sawap isti islewden jalıqpadı. Qariyaların, mayıplardıń hám jalǵız baslılardıń, kún kórisleri qıyın bolǵan shańaraqlardıń awhalınan jiyi-jiyi xabar alıwdı kúndelikli ádetine aylandıra basladı. Olar awıl hám qalalardı kóklemzarlastırıw islerine qunt hám iqlas penen aralasıp ketti. Bul arqalı ózlerinde de baǵ jaratıwǵa bolǵan qızıǵıwshılıqlar barǵan sayın kúsheye kúsheydi, biraq páseymedi. Bul kórinislerdiń barlıǵı qayta tiklenip atrǵan qadıyatlarımızdıń jaslar tárbiyasına tikkeley tásir jasap atrǵanlıǵınan derek beredi.

Etnopedagogikalıq qadıyatlarımızdan orın alǵan ustazdı sıylaw máseleleri joǵa qoyıldı. Ustazdı húrmetlew, onıń qádir-qımbatın, abıroyın arttırıw máselesi mámleket sheńberindegi máselelerdiń qatarınan orın aldı. Bunday

ibratlı islerdi ámelge asırıwda Ullı sahipqıran Amir-Temir babamızdıń óz ustazın tán alǵanlıǵı hám oǵan sheksiz minnetdar bolǵanlıǵın bildirip, dúnyadan ótpesinen aldın ózin ustazınıń ayaq ushına jerlewdi wasiyat etkenligi, wasiyatın orınlanǵanlıǵıda itibardan shette qalmaqta.

Juwmaqlap aytqanda bul kórinislerdiń barlıǵı qayta tiklengen hám qayta tikleniwın ele de dawam etip atırǵan

etnopedagogikalıq qádriyatlarımızdıń kóp qıyınshılıqlar menen bolsa da qayta tikleniwı – ádep-ikram tárbiyasınıń girewi ekenligi amelde óz kórinislerin tabıwǵa imkaniyat jaratıldı. Tiklengen qádriyatlarımız járdeminde jaslarımızda, sonıń ishinde, bolajaq oqıtıwshılarda da ádep-ikramlılıq kónlikpelerdi jetilistiriw – naǵız sotsial-pedagogikalıq záruriyat ekenligi óz-ózinen málim boldı.

#### **Ádebiyatlar**

1. Mirziyoyev Sh. Islom hamkorlik tashkiloti Tashqi ishlar vazirlari kengashi 43-sessiyasining ochilish marosimidagi nutqi. 2016-yil 18-oktyabr. / Milliy taraqqiyot yo‘limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. – Toshkent: «O‘zbekiston» NMIU 2017.

2. Ajiniyaz. Shiǵarmaları. –Tashkent: «Adabiyot», 2024.

3. Kaldibekova A., Xodjaev B. Pedagogik aksiologiya [Text]: uslubiy qullanma / A.Qaldibekova, B.Xodjaev. – Toshkent: Alisher Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2009.

4. Qaraqalpaq tiliniń túsindirme sózligi. Jetti tomliq. Tórtinshi tom Z-Q (qozdırıwshılıq) - [Tekst]. -Nókis: «Qaraqalpaqstan», 2023.

5. Qaraqalpaq etnopedagogikası. Pedagogikalıq institut talabaları ushın oqıw qollanbası. –Nókis: «Bilim», 2010.

6. MAQTUMQULI. Qosıqlar. –Nókis: «Qaraqalpaqstan», 1984.

7. Nazarov Q. Qadriyatlar falsafası (Aksiologiya). -T.: «Akademiya», 2011.

8. Nizanov M. Qaraqalpaqlar [Tekst]; II kitap. – Nókis: «Bilim», 2021.

9. Tarbiya: (ota-onalar va murabbiylar uchun enciklopediya) / tuzuvchi M.N.Aminov. -T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti? 2010.

10. O‘zbek pedagogikasi antologiyasi (ikki jildli) 1-jild. –Toshkent: «O‘qituvchi», 1995.

11. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”. – Toshkent: [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com) kutubxonasi. 207-b.

12. Farmonova M. Qadriyatlar – manaviy kamolot asosi. Ilmiy-uslubiy qo‘llanma. –Toshkent: «Tasvir». 2019.

**REZYUME.** Maqolada qadriyat tushunchasiga ilmiy baho berilgan hamda davlat va jamiyatning mustaqillikka erishgunga qadar milliy qadriyatlarga munosabati va ularning zamonaviy davrda axloqiy tarbiyaga aloqadorligi qiyosiy tahlil qilingan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье даётся научная оценка понятию ценности и проводятся сравнительный анализ отношений государства и общества к национальным ценностям до обретения Независимости и их отношения к нравственному воспитанию в современную эпоху.

**SUMMARY.** The article provides a scholarly assessment of the concept of value and provides a comparative analysis of the state and society's approach to national values in the pre-independence period, as well as the current approach to moral education.

### **INKLYUZIV TÁLIMDE KITAPQUMARLÍQ MÁDENIYATÍN RAWAJLANDÍRÍWDÍŃ PEDAGOGIKALÍQ TIYKARLARÍ**

**G.N.Pirniyazova – stajyor oqıtıwshı**

**G.J.Bektursinova – stajyor oqıtıwshı**

*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq instituti*

**Tayanch so‘zlar:** inklyuziv ta’lim, o‘quvchi, o‘qituvchi, kitob, kitobxon, madaniyat, pedagogika, o‘qish.

**Ключевые слова:** инклюзивное образование, ученик, учитель, книга, читатель, культура, педагогика, чтение.

**Key words:** inclusive education, student, teacher, book, reader, culture, pedagogy, reading.

Inklyuziv tálim sistemasında oqıtıwshılardıń kásiplik sheberligi hám birge islesiwı dáslep ayrıqsha zárúrlikke iye balalar menen islesiwıdıń ózine tán ózgeshelikleri menen baylanıslı. Inklyuziv tálim mayıplıǵı bolǵan balalarǵa hámme ushın teń múnásibetti támiyinlewshi, biraq arawlı zárúrlikke iye balalar ushın kerekli shárayat jaratawshı ideologiyaǵa tiykarlanadı.

Ózbekstan Respublikası Konstituciyasında hámme ushın tálim alıw huqıqı kepillengen. Milliy nızamshılıǵımızda mayıplıǵı bolǵan shaxslar ushın dárejelerdi payda etiwde teń huqıqlar belgilengen. Búgingi kúnde mayıplıǵı hám rawajlanıwında nuqsanı bolǵan balalardıń sıpatlı bilim alıwı hám keyinshelli múnásip jumıs tabıwı ushın olarǵa haqıyqiy inklyuziv shárayatlardı jaratıw boyınsha mámleketimizde bir qatar jumıslar ámelge asırılmaqta.

Inklyuziv tálimniń áhmiyetli mashqalalarınan biri bolǵan ayrıqsha tálimge zárúrligi bolǵan tálimnin

áhmiyetli mashqalalar toparın anıqlap, olarǵa sıpatlı tálim formalarında bilim beriw hám dárejesin anıqlawdan ibarat. Inklyuziv tálimdi rawajlandırıwda ústin baǵdarlarǵa iye bolǵan principleri hám baǵdarlar zárúr áhmiyetke iye.

Ulıwma bilimlendiriw baǵdarlamasınıń nátiyjeli rawajlanıwı ushın mayıp oqıwshılardı arawlı sharayatlar jaratıp beriliwi lazım. Dáslep, biz shınıǵıwlarǵa jantasıwları individualizaciya qılıw, atap aytqanda shınıǵıwdı shólkemlestiriw ushın shárayatlardı tańlaw, wazıypalardı orınlaw formasın individuallastırıw hám nátiyjelerdi usınıwdıń alternativ usılların tanlaw, nátiyjelerdi sıpatlı bahalawǵa jantasıw talap etiledi. Sonday-aq, inklyuziv tálim shárayatında mayıplıǵı bolǵan balalardı kitapqumarlıq mádeniyatı ruwında tárbiyalaw házirgi kunniń aktual wazıypalarınan bolıp esaplanadı.

Búgin watanımızdıń jedel rawajlanıp atırǵan bir dáwirinde babalarımız hám ilimpazlar pikirinde sawlelengen kitap oqıw hám kitapqumarlıq mádeniyatın

qalıplestiriwge bolǵan itibar mámleket siyasatı dárejesine kóterildi desek, asıra aytqan bolmaymız.

Ózbekstan Respublikası Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevtiń 2017-jıl 12-yanvar kúńı «Kitap ónimlerin basıp shıǵarıw hám tarqatıw sistemasın rawajlandırıw, kitap oqıwdı hám kitap qumarlıq mádeniyatın arttırıw jáne úgit-násiyatlaw haqqında»ǵı F-4789-sanlı biyligi elimizde umıtılıp baratırǵan kitap oqıw mádeniyatın qaytadan qalıpine keltiriw islerine unamlı tásir jasadı [1].

Kitapqumarlıqqa bolǵan qızıǵıwshılıq shaxstıń iskerliginiń nátiyjeli bolıwın támiyinleydi. Sol sebepten de kitapqumarlıq járdeminde oqıwshılarda ádebiy kitaplardı salıstırǵanda qızıǵıwshılıqtı qalıplestiriw ayırıqsha áhmiyetke iye. Oqıwshılarda ádebiy kitaplardı bolǵan qızıǵıwshılıqtı oyatıwda oqıtıw procesi tiykarǵı orındı iyeleydi. Oqıtıw procesiniń aldına shaxstı hár tárepleme kitapxanılıqqa say tárizde rawajlandırıw wazıypası qoyılǵan. Búgingi kúnde oqıwshılarda kitaplardıń járdeminde ádebiy kitaplardı bolǵan qızıǵıwshılıǵın oyatıw social-pedagogikalıq zárúrlikke aylanıp atır.

Kitapqumarlıqqa bolǵan qızıǵıwshılıq - oqıwshılardıń kitaplarda kórsetilgen ata-babalar tájiriyesin úyreniw hám ózleriniń iskerligi dawamında paydalanıwǵa bolǵan umtılwın ańlatıwshı qızıǵıwshılıq bolıp tabıladı. Onıń ushın oqıwshılarda intellektuallıq hám de emocionallıq belsendilikti qalıplestiriwi kerek. Intellektuallıq hám de emocionallıq belsendilik kitaplarda maqsetke baǵdarlangan tiykarǵı komponent sıpatında kórinip, ol oqıwshılardı sociallıq tájiriyebe usınıwǵa xızmet etedi. Sebebi kitaplarda bul tájiriyebe anıqlanıp, ata-babalardan áwladlarǵa usınıs etiledi. Sol sebepli biliwge tiykarlangan qızıǵıwshılıqlar tańlawǵa tiykarlangan qızıǵıwshılıq bolıp, birinshi náwbette, oqıwshılardıń intellektuallıq tárepin rawajlandırıwǵa járdemlesedi. Qızıǵıwshılıqtıń járdeminde oqıwshılar arnawlı bir tarawdaǵı bilimlerdi ózlestiriwge belsendilik penen kirisedi. Bunda olardıń kitap jaqınan járdem beredi.

Kitapqumarlıq – tek ǵana salamat oqıwshılardıń emes, al mayıplıǵı bolǵan oqıwshılardıń neni úyretiw hám qanday qurallar járdeminde olardıń kórkem ádebiyatqa bolǵan qızıǵıwshılıqların rawajlandırıwdı belgilep beretuǵın pedagogikalıq hádiyse bolıp esaplanadı.

Kitapqumarlıq járdeminde tek ǵana oqıwshınıń sóylewin hám intellektuallıq iskerligin qalıplestip ǵana qalmastan, al ulıwma oqıw xarakterindegi bilim, kónlikpe, tájiriyebe hám kompetenciyaların arnawlı bir jıyındısın quraydı.

Kitapqumarlıq bul óziniń úsh tiykarǵı basqıshına iye:

- oqıwshılardıń kitapqa sanalı túrde mırájáát etiw motivleri hám maqsetlerin biliwi;
- kitaplardıń álemi haqqındaǵı bilimlerdi iyelew;
- oqılǵan kitaplardıń mazmunın óz imkánıyatlarınan kelip shıqqan halda biliwi.

Kitap oqıw oqıwshılardıń mánawiyatın qalıplestiredi. Hár bir xalıqtıń turmıs tárizi, jasaw shárayatı, sóylew mádeniyatınıń rawajlanıwınıń izbe-izligi sol xalıqtıń ruwxıylıǵınıń formasında kórinedi. Olardıń mánawiyatı qadırlenedi, olardıń húrmet kórsetiledi. Tiykarınan sol xalıq mánawiyatın qalıplestiriwshı birinshi faktor tálím - tárbiya procesiniń basqıshpa-basqısh jolǵa qoyılǵanlıǵında bolıp sanaladı. Ruwxıylıq tiykarında tárbiya jatadı. Tárbiya ata - ana, mektep, máhálle sıyaqlı faktorlar tiykarında

qalıpleseedi. Joqarıda sanap ótilgenlerden eń áhmiyetlisi mektep bolıp tabıladı.

Ulıwma bilim beriw mekteplerinde oqıwshınıń mánawiyatın qalıplestiriw ushın xızmet etetuǵın barlıq zárúrlı shárt-sharayatlar islep shıǵılǵan. Bul jaslar tálím-tárbiyası ushın mámleket tárepinen jaratılıp atırǵan joqarı ǵamxorlıq. Biraq, geypara jaǵdaylarda kútilgenindey nátiyje shıqqay atırǵanlıǵı ashınarlı jaǵday.

Kitapqumarlıq mádeniyatı oqıwshınıń oqıp atırǵan shıǵarmasın tolıq túsiniw, onnan kórkem - estetikalıq zawıq alıw, jazıwshı pikiri, dóretpе ideyasın túsiniw hám bahalay alıw, bunnan tısqarı kitap hám kitapxanadan paydalanıw, málimleme-bibliografikalıq apparatınan ózin qızıqtırǵan yamasa zárúr máselelerge tiyisli kitaplardı tawıp alıw hám onnan paydalanıw jolların úyretedi. Kitap tańlaw, onı tez oqıw, oqılǵan kitaplardı basqalarǵa usınıs etiw, abaylap saqlaw da kitapqumarlıq mádeniyatınıń strukturalıq bólimlerine kiredi.

“Kitapqumarlıq mádeniyati” túsiniǵı keń mánide qollanıladı. Atap aytqanda, bul shıǵarmanı ańlaw hám onı túsiniw ushın kitapqumarlıq belgili tayarlıq hám dárejeni talap etedi. Bul hádiyseniń mánisi kitaptı betlew hám onnan ulıwma paydalana biliwden tap dóretiwshilik oqıw, kitap avtorına qızıǵıp, onıń shıǵarmasın tereń talıqlap oqıwǵa deyin baradı.

Oqıwshılarda kitapqumarlıq mádeniyatın qalıplestiriwdiń taǵı bir forması shıǵarma analizi bolıp, bunda aktual máselege arnalǵan ádebiyatlar haqqında oqıwshılardıń sıpatlama beriwden ibarat. Analizler usınıs hám informaciya xarakterine iye. Shıǵarma analizin tayarlawda oqıwshılardıń jası, qızıǵıwshılıǵı esapqa alınadı. Analiz ushın ádebiyatlar sanın belgilewde temanın keńligi, kitapxana fondındaǵı ámeldegi ádebiyatlar kólemi álbette, esapqa alınadı. Analiz ushın 5 kitaptan 12 danaǵa shekem ádebiyat tańlanıp, ilaj 20 -25 minutqa qarattılıwı kerek. Kórkem ádebiyatlar analizi erkin, pedagogikalıq jumıs forması esaplanıp, kóbinese kitap kórgizbeleri aldınnan kórkem ádebiyatqa baylanıslı kesheler, kitap dodalawları sıyaqlı ilajlar menen birgelikte ámelge asırıladı.

Oqıwshılarda kitapqumarlıq mádeniyatın qalıplestiriwde kitaplardıń dodalanıwı da ayırıqsha orın tutadı. Kitaplardıń talqılawın IX hám X-XI klass oqıwshıları menen ótkeriw maqsetke muwapıq bolıp tabıladı. Kitaplar talqılawı kóbinese shıǵarmalar haqqındaǵı erkin tartıs esaplanadı. Bul ilajlardıń unamlı tárepi sonda, qızıqlı talqılaw oqıwshınıń ǵárezsiz pikirlew kónlikpelerin rawajlandıradı. Kitapqa salıstırǵanda umtılwı kúsheytip, oqıwshılardıń túsiniw alıw qábiletin asıradı hám kórkem estetikalıq talǵamdı bayıtadı.

Oqıwshılardıń tálím-tárbiya beridegi eń baslı wazıypaların tiykarǵı bólimi oqıw shınıǵıwları arqalı ámelge asırıladı. Oqıwshılardıń bilim alıwın hám sóylewin rawajlandırıw sabaq procesinde mámleketlik tálím standartında belgilengen temalar tiykarında oqıwshılardı arnawlı bilim beriledi. Oqıw kónlikpelerin rawajlandırıw barıw menen bir qatarda oqıwshılardıń hár tárepleme jetiliskeń insan ruwxında tárbiyalaw wazıypası da diqqat orayında boladı. Inklyuziv tálimde oqıw hám sóylewdi rawajlandırıw baǵdarlamasınıń maqset hám wazıypalarına kóre oqıw shınıǵıwları arqalı oqıwshılar durıs, sanalı, tez hám kórkem oqıwǵa úyretiledi. Balalar bul proceste kitap penen islesiw kónlikpesine iye bolıp baradı. Olarda kitapqa bolǵan muhabbat sezimi oyatıladı. Oqıwshılardıń sanasınıń

átirapındağı zatlar hám hádiyseler haqqında oyında sawlelendiriwi hám túsınıkların tuwrı qalıplestiriwi ushın olardıń jası hám bilim dárejesin esapqa alıw talap etiledi.

Kitap – insan ómir jolların jaqtılandırıw turıwshı sónbes nur, insannıń ómirine mazmun baǵıshlaytuǵın baxıt dáregi. Hár qanday jaǵdayda da joldas bolıwshı sadıq dos. Insannıń psixikalıq-ruwxıy kámil insan bolıp jetilisiwinde kitaptay kúshli qúdiretke iye qural joq. Sol sebepten, ázel- ázelden ilim juldızları, danıshpanlar pútkil insaniyattı kitap oqıwǵa, onnan bilimniń hám ádeplilikniń sırların úyreniwge baslap kelgen. Tárbıyanıń barlıq kriteriya hám elementleri, dáslep shańaraqta qalıplestirilgenindey, kitapqumarlıq mádeniyatın tárbıyalawda da shańaraqtıń ornı úlken. “Qus uyasında kórgeńin qıladı” degen naqlıǵa tayansaq, bunıń mánisi jáne de aktual basqıshqa kóteriledi.

Haqıyqatında da, shaxs rawajlanıwında shańaraqqa tiyisli ortalıq, shańaraqqa tiyisli qádiriyatlar tiykarǵı qural sıpatında boladı. Ata-ananıń ruwxıy dárejesi, etikalıq kóz qaraları tikkeley perzentke de kóship ótedi. Sonlıqtan, kitapqumarlıq, kórkem ádebiyatqa muhabbatı, insannıń ruwxıy oylawı, tárbıya jaǵdayında kórinetuǵın áhmiyetli ayırmaşılıqlardıń biri. Kitap dúnyasına qızıǵıwshı, kórkem ádebiyatqa hámnapes, kórkem ádebiyattan payda alıwshı kewil iyesi ózindegi bul pazıyletlerdi átirapındaǵılǵa, ásirese, shańaraǵına sińdirip baradı. Kitapqa qızıǵıwshı ata-analardıń perzenti de kitapqa ózgeshe mehir beredi. Bul ruwxıylıq ǵáziynesine tábiyiy qızıǵıwshılıq oyatadı. Sol sebepli kitapqumarlıq áwlad tárbıyasında, áwele, ata-ananıń tárbıyalı bolıwı, kórkem ádebiyatqa iqlashlı bolıwı úlken áhmiyetke iye.

Inklyuziv tálimde oqıwshılar arasında kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıwda shańaraqtıń, ata-ananıń ornı sheksiz ekenligin ullı oyshılarımızdan baslap búgingi izertlewshileri dálillep bergen.

Máselen, alım B.I. Ganiyeva balada oqıw mádeniyatın tárbıyalawda shańaraqtıń tiykarǵı wazıypaları tómendegilerden ibarat dep kórsetedi:

1. Óz perzentlerinde barlıq informaciya dereklerine bolǵan qızıǵıwshılıqtı oyatıw.

#### **Ádebiyatlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil, 12-yanvardagi «Kitob maxsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish xamda targ‘ib qilish bo‘yicha komissiya to‘zish to‘g‘risida»gi F-4789-son Farmoyishi.

2. Ganiyeva B.I. Kutubxonalarda bolalar o‘qish madaniyatini tarbiyalashning pedagogik imkoniyatlari. Pedagogika fanlari nomzodi. ...diss. –Toshkent: 2008. 160-b.

3. Madraximova Sh. Kutubxonalikda o‘rnak zarur. / «Ma’rifat» gazetasi, 16-yanvar’ 2013, №5 (8550).

**REZYUME.** Inklyuziv ta’lim tizimida o‘qituvchilarning kasbiy mahorati va hamkorligi avvalo alohida ehtiyojga ega bolalar bilan ishlashning o‘ziga xos xususiyatlari bilan bog‘liq. Ana shu nuqtayi nazardan qaraganda, nogironligi bo‘lgan bolalarda kitobxonlik madaniyatini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Maqolada inklyuziv ta’limda o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish haqida so‘z yuritilgan.

**РЕЗЮМЕ.** Профессиональное мастерство и сотрудничество учителей в системе инклюзивного образования связаны, прежде всего, с особенностями работы с детьми с особыми потребностями. С этой точки зрения, совершенствование культуры чтения у детей с инвалидностью является одним из актуальных вопросов сегодняшнего дня. В статье говорится о формировании у учащихся библиотечной культуры в инклюзивном образовании.

**SUMMARY.** The professional skills and cooperation of teachers in the inclusive education system are primarily related to the specifics of working with children with special needs. From this perspective, improving reading culture among children with disabilities is one of the pressing issues of today. The article discusses the formation of library culture among students in inclusive education.

2. Teması hár túrli dereklerde bay bolǵan jeke shańaraqlıq kitapxana shólkemlestiriw.

3. Shańaraq aǵzalarınń jasına, qızıǵıwshılıqlarına, intellektuallıq potencialına sáykes ádebiyatlardı tańlap oqıwdı úyretiw.

4. Óz perzentlerin kitaplardan paydalanıw qaǵıydaları menen tanıstırıp barıw hám sol arqalı balalardıń oqıwın durıs shólkemlestiriw, olardıń bos waqıtların bólistiriwdegi belsendiligin arttırıw [2].

Mine usı wazıypalardan mayıplıǵı bolǵan oqıwshılar arasında da orınlı paydalana alsaq, olardıń hár tárepleme rawajlanıwına túrtki bolamız.

Shańaraqta kitap tańlaw mádeniyatına hámme de jetereli dárejede dıqqat awdarmaydı. Shıǵarma tańlawda perzentiniń jas hám fiziologiyalıq ózgeshelikleri, ruwxıy dúnyası, qızıǵıwshılıqları hám umtılısların itibarǵa almasa, hár qanday kitap súygish ata-ana buǵan baylanıslı unamlı jetiskenliklerde erise almaydı. Budan oqıw mádeniyatınıń da ayırıqsha norma hám talapları bar ekenligi kórinedi. Usılardı itibarǵa alǵan halda, hár bir shańaraqqa tiyisli kitapqumarlıq mádeniyatın qalıplestiriw ushın tómendegi usınıslardı itibarǵa alıw názerde tutıladı:

- kitap oqıwda bárhama perzentlerge órnek bolıw;
- kitap tańlaw mádeniyatına iye bolıw;
- arnawlı bir waqıtlarda shańaraq sheńberinde gezekpe-gezek kitap oqıp beriwdi jolǵa qoyıw;
- kórkem ádebiyat oqıwǵa jeterlishe qızıǵıwshılıq bildirmey atırǵan, tapsırmalardı waqıtında orınlay almay atırǵan perzent penen bólek shuǵıllanıw.

Juwmaqlap aytqanıımızda, joqarıdaǵı pikirlerden ruwxıy barksamal kitapqumar áwlad tárbıyasında shańaraq áhmiyetli hám bekkem tiykar ekenligi kórinedi. Sol sebepli, jámiyette mayıplıǵı bolǵan shaxslarda da kitapqumarlıqtı rawajlandırıw, oqıw mádeniyatın jetilistiriw boyınsha hár qanday iskerlikte shańaraq penen sáykes pikir alısıp jumıs alıp barıw gózlengen maqsetlerge erisiwge múnásip imkaniyat jaratadı.

## DUAL TA'LIM SIFATINI OSHIRISHDA AXBOROT-TA'LIM MUHITINI SHAKLLANTIRISH

**S.G'.Siddiqova** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti*

**Tayanch so'zlar:** dual ta'lim, ta'lim sifati, axborot muhiti, resurs, elektron.

**Ключевые слова:** дуальное образование, качество образования, информационная среда, ресурс, электронный.

**Key words:** dual education, quality of education, information environment, resource, electronic.

**Kirish.** O'zgarib borayotgan dunyoda ta'lim tizimi, oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarida tashabbuskorlik, mobillilik, ijodkorlik, konstruktivlik kabi yangi sifatlarini shakllantirishi kerak. U mavjud vaziyatni to'g'ri baholagan holda mustaqil qaror qabul qilishni bilishi, ijtimoiy va bo'lajak kasbiy sohasiga adaptatsiyalanishi, muammolarni mustaqil ravishda hal etishi, jamoada konstruktiv ishlashi, noan'anaviy vaziyatlarda ham o'zini namoyon etish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim. Ixtisoslik fanlarini o'qitishda elektron resurslardan foydalanish hozirgi kunda o'qitishning samaradorligini oshirish, talabalarga kengroq va interaktiv o'quv materiallarini taqdim etish imkonini beradi. Elektron resurslar nafaqat bilim olish jarayonini jonlantiradi, balki o'qituvchilarga va talabalarga turli xil vositalar orqali o'qish va o'rgatish metodlarini yangilashga yordam beradi. Biroq, bu jarayonni amalga oshirishda bir qator muammolar mavjud. Xususan, dual ta'limda ixtisoslik fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslarining yangi avlodini yaratish va ulardan foydalangan holda o'quv mashg'ulotlarini takomillashtirish mexanizmlari va metodlari yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi, dual ta'lim amaliyotida joriy etish muammolarining dolzarbligi va pedagogik jihatdan to'liq tadqiq qilinmaganligi, o'z yechimini kutayotgan muammolardan ekanligidan dalolat beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvar "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-sonli qarori ham aynan shu masalalar yechimiga qaratilgan bo'lib, milliy oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish, jumladan masofaviy o'qitish elementlarining imkoniyatlaridan foydalanib ta'lim dasturlarini amalga oshirish, talabalarining mustaqil ishlari ko'lamini kengaytirish, axborot-ta'lim muhitini shakllantirgan holda kompyuterli o'qitish texnologiyalari imkoniyatlaridan keng foydalanish, o'qitishning faol faoliyatli formalarini rivojlantirish dolzarb hisoblanadi [1].

Shuni ta'kidlash joizki, mavjud oliy ta'lim muassasalarida ixtisoslik fanlarini o'qitishda elektron ta'lim resurslaridan yetarli darajada foydalanilmayapti. Shuningdek, ayrim mavjud bo'lgan elektron ta'lim resurslari mazmuni, ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bazasida amalga oshirishning zamonaviy talablariga javob bermaydi. Bunday muammolarni bartaraf etish uchun bir qator tashkiliy, o'quv-uslubiy ishlarni amalga oshirish talab etiladi. Hozirga kunda dual ta'limda o'quv mashg'ulotlarining sifatini oshirishda asosiy faktorlardan biri hisoblangan yagona axborot ta'lim muhitini yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday axborot ta'lim muhitining asosini elektron ta'lim resurslari tashkil etishi kerak. Elektron resurslar deganda, asosan quyidagi vositalar tushuniladi:

1. O'quv platformalari – Moodle, Google Classroom, Edmodo kabi platformalar talabalarga onlayn darslar, topshiriqlar, testlar, va baholash tizimlarini taqdim etadi.

2. Video va audio materiallar – YouTube, Khan Academy, Coursera kabi onlayn platformalar orqali ixtisoslik fanlariga oid ma'ruzalar, video darslar va laboratoriya ishlarni o'rganish mumkin.

3. Dijital kitoblar va elektron resurslar – o'quv qo'llanmalari, maqolalar, elektron jurnallar (masalan, Springer, Elsevier), ilmiy tadqiqotlar va boshqa materiallar.

4. Simulyatsiya va virtual laboratoriyalar – ixtisoslik fanlarini o'rgatishda turli simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar (masalan, PhET Interactive Simulations) talabalarga ilmiy tajribalarni xavfsiz va arzon tarzda o'rganishga yordam beradi.

**Natijalar.** Ixtisoslik fanlarini o'qitishda elektron resurslardan foydalanish – bu ta'lim jarayonining ajralmas qismiga aylangan. Elektron resurslar yordamida ta'limning sifatini oshirish, talabalarni yangi bilimlar bilan tanishtirish va o'quv jarayonini qiziqarli hamda interaktiv qilish mumkin, ammo bu jarayondagi muammolarni bartaraf etish ham dolzarb masalalardan biridir. Elektron resurslardan foydalanishning quyidagi afzalliklari mavjud:

1. Interaktivlik va qiziqarli o'qish jarayoni – elektron resurslar o'qish jarayonini faollashtiradi. Masalan, video darslar, interaktiv quizlar va simulyatsiyalar orqali talabalar o'quv materiallarini yanada samarali o'zlashtiradilar.

2. Fleksibilite va masofaviy o'qish imkoniyatlari – talabalar o'qish materiallariga har qanday joyda va vaqtda kirish imkoniga ega bo'ladilar, bu esa ta'limning o'ziga xos jihati bo'lib, vaqt va joyga bo'lgan cheklovlarni bartaraf etadi.

3. Yuqori sifatli resurslarga kirish – elektron resurslar orqali talabalar dunyoning eng yaxshi ilmiy va ta'lim resurslariga, jumladan, xalqaro ma'ruzachilarga va bilim manbalariga kirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

4. Keng ko'lamli o'rganish imkoniyatlari – turli xil interaktiv materiallar, misollar, video darslar va testlar orqali talaba o'z bilimini yanada chuqurroq rivojlantirishi mumkin.

Dual ta'limda ixtisoslik fanlarning o'quv materiallari aynan amaliyotga daxldor bo'lganligi bois boshqa fanlardan farq qiladi. Ixtisoslik fanlarni o'qitishda talabalarni mustaqil fikrlashga o'rgatish va muammoli topshiriqlarni yechishda tegishli qaror qabul qilish ko'nikmalarini shakllantirish lozim. Bundan tashqari, talaba ixtisoslik fanlardan olgan bilimlarini korxona sharoitida amaliyotda qo'llashi talab etiladi. Shuningdek, ixtisoslik fanlarni o'qitishda modeli yondashuvni joriy etish asosida o'quv jarayonini kasbga yo'naltirilgan holda tashkil etish mumkin. Modellashtirish ixtisoslik fanlarini o'qitish texnologiyasining asosi sifatida talabalarining kasbiy kompetentligini shakllantirishning samarali vositasi bo'lib hisoblanadi. Modellashtirish asosida ishlab chiqarishdagi real holatni akslantirish imkoniyatlari kengayadi [6:82].

Bizning fikrimizcha, yuqorida ta'kidlangan maqsadlarga erishishda ta'lim jarayonida kompyuter texnologiyalarini oqilona joriy etish ijobiy samara beradi va quyidagi masalalarni yechish imkoniyatlarini yaratadi:

– vaqt tanqisligi muammosini yengib o‘tish va o‘quv vaqtidan samarali foydalanish darajasini oshirish, ayrim auditoriya turlaridagi mashg‘ulotlarni mustaqil ish sektoriga o‘tkazish orqali auditoriyadan tashqari o‘qitish imkoniyatlarini dolzarblashtirish;

– faol-faoliyatli o‘qitish formalarini rivojlantirish;

– shaxsiy-rivojlantiruvchi o‘qitish modelini amalga oshirish;

– talabaning tizimli fikrlashini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish;

– o‘quv jarayonini individuallashtirish prinsipini, uning yaxlitligini saqlagan holda amalga oshirish;

– o‘qituvchining faoliyatida ijodiy komponentning o‘sishi uchun sharoitlarni yaratish [4:25].

Amaliyotda bu elektron ta‘lim resurslarini ishlab chiqish va ularni ta‘lim jarayonida joriy etish zaruriyatini anglatadi. Bunday ta‘lim resurslaridan foydalanish, ta‘limda samarali yondashuvlarni rivojlantirishning zaruriy shartlari va o‘qitish hamda o‘rgatish metodikalarini takomillashtirish sifatida namoyon bo‘ladi.

O‘quv mashg‘ulotlarida axborot texnologiyalarini, jumladan elektron ta‘lim resurslarini qo‘llash orqali ixtisoslik fanlarni o‘qitish samaradorligini oshirish mumkin. Tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, talabalarining o‘quv faoliyatini faollashtirish va mustaqil ishlarini tashkil etishning samarali innovatsion formalaridan biri – axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bo‘lib, ular har bir ta‘lim oluvchiga shaxsiy potensialidan maksimal foydalanish imkonini beradi. Bu jarayonda ixtisoslik fanlardan kasbiy rivojlanish darajasi, talabalarining yangi axborotlarga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlashga qaratilgan elektron axborot-ta‘lim muhitini shakllantirish zaruriy shart-sharoitlardan sanaladi.

Elektron axborot-ta‘lim muhiti tushunchasini aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini ta‘minlovchi dasturiy, axborot texnik, o‘quv-metodik tizimlar majmuasi deb ta‘riflash mumkin [3:37]. Ixtisoslik fanlarini o‘qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish qator imkoniyatlarni taqdim etadi:

- ta‘lim resurslarini taqdim etish imkoniyatlari kengayadi;

- ta‘lim olishga bo‘lgan motivatsiya oshadi;

- ta‘limiy masalalarni qo‘yish va ularni hal etish jarayonlarini boshqarish imkoniyatlari kengayadi;

- o‘quv jarayonlarini boshqarishning moslashuvchanligini ta‘minlash orqali ta‘lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilishning samarali usullari joriy etiladi [2:54].

**Muhokama.** Elektron axborot-ta‘lim muhitida har bir talabaning uzluksiz o‘z ustida ishlashi borasidagi mustaqil ta‘limi hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, bunda ularning o‘quv va ilmiy-tadqiqotchilik yo‘nalishlardagi faoliyat ko‘rsatkichlarining dinamikasini o‘qituvchi tomonidan kompleks baholash imkoniyati paydo bo‘ladi. Dual ta‘lim tizimi va elektron ta‘lim resurslarining o‘zaro bog‘liqligi mavjud bo‘lib, dual ta‘lim talabalarga amaliy ko‘nikmalarni beradi. Elektron ta‘lim resurslarining innovatsion sifatleri quyidagilardan iborat:

1. Moslashuvchanlik va shaxsiylashtirilgan o‘qish – yangi avlod elektron ta‘lim resurslari talabalarga o‘z sur‘atida va qiziqishlari asosida o‘rganish imkoniyatini beradi.

2. Interaktivlik va virtual o‘rganish – virtual laboratoriyalar, simulyatsiyalar, 3D modellash, interaktiv quizlar va o‘quv platformalarining yordamida talaba faqatgina nazariy bilimlar olish bilan qolmay, balki amaliy ko‘nikmalarni ham o‘rganadi. Masalan, simulyatsiyalar orqali turli ixtisosliklarda (muhandislik, kimyo, informatika va boshqalar) haqiqiy ish muhitini yaratish mumkin.

3. Real vaqt rejimida o‘quv jarayonini boshqarish – onlayn tizimlar orqali o‘qituvchilar va talabalar o‘rtasida real vaqt rejimida muloqot o‘rnatish mumkin. Bu talabalarini baholash, maslahatlar berish va o‘zaro fikr almashish imkonini beradi.

4. Keng qamrovli resurslar va materiallar – yangi avlod ta‘lim resurslari o‘z ichiga keng ko‘lamli onlayn kutubxonalar, ilmiy maqolalar, videolar, infografikalar va boshqa o‘quv materiallarini oladi. Bu resurslar talabalarga turli mavzularda chuqur va keng qamrovli bilim olish imkonini yaratadi.

5. Ko‘p formatli ta‘lim – audiovizual materiallar, o‘qish materiallari, interaktiv mashqlar va testlar kabi ko‘p formatli resurslar talabalarga turli usullarda o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu esa o‘rganishni yanada qiziqarli va samarali qiladi.

Elektron ta‘lim resursi – elektron-raqamli shaklda taqdim etilgan va o‘zida strukturani, predmetning mazmunini va ular haqidagi metoma‘lumotlarni mujassamlashtirgan ta‘lim resursidir [6:204]. Elektron ta‘lim resurslari tarkibiga ma‘lumotlar, axborotlar, uni ishlab chiqish hamda o‘qitish jarayonida foydalanish uchun zarur bo‘lgan dasturiy ta‘minot kiradi. Elektron ta‘lim resurslaridan foydalanishning imkoniyatlari quyidagilardan iborat:

1. Masofaviy ta‘lim va onlayn platformalar – dual ta‘limda talabalar masofaviy ta‘lim resurslaridan (masalan, Moodle, Google Classroom, Zoom) samarali foydalanishlari mumkin. Bu platformalar orqali talabalar o‘quv materiallarini o‘rganish, topshiriqlarni bajarish, o‘qituvchilar bilan muloqot qilish va baholashni amalga oshirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

2. Sertifikatlar va maxsus kurslar – elektron ta‘lim resurslari orqali talabalar o‘zlarining ixtisosliklariga mos sertifikatlangan kurslarni (Coursera, edX, LinkedIn Learning kabi platformalarda) tamomlashlari mumkin. Bu kurslar amaliy ko‘nikmalarni oshirishga yordam beradi.

3. Global tajriba almashish – onlayn ta‘lim tizimlari va resurslar talabalarga xalqaro tajriba almashish imkoniyatini beradi. Turli mamlakatlardan kelgan talabalar bilan hamkorlik qilish, guruh ishlarini bajarish va boshqa talabalar bilan fikr almashish ta‘lim jarayonini yanada boyitadi.

**Xulosa.** Demak, dual ta‘limda elektron ta‘lim resurslari yangi avlodning innovatsion sifatleri talabalarga o‘z bilim va ko‘nikmalarini yanada samarali o‘rganish imkoniyatini yaratadi. Elektron resurslarning interaktiv, moslashuvchan va keng qamrovli xususiyatlari o‘quv jarayonini yangi darajaga olib chiqadi. Yangi texnologiyalar va elektron resurslardan foydalanish dual ta‘limda talabalarga real ish muhitida kerakli amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirish imkoniyatini beradi, elektron ta‘lim resurslari yangi avlodni yetarli darajadagi o‘quv mahsuloti sifatida qo‘llash natijasida o‘qitish samaradorligini oshirishga, talabalarining ixtisoslik fanlardan mustaqil ishlarini kengaytirishga erishiladi.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvar "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-sonli qarori. <https://www.lex.uz/search/ext?&lang=4&okoz=7296>
2. Бабаходжаева Л.Г. Педагогические основы проектирования личностно-ориентированной интеллектуальной системы обучения. -Тошкент: «Фан», 2011. 120-б.
3. Бегимкулов У.Ш. Педагогик таълим жараёнларини ахборотлаш-тиришни ташкил этиш ва бошқариш назарияси ва амалиёти. Автореф. дис. пед. фан. док. – Т.: 2007. 37-б.
4. Завялова О.А. Формирование элементов информационной компетентности учащихся на уроках с использованием Интернет-ресурсов. Интернет-журнал «Эйдос». 2010. – С. 21-28.
5. Осин А.В. Открытые образовательные модульные мультимедиа системы. – М.: «Издательский сервис», 2010. – С. 328.
6. Штеймарк О.В. Повышение качества знаний студентов педагогического вуза средствами цифровых образовательных ресурсов: Дисс. канд. пед. наук. – М.: 2011. – С. 178.

**REZYUME.** Ushbu maqolada axborot-ta'lim muhitini shakllantirish va axborot ta'lim resurslaridan foydalanish orqali dual ta'lim tizimining sifatini oshirish masalasi ko'rib chiqilgan. Axborot ta'lim resurslaridan samarali foydalanish ta'lim sifatini oshirishda katta ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan. Maqola o'qituvchilar va ta'lim muassasalariga axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish bo'yicha tavsiyalar beradi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается повышение качества дуального образования через формирование информационно-образовательной среды и использование информационно-образовательных ресурсов. Подчеркивается важность эффективного использования информационных образовательных ресурсов для повышения качества образования. Статья предлагает рекомендации по интеграции информационных технологий в образовательный процесс для преподавателей и образовательных учреждений.

**SUMMARY.** This article discusses improving the quality of dual education through the formation of an information-educational environment and the use of information-educational resources. The article emphasizes the importance of effectively utilizing information educational resources to improve education quality. It offers recommendations for educators and educational institutions on integrating information technologies into the educational process.

### O'QITUVCHILARIDA PEDAGOGIK FAOLIYATNI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

**Sh.M.Tohirova – o'qituvchi**

*University of Business and science nodavlat oliy ta'lim muassasi*

**Tayanch so'zlar:** pedagogika, o'qituvchi, mahorat, ta'lim-tarbiya, texnika, qobiliyat, qadriyat, urf-odat, jarayon, layoqat.

**Ключевые слова:** педагогика, учитель, мастерство, образование, методика, способность, ценность, традиция, процесс, компетентность.

**Key words:** pedagogy, teacher, skill, education, technique, ability, value, tradition, process, competence.

Hozirgi zamon pedagogikasi fani har bir o'qituvchidan kasbiy jihatdan yetuk bo'lishni va pedagogik mahorat va qobiliyatni, mahoratni to'liq egallagan bo'lishlikni talab etmoqda. Pedagogik mahoratga va qobiliyatga, texnikaga ega bo'lmasdan turib haqiqiy o'qituvchi bo'lish mumkin emas degan tushuncha kelib chiqadi. O'zida pedagogik mahoratni va qobiliyatni umumlashtirgan inson bolalarni seva oladi, ular uchun jonini fido qila oladi, ularga haqiqiy ustoz bo'la oladi. "Ta'lim-tarbiyada o'qituvchi-murabbiylarning pedagogik mahoratini mukammal egallashi hal qiluvchi ahamiyatga egadir" [1:29]. Shu bois jahonning barcha oliy o'quv yurtlarida bu masalaga alohida yondashuv amalga oshirilmoqda.

Pedagogik, o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va bolalarning izzat-hurmatiga sazovor bo'lish uchun ham kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Boshqa kasblar kabi o'qituvchilik kasbiga ham yoshlar orasida pedagogik faoliyatga layoqatli, bolalar bilan til topib muomala qila oladigan, ilmi kishilarni tanlab olish kerak. "Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo'lishi darkor. Shuningdek, bolalarni yoqtirishi, ular bilan ishlashga mayli, boshqalar bilan muloqat qila olishi, xushmuomalaligiga, kuzatuvchanligi, keng fikrlay olishi, o'ziga va boshqalarga nisbatan

talabchanligi ham kishining pedagogik faoliyatga yaroqligini ko'rsatadi" [2:34]. Bu sifatlar kishida bor- yo'qligini tibbiyot xodimlari, ruhshunos, pedagoglar og'zaki va yozma savol - javoblar yordamida aniqlay oladi.

Pedagogik, o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va bolalarning izzat-hurmatiga sazovor bo'lish uchun ham kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Boshqa kasblar kabi o'qituvchilik kasbiga ham yoshlar orasida pedagogik faoliyatga layoqatli, bolalar bilan til topib muomala qila oladigan, ilmi kishilarni tanlab olish kerak. "Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog'lom bo'lishi, so'zlarni to'g'ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo'lishi darkor. Shuningdek, bolalarni yoqtirishi, ular bilan ishlashga mayli, boshqalar bilan muloqot qila olishi, xushmuomalaligiga, kuzatuvchanligi, keng fikrlay olishi, o'ziga va boshqalarga nisbatan talabchanligi ham kishining pedagogik faoliyatga yaroqligini ko'rsatadi" [2:34]. Bu sifatlar kishida bor- yo'qligini tibbiyot xodimlari, ruhshunos, pedagoglar og'zaki va yozma savol - javoblar yordamida aniqlay oladi.

Pedagogik, o'qituvchilik faoliyatini, yoshlarni o'qitish va tarbiyalash ishini samarali bajarish, ota-onalar va bolalarning izzat-hurmatiga sazovor bo'lish uchun ham kishida bu ishga layoqat, qobiliyat, qiziqish bo'lmog'i lozim. Boshqa kasblar kabi o'qituvchilik kasbiga ham

yoshlar orasida pedagogik faoliyatga layoqatli, bolalar bilan til topib muomala qila oladigan, ilmi kishilarni tanlab olish kerak. “Pedagoglik kasbini tanlagan kishi avvalo sog‘lom bo‘lishi, so‘zlarni to‘g‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi, asablari joyida, vazmin bo‘lishi darkor. Shuningdek, bolalarni yoqtirishi, ular bilan ishlashga mayli, boshqalar bilan muloqat qila olishi, xushmuomalaligiga, kuzatuvchanligi, keng fikrlay olishi, o‘ziga va boshqalarga nisbatan talabchanligi ham kishining pedagogik faoliyatga yaroqligini ko‘rsatadi” [2:34]. Bu sifatlar kishida bor- yo‘qligini tibbiyot xodimlari, ruhshunos, pedagoglar og‘zaki va yozma savol - javoblar yordamida aniqlay oladi.

Barcha yaxshi ishlar, bolani ezgulikka yetaklash, o‘qituvchining pedagogik mahoratiga ko‘p jihatdan bog‘liq. Buyuk alloma inson ruhiyatining muhandisi Abu Ali Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asarida shunday fikr bayon qiladi:

“O‘qituvchining barcha xatti - harakatlari ezgulikdan iborat bo‘lmog‘i lozim” [3:132].

“O‘qituvchi o‘z bilim malakasini oshirish usullarini puxta egallamog‘i, mustaqil ishlashini o‘rganmog‘i lozim” [4:127] - degan edi A. Jomiy.

“Pedagogik faoliyatning nazariy asosi kasbga oid bilimlardir. U faqatgina o‘z predmetini emas, balki pedagogika va psixologiyaga doir bilimlarini o‘zlashtirishi va ularni muntazam to‘ldirib borishi lozim. Ilmiy psixologik-pedagogik bilimlar sistemasining mavjudligi o‘qituvchiga faqat o‘z sinfini hamda ayrim o‘quvchilarni o‘rganish va ularning to‘g‘ri harakteristikasini tuzishgina emas, balki o‘quvchilar jamoasi bilan va uning har bir a‘zosining rivojlanishi istiqbollarini ham belgilash imkonini beradi. O‘qituvchi-tarbiyachining amaliy faoliyati bu ko‘plab pedagogik vazifalarni beto‘xtov hal qilishdir” [5:26]. O‘zining kasbga doir bilimlar to‘plamidan ijodiy foydalangan o‘qituvchigina ularni muvaffaqiyatli hal etishi mumkin.

“O‘quv jarayonini muvaffaqiyatli va serunum tashkil etishda o‘qituvchi va o‘quvchilarning mehnat faoliyatlarini chuqur o‘rganish muhim rol o‘ynaydi” [6:67].

“O‘quv jarayonini ilmiy asosda tashkil etishda uning psixologik-fiziologik tomonini tahlil qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlarni o‘zlashtirishda talabalarining eshitish, ko‘rish, fikrlash xususiyatlarining qay darajada ekanligi, bunga muvofiq ravishda sarf bo‘ladigan mehnat alohida hisobga olinishi kerak” [7:130]. Shuning uchun o‘quv rejasini tuzishda va ulardagi fanlarni dars jadvallariga joylashtirishda har tomonlama o‘ylab ish yuritish maqsadga muvofiqdir. O‘qitish jarayonining fiziologik asosi sifatida reflekslar va signallar sistemalari haqidagi, oliy nerv faoliyati haqidagi ta‘limotdan foydalaniladi. Oliy nerv faoliyati haqidagi ta‘limotga ko‘ra, kishida ruhiy o‘zgarish va tassurot tashqi muhit natijasida yuz beradi va ichki faoliyat bilan o‘zaro bog‘liq bo‘ladi. Fiziologik va ruhiy jihatdan o‘qitish nazariyasining asosi oliy maktabda o‘qitish jarayoni uchun ham asos qilib olinadi hamda refleks va signallarga oid yangi tekshirishlar asosida to‘ldirib boriladi.

“Reflekslar shartli va shartsiz deb ikki turga bo‘linadi. Shartli refleks odam va xayvonlarga xosdir. Ularda doimiy ravishda ta‘sir va javob reaksiyasi mavjud bo‘ladi. Shartli refleks tashqi muhit ta‘siri bilan yuz bergan o‘zgarishlarga moslashish asosida paydo bo‘ladi” [8:167].

Shartsiz refleks bilan shartli refleks o‘zaro bog‘liq bo‘lib, shartli reflekslar shartsiz reflekslar asosida paydo bo‘ladi. Signal sistemalari ikki qismdan iboratdir: birinchi signal sistemasi kishining ko‘rish, eshitish, sezish, idrok etish va boshqa shartli qabul qilish a‘zolarida aks etadi.

Maktab xalq ta‘limi ishida birinchi toifaga kiruvchi, to‘la ma‘nodagi ijodkor muallimlar hal qiluvchi kuch hisoblanadilar.

“Darsning bilim berishdagi rolini, uning mas‘uliyatini sezgan har bir ilg‘or pedagog mashg‘ulotga puxta tayyorlanib, uni mazmunan boyitadi, tinmay izlanib, o‘qitishning yangi usullarini yaratib, maktab ta‘limida qo‘llashga aytiladi” [9:108].

Shu yo‘l bilan qirq besh daqiqa darsni yaxshi bir asar yanglig‘ o‘z o‘quvchilari ongiga singdiradi. Bunday fidoyi ziyobaxsh qalb egalari shaxsiy ijodiy jarayonini boyitishga munosib xissa qo‘shadilar. Shu tariqa har bir ijodkor o‘qituvchi o‘zining haqiqiy muallimlik mahoratini yaratadi.

“Dars o‘qitish jarayonining asosiy shaklidir. O‘qitish jarayoni shakllari ichida dars eng asosiysi hisoblanadi. U ancha murakkab va ko‘p mehnat talab qiladigan ishdir. Dars o‘tish uchun o‘qituvchi malakali bo‘lishi lozim, chunki boshlang‘ich sinfni o‘qitish o‘qituvchidan katta mahorat talab etadi. Har bir dars ishlanmasini tayyorlash esa haqiqiy ilmiy ishni eslatadi” [10:38].

Xalqimiz ma‘naviyatini yuksaltirishda milliy urf-odatlarimiz va ularning zamirida mujassam bo‘lgan mehr-oqibat, insonni ulug‘lash, tinch va osoyishta hayot; do‘stlik va totuvlikni qadrlash, turli muammolarni birgalashib hal qilish kabi ibratli qadriyatlar tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda” [11:23].

Abu Rayhon Beruniy o‘z asarlarida bilim umuminsoniy qadriyatlarini o‘rganishning kaliti ekanligini alohida ta‘kidlaydi. Ilm-ma‘rifatpar odam jamiyat taqdiri, insonlar taqdiri uchun kurashuvchan, barcha yomonliklardan uzoqdir. «Ilmning foydasi ochko‘zlik bilan oltin kumush to‘plash uchun bo‘lmay, balki u orqali inson uchun zarur narsalarga ega bo‘lishdir» [12; 44-b] deb yozadi alloma.

Ushbu qadriyatlar ta‘lim-tarbiya asosida yosh avlod ongiga singdiriladi. Mamlakatimiz ta‘lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatayotgan o‘qituvchilar va tarbiyachilarning pedagogik mahoratida umumbashariy qadriyatlar ularning ma‘naviy dunyosini naqadar keng ekanligini namoyon etadi. Buyuk allomalarimizning ta‘lim-tarbiyaga oid qarashlarida umuminsoniy va ma‘naviy qadriyatlarga bo‘lgan e‘tibor asosiy o‘rinda turgan. Ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilmu ma‘rifat, ta‘lim va tarbiyani inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilgan. Inson axloqi aqlga, xulqi va xatti-harakati esa ilm-fanni o‘rganishga hamda ma‘rifatga asoslangandagina ma‘naviy kamolotga erishadi. Allomalarining fikrlariga ko‘ra, “insonparvarlik g‘oyalarning amalga oshishi, ma‘naviy barkamollikka erishish, bilimli va ma‘rifatli bo‘lishga bog‘liq” [13:14]. Shuning uchun ham ular ilmlilikni umuminsoniy qadriyat darajasida ulug‘lab, jamiyatning barcha a‘zolarini ilm egallashga chaqirdilar, muallimlarning shijoatli faoliyatini qadrladilar.

“O‘qituvchi pedagogik mahoratini o‘zining halol faoliyati bilan takomillashtirib boradi. Ushbu mehnat natijasida inson komillik darajasida voyaga yetishi lozim, buning uchun ma‘naviyat va qadriyatlar yuksalishi, inson keng ma‘nodagi ma‘naviy shaxsga aylanishi kerak” [14:93].

O'qituvchi faoliyatining natijasi bo'lmish barkamol inson yuksak ma'naviyatni yaratadi va rivojlantiradi, umumbashariy qadriyatlarni asraydi. Uning o'quvchilar jamoasi bilan olib boradigan ta'lim-tarbiyaviy faoliyatidagi barcha yutuqlari ushbu qadriyatlar tufaylidir.

O'qituvchi o'z ustida ishlar ekan, kasb-kor malakasini oshirish bo'yicha aniq maqsadga muvofiq tavsiya va ko'rsatmalarga ehtiyoj sezadi, ular esa izchil bir tizimga solinmagan.

Ma'lumki, "o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonining sub'ekti sifatida tayorgarlik darajasi, pedagogik mahorat va shaxs sifatлари bilan o'quvchilarning ahloqi, odobi va ma'nan rivojlanishlari komil inson bo'lib tarbiyalanishlarga bevosita ta'sir etadi" [15:29].

"O'qituvchining o'z malakasini uzluksiz takomillashtirib borish asosan quyidagi 4 yo'nalishda bo'ladi, ya'ni;

- kasbkor tayyorgarligi (o'zi o'qitadigan fani bo'yicha nazariy, uslubiy salohiyati);

- pedagogik mahorat (pedagogik va psixologik bilimlarni egallaganlik darajasi).

- pedagogik madaniyat (pedagog qobiliyat, texnika, takt va muomala madaniyati);

- shaxs sifatleri" [16:256].

Shuning uchun ham o'qituvchilar uchun o'z-o'zini baholashda obyektiv bo'lish, diagnostikalash vosita va usullarini bilish, eng asosiysi «o'zini bilmagan o'zgani bila olmaydi» qabilida ish tutishlari maqsadga muvofiq.

"O'qituvchilar asosan malaka oshirish kurslari va kursdan kursgacha bo'lgan davrda mustaqil bilim olish bilan umumpedagogik mahoratlarini takomillashtiradilar" [17:95].

"O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalashi uchun, avvalo o'zini atroflicha chuqur o'rganishi, o'z ishidagi yutuq va kamchiliklarni ko'ra olishi kerak. O'z-o'zini o'rganish va boshqa kishini anglash uchun ham zarurdir" [18:146]. Boshqa yutuqlarni o'rganmay, o'zini boshqalar bilan qiyos qilmay turib, o'zini shaxs sifatida o'rganish mumkin emas. O'zini anglash, o'zini baholash xususiyati boshqa kishilar bilan munosabat jarayonida, birgalikdagi faoliyat vaqtida tarkib topadi.

"Pedagogik vazifasi - faqat irodaviy fazilatlar doirasini ko'rsatib berishdan, ularning muhim ahloqiy prinsiplari bilan ichki aloqasini ochib berishdan tashqari o'z irodasini o'zi tarbiyalashga intiluvchi o'quvchiga yordam berish, irodaviy fazilatlarini rivojlantirishning qanday usullari kam samarador va qaysi birlari jiddiy yordam bermasligini ko'rsatishdan iboratdir" [19:12]. Agar pedagogik adabiyotda ta'rif-tasvirlanayotgan yoshlar qo'llayotgan sodda va yasama usullarga e'tibor beradigan bo'lsak, yana ham muhimdir.

"O'qituvchi o'z-o'zini tarbiyalash bilan birga o'z ustida tinmay ishlab, o'zining g'oyaviy- siyosiy ongini doimiy ravishda o'stirib va pedagogik mahoratini takomillashtirib boradi" [20:12].

"Ilg'or o'qituvchi hamma vaqt pedagogika sohasidagi yangiliklarni bilishga intiladi, boshqa o'qituvchilarning tajribalaridan foydalanishga hamda o'z shaxsiy tajribalaridan foydalanishga, hamda o'z shaxsiy tajribalarini umumiy lashtirishga harakat qiladi" [21:32].

Iroda va xarakterni shakllantirishda o'z-o'zini tarbiyalash. "O'qituvchilik faoliyatida o'qituvchi xakteri muhim ahamiyat kasb etadi" [22:95]. Bunda iroda, his-tuyg'ularini boshqarish katta ahamiyat kasb etadi. O'zini o'zi tarbiyalash ma'lum natijalarga olib kelishi lozim. Bunda: o'zini idora eta olish, yaxshi kayfiyat, o'ziga buyruq berish, ishontirish, shaxsiy rejimga rioya qilish va o'z qoidasiga ega bo'lish.

"Yoshlarda mustaqil ravishda bilim olish va uni hayotga qo'llash ko'nikmalarini hosil qilish, axloq va odobni yaxshilash zarurati talabalik davrida shakllanadi" [23:56].

Yoshlarni talaba bo'lganiga qadar ota-onasi, maktab o'qituvchilari, qarindosh-urug'i, mahalla-kuy nazorat qilib borsa, talaba bo'lgandan keyin bu nazorat susayib ketadi. Bu holatni talabaning o'zi anglab yetishi lozim, shundan keyin boshqaruv nazariyasining asosiy tamoyili, tushuncha va qoidalarini egallagan xolda o'zini-o'zi tarbiyalay boshlashi kerak.

Hozirgi kun o'quvchilarini zamon talabiga mos o'qitish, tarbiyalash, rivojlantirish bilan bir qatorda ta'limni ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tashkil etishni taqozo etmoqda Bu jamiyatga o'z qarashlari shakllangan, keng fikrga ega, ijodkor, qobiliyatli, egallagan bilimlarini hayotga tadbiq eta oladigan davr talabiga mos yashash, mehnat qiladigan, madaniyatli, odob-ikromli, odamgarchilik xususiyatlarga ega bo'lgan, jismoniy jihatdan barkamol yoshlarni tarbiyalash talabini qo'ymoqda.

Har bir o'qituvchi darsga tayyorgarlik ko'rar ekan, unga yengil - yelpi, yuzaki qaramasdan, balki uning mas'uliyatini bilgan holda sidqidildan yondashish kerak. bu mas'uliyat, ayniqsa, boshlang'ich sinf o'qituvchilaridan talab qilinadi. Chunki bolalarga ilk poydevorni boshlang'ich sinf o'qituvchilari quradilar. Berilgan ta'lim, qurilgan poydevor qanchalik mustahkam bo'lsa, kelajakka ishonch shunchalik ortaveradi. Yosh avlodni to'g'ri tarbiyalash, ilmli, zukko, ma'naviyatli qilib yetishtirish esa o'qituvchi va murabbiylar qo'lidadir. Shunday ekan, har bir o'qituvchi ilm berar ekan, avvalo bolalarni sevib, ularni kelajakka ishonch ruhida tarbiyalab, o'z fanini chuqur bilgan holda sidqidildan dars o'tmog'i kerak.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, o'qituvchilarni pedagogik faoliyatni shakllantirish, nafaqat ularning o'ziga xos xususiyatlarni rivojlantirishga, balki umumiy bilim va ko'nikmalarini oshirishga ham xizmat qiladi. Jumladan, ushbu jarayon orqali o'qituvchilar o'z qobiliyatlaridan oqilona tarzda boshqarishga o'rganadilar, bu esa kelajakda mustaqil va muvaffaqiyatli insonlar sifatida shakllanishlariga yordam beradi, chunki bu kelajakdagi rivojlanishlariga katta ta'sir ko'rsatadi.

#### Adabiyotlar

1. Jumaev A. O'qituvchi shaxsi shakllanishining ayrim masalalari. // Pedagogik ta'lim. –Toshkent: 2007. 29-b.
2. Almetov N.Sh. Pedagogika. O'quv qo'llanma. – Almaati: 2001. 34-b.
**Kirish.** Har bir tilda so'zlar turkumlarga ajratiladi. Bunda har xil prinsiplarga asoslanadi. Ba'zan leksik ma'noni asosiy yetakchi belgi qilib oladilar, ba'zan morfologiyani yetakchi belgi qilib oladi [1:78].

Fe'lni o'rgatish metodikasi talabalarga o'rgatishda interfaol mashqlar va hayotiy misollarga tayanadi. Fe'l so'z turkumiga kirish fe'ldan foydalanish va fe'l shakllari va funksiyalarini tushunishda mustahkam poydevor yaratishni o'z ichiga oladi. Rol o'ynash va boshqariladigan amaliyot kabi turli tadbirlar orqali talabalar fe'llarni to'g'ri va ishonchli ishlatish malakasini rivojlantiradilar. Fe'lni o'rgatish til o'rganuvchilar uchun juda muhimdir, chunki fe'llar jumalarning asosidir. Samarali o'qitish usullariga amaliy mashqlar, hayotiy misollar va tushunishni mustahkamlash uchun interfaol tadbirlar kiradi. Fe'llarga e'tibor qaratish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning til ko'nikmalarini, muloqot

va umumiy ravonlikni mazmunli tarzda yaxshilashlari mumkin.

Fe'l ustida ishlashda izchillik, bo'limlar orasidagi bog'lanish, dastur materialining hajmi, uni har bir sinfda o'rganish usullari va vositalari shu so'z turkumini o'rganish vazifasi, uning lingvistik xususiyatlari va kichik yoshdagi o'quvchilarning bilish imkoniyatlariga qarab belgilanadi [2:267]

Fe'lni o'rgatishda o'quvchilarni qiziqitirish uchun turli strategiyalardan foydalanish muhimdir. Bular amaliy mashg'ulotlar, interaktiv o'yinlar va hayotiy misollarni o'z ichiga olishi mumkin. Vizual qo'llanmalar va texnologiyani o'z ichiga olish ham o'rganish tajribasini oshirishi mumkin. Rol o'ynash mashqlari va guruh muhokamalari fe'ldan foydalanish va kontekstni tushunishni yanada mustahkamlashi mumkin. O'qituvchilar ushbu usullarni qo'llash orqali o'quvchilarning nafaqat fe'l shakllarini eslab qolishlarini,

balki ularning ma'nolari va turli kontekstlarda ishlatilishini ham ta'minlashlari mumkin. Fe'lni o'rgatish metodikasi turli kontekstlarda fe'llarni o'z ichiga olgan qiziqarli til darslarini yaratishni o'z ichiga oladi. Fe'llarni kundalik suhbatga qo'shish orqali o'quvchilar ularni yaxshiroq tushunishlari va hayotiy vaziyatlarda qo'llashlari, ularning til ko'nikmalarini oshirishlari mumkin. Rolli o'ynash, o'yinlar va mashqlar kabi harakatlar fe'l lug'atini mustahkamlashga yordam beradi va o'rganishni yanada interaktiv va samarali qiladi. Fe'lni o'rgatish metodikasi fe'llarni o'rganishni o'quvchilar uchun qiziqarli va esda qolarli qilish uchun qiziqarli tadbirlardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

Interfaol va dinamik faoliyatni fe'l o'rganishga kiritish orqali o'quvchilar faol ishtirok etishlari va o'qitilayotgan ma'lumotlarni saqlab qolishlari mumkin.

Fe'lni o'rgatish metodikasi fe'llarni tushunishga yordam beradigan kontekstli misollarni o'z ichiga oladi. Haqiqiy hayotiy vaziyatlardan foydalangan holda, talabalar turli xil fe'llarning ma'nosi va ishlatilishini yaxshiroq tushunishlari mumkin.

Kontekst fe'lni tushunishda hal qiluvchi rol o'ynaydi, chunki u o'quvchilarga fe'llarning turli ssenariylarda qanday ishlashini tushunish uchun mos yozuvlar doirasini beradi. O'quvchilarni mazmunli kontekstga jalb qilish orqali o'qituvchilar fe'lning saqlanishi va qo'llanilishini kuchaytirishi mumkin. Kontekstdan strategik foydalanish orqali talabalar nazariy bilimlar va fe'lni amaliy qo'llash o'rtasidagi tafovutni bartaraf etishlari mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat tushunishni yaxshilaydi, balki o'quvchilarga turli kontekstlarda fe'llardan foydalangan holda samarali muloqot qilish imkonini beradi. Fe'lni o'rgatishda ko'rgazmali vositalardan umumli foydalanish zarur. Ko'rgazmali qurollar o'quvchilarga fe'llarning ma'nosi va qo'llanilishini osonroq tushunishga yordam beradi. Tasvirlar, jadvallar va videolarni o'z ichiga olish o'quv jarayonini yanada qiziqarli va esda qolarli qilishi mumkin. Ushbu usul vizual o'quvchilarga yordam berishi va umumiy tushunishni kuchaytirishi mumkin.

Fe'llarni o'rgatishda ko'rgazmali vositalardan foydalanish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning faol ishtiroki va tushunishiga yordam beradigan dinamik va interaktiv o'quv muhitini yaratishi mumkin. Fe'lni o'rgatish metodikasi fe'l o'zlashtirishga yordam beradigan interfaol mashqlarni o'z ichiga oladi. Ushbu mashqlar o'quvchilarni qiziqtiradi va o'rganishni qiziqarli va samarali qiladi. Talabalar rolli o'yinlar, guruh muhokamalari va interfaol o'yinlar kabi o'quv jarayonida faol ishtirok etishga da'vat etiladi, bu ularning fe'llarni tushunish va saqlashni kuchaytiradi. Interfaol mashqlarni fe'lni o'rgatish orqali o'qituvchilar o'quvchilarning tilni o'zlashtirish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantiruvchi dinamik va qiziqarli o'quv muhitini yaratishi mumkin.

Fe'lni o'rgatish metodikasi tushunchani kuchaytirish uchun fe'llarni real dunyo stsenariylari bilan bog'lashni o'z ichiga oladi. Fe'llarni amaliy vaziyatlar bilan bog'lash orqali o'quvchilar ularning ma'nosini osonroq tushunishlari mumkin.

Fe'llarni hayotiy misollar bilan bog'lash o'quvchilarga kundalik vaziyatlarda lug'atning dolzarbligini ko'rishga yordam beradi. Ushbu yondashuv fe'llarni o'rganishni yanada qiziqarli va esda qolarli qiladi, eslab qolish va tushunishni kuchaytiradi. Haqiqiy dunyo stsenariylarini fe'l

lug'at yo'riqnomasiga kiritish talabalarga o'rganganlarini amaliy kontekstda qo'llash imkonini beradi. Ushbu metodologiya o'quv jarayonini kuchaytirishga yordam beradi va fe'ldan foydalanishni uzoq muddatli saqlashga yordam beradi.

O'quvchi kommunikativ savodxonligini ta'minlashda fe'lning uslubiy imkoniyatlaridan o'rinli foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi [3:119].

Fe'lni o'rgatish metodikasi fe'llarning xilma-xilligini ko'rsatishga va ularning kontekstda ishlatilishini ko'rsatishga qaratilgan. Talabalar turli xil fe'llarni tushunish va qo'llash uchun interfaol harakatlar, misollar va mashqlar orqali tanishtiriladi. Turli kontekstlarda fe'llarni o'rganish orqali o'quvchilar ularning ma'nolarining nozik tomonlarini tushunishlari va ularni o'zlarining til ko'nikmalariga samarali kiritishlari mumkin. Fe'lni o'rgatish metodologiyasi o'rganish tajribasini yaxshilash uchun texnologiyani o'z ichiga oladi. Texnologik vositalarni integratsiyalashgan holda, o'qituvchilar o'quvchilarni interfaol mashqlar va o'yinlarga jalb qilishlari mumkin. Onlayn viktorinalar va kartalar kabi platformalardan foydalanib, talabalar kontekstdagi fe'llarni aniqlashni mashq qilishlari va fe'l konjugatsiyasini tushunishlarini yaxshilashlari mumkin. Texnologiya, shuningdek, shaxsiy fikr-mulohazalar va taraqqiyotni kuzatish imkonini beradi, bu esa fe'llarni o'rganishni yanada samarali qiladi.

Ushbu so'z turkumini o'qitishda texnologiyani integratsiyalash orqali o'qituvchilar turli xil o'rganish uslublariga mos keladigan dinamik va immersiv o'quv muhitini yaratishi mumkin. Ushbu yondashuv nafaqat fe'l lug'atini yanada jozibador qiladi, balki real dunyo muloqotida saqlanishi va qo'llanilishini kuchaytiradi.

Fe'lni o'rgatishda metodologiya amaliy qo'llashga qaratilgan. Fe'llarning malakasini baholash usullari rolli o'yin stsenariylari va yozma mashqlarni o'z ichiga oladi. O'qituvchilar o'rganishni mustahkamlash va tushunishni baholash uchun interfaol tadbirlardan foydalanadilar. Talabalar nutq va yozish topshiriqlari orqali fe'l qo'llanilishini ko'rsatadilar.

Viktorinalar va testlar kabi baholash vositalari fe'lning malaka darajasini o'lchaydi. Metodologiya talabalarga turli baholash yondashuvlari orqali fe'l lug'atini samarali egallashini ta'minlaydi. Fe'lni o'rgatish metodikasi o'quvchilarni bilim olishga jalb qilish uchun hikoya qilishdan foydalanishni o'z ichiga oladi. Hikoya va misollarni o'z ichiga olgan holda, o'quvchilar fe'llarning ma'nosini yaxshiroq tushunishlari va eslab qolishlari mumkin. Hikoya o'quvchilarga nafaqat fe'lni shakllantirishga yordam beradi, balki o'quv jarayonini qiziqarli va esda qolarli qiladi. Hikoyalar orqali talabalar turli vaziyatlarda fe'llarni kontekstuallashtirishi va qo'llashi mumkin. Umumman olganda, fe'lni hikoya qilish orqali o'rgatish metodologiyasi til ko'nikmalarini oshirish va faol o'rganishni rivojlantirishning samarali usuli hisoblanadi. Fe'llarni real hayot stsenariylari bilan bog'lash orqali o'quvchilar ularndan foydalanish va ma'nolarini yanada samaraliroq tushunishlari mumkin va turli xil o'rganish uslublari va afzalliklarini qondirish uchun turli xil yondashuvlardan foydalanish juda muhimdir. Bu barcha talabalarining tushunchalarni samarali o'zlashtira olishini ta'minlaydi.

Yondashuvlardan biri o'quvchilarga fe'llarni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lashda yordam berish uchun rasm yoki video kabi ko'rgazmali qurollardan foydalanishdir. Ushbu

usul o'rganishni o'quvchilar uchun yanada qiziqarli va esda qolarli qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, o'yinlar yoki rolli o'yin mashqlari kabi interfaol tadbirlarni o'z ichiga olish o'quvchilarning fe'lni tushunish va saqlashni kuchaytirishi mumkin. Ushbu amaliy yondashuvlar faol ishtirok etish va chuqurroq o'rganish tajribasiga yordam beradi.

Turli xil o'quvchilarga fe'lni o'rgatishda turli xil o'rganish uslublari va qobiliyatlarini qondirish uchun turli usullardan foydalanish muhimdir. Yondashuvlardan biri ko'rgazmali qurollar, amaliy mashg'ulotlar va o'quvchilarni turli afzalliklarga ega va kuchli tomonlarini jalb qilish uchun texnologiyani o'z ichiga olishi mumkin. Bundan tashqari, real hayotiy kontekstlarda mashq qilish va mustahkamlash imkoniyatlarini taqdim etish o'quvchilarga fe'l lug'atini samarali qo'llash va saqlashga yordam beradi. Fe'lni o'rgatish metodikasi turli darajadagi o'quvchilar uchun o'quv jarayonini iskala qilishni o'z ichiga oladi. Tarkibni boshqariladigan bo'laklarga bo'lish orqali o'qituvchilar o'quvchilarni o'zlashtirishga samarali yo'naltirishlari mumkin. Boshlang'ich bosqichda oddiy fe'l shakllari va asosiy konjugatsiyalarni interfaol mashg'ulotlar va ko'rgazmali qurollar orqali kiritish mumkin. O'quvchilar o'rta darajaga o'tgan sari murakkabroq fe'l zamonlari va ishlatilishini hayotiy misollar va kontekstga asoslangan mashqlar orqali o'rganish mumkin. Ilg'or o'quvchilar uchun asosiy e'tibor turli kontekstlarda fe'llardan foydalanishni takomillashtirishga va mazmunli o'zaro ta'sirlar orqali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan. O'qitish uslubini har bir talabaning malaka darajasiga moslashtirish orqali o'qituvchilar fe'lni har tomonlama tushunishga yordam beradi.

Fe'lni o'rgatishda fe'lga boy xona muhitini yaratish juda muhimdir. Bu talabalarni fe'llar dunyosiga singdirish uchun turli xil o'qitish usullari va resurslaridan foydalanishni o'z ichiga oladi. O'yinlar, rolli o'yinlar va amaliy mashqlar kabi mashg'ulotlar fe'llarni o'rganishni qiziqarli va interaktiv qilishi mumkin. Haqiqiy misollar va ssenariylarni o'z ichiga olish o'quvchilarga amaliy tarzda fe'llar bilan bog'lanishiga yordam beradi. Fe'llarga boy sinf muhitini yaratish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga

o'zlarini yanada samarali va ishonchli tarzda ifodalash, ularning til ko'nikmalarini va umumiy muloqot qobiliyatlarini oshirishlari mumkin. Fe'lni o'rgatish metodikasi o'quvchilarni til o'rganish yo'llarida fe'llarni tushunish va ulardan ijodiy foydalanish qobiliyatini oshirishga qaratilgan.

Interfaol mashg'ulotlar, hayotiy misollar va amaliy mashqlarni o'z ichiga olgan holda o'qituvchilar yanada qiziqarli va samarali ta'lim jarayonini osonlashtirishi mumkin. Talabalarni kontekstda fe'llardan faol foydalanishga undash, amaliyot va qo'llash imkoniyatlarini ta'minlash ularning til va muloqot qobiliyatlarini oshiradi.

Fe'l lug'atini o'rgatish metodikasi fe'l amaliyoti uchun hamkorlikda o'rganish imkoniyatlarini o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv o'quvchilarga material bilan faol shug'ullanish va tengdoshlari bilan muloqot qilish orqali o'rganish imkonini beradi.

Fe'l mashqlari va mashg'ulotlari ustida birgalikda ishlash orqali o'quvchilar fe'l qo'llanilishi va ma'nosi haqidagi tushunchalarini mustahkamlashlari mumkin. Hamkorlikdagi o'rganish, shuningdek, muloqot qobiliyatlarini rivojlantiradi va talabalar o'rtasida jamoaviy ishlashni rag'batlantiradi. Fe'lni o'rgatishda hamkorlikda o'rganish imkoniyatlarini kiritish o'quvchilarning fe'l bilimlarini saqlab qolish va qo'llashni kuchaytirishi mumkin. Bu talabalarni o'quv jarayonida faol ishtirok etishga undaydigan qo'llab-quvvatlovchi va interfaol o'quv muhitini yaratadi.

**Xulosa** qilib aytganda, til rivojlanishi uchun fe'lni o'rgatish metodikasi hal qiluvchi ahamiyatga ega. O'qitish amaliyoti haqida mulohaza yuritish qo'llanilgan strategiyalar samaradorligini baholashga va takomillashtirishga yordam beradi. Fe'lni o'rgatishda turli xil o'rganish uslublari mos keladigan turli xil va qiziqarli tadbirlarni ta'minlash juda muhimdir. Bunga o'yinlar, rol o'ynash mashqlari va real hayot ssenariylari kirishi mumkin. Fe'llarni rivojlantirish bo'yicha o'qitish amaliyoti haqida muntazam ravishda fikr yuritish orqali o'qituvchilar talabalarining fe'lni samarali tushunishlari va saqlab qolishlarini ta'minlash uchun o'z usullarini moslashtirishlari va takomillashtirishlari mumkin.

#### **Adabiyotlar**

1. Sharipova O., Yo'ldoshev I. Tilshunoslik asoslari. –Toshkent: Nizomiy nomidagi TDPU, 2006. 78-b.
2. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X., Yo'ldosheva Sh., Sariyev Sh. Ona tili o'qitish metodikasi. – T.: «Noshir», 2009, 267-b.
3. To'xliyev B., Shamsiyeva M., Ziyodova T. O'zbek tili o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. –Toshkent: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006.

**REZYUME.** Ushbu maqolada fe'l o'qitish metodikasining ahamiyati va ushbu sohani qay tarzda o'qitish haqida atroflicha to'xtalgan. Bundan tashqari fe'l o'qitish metodikasi bo'yicha amaliy misollar va mashqlarni interfaol usullardan foydalangan holda taqdim etish to'g'risida to'xtalib o'tilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В этой статье подробно обсуждается важность метода обучения глаголам и способы обучения этой области. Кроме того, речь шла о презентации практических примеров и упражнений по методике обучения глаголам с использованием интерактивных методов.

**SUMMARY.** In this article, the importance of the method of teaching verbs and how to teach this area is discussed in detail. In addition, it was discussed about the presentation of practical examples and exercises on the method of teaching verbs using interactive methods.

## UMUMIY FIZIKA KURSI BO'YICHA TALABLARDA TADQIQOTCHILIK KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH

**M.Bekmuratova** – *tayanch doktorant*

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti*

**Tayanch soʻzlar:** talaba, kompetensiya, tadqiqotchilik kompetensiya, ijod, faoliyat, fizika, masala yechish, bilim, koʻnikma, malaka.

**Ключевые слова:** студент, компетенция, исследовательская компетенция, творчество, деятельность, физика, решение задач, знание, умения, навыки.

**Key words:** student, competence, research competence, physics, problem solving, knowledge, abilities, skills.

**Kirish.** Iqtisodiyotimizning xomashyodan intellektual sohaga oʻtishi bilan bogʻliq ijtimoiy-iqtisodiy oʻzgarishlar ilgʻor texnologiyalarni rivojlantirish, innovatsion korxonalarini tashkil etish, fundamental va amaliy tadqiqotlarni rivojlantirish boʻyicha yangi ilmiy markazlarni shakllantirish zaruratini tugʻdirmoqda. Bu noyob ilmiy gʻoyalar, ixtirolar, kashfiyotlar, yangi intellektual texnologiyalar bozorini yaratishni taqozo etadi va taʼlim tizimiga ijobiy taʼsir qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Kompetensiyalar – bu hozirgi vaqtda insonning har xil sohada muvaffaqiyatli faoliyatining asosiy shartlaridan biridir. Soʻnggi oʻn yillikda ushbu muammoga qiziqish mamlakatimizda A.A.Axmedov, N.Muslimov, J.Usarov, Oʻ.Sultanova va boshqalarning tadqiqotlarida olib borilgan.

Taʼlim jarayoniga fizikadan kompetensiyaviy yondashuvni tatbiq etish orqali quyidagi vazifalarni amalga oshirish lozim:

- davlatimizning kelgusida jamiyat, fan, ishlab chiqarish va shaxsni mustaqil hayotdagi muammolarni hal etishga qodir yoshlarga boʻlgan ijtimoiy ehtiyojini qondirish maqsadida talabalarning oʻzlashtirgan bilim, koʻnikma va malakalarini yangi kutilmagan vaziyatlarda ijodiy qoʻllashga oʻrgatish;

- fizika taʼlim mazmunini muammoli oʻquv vaziyatlarini yaratish orqali oʻrganish asosida talabalarning fan asoslarini oʻrganishga boʻlgan ehtiyojlarini qondirish, qiziqishlarini rivojlantirish, shaxsiy sifatlarini tarkib toptirish;

- talabalarning oʻquv-bilish faoliyatini aniq fizik obʼektlarga qaratish va mavjud muammolarni hal etishga oʻrgatish orqali davlat taʼlim standarti bilan meʼyorlangan bilim, koʻnikma va malakalarni shakllantirish barobarida talabalar tomonidan ijodiy faoliyat tajribalarining egallanishiga erishish;

- talabalarni aniq amaliy faoliyatga tayyorgarligini oʻrtirish orqali kasbga, ijodiy faoliyat tajribalarini rivojlantirish natijasida fan yoʻnalishiga yoʻllash;

- fizikadan oʻzlashtirgan ilmiy-nazariy bilimlarini aniq muammoli vaziyatlarda amaliyotda qoʻllash orqali talabalarni mustaqil hayotga tayyorlash imkoniyati mavjud [3:69-70].

Soʻnggi paytlarda talabalarning ijodiy imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish uchun eng qulay imkoniyatlarni yaratish nuqtayi nazaridan ilmiy-tadqiqot faoliyatini koʻrib chiqishga imkon beradigan koʻplab tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Shunday qilib, talabalarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning muhim sharti sifatida uning ilmiy-tadqiqot kompetensiyasini oʻquv jarayoni doirasida rivojlantirish hisoblanadi. Yaʼni, A.I.Savenkov shaxsning intellektual va ijodiy salohiyati deb ataydigan elementlar; I.Ya.Lerner jamiyat uchun paydo boʻladigan yangi muammolarni hal qilish uchun ijodiy, izlanishlar tajribasi haqida

aytadi; O.L.Juk noanʼanaviy taʼlim va ijtimoiy vaziyatlarda faoliyatni mustaqil izlashni tashkil etish orqali “oʻstirish”ni taklif qiladi [1:12].

**Tahlil va natijalar.** Talabani ilmiy-tadqiqot kompetensiyalari fizikaviy usullardan foydalangan holda koʻp yoʻnalishli tadqiqot ishlarini olib borish qobiliyati va fizik tadqiqotlarni mustaqil ravishda olib borish uchun barqaror motivatsiyaning muvozanatli kombinatsiyasi boʻlgan maxsus shaxsiy xususiyat sifatida koʻrib chiqilishi kerak.

Ilmiy-tadqiqot faoliyati ijodiy shakl boʻlganligi sababli, talabalarning ilmiy-tadqiqot qobiliyatlarini rivojlantirish muammosi ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish muammosining tarkibiy qismidir [2:150].

Tadqiqotchilik kompetensiyalari odatda oliy taʼlimning yuqori kurslarida shakllanadi deb hisoblanadi. Shu bilan birga, ilmiy-tadqiqot kompetensiyalarini kichik kurslarda shakllantirish nafaqat mumkin, balki yanada chuqurroq, toʻliqlik va mustahkamlashga olib kelishi mumkin boʻlgan psixologik va pedagogik asoslar mavjud. Buni kichik kurslarda umumiy fizika boʻyicha nostandart masalalarni yechishning bir qismi sifatida kichik ilmiy tadqiqotlarni oʻz ichiga olgan holda amalga oshirish mumkin.

Masalalarni yechish jarayonida talabani kuchli irodaviy xususiyatlari mustahkamlanadi va rivojlanadi; oqilona va barqaror faoliyat uslubi shakllanadi; boshlangan ish uchun masʼuliyat va uni oxiriga etkazish zarurati tarbiyalanadi hamda hokazo [4:96].

Oliy taʼlim bitiruvchisining boʻlajak kasbiy faoliyat doirasi ancha keng boʻlib, bu uning turli sohalarida fizik tadqiqot usullarini qoʻllash qobiliyatini rivojlantirishni talab qiladi. Bu har xil mazmundagi va yoʻnalishdagi kichik ilmiy tadqiqotlardan samarali foydalanishni taqozo etadi.

Qoida tariqasida, eng yaxshi oʻqiydigan talabalar kichik ilmiy tadqiqotlarga jalb qilinadi. Bizning fikrimizcha, agar biz shaxsiy yoʻnaltirilgan taʼlimga tayansak, unda barcha talabalarni kichik tadqiqotlarga jalb qilish mumkin va tavsiya etiladi, bu esa rivojlantiruvchi taʼlim kontseptsiyasiga mos keladi [5:48].

Talaba turli xil obʼektlarga fizik tadqiqot usullarini samarali qoʻllay olishi kerakligidan kelib chiqqan holda, ijodiy topshiriqlar turli mavzu va yoʻnalishlar bilan boyitiladi:

- nostandart materiallardan foydalanish;
- kimyoviy, biologik yoki boshqa “fizik boʻlmagan” mazmunga ega materiallar;
- ilmiy eksperimental asbob-uskanalaridan foydalanish;
- axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish va boshqalar.

Ijodiy topshiriqlar murakkabligining birinchi darajasida oʻqituvchi muammoni aniqlab berish bilan cheklanadi, qolgan barcha ishlarni (tadqiqot muammolarini aniqlash, natijalarni tayyorlash, yechish, qayta ishlash) talaba mustaqil ravishda amalga oshiradi. Bunda oʻqituvchi

topshiriqning bajarilishini nazorat qiladi va jarayonga faqat oxirgi chora sifatida aralashadi. Ushbu murakkablik darajasida talabalar o'qituvchi tomonidan taqdim etilgan vazifalarni hal qilishning noyob usullarini topadilar.

Ikkinchi murakkablik darajasida muammo o'zgarmaydi, ammo mazmun o'qituvchi maslahatlari bilan to'ldiriladi: ular vazifani bajarish yo'llarini ko'rsatadi.

Agar talaba avvalgi topshiriqlarni bajarmagan bo'lsa, uchinchi darajadagi murakkablik taklif etiladi. Xuddi shu muammoni hal qilish bilan vazifalarni shakllantirish imkon qadar soddalashtiriladi, ammo unda ijodkorlik elementi saqlanib qoladi.

Agar ijodiy vazifani uchta murakkablik darajasida shakllantirish qiyin bo'lsa, unda qo'shimcha "Yordam kartalari" qo'llaniladi. "Yordam kartalari" oldindan o'qituvchi tomonidan tayyorlangan savol, diagramma, grafik, rasm, chizma, formula va boshqalarni o'z ichiga oladi. Bunday karta yechim izlash maydonini asta-sekin toraytiradi, lekin to'g'ridan-to'g'ri javob bermaydi.

"Yordam kartalari"ni ishlab chiqish quyidagi ketma-ketlikga muvofiq amalga oshiriladi:

- pedagogik-psixologik, didaktik va uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlash uchun o'qituvchi tomonidan fizikaga oid har xil vazifalarni tayyorlash va bajarish;

- uslubiy material tayyorlash;
- talabalarining ilmiy-tadqiqot qobiliyatlari, shaxsiy qiziqishlari va kasbiy yo'nalishini rivojlantirishning boshlang'ich darajasini tashhishtash;

- talabalarining ijodiy tadqiqot topshiriqlarini bajarishdagi muvaffaqiyatini va o'zaro suhbatini kuzatish, ularning maqsad sari intilishlarida mumkin bo'lgan to'siqlarni aniqlash;

- kichik ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda eng ko'p uchraydigan xatolarni tahlil qilish va tizimlashtirish;
- bilvosita maslahatlarni aniqlashtirish va sozlash.

**Xulosa.** Shunday qilib, fizik holatni aniqlash, uning yordamida fizik masalalarni tuzish, fizik ob'ektga qo'shimcha ta'sir qilish hisobiga yangi fizik vaziyatlarni yaratish, fizik masalalar tizimini tuzish, ularni hal qilish va tahlil qilish bo'yicha mustaqil qidiruv faoliyati ilmiy tadqiqotga mos keladigan nazariy tadqiqotni tashkil qiladi.

Talaba tomonidan o'quv va tadqiqot faoliyati jarayonida rivojlanishi kerak bo'lgan tadqiqot kompetensiyasi ostida, talabaning fizika sohasidagi samarali tadqiqot faoliyati uchun zarur bo'lgan, fizik muammoni aniqlash, uni hal qilish zarurligini anglash va uni hal qilish bo'yicha operatsiyalarni bajarish qobiliyatidan iborat bo'lgan, talabaning kasbiy tayyorgarligi uchun oldindan belgilangan ijtimoiy talablarni tushunish mumkin.

#### Adabiyotlar

1. Аёшин В.В. Подготовка будущего учителя физики к деятельности по формированию исследовательских способностей учащихся. // Вестник КГПУ им. В.П.Астафьева. 2011. №3. –С. 9-16.
2. Жук О.Л. Педагогическая подготовка студентов: компетентностный подход. –Минск: РИВШ, 2009. –С.336.
3. Karlibaeva G.E. Bo'lajak fizika o'qituvchilarining metodik tayyorgarligini takomillashtirish. // «Ilm hám jámiyet», – Nókis: №1. 2018, 69-70-b.
4. Савенков А.И. Педагогическая психология. В. 2., Т. 2. –М.: Изд. Центр «Академия», 2009. –С. 240.
5. Шашенков Е.А. Исследовательская деятельность в условиях многоуровневого обучения: Монография. – Москва: АПК и ППРО, 2005. –С. 132.

**REZYUME.** Maqolada kichik tadqiqotlarni amalga oshirgan holda umumiy fizikadan nostandart masalalarni yechish asosida tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi muhokama qilinadi. Shuningdek, "Umumiy fizika" kursidan talabalarining aqliy va amaliy harakatlarining umumiylikidan kelib chiqib, tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirishning uch darajasi haqida ma'lumotlar berilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье рассматривается методика формирования исследовательской компетенции на основе решений нестандартных задач по общей физике путем включения в него миниисследований. Выделяются три уровня развития исследовательской компетенции на основе обобщенности умственных и практических действий студентов по курсу общей физики.

**SUMMARY.** The article discusses the methodology for developing research competence based on solving non-standard problems in general physics by including mini-research. Three levels of development of research competence are identified based on the generality of students' mental and practical actions in the course of general physics.

#### BOSHLANG'ICH TA'LIMDA "4K" MODELIGA ASOSIDA DARS TASHKIL ETISH USULLARI

**H.Boltayeva - tadqiqotchi**

*Samarqand davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** kreativlik, tanqidiylik, hamkorlik, muloqot.

**Ключевые слова:** креативность, критическое мышление, сотрудничество, коммуникация.


**Key words:** creativity, critic thinking, collaboration, communication.

"4K" modeli ta'limda zamonaviy yondashuvlardan biri hisoblanadi va bu model quyidagi to'rt asosiy komponentdan iborat: kreativlik (creativity), tanqidiylik (critical thinking), hamkorlik (collaboration) va muloqot (communication). Ushbu model ta'lim jarayonini yanada samarali va interaktiv qilishga qaratilgan bo'lib, o'quvchilarning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Kreativlik, bu to'rtlikning bir qismi sifatida, ta'lim jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi.

Kreativlik – bu yangilik yaratish, mavjud g'oyalar, usullar yoki materiallarni yangicha tarzda qo'llash qobiliyatidir. Ta'limda kreativlikdan foydalanish o'quvchilarni an'anaviy yondashuvlardan chetga chiqib, o'zlarining bilim va tajribalarini yangi va noyob usullarda qo'llashga undaydi. Bu jarayon o'quvchilarning mustaqil muammolarni hal etish qobiliyatini oshiradi hamda ularni yangi g'oyalarni izlash va sinab ko'rishga rag'batlantiradi.

1. Loyihaga asoslangan o'qitish usuli (Project-Based Learning, PBL) – bu o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, ijodiy qobiliyatlarini va guruhda hamkorlik qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan ta'lim strategiyasidir. Ushbu metod ta'lim jarayoniga chuqurroq kirishishni va nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashni ta'minlaydi. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida loyihaga asoslangan o'qitishni qo'llash, o'quvchilarning o'qish ko'nikmalarini mustahkamlaydi va ularning matn tushunchalarini chuqurlashtiradi.

Loyihaga asoslangan o'qitishning foydali tomonlari



Xulosa qilib aytganda, loyihaga asoslangan o'qitish usuli o'qish savodxonligi darslarini yanada samarali va o'quvchilarni qiziqitiradigan qiladi. Bu usul o'quvchilarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash va ularni mustaqil ravishda chuqurroq o'rganish imkonini beradi, bu esa o'z navbatida ularning umumiy o'qish ko'nikmalarini yaxshilashga xizmat qiladi.

2. Muammoli vaziyatlar yaratish usuli – bu o'quvchilarni murakkab vaziyatlarni hal qilish orqali o'qish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvdir. Boshlang'ich sinf o'qish savodxonligi darslarida bu usulni qo'llash, o'quvchilarni faol o'rganuvchilarga aylantirishga va ularning mustaqil fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirishga yordam beradi.

Bu usul, o'qish savodxonligi darslarida o'quvchilarni faol va mustaqil o'rganuvchilarga aylantirishga xizmat qiladi. Bu usul, o'quvchilarni matnni chuqur tahlil qilishga, turli yechimlarni izlab topishga va ularni samarali taqdim etishga o'rgatadi. Bu yondashuv ta'lim jarayonini yanada interaktiv va samarali qiladi.

3. San'at va ijodkorlikni integratsiya qilish, o'quvchilarning matnlarni chuqurroq tushunishlariga va ularning ifodali o'qish hamda yozish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu usul o'quvchilarni darsga faol jalb qilish, ularning ijodiy qobiliyatlarini oshirish va o'qish materiallarini turli shakllarda ifodalash imkonini beradi.

San'at va ijodkorlikni o'qish savodxonligi darslariga integratsiya qilish, o'quvchilarga matnlarni turli shakllarda ifoda etish imkonini beradi va ularning umumiy o'qish ko'nikmalarini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv, o'quvchilarni dars jarayoniga faol jalb qilishga va ularning ijodiy salohiyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Kreativlikni baholash an'anaviy imtihon yoki testlar orqali emas, balki o'quvchilarning loyihalari, yaratgan mahsulotlari va jarayondagi faolligi orqali amalga oshiriladi. Bu o'quvchilarning o'z g'oyalari va yechimlarini qanday rivojlantirayotganini ko'rish imkonini beradi va

ularning ijodiy qobiliyatlarini yanada oshirish uchun rag'batlantiradi.

Kritik fikrlash o'quvchilarni faqatgina bilim olishga emas, balki olgan bilimlarini chuqurroq tushunish va amaliyotda qo'llashga undaydi. Bu ko'nikma o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, turli manbalardan olingan ma'lumotlarni baholashga va o'z pozitsiyalarini asosli himoya qilishga tayyorlaydi.

Kritik fikrlashni o'rgatishning asosiy usullari quyidagilar:

1. Savol berishga o'rgatish.
2. Bahs-munozarlar.
3. Holatni o'rganish.
4. Tanqidiy fikrlash.

Savol berish usuli ta'lim jarayonida muhim o'rin tutadi, chunki bu usul o'quvchilarning mustaqil fikrlashini, mazmunni chuqurroq tushunishini va mavzuni kengroq qamrab olishini ta'minlaydi. O'qish savodxonligi darslarida savol berish usulidan foydalanish, o'quvchilarni matnni tanqidiylik bilan tahlil qilishga, mavhum g'oyalar ustida o'ylashga va o'z bilimlarini kengaytirishga undaydi.

Savol berish orqali o'qituvchi o'quvchilarni faol o'rganish jarayoniga jalb etadi, ularning qiziqishini oshiradi va dars mavzusiga oid bilimlarini mustahkamlashga yordam beradi. Bu usul o'quvchilarga o'z bilimlarini sinovdan o'tkazish, yangi tushunchalarni o'zlashtirish va mavjud bilimlarni yangi vaziyatlarga tatbiq etish imkonini beradi.

Bahs-munozara usuli - dars jarayonida o'quvchilarni guruhlariga bo'lib, turli mavzularda munozaralar uyushtirish orqali o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari va boshqalarni tinglashga o'rganishlariga yordam beradi.

Holatni o'rganish (Case study) – aniq holatni tahlil qilish orqali o'quvchilarni murakkab muammolarni hal qilishga o'rgatishdir. Bu usulda o'quvchilar real hayotiy yoki tasavvuriy vaziyatlarni tahlil qilib, o'z xulosalarini chiqarishadi.

Tanqidiy tahlil qilish usuli o'qish savodxonligi darslarida muhim ahamiyatga ega, chunki bu usul o'quvchilarni matnning mohiyatini chuqurroq tushunishga, undagi asosiy g'oyalar, argumentlar va fikrlar orasidagi aloqalarni aniqlashga undaydi. Tanqidiy tahlil, shuningdek, o'quvchilarning matn bo'yicha o'z fikrlarini mustaqil ravishda ifoda etish qobiliyatlarini rivojlantiradi va ularni har xil manbalardan olingan ma'lumotlarni solishtirib, ularning ishonchiligi haqida xulosa chiqarishga o'rgatadi.

Kritik fikrlashni "4K" modeli doirasida o'rgatish, o'quvchilarning bilimlarni chuqurroq tushunishlarini va muammolarni samarali hal etishlarini ta'minlaydi. Bu ko'nikmalar o'quvchilarning kelajakdagi ta'lim va kasbiy faoliyatlarida muhim rol o'ynaydi, chunki bu ularni doimiy ravishda o'zlarini va atrofdagi dunyoni tanqidiylik bilan baholashga undaydi.

Kommunikativlik, o'quvchilarni turli muloqot shakllarida samarali ishtirok etishga tayyorlaydi. Bu ko'nikma ularning fikr-mulohazalarini aniq va tushunarli tarzda ifoda etish, tinglash va boshqalarning fikrlarini hurmat qilish qobiliyatlarini oshiradi. Kommunikativlik, shuningdek, o'quvchilarni kelajakdagi kasbiy va shaxsiy hayotlarida muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni shakllantiradi.

Kommunikativlikni "4K" modeli doirasida samarali o'rgatish, o'quvchilarning muloqot qilish qobiliyatlarini

kengaytiradi va ularni turli ijtimoiy va kasbiy vaziyatlarda muvaffaqiyatli ishtirok etishga tayyorlaydi. Bu ko'nikmalar o'quvchilarga nafaqat ta'lim, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatlari davomida ham katta yordam beradi.

Jamoaviylik, o'quvchilarga bir-birlari bilan muloqot qilish, birgalikda qarorlar qabul qilish va umumiy maqsadlarga erishish yo'lida hamkorlik qilishni o'rgatadi. Bu ko'nikma, shuningdek, ularning shaxsiy va kasbiy hayotida muvaffaqiyatli ishtirok etish uchun zarur bo'lgan jamoaviy ishlash qobiliyatlarini shakllantiradi.

Jamoaviylikni "4K" modeli doirasida samarali o'rgatish, o'quvchilarning birgalikda ishlash, muloqot qilish va muammolarni hal qilish qobiliyatlarini kengaytiradi. Bu

ko'nikmalar o'quvchilarga nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida ham muhim rol o'ynaydi. Jamoaviylik, shuningdek, ularning ijtimoiy munosabatlarini yaxshilashga va kelajakda jamoa a'zosi sifatida samarali ishtirok etishga tayyorlaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, "4K" modelining kreativlik, kiritik fikrlash, kommunikativlik va jamoaviylik ko'nikmalarining har birining o'quv jarayonidagi roli juda ham ahamiyatli. Ta'lim sifati yuqori darajada oshadi va o'quvchilar zamonaviy jamiyat talablariga javob beradigan shaxslar sifatida shakllanadi. Ushbu ko'nikmalar asosida o'tilgan darslar o'quvchilarning umumiy ta'lim muvaffaqiyatini yaxshilashga yordam beradi va ularni jamiyatning faol a'zolari bo'lishga tayyorlaydi.

#### Adabiyotlar

1. Yuldashev K. Ta'lim jarayonida innovatsion metodlar. – Toshkent: «O'qituvchi» 2018.
2. O'rinboyeva M. Boshlang'ich ta'limda kreativ fikrlashni rivojlantirish. – Toshkent: «Fan va texnologiya», 2020.
3. Yusupov G'. Boshlang'ich sinflarda savodxonlikni oshirish metodikasi. – Toshkent: «Turon-Iqbol», - 2019.
4. Tursunova L. Boshlang'ich ta'limda kommunikativ kompetentsiyani shakllantirish. – Toshkent: «Sharq», 2021.
5. Sa'dullayev M. 21-asr ko'nikmalarini shakllantirishda integratsiyalashgan yondashuvlar. – Toshkent: «Yangi asr avlodi», 2020.

**REZYUME.** Ushbu maqolada "4K" modelining ta'lim jarayonida o'quvchilarning umumiy ta'lim muvaffaqiyatini yaxshilashi va darsning samaradorligini oshirish usullari yoritilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье обсуждается, как модель «4К» может улучшить общую успеваемость учащихся и повысить эффективность уроков в образовательном процессе.

**SUMMARY.** This article discusses how the "4K" model can improve students' overall academic success and increase lesson efficiency in the educational process.

#### BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFATLARINI BAHOLASH TARTIBI

**O.M.Erkaboyev** – *pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

*Farg'ona davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** jismoniy faollik, jismoniy tayyorgarlik, gipodinamiya, pedagogik monitoring, boshlang'ich sinf o'quvchilari, jismoniy tarbiya dasturlari, JSST standartlari.

**Ключевые слова:** физическая активность, физическая подготовка, гиподинамия, педагогический мониторинг, ученики начальных классов, программы физического воспитания, стандарты ВОЗ.

**Key words:** physical activity, physical fitness, hypodynamia, pedagogical monitoring, primary school students, physical education programs, WHO standards.

**Kirish.** So'nggi yillarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy faolligi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Olib borilgan tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarning jismoniy sifatleri, xususan, kuch qobiliyati choraklar davomida ijobiy o'sish tendensiyasiga ega bo'lsa-da, 1–2-sinf o'quvchilarining pedagogik tajriba jarayonida dastlabki natijalarga erisha olmasligi jismoniy tarbiya tizimida muayyan kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi.

Maktablarda tashkil etilgan majburiy jismoniy tarbiya darslari gipodinamiya xavfini bartaraf etishda yetarlicha samarador emasligi aniqlangan. Bundan tashqari, maktabdan tashqari sport mashg'ulotlari bilan shug'ullanish yoki ommaviy sport seksiyalarida muntazam qatnashish imkoniyatlarining cheklanganligi ham jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) standartlariga muvofiq ajratilgan jismoniy faollik vaqti o'quvchilarning funksional tayyorgarligini kompleks rivojlantirish uchun yetarli emasligi kuzatilmoqda [1].

Ushbu muammolarni bartaraf etish va boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy faolligini oshirish maqsadida.

**Dolzarbligi.** Zamonaviy ta'lim tizimida jismoniy tarbiyaning ahamiyati ortib bormoqda. Bolalarning jismoniy faolligi ularning sog'lom rivojlanishi, harakatchanligi va kognitiv qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol

o'ynaydi. Biroq, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy faolligi va tayyorgarlik darajasini baholash bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, maktablarda jismoniy tarbiya darslari yetarli samara bermayapti. Bu muammo, ayniqsa, gipodinamiya (harakatsizlik) omilining kuchayishi va bolalarning jismoniy rivojlanishidagi kechikishlar bilan bog'liq [2,3,4].

Mahalliy va xorijiy ilmiy manbalarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, maktab ta'limi tizimidagi uzluksizlik muammosi uning samarali faoliyat yuritishiga ta'sir qiluvchi muhim omil hisoblanadi. Uzluksiz ta'limning pedagogik tizimi ierarxik uzluksizlikni, maqsadli pedagogik munosabatlarning yaxlitligini, mazmuniy integratsiya aloqalarini va ularni amalga oshirishga kompleks yondashuvni o'z ichiga oladi. Bu esa ta'lim jarayonining izchilligini ta'minlashga xizmat qiladi. Biroq, pedagogik jarayonda uzluksizlikni amalga oshirish jarayonida qator qiyinchiliklar kuzatiladi. Uzluksiz ta'lim tizimi barcha darajalarni o'z ichiga olishi, umumiy va xususiy pedagogik maqsadlarga muvofiq o'zini o'zi ta'minlashi hamda yaxlitlik tamoyiliga asoslanishi zarur. Shuningdek, pedagogik jarayonda uzluksizlik talabini ta'minlash, uzviylikning muhim tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilishi lozim [5].

Mamlakatimiz va xorijlik tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar davlatimiz tomonidan maktab jismoniy tarbiyasiga alohida e'tibor qaratilayotganini tasdiqlaydi. Mustaqillik yillarida kichik yoshdagi bolalar bilan bog'liq eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, jismoniy tarbiya o'qituvchilari yosh organizmning sezgirlik davrini yetarlicha inobatga olmaydilar. Natijada, o'quvchilarning motor qobiliyatlari rivojlanishida geteroxronlik yuzaga keladi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mustaqillik yillarida umumta'lim maktablari o'quvchilarining jismoniy holatini aniqlash maqsadida keng qamrovli tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagan. Davlat tomonidan yosh avlod kamoloti uchun belgilangan ustuvor vazifalar maktab ta'lim jarayonining mazmunini tubdan qayta ko'rib chiqish zaruratini keltirib chiqarmoqda [6].

Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) tomonidan jismoniy harakatsizlik yosh avlod salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi muhim ijtimoiy omil sifatida e'tirof etilgan. Jismoniy tayyorgarlikning pedagogik monitoringi natijalari shuni ko'rsatdiki, yosh o'quvchilarning 17 foizida harakatsizlik mavjud bo'lib, bu kelajakda salomatlikka ta'sir qilishi mumkin. Maktab ta'limi tizimidagi bolalar uchun dastlabki jismoniy imkoniyatlarni aniqlash bo'yicha ilmiy asoslangan tadqiqotlar yetarlicha olib borilmagani sababli, pedagogik ta'sirning natijalarini baholash va rivojlanish strategiyasini shakllantirish qiyinlashadi. Shu boisdan, umumta'lim maktablarida jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik nazoratni samarali olib borishi, innovatsion yondashuvlarni qo'llashi va ularni ilmiy asosda tahlil qilishi talab etiladi. Bu esa ta'lim jarayonida kompleks yondashuvni shakllantirishga imkon yaratadi [7].

Maktab jismoniy tarbiya dasturining uzluksizligini baholash maqsadida boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarlik darajasi o'rganildi. O'tkazilgan sotsiologik tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tajribada ishtirok etgan 24 nafar jismoniy tarbiya o'qituvchisining asosiy qismi oliy pedagogik ma'lumotga ega. Ish tajribasi

bo'yicha quyidagi taqsimot aniqlandi: 5 yilgacha — 37,4%, 6 yildan 10 yilgacha — 36,7%, 11 yildan 14 yilgacha — 15,3%, 16 yildan 20 yilgacha — 7,8%, 20 yildan ortiq — 2,8%.

Jismoniy tarbiya jarayonining samaradorligi maktablarning moddiy-texnik bazasi bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot natijalariga ko'ra, maktablarning 57,4 foizida shart-sharoitlar qoniqarli, 20 foizida yaxshi, 3,4 foizida esa talab darajasiga javob beradi. Shu bilan birga, 17,8 foiz maktablarda jismoniy tarbiya mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun yetarli shart-sharoit mavjud emas. Tadqiqot natijalari Farg'ona viloyatidagi maktablarning 28,7 foizida sport anjomlari to'liq mavjudligini, qolgan maktablarda esa faqat ayrim elementlar bilan cheklanganligini ko'rsatdi. Bu esa boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya va sog'lomlashtirish mashg'ulotlarini samarali tashkil etish imkoniyatlarini cheklaydi [8].

Jismoniy tarbiya bo'yicha nazorat testlari natijalarining matematik-statistik tahlili ushbu jarayonning ilmiy asoslanganligini ta'minlaydi. O'quvchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasini baholash uchun "Salomatlik" jismoniy tarbiya dasturidan testlar tanlab olindi va pedagogik nazorat yil davomida bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Pedagogik tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy qobiliyatlari dinamikasi tizimli monitoring va nazoratga muhtoj. Ushbu tadqiqot davomida chorak yakunlari bo'yicha natijalar qayd etildi va tajriba natijalari matematik-statistik usullar yordamida qayta ishlanib, 1-jadvalda keltirildi.

Umuman olganda, boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy rivojlanishini samarali boshqarish va ularning harakat faolligini oshirish uchun ta'lim jarayoniga innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur. Maktab jismoniy tarbiyasini modernizatsiya qilish orqali o'quvchilarning individual xususiyatlariga moslashtirilgan pedagogik metodlarni ishlab chiqish hamda ularning harakat qobiliyatlarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimni yaratish lozim.

1-jadval. Yillik ta'lim siklida chorak bo'yicha kichik maktab o'quvchilarining motorlilik ko'rsatkichlari dinamikasi

| № | Test                                                         | CHORAKLAR |          |           |          |     |           |          |      |           |          |      |
|---|--------------------------------------------------------------|-----------|----------|-----------|----------|-----|-----------|----------|------|-----------|----------|------|
|   |                                                              | I         |          | II        |          | %   | III       |          | %    | IV        |          | %    |
|   |                                                              | $\bar{X}$ | $\sigma$ | $\bar{X}$ | $\sigma$ |     | $\bar{X}$ | $\sigma$ |      | $\bar{X}$ | $\sigma$ |      |
| 1 | 30 ms yugurish                                               | 6,6       | 0,6      | 6,5       | 0,4      | 1,6 | 6,4       | 0,2      | 3,1  | 6,3       | 0,3      | 4,6  |
| 2 | Moksimon yugurish 3x10 m.s                                   | 9,9       | 1,3      | 9,8       | 1,4      | 1,1 | 9,6       | 1,8      | 3,1  | 9,4       | 1,8      | 5,1  |
| 3 | uzoqqa sakrash s/m. sm                                       | 105,1     | 16,7     | 107,4     | 16,3     | 2,2 | 118,2     | 16,6     | 2,7  | 120,8     | 16,1     | 5,2  |
| 4 | Osilgan tortmalar m.                                         | 11,7      | 2,3      | 12,3      | 2,2      | 4,9 | 13,8      | 1,9      | 15,3 | 15,2      | 3,2      | 22,1 |
| 5 | Tennis to'pini uloqtirish, m.                                | 14,1      | 4,0      | 14,7      | 4,2      | 4,1 | 15,9      | 4,3      | 11,4 | 16,8      | 6,1      | 16,1 |
| 6 | Yotgan holatda qo'llarning egilishi va kengayishi, bir marta | 6,9       | 1,9      | 7,1       | 1,6      | 2,9 | 8,4       | 1,4      | 17,9 | 8,5       | 1,9      | 18,9 |

Tajriba boshlanishidan oldin pedagogik tadqiqotlarning dastlabki ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, 1-2 sinflarda 30 m masofada o'qiyotgan o'g'il bolalarning tezlik qobiliyati o'rtacha  $6,6 \pm 0,6$  sek. Ikkinchi chorak oxirida takroriy tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, ko'rsatkich 1,6% farq bilan  $6,5 \pm 0,4$  sekgacha ishonchsiz o'sgan. Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarining boshlang'ich bosqichida bolalarning muvofiqlashtirish qobiliyati eng muhim omil sifatida 3 x 10 m masofaga yugurish testi bo'yicha baholanadi. bolalarda o'rtacha  $9,9 \pm 1,3$  soniya

ichida o'zgarib turadigan natija borligi aniqlandi va etti haftadan so'ng bu sifatni qayta sinovdan o'tkazganda, o'sish natijasi 1,1% farq bilan  $9,8 \pm 1,4$  soniyani tashkil etdi. Jismoniy tarbiya va bolalar sporti sohasidagi yetakchi milliy mutaxassislar T.S.Usmonxo'jayevning fikricha, bolalarning tezlik-kuch sifatleri va F.A.Kerimov esa, ushbu vosita testi bolalarning harakat jismoniy rivojlanishining nozik yosh bosqichida muhim komponent ekanligini ko'rsatadi va ushbu komponentga alohida e'tibor berish tavsiya etiladi.

Turgandan turib uzunlikka sakrash testi ko'rsatkichlari bo'yicha baholangan bolalarning tezlik-kuch qobiliyatini tekshirish natijalariga ko'ra, o'rtacha natija  $105,1 \pm 16,7$  sm ni tashkil etdi, natijada biroz o'sish 2,2% ni tashkil etdi, o'rtacha qiymat ko'rsatkich  $107,4 \pm 16,3$  smga teng Shuni ta'kidlash kerakki, professor A.A.Guzhalovskiy boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarning harakat qobiliyatini o'rganishga asosanib, ularning hayotidagi sezgir yosh bosqichi egiluvchanlikning kuchayishi davri ekanligini ta'kidladi, bu davrda tuzilishi va funksiyalari

o'zgaradi hamda tananing o'ziga xos tashqi sharoitlarga mos ravishda o'zgarish qobiliyatini namoyish etadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy tarbiya tizimida takomillashtirishga muhtoj jihatlar mavjudligini ko'rsatdi. Xususan, kuch qobiliyatlarining ijobiy dinamikasiga qaramay, umumiy jismoniy tayyorgarlikning ayrim ko'rsatkichlari orqada qolmoqda. Bu esa bolalarning sog'lom turmush tarzini ta'minlash, ularning jismoniy va psixologik salomatligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 3-noyabrda «Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-414-son Qarori.
2. Erkaboyev O. Experimental substantiation of integration means of physical culture and pre-prescription military education in the preparation of pre-prescription youth for service in the. *Jurnal of exercise physiology*. 2022;7,718. AQSh <https://doi.org/10.5281/zenodo.7457907> New York
3. Erkaboyev O. Jismoniy tarbiya va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik vositalarini integratsiyasini yuqori sinf o'quvchilarini harbiy xizmat qilishga tayyorlash natijalariga ta'siri. // «Mu'allim hám úzliksiz bilimlendiriw» 2022.4.1. 4-tom, Qoraqolpog'iston. 149-154-b.
4. Erkaboyev O. X va XI sinf o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligini chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik – 2021 testlari bilan qiyosiy baholash. // *Scienceproblems.uz* № 3 (3). 2023. 264-268-b.
5. Erkaboyev O. Yuqori sinf o'quvchilarini armiya safida xizmat qilishga tayyorlash metodikasini tajribada asoslash. *International scientific and practical conference*. –Toshkent: 2023. 95-110-b.
6. Эрнazarов F.H. Турли экологик шароитда яшаётган ўқувчилар организмидаги аэроб имконияти билан ишқобилятидаги негативликлар. // *Xalqaro konferensiya va jurnallarni sifatli indexlash xizmati*, 1(1), 156-160. 2024.
7. Ernazarov G.N. Physical qualities of students learn. // *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11(12), 150-159. 2022.
8. Ernazarov G.N. Various ecological in the circumstances living school of archers physical ability to work and hemodynamic parameters. // *International journal of social science & interdisciplinary research* ISSN: 2277-3630 Impact factor: 8.036, 11(12), 1-8. 2022.

**РЕЗЮМЕ.** Maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy faolligi va ularning jismoniy tayyorgarlik darajasi choraklar bo'yicha baholandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, 1-2-sinf o'quvchilari dastlabki natijalarga erisha olmagani va jismoniy tarbiya dasturlarining maktab sharoitida yetarli samara bermaganligi aniqlandi. Maktablarda o'tkaziladigan majburiy jismoniy tarbiya darslari gipodinamiya (harakatsizlik) omilini bartaraf etish uchun yetarli emas, shuningdek, maktabdan tashqarida sport mashg'ulotlarini tashkil etish qiyinligi qayd etildi. Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti (JSST) tomonidan belgilangan jismoniy faollik standartlariga muvofiq, mamlakatimizda jismoniy tarbiya soati hajmi yetarli emasligi aniqlangan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье оценивалась физическая активность учащихся начальных классов и уровень их физической подготовленности по четвертям. Результаты исследования показали, что учащиеся 1-2 классов не смогли достичь предварительных результатов, а программы физического воспитания не дали достаточной эффективности в школьных условиях. Было отмечено, что обязательных уроков физической культуры, проводимых в школах, недостаточно для устранения фактора гиподинамии, а также сложности организации спортивных занятий вне школы. В соответствии со стандартами физической активности, установленными Всемирной организацией здравоохранения (ВОЗ), объем часов физической культуры в нашей стране недостаточен.

**SUMMARY.** The article assessed the physical activity of primary school students and their level of physical fitness by quarters. The research results showed that students in grades 1-2 did not achieve initial results, and physical education programs were not sufficiently effective in school conditions. It was noted that the mandatory physical education classes held in schools are insufficient to eliminate the factor of hypodynamia (inaction), and it is also difficult to organize sports activities outside of school. According to the standards of physical activity established by the World Health Organization (WHO), the volume of physical education hours in our country is insufficient.

## OLIIY TA'LIM MUASSASASIDA MUMTOZ RAQS HARAKATLARI ORQALI TALABALARNI KOORDINATSION QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

**I.S.Xaytmetov** – *katta o'qituvchi*

*O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti*

**Tayanch so'zlar:** xoreografiya, mumtoz raqs, jismoniy tayyorgarlik, texnik tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, amaliy gimnastika mashqlari, koordinatsion qobiliyatlar, kuch, chidamlilik, asosiy gimnastika vositalari, amaliy ko'nikma, nazariy bilimlar.

**Ключевые слова:** хореография, классический танец, физическая подготовка, техническая подготовка, специальная физическая подготовка, упражнения прикладной гимнастики, координационная способность, силовой, выносливости, основные гимнастические средства, практические навыки, теоретические знания.

**Key words:** choreography, classical dance, physical training, technical training, special physical training, applied gymnastics exercises, coordination ability, strength, endurance, basic gymnastic means, practical skills, theoretical knowledge.

**Tadqiqotning dolzarbligi.** Jamiyatning yuqori dinamikasi oliy ta'lim muassasalari talabalarining bo'lajak kasbiy faoliyatga jismoniy va funksional tayyorgarligiga bir necha talablarni qo'yiladi, ular orasida jismoniy rivojlanish va jismoniy tayyorgarlikning tegishli darajasi bilan bog'liq bo'lgan salomatlik ko'rsatkichlari yetakchi o'rinni egallaydi. Butun ta'lim tizimini modernizatsiyalashning hozirgi bosqichida talabalar ta'lim-tarbiya jarayonining shunday shart-sharoitlarini yaratish zarurligi shubhasiz haqiqatdir. Bu esa talaba-yoshlarning barcha kasbiy tayyorgarligining asosi sifatida ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish, intellektual, axloqiy-irodaviy, estetik, eng muhimi, jismoniy imkoniyatlarini uyg'un rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni taqozo etadi [1].

Talabalarining jismoniy tarbiyasi ularning harakat faoliyatining sifat jihatlarini, shu jumladan mushak kuchi, tezlik, chidamlilik, shuningdek, kasbiy faoliyatga tayyorlash asoslari sifatida asosiy harakat koordinatsiyalari: aniqlik, harakatchanlik, muvozanat, egiluvchanlik va boshqa sifatlarni rivojlantirish darajasini oshirish uchun keng imkoniyatlarga ega.

O'rganilayotgan masalalarning dolzarbligi, shuningdek, jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida jismoniy tayyorgarlikni oshirish omillaridan biri sifatida oliy ta'lim muassasalari talabalarining koordinatsion qobiliyatlarini shakllantirish muammosi bilan bog'liq bo'lib, kasbiy va harakat vaziyatlariga yo'naltirishni o'z ichiga oladi [2].

**Tadqiqotning maqsadi:** Jismoniy tarbiya darslarida talabalarining koordinatsion qobiliyatlarini xoreografik mumtoz raqs elementlari orqali rivojlanishini asoslashdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:** Mumtoz raqs vositalarini qo'llash asosida jismoniy tarbiya darslarida talabalarining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish uslubini ishlab chiqish.

Mumtoz raqs vositalarini qo'llash asosida jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida talabalarining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini amalga oshirish samaradorligini tajriba-sinovdan o'tkazish

**Tadqiqotning natijalari:** Pedagogik nuqtayi nazardan, jismoniy tayyorgarlik darajasini oshirishning zamonaviy metodikasi asosida shug'ullanuvchilarning harakat faoliyatini har tomonlama takomillashtirishga, ayniqsa, koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishga qaratilgan faol trening jarayoni yotadi. Jismoniy tarbiya nazariyasi, metodikasi va amaliyotida bunday tayyorgarlik pedagog-

trener uning modelini juda taxminiy tarzda taqdim etadi. Bir tomondan, tarqoq materialning ko'pligi, ikkinchi tomondan, uning talabchanligi va amaliyotda foydalanish uchun tizimlashtirilmaganligi tufayli qarama-qarshiliklar yuzaga keladi. Talabalarni jismoniy mashqlarga o'rgatish turli xil raqs harakatlarini tuzishning o'ziga xos jarayoni bo'lib, undan maqsad, talabalarni koordinatsion qobiliyatini shakllantiriladigan ko'nikma va malakalardir. Ko'nikma va malakalarni muvaffaqiyatli egallashning eng muhim pedagogik prinsipi sifatida qo'llaniladigan harakat topshiriqlari ajratiladi.

Talabalarining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishida amaliy tajriba shuni ko'rsatadiki, koordinatsiyani rivojlantirish uchun ularning holati va dinamikasining aniq modeliga ega samarali xoreografik mashqlar mavjudligi. Professional xoreografiyada mumtoz raqs texnikasi qo'l, oyoq, bosh, gavda harakatlarini sagittal (oldinga, orqaga), frontal (chapga, o'ngga), gorizontal (yuqoriga, pastga) tekisliklarda butun gavdani to'g'ri gavdalandirishda qat'iy va aniq bajarishda koordinatsion va jismoniy sifatlarning darajasi bilan sezilarli darajada bog'liq. Shu bilan birga, ularning rivojlanishi haqiqatan ham ko'p qirrali bo'lishi kerak, chunki xoreografik raqs harakatlar ko'rsatilgan barcha tekisliklarda aniq ifodalangan bo'yintana reflekslari bilan amalga oshiriladi.

Inson harakatlarini bajarishning maxsus xoreografik majmuasida mumtoz raqs elementlarining arsenalini va ularning koordinatsion to'plami mavjud bo'lib, ular qisqa vaqt ichida rivojlantiradi.

Tadqiqotni tajriba-sinov natijalarining tahlili oliy ta'lim muassasasi talabalarining jismoniy tarbiyasi tuzilmasiga zarur harakat sifatlari rivojlantiruvchi xoreografik raqs mashqlarining shaxsiy-pedagogik usuli va maxsus vositalari majmuasini kiritish yuqori samaradorligini tasdiqladi, ular orasida koordinatsion qobiliyatlar parametrlari - chaqqonlik, tezkorlik va harakatlarning mutanosibligi birinchi o'rinlardan birini egallaydi.

Tajriba guruhi talabalari bilan o'tkazilgan mashg'ulotlarda, shuningdek, murakkab vaziyatlarda harakatlarni boshqarishning ijobiy natijasini beradigan va murakkab koordinatsion mashqlarni o'rgatish samaradorligini sezilarli darajada oshiradigan, ko'rish nazoratsiz bajariladigan mashqlar qo'llanildi.

Xuddi shunday o'zgarishlar tajriba guruhida sensor va sensomotor funksiyalar, tezlik va tezlik-kuch sifatlari ko'rsatkichlari bo'yicha ham qayd etildi.

**Jadval 1. Talabalarining koordinatsion qobiliyatlari ko'rsatkichlari**

| № | Ko'rsat-kichlar       | TG<br>(p — 50 nafar.)                |                                     |                    |        | NG<br>(p — 50 nafar.)                |                                      |                    |       | Farqi<br>TG va NG<br>o'rtasidagi yaku-<br>niy natijalar |        |
|---|-----------------------|--------------------------------------|-------------------------------------|--------------------|--------|--------------------------------------|--------------------------------------|--------------------|-------|---------------------------------------------------------|--------|
|   |                       | Tadqiqotda<br>n oldin<br>$X_1 \pm x$ | Tadqiqotdan<br>oldin<br>$X_2 \pm X$ | $X_1 - X_2$<br>v/% | R      | Tadqiqotda<br>n oldin<br>$X_1 \pm x$ | Tadqiqotda<br>n oldin<br>$X_2 \pm X$ | $X_1 - X_2$<br>v/% | R     | $X_2$ TG<br>va $X_2$<br>NG t                            | R      |
| 1 | FKQi, mm              | 26,20±0,97                           | 18,84±0,7                           | 28,09              | <0,001 | 24,83±0,73                           | 24,91±0,66                           | 0,32               | <0,05 | 6,16                                                    | <0,001 |
| 2 | FKQo, mm              | 17,90<br>±1,18                       | 14,68±0,85                          | 17,98              | <0,001 | 14,76±0,98                           | 15,86±1,08                           | 7,45               | <0,05 | 0.84                                                    | >0,05  |
| 3 | FKQz, mm              | 30,69±1,85                           | 22,75±1,38                          | 25,87              | <0,001 | 33,56±1,66                           | 33,02±1,72                           | 1,60               | >0,05 | 4.43                                                    | <0,001 |
| 4 | FKQpo, mm             | 19,60±1,17                           | 15,46±0,75                          | 21,12              | <0,001 | 19,74±1,28                           | 19,88±0,85                           | 0,20               | >0,05 | 3.82                                                    | <0,001 |
| 5 | FKQpz, mm             | 33,11±1,86                           | 23,73±1,26                          | 28,32              | <0,001 | 29,98±1,49                           | 30,75±1,71                           | 2,56               | >0,05 | 3.27                                                    | <0,01  |
| 6 | SK,                   | 83,74±2,46                           | 89,14±0,85                          | 6,44               | <0,05  | 84,36±2,09                           | 83,08±2,46                           | 1,51               | >0,05 | 2.3                                                     | <0,05  |
| 7 | VAS,                  | 76,60±3,11                           | 86,78±1,4                           | 13,28              | <0,001 | 82,08±2,32                           | 86,60±1,53                           | 5,50               | >0,05 | 0.09                                                    | >0,05  |
| 8 | Refleksometriya<br>sm | 19,30±0,49                           | 16,24±0,43                          | 15,85              | <0,001 | 18,40±0,42                           | 18,54±0,43                           | 0,76               | >0,05 | 3.45                                                    | <0,01  |
| 9 | Sakrash, sm           | 52,7±1,19                            | 57,78±1,03                          | 9,63               | <0,001 | 52,38±0,87                           | 52,02±0,84                           | 0,68               | >0,05 | 4.29                                                    | <0,001 |

Tajriba guruhning statik koordinatsiya ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq (yaxshilanish) tajribadan oldin va tajribadan keyin 6,44% ni tashkil etdi,  $r < 0,05$ . Nazorat guruhida shunga o'xshash ko'rsatkich  $r > 0,05$  da 1,51% ga teng. Statik koordinatsiya ham yaxshilandi -  $t_{2,3}$  ( $r < 0,05$ ). Harakat reaksiyasining tezligi (refleksometriya) -  $t_{3,45}$  ( $R < 0,01$ ) va shu guruh talabalarining tezlik-kuch harakat funksiyalari - balandlikka va uzunlikka sakrashda  $t_{4,29}$  ( $r < 0,001$ ) va  $t_{6,49}$  ( $R < 0,001$ ) mos ravishda ijobiy o'zgardi.


Tajribadan oldin va keyin vestibulyar analizator funksiyalarining yaxshilanishi birinchi guruhda 13,28% ga to'g'ri keldi,  $R < 0,001$ , nazorat guruhida - 5,50% ( $R < 0,05$ ). Tajriba guruhidagi harakat reaksiyasining tezligi tajribadan oldin va tajribadan keyin  $R < 0,001$  bo'lganda 15,85% ga sezilarli farq qildi. Nazorat guruhida ushbu ko'rsatkichda sezilarli o'zgarishlar kuzatilmadi ( $R > 0,05$ ).

Tezkor-kuch sifatleri (balandlikka sakrash) ko'rsatkichlari bo'yicha tajriba guruhida tajribadan oldin va tajribadan keyin farq 9,63% ni tashkil etdi,  $R < 0,001$ . Shunga o'xshash ko'rsatkich nazorat guruhida sezilarli darajada o'zgarmadi ( $R > 0,05$ ). Taxminan xuddi shunday holat tajriba guruhida ham qayd etildi, farq 3,77% ( $R < 0,001$ ), nazorat guruhida - 0,19% ( $R > 0,05$ ).

Tajriba va nazorat guruhlari o'rtasidagi yakuniy natijalarning yakuniy tahlili (integral ko'rsatkich) TGda  $t_{6J,16}$  da yuqori rivojlanish darajasini aniqlandi ( $R < 0,001$ ). Yopiq ko'zlar bilan harakat koordinatsiyasining eng murakkab sharoitlari -  $t_{4,43}$ ;  $3,82$  va  $3,27$  ( $Tr < 0,01$ ;  $R < 0,001$ ) tajriba guruhi talabalarida sensor va aniq harakat funksiyalarining rivojlanishida yuqori darajadagi yaxshilanishini tasdiqladi. Statik koordinatsiya ham  $t_{2,3}$  da yaxshilandi ( $R < 0,05$ ). Harakat reaksiyasi tezligi - refleksometriya  $t_{3,45}$  ( $R < 0,01$ ) va shu guruh talabalarining tezlik-kuch funksiyalari - sakrash balandligi va uzunligi mos ravishda  $t_{4,29}$  ( $R < 0,001$ ) va  $t_{6,49}$  ( $R < 0,001$ ) da ijobiy o'zgardi.

Ko'rib chiqilgan tadqiqot ma'lumotlar universitet talabalarining jismoniy tarbiya jarayonida ko'p qirrali koordinatsion qobiliyatlarini va ba'zi harakat sifatlarini

(tezlik, tezlik-kuch, maxsus chidamlilik) rivojlantirishda xoreografik va mumtoz raqsning maxsus majmualari tizimining yuqori samaradorligini tasdiqlaydi.



**1-rasm. Shakllantiruvchi tajribaning yakuniy bosqichida talabalarining fazoviy koordinatsion qobiliyatlari va jismoniy sifatleri ko'rsatkichlarining o'sishi, %.**

Natijalarni o'rganib chiqib xulosa etish mumkinki, tavsiya qilgan mashqlarimiz va o'quv jarayoniga kiritilgan o'zgarishlar muvaffaqiyatli natija berdi

**Xulosa.** Ilmiy-uslubiy adabiyotlar va oldingi tadqiqotlar materiallarining tahlili shuni ko'rsatadiki, talabalarining jismoniy tarbiya amaliyotida fazoviy koordinatsion qobiliyatlarini va shu asosda talabalarining jismoniy tayyorgarlik darajasiga ta'sir qiluvchi barcha harakat sifatlarini rivojlantirishning samarali vositasi bo'lgan mumtoz raqs vositalaridan foydalanishning ilmiy asoslangan metodikasi mavjud emas.

Ko'zlar ochiq bo'lgan fazoviy koordinatsion qobiliyatlar va vestibulyar analizatorning sezgirligi bundan mustasno. Xoreografiya bilan shug'ullanuvchi talabalarining koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirish ko'rsatkichlarini o'rganish ularning xoreografiya bilan shug'ullanmaydigan talabalarga nisbatan fazoviy koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishda ustunligini asoslaydi. Olingan ma'lumotlar talabalarining jismoniy tarbiyasida mumtoz raqs vositasida koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning eksperimental usulini ishlab chiqishga asos bo'ldi.

### Adabiyotlar

1. Xaytmetov I.S. Sport pedagogik mahoratini oshirish (Badiiy gimnastika) Xoreografik mashqlarini o'tkazish uslubiyoti. O'quv-qo'llanma. –T.: «Davr matbuot savdo», 2020. 176-b.

2. Xaytmetov I.S. Gimnastikaning sport turlarida xoreografik mashqlarini o'tkazish uslubiyoti. O'quv-uslubiy qo'llanma. –T.: «Fan va texnologiya», 2016. 130-b.

**РЕЗЮМЕ.** Ishda koordinatsiya qobiliyatini rivojlantirish jarayonida xoreografik mumtoz raqs mashqning yagona shaklini o'z vaqtida o'zlashtirib olish uchun mumtoz raqs maktabining maxsus harakatlaridan majmualarini tuzish muhimdir shu sababli, Oliy ta'lim muassasasi talabalarini jismoniy tarbiya dars jarayonida xoreografiya vositalari orqali mumtoz raqs harakatlari yordamida koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish masalalari ko'rilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В процессе развития координационных способностей в работе важно составить комплексы специальных движений школы классического танца для своевременного освоения единой формы упражнения хореографического классического танца, поэтому в процессе занятий по физическому воспитанию студентов высших учебных заведений рассмотрены вопросы развития координационных способностей с помощью движений классического танца посредством средств хореографии.

**SUMMARY.** In the process of developing coordination abilities in the work, it is important to create a set of special movements of the classical dance school for the timely assimilation of a single form of exercise in classical dance choreography, therefore, in the process of physical education classes for students of higher educational institutions, the issues of developing coordination abilities through classical dance movements through choreography were considered.

### ИНФОРМАТИКАНИ ЎҚИТИШДА РАҚАМЛИ ТАЪЛИМ ВОСИТАЛАРИДАН ФЙДАЛАНИШ МУАММОЛАРИ

**З.К.Ильясова** – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори, доцент

*Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институту*

**Таянч сўзлар:** интерактив дастурий воситалар, таълимни рақамлаштириш, электрон таълим ресурслари, интерактивлик ва фаоллик, индивидуаллаштириш, молиявий самарадорлик, технологик муаммолар, методик муаммолар, психологик ва ижтимоий муаммолар, психологик стресс, молиявий муаммолар.

**Ключевые слова:** интерактивные программные средства, оцифровка обучения, электронные учебные ресурсы, интерактивность и активность, индивидуализация, финансовая эффективность, технологические проблемы, методологические проблемы, психологические и социальные проблемы, психологический стресс, финансовые проблемы.

**Key words:** interactive software tools, digitization of learning, electronic learning resources, interactivity and activity, individualization, financial efficiency, technological problems, methodological problems, psychological and social problems, psychological stress, financial problems.

Жаҳон тажрибасида олий таълим муассасаларида етук мутахассис кадрларни тайёрлаш жараёнига интерактив дастурий воситалари, масофавий таълим шакллари кенг тadbик қилиш, очиқ таълим ресурслари, аралаш таълим технологияларини ривожлантиришда электрон таълим ресурсларидан фойдаланиш технологиялари амалиётга тadbик этилмоқда. Айниқса, жаҳоннинг етакчи олий таълим муассасалари таълим тизими рақамли таълим воситалар асосида таълим жараёни самарадорлигини ошириш муаммолари фан ва таълим тизимини рақамлаштириш билан бирга ривожланмоқда [1,4].

Мамлакатимизда ижтимоий, иқтисодий, сиёсий, мафкуравий, соҳаларида амалга ошириляётган ислохотлар, фан-техника ва технологияларнинг жадал тараққиёти каби кўплаб омиллар узлуксиз таълим тизимини, жумладан, олий таълим муассасалари талабаларига таълим-тарбия беришда замон талаблари асосида рақамли таълим воситалардан фойдаланиб машғулотларни ташкил этишни тақозо этади.

Олий таълим муассасида Информатика фанини ўқитишда электрон таълим ресурсларидан фойдаланишда куйидаги афзалликларига эга бўламіз.

1. Осон ва тез кириш. Электрон таълим ресурслари талабаларга интернет орқали 24/7 давомида материалларга кириш имконини беради. Бу, талабаларнинг ўқиш жараёнини ўз вақтида ташкил қилиш ва ўзларининг индивидуал ўқиш графикларига мослашиш имконини беради. Масалан, видеолар, интерактив тестлар ва

онлайн курслар талабаларнинг ўқишини осонлаштиради.

2. Интерактивлик ва фаоллик. Электрон таълим ресурслари интерактив элементларни ўз ичига олади, масалан, симуляциялар, интерактив тестлар, форумлар ва жамоавий лойиҳалар. Бу, талабаларнинг фаоллигини ошириб, уларни ўқиш жараёнига жалб қилиш имконини беради. Интерактивлик, талабаларнинг мавзуларни яхшироқ тушунишини ва амалий кўникмаларини ривожлантиришини таъминлайди.

3. Индивидуаллаштириш. Электрон таълим ресурслари талабаларнинг индивидуал эhtiёжларини инобатга олиш имконини беради. Талабалар ўз суръатлари билан ўқишлари, алоҳида мавзуларни қайта кўриб чиқишлари ва ўзларига мос материалларни танлашлари мумкин. Бу, талабаларнинг қизиқишлари ва қобилиятларига мос равишда таълим бериш имконини яратади.

4. Янгиланиш ва замонавийлик. Электрон таълим ресурслари тезкор янгиланиш имконини беради. Информатика ва АТ соҳалари доимий равишда ривожланиб боради, ва ЭТР орқали талабаларга энг сўнгги маълумотлар, технологиялар ва методикалар билан танишиш имкони туғилади. Бу, талабаларни замонавий талабларга мослаштиришда муҳим аҳамият касб этади.

5. Молиявий самарадорлик. Электрон таълим ресурслари кўпинча анъанавий таълим материалларига қараганда арзонроқ бўлади. Талабалар учун китоблар,

журналлар ва бошқа материалларни сотиб олишдан кўра, онлайн ресурсларга обуна бўлиш ёки бепул ресурслардан фойдаланиш молиявий жиҳатдан самаралироқ. Шунингдек, таълим муассасалари учун ҳам ЭТРни жорий қилиш, ресурсларни тежаш имконини беради.

6. Технологик кўникмаларни ривожлантириш. Информатика фанини ўқитишда электрон таълим ресурсларидан фойдаланиш, талабаларнинг технологик кўникмаларини ривожлантиришга ёрдам беради. Талабалар, онлайн платформаларда ишлаш, программалаштириш муҳитлари билан танишиш ва рақамли алоқа воситаларини фойдаланиш каби кўникмаларни ривожлантириш имконини оладилар [3,5].

Юқорида атаб ўтилган афзалликлар билан бирга бу воситаларни самарали жорий қилишда бир қанча муаммолар ҳам мавжуд бўлиб, асосий муаммоларни таҳлил қиламиз.

#### 1. Технологик муаммолар.

- Интернет алоқа муаммолари: олий таълим муассасаларида интернет алоқа сифати ва тезлиги талабларга жавоб бермаслиги мумкин. Бу, онлайн платформада таълим олишда талабаларнинг фаоллигини пасайтиради.

-Технологик жиҳозланиш: баъзи олий таълим муассасалари замонавий компьютерлар ва мультимедиа воситаларини таъминлашда муаммоларга дуч келадилар. Бу, талабаларнинг рақамли ресурслардан фойдаланишини чеклайди.

-Системаларнинг интеграцияси: рақамли таълим воситаларини интеграция қилишда муаммолар, аниқроғи, турли платформалар ўртасидаги ўз ара алоқа ва маълумотларни узатишдаги муаммолар.

#### 2. Методик муаммолар.

-Ўқитувчиларнинг тайёрлиги: олий таълим тизимида информатика фанини ўқитувчиларнинг рақамли таълим воситаларини самарали қўллаш учун етарли тайёргарлигининг йўқлиги. Баъзи ўқитувчилар замонавий технологияларни фаол қўллашни билмайдилар.

#### Адабиётлар

1. Осин А.В. Электронные образовательные ресурсы нового поколения: Аналитическая записка. – М.: «ИИТО ЮНЕСКО», 2011. –С. 12.

2. Сборник материалов участников Международного научно-методического симпозиума «Электронные ресурсы в непрерывном образовании» ("ЭРНО-2010"): Труды Международного научно-методического симпозиума. г.Туапсе. -Ростов н/Д: ЮФУ, 2010. –С. 472.

3. Piyasova Z. Problems of teaching informatics in pedagogical universities. // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 2019. T. 7. №. 9.

4. Piyasova Z.K. Advantages of using electronic educational resources in teaching computer science and information technology. // Multidisciplinary Journal of Science and Technology. 2025. T. 5. №. 1. -С. 440-443.

**РЕЗЮМЕ.** Рақамли таълим воситаларининг олий таълимда, айниқса, информатика фанини ўқитишда фойдаланилиши кўплаб афзалликларга эга. Бироқ, бу воситаларни самарали жорий қилишда бир неча муаммолар ҳам мавжуд. Ушбу мақолада информатика фанини ўқитишда рақамли таълим воситаларидан фойдаланишда учрайдиган асосий муаммолар таҳлил қилинади.

**РЕЗЮМЕ.** Использование цифровых образовательных средств в высшей образование, особенно при преподавании информатики, имеет много преимуществ. Однако существует также ряд проблем, связанных с эффективным внедрением этих средств. В данной статье анализируются основные проблемы, возникающие при использовании цифровых образовательных средств в преподавании информатики.

**SUMMARY.** The use of digital educational tools in higher education, especially when teaching computer science, has many advantages. However, there are also a number of challenges associated with the effective implementation of these tools. This article analyzes the main problems that arise when using digital educational tools in teaching computer science.

-Методикаларнинг етишмаслиги: рақамли воситалардан фойдаланиш учун аниқ методикаларнинг йўқлиги, талабаларнинг ўқиш жараёнини самарали ташкил қилишни қийинлаштиради.

-Талабаларнинг индивидуал эҳтиёжлари: рақамли таълим воситаларини жорий қилишда талабаларнинг индивидуал ўқиш усуллари ва эҳтиёжларини инобатга олиш муаммолари.

#### 3. Психологик ва ижтимоий муаммолар.

-Талабаларнинг рағбатсизлиги: баъзи талабалар рақамли воситалардан фойдаланишда рағбатсиз бўлишлари мумкин, бу эса ўқиш жараёнида пассивликка олиб келади.

-Ижтимоий алоқа етишмаслиги: масофавий таълимда талабалар орасида ижтимоий алоқанинг етишмаслиги, уларнинг жамоа сифатида ишлаш қобилиятини пасайтиради.

3. Психологик стресс. Рақамли таълим воситаларидан фойдаланишда, айниқса, масофавий таълимда, талабаларда стресс ва ташвишлар пайдо бўлиши мумкин.

#### 4. Молиявий муаммолар.

-Рақамли воситаларнинг нархи: баъзи рақамли таълим воситалари ва платформалари учун обуна тўловлари талабалар учун молиявий жиҳатдан оғир бўлиши мумкин.

-Таълим муассасалари учун молиявий чекловлар: олий таълим муассасаларида рақамли технологияларни жорий қилиш учун етарли молиявий ресурсларнинг мавжуд эмаслиги [2,4].

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, олий таълим тизимида Информатика фанини ўқитишда рақамли таълим воситаларидан фойдаланиш кўплаб афзалликларга эга бўлса-да, уларни самарали жорий қилишда бир қатор муаммолар ҳам мавжуд. Технологик, методик, психологик ва молиявий муаммоларни ҳал қилиш учун олий таълим муассасалари, давлат ва хусусий сектор ўртасида ҳамкорликни йўлга қуйиши лозимлигини таъкидлаймиз.

**FIZIK BAKALAVRLARNI KASBIY FAOLIYATGA TAYYORLASHDA  
LOYIHAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH METODIKASI**

**O.T. Ismanova** – *fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori*

*Namangan davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** oliy ta'lim, xorij tajribasi, talaba, loyihaviy faoliyat, fizika, konsepsiyasiya, ilmiy tadqiqot, tadqiqotchilik ko'nikmasi.

**Ключевые слова:** высшее образование, зарубежный опыт, студент, проектная деятельность, физика, концепция, исследования, исследовательские навыки.

**Key words:** higher education, foreign experience, student, project activity, physics, concept, research, research skills.

Butun dunyoda fan-texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi turli ishlab chiqarish sohalarining paydo bo'lishiga va ular uchun yangi mutaxassisliklarga bo'lgan ijtimoiy buyurtmani oliy ta'lim uchun dolzarb vazifa sifatida qo'ymoqda. Bundan tashqari ba'zi bir mutaxassislarga bo'lgan talab pasaymoqda yoki umuman yo'qolmoqda. Shu holatdan kelib chiqib rivojlangan xorijiy davlatlarda barcha ta'lim tizimida chuqur islohotlar o'tkazilib, transformatsiya qilinmoqda. Xorij tajribasidan kelib chiqib respublikamizda ham ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarni chuqurlashtirish, ta'lim tashkilotlari faoliyatini ilg'or xorijiy amaliyotlar asosida tashkil etish, pedagog kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish maqsadida 2024-yil 5-fevralda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-54-son qarori qabul qilindi [1]. Ushbu qarorda bakalavriat va magistratura yo'nalishidagi mutaxassisliklarni mos ravishda 40% va 15% ga qisqartirish ko'rsatib o'tildi, bu esa tor soha mutaxassisliklari emas, balki bir necha soha bo'yicha bazaviy bilimga ega mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi.

Oliy ta'limda bunday muhim vazifa amalga oshirilishi uchun oliy ta'lim konsepsiyasiga zarur o'zgartirishlar kiritilishi lozim, buning uchun esa hozirgi oliy ta'limdagi muammolarni, ularning kelib chiqishi sababini, ijtimoiy buyurtma maqsadini atroflicha tahlil qilib, so'ngra maqsad va vazifalar belgilanishi zarur. Ma'lumki har qanday ta'lim "subyekt-obyekt" munosabatlaridan iborat bo'ladi va subyekt-obyekt o'rtasidagi o'zaro ta'sir tufayli ta'lim jarayoni yuzaga keladi. Hozirgi zamonda "subyekt-obyekt" munosabatlarini qayta ko'rib chiqish hisobiga ta'lim jarayonida katta o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Respublikamiz ta'lim tizimida ham tub o'zgarishlar qilish va ta'limning samaradorligini yanada oshirish uchun an'anaviy ta'lim tizimini tahlil qilib chiqish lozimdir. Buning uchun avvalambor "ta'lim" va "ta'lim jarayoni" deb ataluvchi tushunchalar ta'rifiga va uning tuzilishiga e'tibor qaratamiz. "Ta'lim-insonning intellektual, ma'naviy, axloqiy, ijodiy, jismoniy va malakaviy rivojlanishi maqsadida qiziqishlari va ehtiyojini qondirish uchun yetarli hajmda va murakkablikdagi egallangan bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va kompetensiyalar yig'indisidan iborat".

Odatda ta'lim pedagoglar tomonidan o'quvchilarga berilgani uchun ta'limiy jarayon bilan pedagogik jarayon teng qiymatli tushunchalardir. An'anaviy ta'lim jarayoni deganda avvalambor pedagogik faoliyat, ya'ni ijtimoiy buyurtma sifatlariga ega shaxsni shakllantirish maqsadida o'quvchiga yoki talabaga ta'sir ko'rsatishni tashkil etish tushuniladi.

Zamonaviy ta'limda esa asosan o'qituvchining talabaga yo'naltirilgan ta'siri o'rniga ularning o'zaro ta'siriga asosiy urg'u berilib, bunga talabalarning mustaqil faolligini ham

birgalikda qo'shgan holda olib boriladi. Shuning uchun o'quvchi yoki talaba to'laqonli subyekt hisoblanadi va u ta'lim maqsadini tushunishi, o'zi uchun ahamiyatini qabul qilishi, motivatsiyaga ega bo'lishi kerak. Ushbu tamoyil asosida ta'lim jarayoni tashkil etilsa, talaba o'zi savol, masala va muammolar bilan to'qnashadi va uni hal qilishda o'zidagi mavjud va yangi bilim va ko'nikmalardan foydalanadi, yechimni tahlil qiladi, xulosalar chiqaradi va o'zi uchun yana yangi bilimlar yaratadi.

Yuqorida keltirib o'tilganlar ta'limning asosiy konsepsiyasidir, ammo uni amalga oshirishda ta'lim tarkibiga, ta'lim jarayonida o'qituvchi-talaba faoliyatiga va erishiladigan natijalarga ham e'tibor qaratish lozim. Ta'lim jarayonidagi maqsad, vazifa, amalga oshirish usuli va natija ta'lim jarayonining asosiy tashkil etuvchilari hisoblanadi. Adabiyotlar tahliliga ko'ra ta'lim jarayoni asosan to'rtta tashkil etuvchidan iboratligini anglash mumkin, ya'ni: ta'lim maqsadi, ta'lim mazmuni, ta'limiy faoliyat, ta'lim natijasi.

Demak, ushbu tavsiyaga ko'ra har bir OTM o'z xususiyati, imkoniyati va jamiyatning "ijtimoiy buyurtma"sidan kelib chiqib, o'z maqsadini amalga oshirishi kerak. Buning uchun ta'lim mazmunini to'g'ri ishlab chiqish va professor-o'qituvchilar va talabalar faoliyatini to'g'ri tashkil qilishi kerak. Buning uchun esa har bir OTM ta'limning mazmuniy komponentini qayta ko'rib chiqish kerak va qaysi komponentiga asosiy ahamiyat qaratish lozimligini, qanday qo'shimchalar kiritish kerakligini aniqlab olish zarur. An'anaviy ta'lim modeli talabalar egalashi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakani shakllantirishdan iborat bo'lgan. Shaxsiga yo'naltirilgan ta'limda esa ta'lim mazmuni yuqoridagi uchta tushunchadan tashqari o'z ichiga o'quvchi shaxsini boyitish va ta'lim muhiti bilan o'zaro ta'sirlashuv natijasida tajribani shakllantirishni ham o'z ichiga oladi. Bundan tashqari, hozirgi zamonaviy ta'limda kerakli komponentlarni shakllantirish maqsadida kompetensiyaviy yondashuv ham qabul qilingan. Kompetensiyaviy yondashilganda ta'lim jarayonida talabalar qanday mutaxassis bo'lib yetishib chiqishlaridan qat'iy nazar universal kompetensiyalarni o'zlashtirishlariga urg'u beriladi. Ta'lim jarayonining eng asosiy komponenti o'qituvchi-o'quvchi juftligi o'zaro ta'sirlashuvi faoliyatlaridan iborat. Ta'limiy faoliyat tarkibi ikki qismdan, ya'ni shakl va usuldan iborat. O'qitish shakli o'qituvchi-talaba juftligini miqdoriga ko'ra individual, kichik guruhlar, jamoaviy va frontal shakllardan iborat.

Barcha ta'lim shakllarida talabalarga beriladigan bilim sifati va talabalarning bilimlarni o'zlashtirib, o'z sohasi bo'yicha yoki umumlashgan ko'nikma va malakalarni shakllantirish darajasi ta'lim jarayonida qo'llaniladigan usulga bog'liq. O'qituvchi va talabaning maqsadga yo'naltirilgan va tartibli faoliyati usul ekanligini inobatga oladigan bo'lsak, zamonaviy ta'limda shunday usul tanlash

zarurki, imkoniyat darajasida tanlangan usul ta'lim va o'qitishning barcha shakllarini qamrab olishi lozim. Yangi ta'lim paradigmasidan tayyorlanadigan mutaxassislariga, "ijtimoiy buyurtma" talabidan kelib chiqib talaba ham o'z faoliyat turlarini transformatsiya qilishi zarur, chunki talaba oliy ta'lim subyektidir. F.G.Muxammedzyanovaga ko'ra universitet talabasi - o'quv professional faoliyat subyekti bo'lib faolligi, mustaqil ta'lim olishi, motivatsiyaga egaligi, mas'uliyati va o'z imkoniyatlarini amalga oshirish darajasiga ko'ra oliy va individuallashgan shaxsdir [2].

Tahlillarga ko'ra loyihaviy ta'lim texnologiyasidan samarali foydalanish ta'lim-tarbiya jarayonini yaxlitligini saqlagan xolda talabani rivojlanishini, shaxs sifatida shakllanishi va tarbiyalanishini ta'minlaydi. Bundan tashqari loyihaviy ta'lim talabaning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanishi uchun katta imkoniyatlarga ega. Shuningdek, loyihaviy ta'lim o'quv rejaga ijodiy yondashuv asosida katta o'zgarishlar kiritmasdan va davlat ta'lim standartlaridagi minimal talablarni o'zgartirmasdan butun o'quv jarayoniga qo'llanish hossasiga ega. Loyihaviy ta'limni eng katta imkoniyati undan shaxsga yo'naltirilgan, tabaqallashtirilgan kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil qilinishidir.

Shuningdek, ta'kidlanganidek, loyihaviy ta'lim texnologiyasida loyihaviy faoliyat olib boriladi va ushbu faoliyat o'qituvchi va talabani birgalikda o'quv – bilish, ijodiy, umumiy maqsadga yo'nalgan aniq natijaga yetishish uchun qaratilgan faoliyatdir [3].

Ushbu xususiyatlariga ko'ra loyihaviy ta'lim va uni o'qitish metodikasi XXI asrga kelib oliy ta'limda eng ko'p qo'llaniladigan texnologiyalaridan biriga aylandi, ammo shunga qaramay MDX davlatlari, jumladan Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston respublikasi ta'lim tizimida ayniqsa tabiiy va aniq fanlarni o'qitish, shular qatorida fizikani o'qitish sohasida ham shu paytgacha loyihaviy ta'lim mohiyatiga yagona qarash shakllanmagan. Shuning uchun loyiha deganda pedagogikada turli xil faoliyat turlari tushuniladi [4].

Loyihaviy ta'lim texnologiyasining mohiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak ta'lim jarayonining barcha subyektlari loyihaviy faoliyatda ishtirok etadi, ya'ni o'qituvchi ta'lim jarayonini amalga oshirishda turli usullar va texnologiyalar va ularni o'qitish metodikasidan foydalanib, ta'limiy loyihani amalga oshirish uchun loyihaviy faoliyat olib borsa, talabalar bilim olish, ko'nikma va kompetensiyalarga ega bo'lishlari uchun turli loyihalarni bajarish orqali loyihaviy faoliyat olib borishadi. Shuning uchun adabiyotlarda loyihaviy ta'lim texnologiyasi, loyihalar usuli yoki loyihaviy faoliyat usuli deb ataladigan teng kuchli tushunchalardan foydalaniladi.

Loyihaviy ta'lim usuli – bu o'qituvchilarni aniq ko'zlangan maqsadga erishishlari uchun mustaqil faoliyatlarini tashkillashtirish usuli, loyihalash – atrof muhitni o'zgartirish va muammoni yechimini topish imkoniyatini beruvchi maqsadga yo'naltirilgan faoliyatdir [5]. Tahlil va taqqoslashlarga ko'ra loyihaviy ta'lim usuliga Ye.S. Polat tomonidan mazmun - mohiyatni to'la ochib beruvchi ta'rif berilgan ya'ni: loyihaviy usul- o'quvchilarni natijaga erishish usuliga qarab birgalikdagi yoki individual tarzda izlanuvchilik, tadqiqotchilik, ijodiylik, kreativlik va bilish faoliyatlarini takomillashtirish bo'lib, u o'z navbatida o'quvchilarni kognitiv qobiliyatlarini rivojlantirishiga, o'z

bilimlarini mustaqil ravishda oshirish imkoniyatini yaratishiga, ma'lumotlar maydonida yo'nalish topishga, tahlil qilishga, turli gipotezalarni ilgari surishga olib keladi [6].

Ta'limiy faoliyatga oid loyihalarni ham quyidagi turkumlarga ajratilgan;

Tadqiqotchilik – ilmiy tadqiqotlarga yaqin bo'lib u predmet, obyekt, masala, tadqiqot gipotezasi, ma'lumot manbai, metodni to'g'riligini, natijalarni umumlashtirish, xulosalar va natijalarni rasmiylashtirish, yangi muammo qo'yish, isbotlash kabi dolzarb faoliyatlarni o'z ichiga oladi.

O'quv-informatsion – ma'lumotlar to'plash va ular bilan tegishli shaxslarni tanishtirish, dalillarni tahlil qilish va umumlashtirishdan iborat bo'lib tadqiqotchilik loyihasi qo'lash va uni tarkibiy qismi ham bo'ladi.

Loyihaviy ta'lim texnologiyasiga, loyihaviy usulga yoki loyihaviy faoliyatni mazmun - mohiyati va ta'rifidan ushbu usulni barcha sohalar uchun va ta'limni barcha bosqichlarida qo'llasa bo'ladigan metatexnologiya sifatida qarash mumkin [7]. Dunyoning ilg'or oliy o'quv yurtlarida va o'rta maktablarda "loyihaviy faoliyat" usuli samarali usullardan biri sifatida qaralmoqda. "Loyihaviy faoliyat" usuli faol usullar turkumiga kirib, unda talaba va o'quvchi ta'lim jarayonida mustaqil subyekt sifatida ishtirok etadi. Chunki "loyihaviy faoliyat" o'z tarkibiga talaba bajarishi kerak bo'lgan har xil faoliyat turlarini oladi va shunga ko'ra turlarga bo'linadi.

Loyihaviy ta'lim texnologiyasidan oliy ta'limda samarali foydalanish orqali esa talabalarda quyidagi umumlashgan **kompetensiyalarni** shakllantirishga va rivojlantirishga erishish mumkin:

**O'quv – bilish kompetensiyalari:** mustaqil ravishda yangi sohani va bilimlarni o'rganish uchun maqsadni aniq qo'yish, rejalashtirish, tahlil qilish, refleksivlik, o'z bilimni baholash, ilmiy dalillarni farazlardan farqlash kabi faoliyat turlarini amalga oshiradi.

**Axborot yig'ish va qayta ishlash kompetensiyasi:** talaba mustaqil ravishda ma'lumot manbaiyni topish, tahlil qilish, taqqoslash, keraklilarini ajratib olish, saqlash kabi qobiliyatiga ega bo'ladi.

**Egiluvchanlik va kommunikativlik kompetensiyasi:** talabalarni jamoa bilan ishlash ko'nikmasi, jamoadoshlari oldida mas'uliyatni xis qilish, ilmiy muloqat qilish, o'z fikrini ilmiy asoslay olish, o'zini ko'rsatish kabi shaxsiy xususiyatlar takomillashadi.

**Ijtimoiy – madaniy kompetensiyalari:** talabani ijtimoiylashuv darajasi ortadi, o'zini jamoa va jamiyatdagi ahamiyati va funksiyasini anglaydi. O'z faoliyati va harakatini umummaqsad va mohiyatdan kelib chiqib rejalashtiriladi, ba'zi talabalarda (loyiha rahbari) boshqaruvchanlik kompetensiyasi shakllanadi va rivojlanadi.

Yuqorida sanab o'tilgan umumlashgan kompetensiyalardan tashqari kasbiy va predmetga oid kompetensiyalarni loyiha turiga va mazmun mohiyatidan kelib chiqib talabalarda shakllantirish mumkin. Buning uchun esa loyihaviy ta'lim texnologiyasini o'qitish metodikasini didaktika tamoyillaridan kelib chiqib takomillashtirish va uni potensial imkoniyatlaridan to'la foydalanish zarur.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 2-fevraldagi «Ta'lim sohasidagi islohotlarni jadallashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-54-sonli qarori.
2. Мухамметзянова Ф.Г., Шабельников В.К., Осмина Е.В., Коржова Е.Ю., Рудыкина О.В. Размышления представления о феномене субъектности в различных образовательных пространствах. –Казань: Издательский центр Университета управления «ТИСБИ», 2016. –С. 252.
3. Ismanova O.T. Fizika yo'nalishi talabalariga loyiha ishlarini bajartirish orqali kreativ fikrlashlarini rivojlantirish usullari. // "Pedagogik mahorat" jurnali. Buxoro davlat universiteti. 2023-yil. 11-son. ISSN 2181-6833. 245-250-b.
4. Савельева В.В. Профессиональная подготовка бакалавров к проектной деятельности в условиях университетского образования Диссертация Алматы. 2020. –С. 50.
5. Селевко Г.К. Энциклопедия образовательных технологий. В 2 томах. Том. 1. -М.: Народное образование, НИИ школьных технологий, 2006. –С. 216. (Серия "Энциклопедия образовательных технологий")
6. Полат Е.С. Личностно ориентированные технологии обучения. // 12-летняя школа: проблемы и перспективы развития общего среднего образования. – М.: ИОСО РАО. 1999. –С. 226.
7. Осипова С.И., Янченко И.В. Карьерная компетентность как предмет педагогического исследования. // Вестник КемГУ. 2012, № 3(51) –С. 135-141.

**REZYUME.** Bugungi kunda har bir oliy ta'lim o'z xususiyati, imkoniyati va jamiyatning "ijtimoiy buyurtma"sidan kelib chiqib, ta'lim mazmunini to'g'ri ishlab chiqishi, professor-o'qituvchilar va talabalar faoliyatini to'g'ri tashkil qilishi dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu ishda loyihaviy ta'lim talabaning tadqiqotchilik ko'nikmalarini shakllanishi uchun ularning mustaqil faolligini ahamiyatli ekanligi asoslangan. Shu bilan birga talabalarni umumlashgan kompetensiyalarini shakllantirish metodlari ko'rsatilgan.

**РЕЗЮМЕ.** Сегодня каждое высшее образование, исходя из его особенностей, возможностей и «социального заказа» общества, правильная разработка содержания образования, правильная организация деятельности профессоров-преподавателей и студентов является актуальной задачей. Данное исследование основано на том, что самостоятельная активность значима при проектном обучении для формирования у студентов исследовательских навыков. При этом показаны методы формирования обобщенных компетенций студентов.

**SUMMARY.** Today, each higher education, based on its characteristics, capabilities and the "social order" of society, the correct development of the content of education is an urgent task the correct organization of the activities of professors-teachers and students. This study is based on the fact that independent activity is significant in project-based learning for the formation of students' research skills. At the same time, methods are shown for the formation of generalized competencies of students.

### KAMOLIDDIN BEHZOD ASARLARINING REALISTIK XUSUSIYATLARI ASOSIDA TALABALARDA ESTETIK TARBİYANI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

**X.F.Masharipova - o'qituvchi**

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti*

**Tayanch so'zlar:** realistik san'at, ma'naviy-axloqiy tarbiya, estetik tarbiya, badiiy ta'lim, ijodiy faoliyat, idrok etish, estetik did.

**Ключевые слова:** реалистическое искусство, духовно-нравственное воспитание, эстетическое воспитание, художественное образование, творческая деятельность, восприятие, эстетический вкус.

**Key words:** realistic art, spiritual and moral education, aesthetic education, artistic education, creative activity, perception, aesthetic taste.

**Kirish.**Yosh avlodni estetik tarbiyalash va rivojlantirish estetik tarbiya tizimi yordamida amalga oshiriladi. Uning o'zagini san'atning ta'sir qilish vositalari tashkil etadi, ular asosida o'quvchilarning badiiy tarbiyasi, bilimi va rivojlanishi amalga oshiriladi.

Badiiy ta'lim – yosh avlodning idrok etish, eshitish, sevishtirish, qadrlash, san'atdan zavqlanish, badiiy qadriyatlarini yaratish qobiliyatini maqsadli shakllantirish jarayonidir. Badiiy ta'lim – yosh avlodning san'atga oid bilim, ko'nikma va odatlarni egallashi, ularda san'atga va badiiy ijodga munosabatini, badiiy dunyoqarashini shakllantirish jarayonidir. Badiiy ijod – yosh avlodning san'atning turli sohalarida qobiliyat va iste'dodlarini maqsadli shakllantirish va rivojlantirish jarayonidir.

Yosh avlodni badiiy ijodiy faoliyatga maqsadli jalb etish ularning tug'ma iste'dodini yuzaga chiqarish, voqelikning estetik ko'rinishlarini chuqur anglash uchun zamin yaratadi. Yoshlar haqiqiy san'at asarlarini soxta taqliddan farqlashni o'rganadilar, ular chinakam go'zallikni eshitadilar va zavqlanadilar. Estetik tarbiya yosh avlodda insonparvarlik g'oyalari asosida ko'rish, eshitish, tushunish

va go'zallik yaratish qobiliyatini shakllantiradi va shaxsni har tomonlama kamol toptirishga erishishni maqsad qiladi. Estetik tarbiya yosh avlodning badiiy-estetik rivojlanishini ta'minlaydi, chinakam badiiy didni singdiradi, badiiy tafakkur unumdorligini oshiradi. Tafakkur mahsul bo'lgan badiiy obraz tabiat, jamiyat, ijtimoiy munosabatlar, jamoatchilik fikri haqidagi ma'lumotlarga boy. Inson badiiy obrazlar orqali fikr yuritadi, hukm chiqaradi. yangi xulosalarga keladi. Xotirasida saqlangan boy ma'lumotlarni badiiy obrazlarda jonlantiradi.

Yosh avlodni estetik tarbiyalash subektiv nomuvofiqliklar va obektiv qarama-qarshiliklarni yechish orqali amalga oshiriladi. Go'zallikni idrok etish, voqelikka va san'atga estetik munosabat tabiiy tug'ma qobiliyat va imkoniyatlardir. Shu bilan birga, bu qobiliyat va imkoniyatlar tashkil etilgan badiiy-estetik ta'lim va tarbiya sharoitidagina to'liq va maqsadli amalga oshiriladi. Badiiy-estetik qadriyatlarga e'tibor bermaslik achchiq oqibatlariga olib keladi, insonning estetik jihatdan maqsadli kamol topmasligi uning ma'naviy kamolotiga zarar yetkazadi, uni hayot va tabiat go'zalliklaridan mahrum qiladi, badiiy

didining shakllanishiga to'sqinlik qiladi. Inson doimo dunyoning go'zal va jirkanch, dahshatli va kulgili ko'rinishlariga duch keladi. U oqni qoradan, yaxshini yomondan, haqiqiyni soxtadan ajrata olishi kerak. Hozirgi zamonda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi tufayli yoshlar bir tomondan badiiy-estetik madaniyatning xunukligi, ikkinchi tomondan esa soxta madaniyatning xunukligi bilan o'ralgan. Yoshlarga ushbu axborot oqimlarining sifatini baholash va tanqidiy tahlil qilish qiyin. Estetik tarbiya tizimini amalga oshirish va to'g'ri tashkil etish qarama-qarshilik va nomuvofiqliklarni bartaraf etish imkonini beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodlar.** Behzod mashhur fors-tojik adabiyotining ko'plab qahramonlik va romantik asarlarini, tarixiy kitoblarni bezatgan. Behzodning eng qadimiy asari Sa'diyning "Bo'ston" asaridir Behzod mashhur fors-tojik adabiyotining ko'plab qahramonlik va romantik asarlarini, tarixiy kitoblarni bezatgan. Behzod mashhur fors-tojik adabiyotining ko'plab qahramonlik va romantik asarlarini, tarixiy kitoblarni bezatgan. U 1478 yilda yozilgan. Ushbu noyob qo'lyozma hozir Chester Bitti kutubxonasida (Dublin) saqlanmoqda. Ushbu qo'lyozma rasmlarida odamlarning yuzlari (shohlar, saroy ahli, oshiqlar, go'zal haykallar, ilm ahli, dala ahli va boshqalar) va tabiat manzaralari (daraxt va gullar, soylar va yashil dalalar, quyosh nuri) va bulutlar) mahorat bilan tasvirlangan. Yana 1488-yilda Sulton Husayn Boyqaning iltimosiga ko'ra Behzod Sa'diyning "Bo'ston" asarini Mashhadiy saltanati xattotligi va Yori Muzahhib tasvirlari bilan bezatadi. Oltitta jozibali rasmni o'z ichiga olgan ushbu qo'lyozma hozirda Qohira Milliy kutubxonasida saqlanmoqda va suratlardan 4 tasi rassom tomonidan "Amalilabdi Behzod" deb imzolangan.

**Muhokama.** Estetik tarbiya tizimini tashkil etish muayyan tamoyillarga asoslanadi. Ular orasida inklyuzivlik tamoyili yoshlarni estetik tarbiya, badiiy tarbiya, badiiy ijod tizimiga ommaviy jalb etish, tarbiyada madaniy-gumanitar omil salmog'ini oshirishni nazarda tutadi. Estetik tarbiyaning kompleksligi yangi avlodning estetik ideal va estetik qarashlar asosidagi estetik kamolot yo'lini yo'naltiradi. Har tomonlama barkamollik tamoyili barkamol iqtidorli shaxslarning elita guruhini shakllantirishga emas, balki butun yoshlarning ma'naviy-estetik qadriyatlar olamiga qo'shilish maqsadiga xizmat qiladi, badiiy tarbiya bilan shug'ullanuvchi har bir shaxsni tayyorlashga yordam beradi. "Behzod o'zigacha bo'lgan miniatyura san'atining eng yaxshitomonlarini umumlashtirdi. O'zining rangtasvir ishlarida yaratgan kompozision sxemalarida ifodaviylikning yangi va ajoyib imkoniyatlarini ochib berdi. Asosiysi –noyob iqtidor sohibi Behzod keyingi avlod uchun namuna bo'ladigan original va mukammal miniatyuralar yaratdi" [1].

"O'quvchi-yoshlarda estetik didni shakllantirish va rivojlantirishda tasviriy san'atning tur va janrlariga oid materiallardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazaridan ham Kamoliddin Behzod ijodi alohida e'tiborga molik. Zero, Kamoliddin Behzod o'z ijodiy izlanishlari bilan nafaqat miniatyura san'atini mustaqilsan'at turi sifatida shakllanish va rivojlanish tendensiyalarini belgilab berdi, balki tasviriy san'atning alohida janri – portret janriga asos soldi. Uning Sharq tasviriy san'atining portret janri rivojiga qo'shgan hissasini ikki omilda ko'rish mumkin. Birinchidan, u jamoaviy

portret ishlash amaliyotini joriy qilgan bo'lsa, ikkinchidan, ustoz musavvirning tasviriy san'at maktabidan ko'plab uning shogirdlari va izdoshlari yetishib chiqdi va uning ijodiy maktabini munosib davom ettirdilar" [2].

Yosh avlodga estetik tarbiya berishda tabiiy go'zallikni qadrlash muhim o'rin tutadi. Estetik tarbiyaning muvaffaqiyati yoshlarda tabiat ko'rinishlariga qiziqish va hurmatni singdirish, tabiatni muhofaza qilish va ekologik madaniyatga munosabatni shakllantirish bilan belgilanadi. Yoshlar tabiatga zarar yetkazish, uning boyliklarini talon-taroj qilish, atrof-muhitni ifloslantirishni yo'l qo'yib bo'lmaydigan xato deb tushunishga qodir. Tabiat yoshlarda yuksak ma'naviy tuyg'ularni uyg'otadi, ularni o'z ona zaminining sirli go'zalligiga bog'laydi, Vatanga muhabbat tuyg'usini shakllantiradi. Demak, tabiatga estetik munosabat yoshlar ma'naviyatini rivojlantiradi, tabiatga yaqinlik ularning ma'naviy dunyosini boyitadi.

**Natijalar.** O'qituvchi uchun esa eng qiyin vazifa - bu san'at vositalaridan to'g'ri foydalanish bo'yicha o'z mahorat va ko'nikmalarini rivojlantirish, shu bilan birga har bir shaxsning rivojlanishiga yordam berishdir. Yoshlarda bu rivojlanish san'atni idrok etish jarayonida, mustaqil ijodiy faoliyatda sodir bo'ladi. San'atni idrok etish, u bilan muloqot qilish badiiy faoliyatning eng qulay shaklidir. Ehtiyotkorlik bilan qaraydigan bo'lsak, Kamoliddin Behzod asarlari boshqa musavvirlarga ham chuqur ta'sir ko'rsatib, nafaqat badiiy yangilik nuqtai nazaridan muhim, balki Eron rangtasviri taraqqiyotiga ta'siri jihatidan ham yuksak hurmatga sazovor bo'lganini ko'ramiz. Boshqacha aytganda, uning rasmidagi yig'inlar va pardalar Eron rassomligi olamida yangilik paydo bo'lgan jurnaldir. Yana shuni aytish mumkinki, Behzod boshqa ijodkorlar uchun yangi ufqlar ochgan va Xoja Sheror ta'biri bilan aytganda, yangi reja yaratgan [3].

4. Ma’murov B.B. Bo’lajak o’qituvchilarda akmeologik yondashuv asosida ta’lim jarayonini loyihalash ko’nikmalarini rivojlantirish tizimi: ped. fan. dok. ... diss. avtoref. –Toshkent: 2018. 17-b.
5. Xamroeva F.A. Oliy ta’lim muassasalarida tabiiy geografik fanlarni o’qitish metodikasini mediatexnologiyalar asosida takomillashtirish. 13.00.02. Ped.fan.bo’y.fals.dokt (PhD) diss.avtoreferati. –Toshkent: 2020. 10-b.
6. Xurramov A.J. «Matematika o’qitish metodikasi» fani o’quv mashg’ulotlarini loyihalab o’qitish metodikasini takomillashtirish. Ped.fan.bo’y.fals.dokt (PhD) diss.avtoreferati. –Chirchiq: 2019. 13-b.
7. Шалыгина И.В., Шабалин Ю.Е. Гуманитарный потенциал теории содержания общего среднего образования И.Я.Лернера, М.Н.Скаткина и В.В.Краевского. // Отечественная и зарубежная педагогика. 2017. Т.1. №3(39). -С. 55-64.
8. Incheon Declaration / Education 2030: Towards inclusive and equitable quality education and lifelong learning for all (Word Education Forum, 19-22 may 2015, Incheon, Republic of Korea).
9. Knoll M. 300 Jahre lernen am Projekt. Zur Revision unseres Geschichtsbildes. // Padagogik. 1993. - Heft 7-8. -S.58 - 63. Библиотека авторефератов и диссертаций по педагогике <http://nauka-pedagogika.com/pedagogika-13-00-08/dissertaciya-professionalno-pedagogicheskaya-podgotovka-studentov-v-protsesse-proektnogo-obucheniya#ixzz74FgYfwUY>

**REZYUME.** Maqolada «Mediasavodxonlik va axborot madaniyati» fani o’quv mashg’ulotlarini loyihalab o’qitish metodikasi haqida fikrlar bildirilgan. Shuningdek, ta’lim ma’nosidagi loyihalashtirish o’qituvchi tomonidan talabaning izlash, uni hal etish bo’yicha faoliyatni rejalashtirish va tashkillashtirishdan to ommaviy baholashgacha bo’lgan mustaqil harakat qilishini ta’minlovchi maxsus tashkil etilgan maqsadli faoliyat ekanligi haqida ma’lumotlar bayon etilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье высказаны мнения о методике проектирования и преподавания предмета «Медиаграмотность и информационная культура». Утверждается также, что образовательное проектирование – это специально организованная преподавателем целенаправленная деятельность, обеспечивающая самостоятельность действий студента от планирования и организации деятельности по ее поиску, решению до общественной оценки.

**SUMMARY.** The article expresses opinions on the methodology of designing and teaching the subject “Media literacy and information culture”. It is also argued that educational design is a purposeful activity specially organized by the teacher, ensuring the independence of the student’s actions from planning and organizing activities for its search, solution, to public assessment.

## SPORTSHÍLARDÍN ULÍWMA HÁM ARNAWLÍ TAYARLIQLARÍNÍN FORMALARÍ

**A.K.Utebergenov** – *biologiya ilimleriniń kandidatu, professor*

**A.K.Bekmurzaev** – *docent w.w.a*

*Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutı*

**Tayanch so'zlar:** sport, mashq, texnika, taktika, jismoniy tayorgarlik, yuklama, faktor.

**Ключевые слова:** спорт, упражнение, техника, тактика, физическая подготовка, нагрузка, фактор.

**Key words:** sports, exercise, technique, tactics, physical training, load, factor.

**Kirisiw.** Sport shınıǵıwı eki baǵdardı: ulıwma hám arnawlı tayarlıq quramın birlestiredi. Ulıwma tayarlıq fizikalıq iskerlik procesinde organlar, sistemalar hám funkciylardı ulıwma rawajlandırıw tiykarında sport qánigeliklerine tiyisli shárt-shárayatlardı jaratadı, keńeytiredi, sonıń menen birge, onıń hár qıylı háreket, kónlikpe hám tájriybeleri múnásibetin bayıtadı.

**Metodlar.** Arnawlı tayarlıq sport qánigeliginiń zárúrli faktori bolıp tabıladı, ulıwma tayarlıq bolsa sportshı rawajlanıwınıń hár túrli baylanıslar arqalı qánigelesiw procesine tikkeley bolmaǵan tásir etiwshi faktor bolıp tabıladı [3:12].

Arnawlı tayarlıq arnawlı bir sport túri ushın tán bolǵan sapa hám qábiletlerdi rawajlandırıwdı támiyinleydi, sonıń menen birge, oǵan tán texnikalıq hám taktikalıq usıllar menen qurallandıradı.

Ulıwma tayarlıqtı da, arnawlı tayarlıqtı da shınıǵıw procesinen alıp taslap yamasa birin ekinshisi menen almasıp bolmaydı. Sebebi ulıwma hám arnawlı tayarlıqtıń arasında óz ara baylanıslıq ámelde bolıp, olar ortasınan shegara ótkeriw múmkin emes. Ayırım qánigeler soǵan súyene otırıp, sport trenirovkasınıń bul táreplerin ajratıwın usınıs etedi. Ulıwma hám arnawlı tayarlıq óziniń jeke funkciyları, quralları, usılları hám sonıń menen birge, shınıǵıw processleri menen anaǵurlım ajralıp turadı.

**Talqılaw hám nátiyjeler.** Sportshınıń ulıwma tayarlıǵı qánigelik qásiyetlerin de sáwlelendiriwi kerek, sebebi fizikalıq shınıǵıwlar dawamında unamlı hám sonıń menen birge unamsız tásirler ushırasıp, ulıwma tayarlıq hár túrli sport túrlerinde birdey bolıwın sheklep turadı.

Ulıwma hám arnawlı tayarlıq sport shınıǵıwında hár dayım kóp jıllıq sport shınıǵıwları procesi dawamında qollanıluwı kerek. Kópshilik ilimpazlar sportshınıń sheberligi artıp barıwı menen UFT (ulıwma fizikalıq tayarlıq) shınıǵıwlarınıń sanı hám oǵan ajratılatuǵın waqtın kemeytiw kerek dep pikir bildiredi. Sportshınıń sheberligi artıp barǵan sayın organizm kóbirek azıq talap ete baslaydı. UFTtıń kólemi oǵan ajratılatuǵın waqtın kemeytiw esabınan emes, bálkim arnawlı fizikalıq tayarlıq ústinde kóbirek islew esabına qısqartılıwı kerek.

Shınıǵıw toparlarında UFT hám AFT (arnawlı fizikalıq tayarlıq)dıń óz ara múnásibetine kelsek, ol tómendegishe belgilenedi: tayarlıq dáwiriniń I basqışında mezociklde UFT ústinlik etedi, keyin ala áste aqırın kemeydi, tayarlıqtıń II basqışında hám jarısıw dáwirinde AFT artadı, bul dáwirde UFT aktiv dem alıw formasında oraylıq orın iyeleydi [4:3].

Shınıǵıw procesiniń úziksizligi tómendegi tiykarǵı baǵdarlar menen spatlanadı:

1) shınıǵıw procesi saylangan sport túri boyınsha rawajlanıwın bikkemlengenshe jıl hám jıllar dawamında ótkeriledi;

2) náwbettegi hár bir shınıǵıw aldınǵı ótken shınıǵıwdıń izine jaylastırılıp, ol bikkemlenip hám tereńlestiriwi kerek;

3) shınıǵıwlar arasındǵı dem alıw intervalı tikleniw hám jumıs qábiletiniń ósiwi ulıwma tendensiyǵa tuwrı keletuǵın dárejede bolıwı kerek.

Háptede ótkeriletuǵın barlıq shınıǵıwlardıń (háptelik sanı 15-18 danaǵa jetedi) organizmge táhiri birdey bolmaydı. Birdey júklemeler tolıq tikleniwden keyin basqaları tez dáwirinde beriledi. Bul zatqa hár túrli funkciynal sistemalar hám organlar túrli waqtıtan keyin - geterokronikalıq tiklengenligi ushın erisiledi. Mısalı, júrek qan tamır sistemaları (puls, qan basımı, júrek qısqarıwınıń mexanikalıq kúshi), dem alıw sistemalarınıń funkciysına salıstırǵanda tez tiklenedi, biraq qan payda etiw, shıǵarıw sistemalarınıń tikleniwi ushın uzaǵıraq waqt talap etiledi. Sol sebepli tikleniw quralları qanshelli tuwrı tańlansa, shınıǵıw júklemesi sonsha tabıslı boladı.

Biraq shınıǵıwdıń hár túrli dáwir basqışlarında bunday bólimlerdiń dawam etiwı túrlishe boladı, mısalı jumıs basqışlarında jumıs kólemin basqalarında kúshin asırıw zárúr ekenligin esapqa alǵan halda belgilenedi.

Házir júkleme hám dem alıstıń gezekelesiwın kórip shıǵıp biz abstrakt júkleme haqqında pikir júrgizdik. Biraq ámeliy shınıǵıwda júkleme kólemi kúshi boyınsha toqtawsız gezekelestiriledi, sol sebepli gezekelesiwdiń real sisteması hár qıylı bolıwı múmkin. Mısalı, eger pútkil A júkleme qollanılsa, álbette sol júklemeden keyin tolıq tikleniwdi kútiw zárúr emes, bálkim basqa burnan tiklengen B júklemenı beriw múmkin hám sonıń menen bir waqtta ol A júkleme ushın aktiv dem alıw noqatı esaplanadı.

Bunnan kelip shıǵadı, sportshılarımız hádden zıyat shınıǵıw islep qoymaydı hám joqarı sport nátiyjelerine erisedi. Jıyın waqtında tek qatań sport rejimi jaqsı unamlı nátiyje beriwı múmkin [1:5].

Sport shınıǵıwı processinde joqarı nátiyjege erisiw ushın, júklemenı dinamikalıq dárejede (kólemi hám kúshi boyınsha) maksimumǵa shekem asırıw zárúr. “Maksimal júkleme” túsiniń kóp organizm funkciynal múmkinshiliginiń aqırında turǵan “oǵada salmaqlı júkleme” menen aljastıradı, eger sportshı sol aqırınan ótse, bul júkleme onı qıynap qoyadı, bunda júkleme maksimal bolmay, bálkim salmaqlı esaplanadı. Maksimal júkleme bolsa organizmge maksimal talap qoyadı hám funkciylar iskerliginiń artıwına járdemlesedi.

Júklemenıń áste aqırın hám maksimal asırıluwı bir-birine qarsı da bolıwı múmkin. Júklemenı maksimal asırıwdan aldın organizmde áste aqırın bunday júklemege kóniktiriw kerek. Organizmde kóniktiriw ushın bolsa, shınıǵıwdıń hár bir basqışında shuǵıllanıwdıń maksimal nátiyjesine erisiw kerek, tek sonda ǵana kelisiw mexanizmleri iyiliwsheń hám háreketshen boladı.

Shınıǵıw júklemesin asırıw dawamında sport túriniń mánisine qaray onıń kólem hám kúshi ózgeredi.

Júkleme kólemi qanshelli úlken bolsa, sonsha izbe-iz ózgerisler kiritiliwi kerek.

Sabırlılıqtı talap etiwshi sport túrlerinde júkleme az-azdan asıp barsa, tezlik kúsh talap etiwshi túrlerde (oǵada stressli júklemeler bunnan tısqarı) tolqınsımaq háreket xarakterli bolıp tabıladı [2:6].

Sport shınıǵıwı ushın tolqınsımaq dinamika tán bolıp tabıladı.

Masshtabdaǵı “tolqınsımaq” háreketler tómendegilerden ibarat:

1) kishi tolqınlar mayda toparındaǵı (2-7 kún) júklemelerdiń dinamikasını ańlatadı;

2) ortasha tolqınlar bul bir neshe (3-6 kún) kishi tolqınlardıń mánisin kórsetedi hám ortasha topardı ańlatadı;

3) úlken tolqınlar úlken toparlardı quraytuǵın shınıǵıw basqıshları hám dáwirlerindegi orta toparlardıń tolqınsıman ózgeriwın ańlatadı.

Júkleme (kólem hám kúshi)niń tolqınsımaq ózgeriwın L.P.Matveev “keshigiwshi transformaciya” hádiyesi dep túsindiredi, yaǵnıy júklemeniń san, sapa hám waqtın belgilewshi táreplerine qayta beyimlesiw bir waqtta júz bermeydi. Bunda tábiyiy bioritm, tábiyiy ortalıq, jaris rejesin hám basqalardı esapqa alıw zárúr. Mısalı, orta hám ásirese úlken “tolqın”lardıń baslanıwında kólem kórsetkishleri (hápte hám ay ishinde shınıǵıw jumıslarınıń ulıwma sanı) joqarı kórsetkishlerge jetedi, keyin kólem

turaqlılasadı hám azayıp baradı. Sonıń tiykarında bolsa, túrli kúsh kórsetkishleri (shınıǵıwdıń motor qısıqlıǵı, háreketlerdiń tezlik, kúsh tárepleri hám basqalar) úlken áhmiyetke iye boladı. Kishi “tolqınlarda” kóbinese kólem hám kúshniń keri múnásibetleri baqlanadı: mikrocikldiń birinshi yarımınan ekinshi yarımına salıstırǵanda shınıǵıwlar úlken kúshke, biraq kishi kólemde alıp barıladı. Bul ulıwma múnásibetler shınıǵıw procesinde ol yamasa bul shınıǵıwlardıń ornı hám áhmiyetine qaray túrlishe ańlatılanadı.

Shınıǵıw procesi ciklligi yaǵnıy shınıǵıw procesiniń pútkil dúzilisine tán bolǵan belgili bir shınıǵıwlar, basqıshlar, dáwirlerdi salıstırıp qaraǵanda juwmaqlanıw sheńberine aylanadı hámde úlken toparlar, orta topar hám mayda toparlarǵa bólinedi [3:4].

**Juwmaq.** Juwmaqlap aytqanda toparlar shınıǵıwlar dúzilisiniń nátiyjeli forması esaplanadı. Olarda shınıǵıw júklemelerin úziksiz tákirarlaw hám dúzetiwler kirgiziw, túrli sapalar hám háreket tájiriwbeleri tárbiyalanıwın ustalıq penen gezeklestiriw, ol yamasa bul qurallardı bir tegis bólistiriw, jumıstı texnikalıq, taktikalıq, funkciynal hám etikalıq tayarlıqqa qaratıp racional bólistiriw hám sonıń menen birge, sport formasınıń rawajlanıw fazaların dúziw múmkin.

#### **Ádebiyatlar**

1. Xalilov E.X., Zaynabiddinov A.E., Xushmatov Sh.S. Jismoniy mashqlar fiziologiyasi. –Andijon: 2019.
2. Allamutov Sh.I. Fiziologiya va sport fiziologiyasi. –Toshkent: «Turon-Iqbol», 2010.
3. Усмонходжаев Т.С. ва бошқалар. Болалар ва ўсмирлар спорт машғулотлари назарияси ва услубиятлари. - Тошкент: «Шарк», 2005.
4. Қурбонов Ш., Қурбонов А. Жисмоний машқларнинг физиологик асослари. –Тошкент: «ЎАЖБНТ» Маркази, 2003.

**REZYUME.** Maqolada sport mashg'ulotlariga tayyorgarlikning asosiy yo'nalishlari, jismoniy faoliyat jarayonida organlar, tizimlar va funktsiyalarni takomillashtirish va shu bilan birga uning har qanday faoliyati va tajribasini boyitish haqida so'z boradi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье говорится об основных направлениях подготовки к спортивной деятельности, совершенствовании органов, систем и функций в процессе физической деятельности и одновременно обогащении любой его деятельности и опыта.

**SUMMARY.** The article talks about the main directions of preparation for sports activities, improvement of organs, systems and functions in the process of physical activity and at the same time enriching any of its activities and experience.

## PSIXOLOGIYA ILIMLERI

### TAYANCH TUSHUNCHALARNI LOYIHALAB O'QITISH JARAYONIDA O'QUVCHILARNING OG'ZAKI NUTQ VA FIKRLASH FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI

**N.B.Mamadaliyeva** – *katta o'qituvchi*

*Andijon davlat pedagogika instituti*

**Tayanch so'zlar:** psixologiya, bilish, boshlang'ich sinf, o'quvchi, o'qituvchi, nutq, tafakkur, sezgi, diqqat, xotira, matematika, tushuncha, faoliyat.

**Ключевые слова:** психология, познание, начальная школа, ученик, учитель, речь, мышление, интуиция, внимание, память, математика, понимание, деятельность.

**Key words:** psychology, cognition, elementary school, student, teacher, speech, thinking, intuition, attention, memory, mathematics, understanding, activity.

**Kirish.** Zamonaviy ta'lim tizimida o'quvchilarning intellektual, ijtimoiy va kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bunda, tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish usuli o'quvchilarning bilimlarni puxta va tizimli ravishda o'zlashtirishga yordam beradi. Tayanch tushunchalarni o'zlashtirish o'quvchilarning bilimlarini chuqurlashtiradi, ularga to'liq va ma'noli kontekstda tushunchalarni talqin qilish, o'z fikrlarini yangicha, ijodiy va mustaqil ravishda bayon qilish qobiliyatini oshiradi.

Shuningdek, og'zaqi nutq va fikrlash faoliyatining rivojlanishi o'quvchilarning muammo yechish, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvlarini shakllantirishga muhim ta'sir ko'rsatadi. O'qitish jarayonida bu faoliyatlarni o'stirish, psixologik asoslarga tayanish va yangi metodikalardan foydalanish o'quvchilarning ta'limga bo'lgan munosabatini yaxshilash va ularning har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga imkon beradi.

Mazkur maqoladi tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish usullari va o'quvchilarning og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishning psixologik asoslari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqot o'quvchilarga ta'lim berish jarayonida ularning aniqlashgan tushunchalarga nisbatan fikrlash, tushunish va ijodiy so'zlash qobiliyatlarini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni mustahkamlashga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar tahlili.** Psixologiyada 7-10 yoshdagi maktab o'quvchilarining yoshlari kech yoki erta ulg'ayish tarzida ifodalanadi. Bunda muayyan, aniq terminning yo'ligining o'zi yoshlarni psixologik xarakteristikasining murakkabligi va bir xil emasligidan dalolat beradi.

Qoida bo'yicha aynan shu yoshda o'quvchilar boshlang'ich sinf, psixologik va oliy psixik funksiyalar: qabul qilish, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, his-hayajonlarda o'z rivojlanishining yuqori pog'onasiga ko'tariladi. Ayniqsa, boshlang'ich sinfda o'qish davrida o'quvchilarda faoliyatlarning rivojlanishi, turli sohalarga qiziqishi tez rivojlanishi aniqlangan [1:64].

Inson tilni bilish jarayonidagi rolini o'rganish dialektik materializmning bilish nazariyasi muammolaridan biridir. Kishilar tushuncha, muhokama va xulosalar, ya'ni til bilan bog'liq bo'lgan abstrakt tafakkurning asosiy shakllari yordamisiz fikrlay olmaydilar. Tasavvur orqasida so'zda shakllangan tushunchalar vujudga kelgandagina mantiqiy tafakkur paydo bo'ladi. Rus fiziologi I.P.Pavlovning birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro bog'liqligi to'g'risidagi ta'limoti bir tomondan, sezgi bilan tafakkur o'rtasida, ikkinchi tomondan, tafakkur bilan til o'rtasida o'zaro organik bog'lanish borligini ko'rsatadi.

Birinchi signal sistemasi – obyektiv reallikdagi konkret buyum va xodisalarning sezgi a'zolariga ta'siridan iborat. Bu sistema tirik mavjudot bilan tabiat o'rtasidagi bevosita munosabatlar jarayonida vujudga kelgan.

Ikkinchi signal sistemasi – nutq esa kishilarning birinchidan, jamiyatdagi o'zaro munosabatlari, ikkinchidan, ularning tabiat bilan bo'lgan munosabatlari jarayonida kelib chiqdi. Xullas, til abstrakt tafakkurning asosiy quroli bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun o'quvchilarning nutq madaniyatini o'stirib borish har bir fan o'qituvchisining, jumladan, matematika o'qituvchilarining ham asosiy vazifalaridan biridir [2:116]. Psixologik nuqtayi nazardan qaraganda bilish jarayoni ikkita bosqichda amalga oshiriladi:

1. Hissiy bilish. Bu sezgi, idrok va tasavvur orqali amalga oshadigan jarayon bo'lib, insonning hissiy bilishi uning sezgi, idrok va tasavvurlarida o'z ifodasini topadi. Chunki, inson sezgi a'zolari orqali real dunyo bilan o'zaro aloqada bo'ladi. Natijada, sezgilar orqali inson ongida obyektiv borliqning subyektiv obrazi hosil bo'ladi. Inson ongiga bog'liq bo'lmagan holda mavjud bo'lgan tashqi obyekt (qo'zg'atuvchi) bilan subyektning (inson sezgi a'zolari, asab tizimi) o'zaro ta'siri natijasida hosil bo'ladigan hissiy jarayon sezgilar deb yuritiladi.

Ta'rifdan ko'rinadiki, sezgilar yordamida narsa, voqea yoki hodisalarning ba'zi bir xususiyatlari aks

etadi. Ana shu narsa, voqea yoki hodisaning inson ongida to'raligicha aks etishi idrok deb yuritiladi.

Psixolog va fiziolog olimlarning ilmiy izlanishlari natijasidan ma'lumki, tashqi olamda mavjud bo'lgan narsa, voqea va hodisalar inson miya po'stlog'ida sezish va idrok qilish orqali ma'lum bir iz qoldiradi. Oradan ma'lum bir vaqt o'tgach, bu izlar jadallashishi va biror narsa, voqea yoki hodisaning subyektiv obrazi sifatida qayta tiklanishi mumkin. Ushbu obyektiv olamning subyektiv obrazining ma'lum vaqt o'tgandan keyin inson ongida qayta tiklanish jarayoni tasavvur deb ataladi.

2. Mantiqiy bilish. Bu tushuncha, hukm va xulosa orqali amalga oshiriladi. Har qanday mantiqiy bilish dastlab hissiy bilish orqali amalga oshadi, shuning uchun ham har bir o'rganilayotgan matematik obyektidagi narsalar seziladi, abstartkt nuqtayi nazardan idrok va tasavvur qilinadi. Bunda tasavvur hissiy bilish mantiqiy bilish orasidagi ko'prik vazifasini bajarib, ayniqsa ilmiy tushunchalarning shakllanishida hissiy tayanch vazifasini bajaradi. Shuni esda tutish kerakki, hissiy bilish asosiy shakllaridan biri bo'lgan tasavvur orqali moddiy dunyodagi narsa, voqea va hodisalarning tashqi belgilari inson ongida aks etadi. Ammo ularning mohiyatini ochib bera olmaydi. Inson o'zi sezgan, idrok va tasavvur qilgan narsa, voqea va hodisalar to'g'risida bilish jarayonida mantiqiy fikr yuritish (tafakkur qilish) qobiliyatiga ega bo'ladi. Mantiqiy fikr yuritish orqali u narsa, voqea va hodisalarning eng muhim xususiyatlari to'g'risida chuqurroq, kengroq va to'laroq bilishga erishadi. Natijada istalgan fan o'rganilayotganda, jumladan matematika fanini o'rganishda o'rganilayotgan obyektidagi narsa to'g'risida ma'lum bir matematik tushuncha hosil bo'ladi. Umuman, mantiqiy fikr yuritish (tafakkur qilish) ilmiy tushunchalarning ma'lum bir tizimi orqali ifodalangan bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mantiqiy tafakkurni shakllanganlik darajasi ko'p jihatdan boshlang'ich asosini amaliy faoliyat tashkil etuvchi mos aqliy faoliyatlarning shakllanganligi va muvofiqlashganligi bilan aniqlanadi.

Ikkinchi yo'nalishi P.P.Blonskiy, L.S.Vigotskiy, S.L.Rubenshteyn, A.N.Leontev, P.Ya.Galperin, D.B.Elkonin, V.V.Davidov va boshqalarning tadqiqotlari bilan bog'liq. Bu mualliflar individ tajribasida mantiqiy omillarning paydo bo'lishi muloqot va ta'limda bilim va mantiqiy tajribalarni uzatish bilan amalga oshadi, deb hisoblaydilar. Bunda intellektual faoliyat ta'lim jarayonida maxsus o'zlashtirish predmeti sifatida ishtirok etishi kerak.

L.S.Vigotskiyning "eng yaqin shakllanish zonasi" haqidagi nazariyasi bolaning tafakkurini uni tashkil etgan ta'lim va tarbiya vositasida shakllanish jarayonida o'rganishning istiqbolli yo'lini ochdi. Bu jarayonning tashkil etilishi bolaning intellektual shakllanish sifatiga sezilarli va bevosita ta'sir etadi.

Bu nuqtayi nazar V.V.Davidovning ilmiy tadqiqotlarida ishlab chiqildi. Ularda bola intellektining 2 yoshdan 11 yoshgacha shakllantirish haqidagi daliliy ma'lumotlar unga bu vaqtda "munosabat-tuzilish" matematik tushunchasi vositasida ifodalanuvchi obyektlarning xossalari nafaqat "begona", balki oxirlarining o'zi ham bolalar tafakkuriga tarkiban kirishi haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Yetakchi psixologlar tomonidan obrazli va mantiqiy tafakkur orasidagi bog'lanishlarning uzviyligi haqidagi, ularning doimiy o'zaro ta'sirlari va birbirilari ichiga kirishlari haqidagi da'volarni ilgari suradilar (A.N.Leontev, S.L.Rubinshteyn).

E.L.Agayev Eyler doirasi va "klassifikatsion daraxtlar" kabi ko'rgazmali modellardan foydalanish maktabgacha yoshdagi bolalarda mantiqiy munosabatlari haqidagi tasavvurlarni shakllantirishning adekvativ usuli ekanini ta'kidlaydi. Xususan munosabatlarni ashyoviy va grafik amalga oshirilishi 1-sinf o'quvchilarining qo'lidan keladigan va bir xilda samarali bo'lib chiqdi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy qobiliyatini shakllantirish shartlaridan biri mazkur yoshda bolalar ruhiy shakllanishlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olishdan iborat. Birinchi sinfga boruvchi bolalarning hamma ruhiy yangi o'zlashtirmalari tugallanmaganligi bilan ajralib turadi. Bu ularni o'qitishning o'ziga xos bo'lishini talab etadi, bunda ta'lim o'z ichiga o'yin elementlarini olgan bo'lishi va yo'naltirilgan ta'lim yuzaga kelgan tafakkur shakli – yangi o'zlashtirilgan ko'rgazmali-amaliy va ko'rgazmali obrazli shakllanishning belgishorali funksiyalar, mantiqiy tafakkur elementlarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

K.D.Ushinskiy nomi bilan ta'lim va tarbiyaning qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologik fanlar sohasi sifatidagi pedagogik psixologiyaning o'rnatilishi va shakllanishi bilan bog'liq. Uning ishlarida xotira, diqqat, nutq, his-tuyg'u, tafakkur o'quv faoliyatida qanday ahamiyatga ega bo'lishi ko'rsatib o'tilgan. Xususan, u bolalarda ijodiy qobiliyatning shakllanishini muhimligini ta'riflagan.

K.D.Ushinskiy fikricha, maktabda ijodiy qobiliyatni shakllantirish – bu bolalarga ifodalarning ketma-ketligini, aniqligini, ta'riflanganligini, mustaqilligini va tushunarligini o'rgatishdir.

**Tahlillar va natijalar.** O'quvchilarning ijodiy qobiliyati bilan bog'liq muammolariga bag'ishlangan pedagogik tadqiqotlar tahlili mantiqiy operatsiyalarni shakllantirish ko'pgina mualliflar tomonidan butun o'quv jarayoniga kiruvchi shart sifatida qaralayotganligini ko'rsatadi.

Matematika fani insonning intellektini, diqqatini rivojlantiradi, ko'zlangan maqsadga erishish uchun qat'iyat va irodani tarbiyalaydi, algoritmik tarzda tartib-intizomlilikni ta'minlaydi va tafakkurini kengaytiradi. Matematika olamni bilishning asosi bo'lib, tevarak-atrofdagi voqea va hodisalarning

o‘ziga xos qonuniyatlarini ochib berish, ishlab chiqarish, fan-texnika va texnologiyaning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Boshlang‘ich ta‘limning matematika fani o‘quv dasturi o‘quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan Davlat ta‘lim standarti talablaridan kelib chiqib tuzilgan. Kompetensiyaviylik atamasi ostida mantiqiy tafakkur alifbosini va uning shakllanishi uchun zarur bo‘lgan bazisni tashkil etuvchi elementar mantiqiy tushunchalar va amallar kompleksini erkin egallash tushuniladi. Matematika darslarida egallangan mantiqiy mahoratlar, o‘z navbatida, boshqa fanlarni o‘qitish jarayonida ularni keng qo‘llash imkonini beradi [3:7].

Ruhshunoslarning fikriga qaraganda, matematik tushunchalarni shakllantirish muammosi murakkab va serqirralidir. O‘zining mohiyati bo‘yicha har bir fikr ijodiy, past yoki yuqori darajaning mahsulidir. Har bir fikr – izlanish va yangilikni yaratish hamda uni omallashtirishga qaratilgan mustaqil harakatdan iborat.

S.L.Rubinshteynning birinchilardan bo‘lib umumiy aqliy rivojlanish borasida qilgan izlanishlari maqsadga muvofiqdir. U ruhshunoslikdagi faoliyat toifasini ruhiy izlanishning obyekti hamda maqsadi qilib kiritdi va asosladi. Faoliyat nazariyasi asosida S.L.Rubinshteyn faoliyat tushunchasini subyektdan obyektga o‘tish deb kiritadi. Faoliyatning ikkinchi bosqichini obyektidan subyektga qarab borgan aloqadan iborat, deb hisoblaydi.

S.L.Rubinshteynning diqqat markazida, inson faoliyati jarayonida faqatgina o‘ziga xos bo‘lgan shaxs sifatida o‘zining xususiyatlarini namoyon etib qolmay, balki undagi ruhiyatning shakllanishi obyekt bo‘lib aniqlanadi, degan mazmun turadi.

“Faoliyat”, “harakat” tushunchalarining fundamental psixologik tushunchalari A.N.Leontev ishlarida yoritilgan.

Faoliyat – subyektning bir-biriga bog‘langan real-ligining o‘zaro ta‘sir ko‘rsatishi deb bilgan A.N.Leontev, reallikning bola ongida aks ettirilishi –

“ta‘sir”ning natijasi bo‘lmay, o‘zaro ta‘sir, ya‘ni bir-biriga duch kelgan jarayonlarning natijasidir, deb hisoblaydi.

A.N.Leontev va S.L.Rubinshteynning o‘qitish amaliyotidagi xulosalariga qaraganda, matematik tasavvurlarni shakllantirishda faoliyat shakllarining ishlanmasi va ishlatilishi hamda ta‘limdagi faoliyat tamoyillarining bir-biriga ketma-ket o‘tkazilishi eng foydali va natijali yo‘nalishdir.

**Xulosalar.** Mazkur ishda tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning og‘zaqi nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishning psixologik asoslari tahlil qilindi. Tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitish, o‘quvchilarga bilimlarning to‘liq va tizimli tushunishini ta‘minlash bilan birga, ularning tanqidiy fikrlash, muammo yechish va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini ham rivojlantiradi. Bu jarayonda psixologik faktorlar — diqqat, xotira, tafakkur va ta‘limga bo‘lgan qiziqish — o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan munosabatini va faollik darajasini oshiradi.

Og‘zaqi nutq va fikrlash faoliyatining rivojlanishi, o‘z navbatida, o‘quvchilarning kommutativ ko‘nikmalarini, ularning fikrlarni aniq va dalillar bilan ifodalash qobiliyatlarini kuchaytiradi. Psixologik asoslar, shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy ko‘nikmalarini shakllantirishga yordam beradi, chunki bu faoliyatlar ularning shaxsiy munosabatlariga, hamkorlik va muammo yechishga taalluqli jarayonlariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, ta‘limda psixologik yo‘nalishlarni hisobga olish va yangi, samarali metodikalarni joriy etish orqali o‘quvchilarning umumiy aql-farosatini, yoshga mos ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun imkoniyatlar kengaytiradi. Har bir o‘quvchi o‘ziga xos individual xususiyatlar bilan birga o‘qitiladigan materialga munosabatda bo‘lib, bu jarayon psixologik asoslar orqali yanada samarali tarzda amalga oshiriladi.

#### **Adabiyotlar**

1. Rustamova M.M., Arapbaeva D.K. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ijodiy tafakkurni rivojlantirishning pedagogik-psixologik diagnostikasi. Uslubiy qo‘llanma. – T.: «Navro‘z», 2016. 64-b.
2. Ikromov J.I. Geometrik isbotlash metodlari. –T.: «O‘qituvchi», 1970. 116-b.
3. Djurakulova A.X. Matematika o‘qitish jarayonida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish yo‘llari. Monografiya. – Termiz: «Surxon-nashr», 2019. 124-b.

**РЕЗЮМЕ.** Ushbu maqolada “Tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning og‘zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishning psixologik asoslari” masalasi mufassal yoritilgan. Tayanch tushunchalarni loyihalab o‘qitish, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarga kompleks va aniq bilimlarni egallash uchun zarur bo‘lgan asosiy tushunchalarni tizimli ravishda taqdim etishni nazarda tutadi. Bu yondashuv o‘quvchining bilimini aniqlash, taqqoslash va chuqur tushunishini ta‘minlaydi. Bilish jarayoni, hissiy bilish, mantiqiy bilish haqida psixolog olimlarning fikrlari, bundan tashqari matematik tasavvurlarni shakllantirishdagi fikrlari keltirilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В данной статье подробно описан вопрос “Психологические основы развития устной речи и мышления учащихся в процессе проектирования и обучения основным понятиям”. Проектирование и преподавание базовых понятий подразумевает систематическое изложение основных понятий, необходимых учащимся для приобретения сложных и точных знаний в ходе образовательного процесса. Та-

кой подход гарантирует, что знания учащегося будут выявлены, сопоставлены и глубоко поняты. Представлены мнения психологов о познавательном процессе, эмоциональном познании, логическом познании, а также их взгляды на формирование математических понятий.

**SUMMARY.** This article describes in detail the issue of “Psychological foundations of the development of students' oral speech and thinking in the process of designing and teaching basic concepts.” Designing and teaching of basic concepts implies the systematic presentation of the basic concepts necessary for students to acquire complex and precise knowledge during the educational process. This approach ensures that the student's knowledge is identified, compared and deeply understood. The opinions of psychologists about the cognitive process, emotional cognition, logical cognition are presented as well as their opinions on the formation of mathematical concepts.

**UO‘K: 174.864-053.(087.3)**

## **PSIXOLOG TALABALARNI KASBIY KUTISHLARINING IJTIMOYIY-PSIXOLOGIK OMILLARI**

**S.S.Maxammatova – katta o‘qituvchi**

*Andijon davlat universiteti*

**Tayanch so‘zlar:** ijtimoiy vazifa, mexanizmlar, shakllanish omillari, shartlari va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari, differentsial farqlar, kasbga qiziqish va kasb haqida xabardorlik.

**Ключевые слова:** социальная ситуация, механизмы, факторы формирования, условия и социально-психологические особенности, дифференциальные различия, интерес к профессии и осознание профессии.

**Key words:** social situation, mechanisms, factors of formation, conditions and socio-psychological characteristics, differential differences, interest in the profession and awareness of the profession.

**Kirish.** Jahonda Oliy o‘quv yurtlarida kasbiy faoliyatni shakllantirish bo‘yicha olib borilayotgan ta‘lim tizimining davlat ta‘lim standartiga muvofiq, bitiruvchi psixolog quyidagi faoliyat turlari bo‘yicha kasbiy muammolarni hal qila olishi kerak: ilmiy tadqiqot, loyihalash, ishlab chiqarish, amaliy tashkiliy boshqaruv va o‘qitish. Ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalarni shakllantirish Oliy o‘quv yurtida psixolog talabalarni tayyorlash maqsadlaridan biridir. Ushbu maqsadga muvaffaqiyatli erishishga ta‘sir qiluvchi omillardan biri bu professional kutish va uning xususiyatlaridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholiga psixologik xizmat ko‘rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori [1], O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida 2020-yil 30-iyundagi so‘zlagan nutqida “Mamlakatimizda yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo‘yishlari uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish”[2] ga qaratilgan tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

**Adabiyotlar tahlili.** O‘zbek psixolog olimlaridan D.N.Arzikulov, M.G.Davletshin, S.X.Djalilova, S.N.Jo‘raeva, V.M.Karimova, N.Dj.Sagindikova, SH.B.Saparov, B.N.Sirliiev, SH.J.Usmanova, F.I.Xaydarov, D.I.Xodjakulova, B.R.Kodirov, K.B.Kodirov, E.R.Roziev va boshkalar kasbiy faoliyat, kasbiy shakllantirish, o‘qish motivlari, kasbiy xususiyatlar rivojlanishining o‘ziga xosliklari,

kasbiy kamolot va uning bosqichlari kabi masalalarni ilmiy tadqiq etilganligini qayd etish o‘rinlidir.

Mustaqil Davlat Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan L.I.Antsiferova, Ye.A.Klimov, A.K.Markova, N.S.Pryajnikov, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteylar, mehnat psixologiyasi doirasida kasbiy kutish professional o‘z taqdirini o‘zi belgilash elementlarini shuningdek, B.G.Ananov, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontev, B.F.Lomovlar esa insonning xulq-atvori va uning shaxsiyati u amalga oshiradigan faoliyatga va ushbu jarayon sodir bo‘ladigan ijtimoiy guruhga bog‘liq ekanligini o‘rganganlar.

Xorij olimlaridan I.N.Aleshina, G.M.Andreyeva, M.L.Gomelauri, E.V.Gordienko, V.G.Maralov, N.I.Ioviyakel va T.Shibutanilar psixologiya fanida insonning xulq-atvori ijtimoiy tizim tomonidan tartibga solinishi o‘rgangan bo‘lsa, Dj.Atkinson, A.Bandura, E.Brunsvik, V.Vrum, V.V.Golubev, Dj.Rotter, E.Tolmen va X.Xekxaufenlar subyektiv kutishlar haqida psixologik ilmiy tadqiqotlar olib borganlar.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kasbga yo‘naltirish muammosini hal qilish nafaqat u yoki bu shaxsning, oilaning, balki butun bir davlatning muhim strategik vazifasi hisoblanadi. Shuning uchun ushbu jarayonni har jihatdan puxta o‘rganish, tahlil qilish va tegishli tavsiyalarni ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq etish orqali shaxs va jamiyat taraqqiyotini ta‘minlashga ma‘lum darajada hissa qo‘shish mumkin.

Mavjud ilmiy qidiruv holatini hisobga olgan holda, o‘rganilayotgan muammo bo‘yicha yurtimiz olimlarning fikrlarini ko‘rib chiqish o‘rinli

hisoblanadi. Jumladan, S.X.Jalilova, F.I.Xaydarov, N.I.Xalilovalarning ta'kidlashicha bo'lajak mutaxassis shaxsida yangi a'zolari orasida, turli yoshdagi kishilar bo'lgan jamoaga kirish, kasbiy faoliyatga ko'nikish, yangi ijtimoiy rolni tushunib olish yana muammolarni keltirib chiqaradi. Moslashuv bosqichiga kasbiy ijtimoiy yetuklik va ijtimoiylashuv shakli kiritiladi. O'zgargan kasbiy vaziyat yangi psixologik xususiyatlar va sifatlarning shakllanishiga olib keladi. [5] R.Z.Gaynutdinov rahbarligida kasbiy shakllanishning turli muammolariga bag'ishlangan qator tadqiqotlarida insonning kasbiy shakllanish muammolarini o'rganish xam fundamental, ham amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalari ekanligi ta'kidlanadi. Hozirgi zamon psixologiyasi yuqori malakali kadrlarga ehtiyoj sezadi. Ushbu loyihani amalga oshirish quyidagilarni amalga oshiriladi:

1. Mutaxasislarni ma'naviy va moddiy rag'batlantirish sistemalarni tadbiq etish;
2. Kadrlarni attestatsiyadan o'tkazishda qo'yiladiagan talablarni yangilash;
3. Ularning malakasini oshirish;
4. Eng yaxshi psixologlarning tajribalarni keng ommalashtirish.

Yangi, hozirgi zamon standartlarini amalga tadbiq etish o'qituvchidan nafaqat yuqori malakani va doimiy kasbiy rivojlanishni, balki o'z ishiga ijodiy yondashishni talab qiladi [6]. Sh.G.Saparovning talabalarining shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida ta'kidlanadiki ularning shakllanishi va rivojlanishi ularning kasbiy faoliyatida amalga oshadi ya'ni namoyon bo'lish darajasi va sifati o'qituvchilarning yoshi va ish stajiga uzviy bog'liqdir. Shuningdek, muallif jins va kasbiy faoliyatning motivatsion asosi kabi omillarni ko'rsatadi [7]. Yu.M.Asadovning dissertatsiyasida umumta'lim maktabi o'qituvchisining malaka oshirish tizimidan kasbiy-shaxsiy o'sish yunalishini belgilovchi psixologik xususiyatlari o'rganiladi. Bu bosqichda mahoratni mustahkamlash, kasbiy tiklanish samaradorligi ko'p jihatdan psixologik xususiyatlarga bog'liq [8] R.B.Abduraxmonovning "Pedagog va psixologlarda kasbiy yo'nalganlikning kamol topishi" mavzusidagi dissertatsion ishida kasbiy pedagogik va psixologik yo'nalganlik komponentlari aniqlangan va oliy o'quv yurtida tayyorgarlik davrida uning shakllanish dinamikasi o'rganilgan [9]. D.G.Muhamedova va boshqalar o'z ilmiy tadqiqotlarida o'quv-tarbiyaviy jarayonlarni optimallashtirish, bo'lajak mutaxassislarda kasbiy muhim sifatlarni rivojlantirish, kasbiy shakllanishning psixologik xususiyatlari kabi masalalarini ilmiy tadqiq etishgan. Unda o'quv jarayonida shaxslilik yunalishining rivojlanish dinamikasi hamda pedagogik ijtimoiy persepsiya hususiyatlari aniqlangan. Shuningdek, shaxsga yunaltilgan yondoshuv nuqtai nazaridan bo'lg'usi boshlang,ich

sinf o'qituvchilarining oliy o'quv yurtida tayyorgarlik jarayonida kasbiy yetilish sharoitida shaxslilik yunalishi tadqiq etilgan[10].

**Empirik tadqiqot natijalari.** Dissertatsiya tadqiqotining vazifalariga erishish va gipotezalarni tasdiqlash uchun talabalarning kasbiy kutishlariga ta'sir qiluvchi ijtimoiy-psixologik omillar bo'yicha empirik tadqiqot o'tkazildi.

**Tahlil va natijalar.** Psixolog talabalarni kasbiy kutishlariga ta'sir ko'rsatadigan ijtimoiy omillar (oila, ta'lim muassasalari, mentorlik tizimi)ni kompleks baholash uchun innovatsion diagnostik metodika ishlab chiqildi. Bu metodika yordamida talabalarning kasbiy rivojlanishida asosiy ijtimoiy-psixologik omillarni aniqlash imkoniyati kengayishini tadqiq etish maqsadida mualliflik asosida tuzilgan «A.AReanning "Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish so'rovnomasi» nomli so'rovnoma o'tkazildi va quyidagi natijalarni qo'lga kiritishga muvaffaq bo'ldik (1-rasmda).



*1-rasm. Psixolog talabalarining kasbiy kutishlarini aniqlash bo'yicha A.AReanning "Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish so'rovnomasi natijalari*

Ishtirokchi-respondentlar ijtimoiy-psixologik so'rovnomamizda bergan javoblaridan shu ma'lum bo'ldiki aksariyat, ya'ni 100 foizlik ko'rsatkichda Muvaffaqiyat motivatsiyasi sinaluvchilarning 60,0 foizida yuqori bo'lib, bu ularning maqsad sari intilishi va o'zlariga bo'lgan ishonchi balandligini bildiradi. Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish motivatsiyasi esa sinaluvchilarning 40,0 foizida kuzatilgan bo'lib, bu ularning qiyinchiliklardan cho'chishi va qaror qabul qilishda ehtiyotkorlik ko'rsatishlarini anglatadi. Bu tadqiqotdan kelib chiqib, aksariyat insonlarda muvaffaqiyatga intilish hissi ustun ekanini kuzatishimiz mumkin.

**1-jadval. Psixolog talabalarining kasbiy kutishlarini aniqlash bo'yicha gender bo'yicha natijalar ko'rsatkichlari n-150**


| Jinslar  | Muvaffaqiyat motivatsiyasi yuqori (n 75, %) | Muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish (n 75, %) |
|----------|---------------------------------------------|------------------------------------------|
| Erkaklar | 49 (65%)                                    | 26 (35%)                                 |
| Ayollar  | 41 (55%)                                    | 34 (45%)                                 |

**Tadqiqotimizda erkaklarda muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish**

**tahlili bo'yicha** muvaffaqiyat motivatsiyasi yuqori bo'lgan erkaklar 65% bo'lib, bu ko'rsatkich erkaklarda o'z maqsadlariga erishishga bo'lgan qat'iyat va intilishni aniqlandi. Erkaklar odatda ijtimoiy stereotiplar tufayli o'zlarini muvaffaqiyatga erishuvchi sifatida ko'rsatishga majbur bo'lishadi. Bu ular o'rtasida o'ziga bo'lgan ishonchning yuqori ekanligini bildiradi. Erkaklar muvaffaqiyatga erishishni o'zlarini jamiyatda o'zini tasdiqlash vositasi sifatida qabul qilishi mumkin. Bu jarayonda ular murakkab vaziyatlarda ko'proq bardoshlilik va tez qaror qabul qilish qobiliyatlarini namoyon etishlari namoyon bo'ldi.

35% erkaklarda muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish darajasi nisbatan past ekanligi aniqlandi. Bu ko'rsatkich ular xatolarni vaqtinchalik to'siq sifatida ko'rishlari va qo'rquvni yengib, oldinga intilishlarini bildiradi. Ya'ni qo'rquvning pastligi erkaklarning o'ziga xos mas'uliyat hissi va qiyinchiliklarni hal qilishga bo'lgan ishonchi bilan bog'liq. Lekin ba'zi erkaklar qo'rquvini ichki hissiyot sifatida yashirib, o'z stresslarini oshirishi mumkin.

Ayollarning 55 foizida muvaffaqiyat motivatsiyasi nisbatan baland bo'lsada, erkaklarnikiga qaraganda pastroq ekanligi aniqlandi. Ayollar muvaffaqiyatga intilishda ko'proq ijtimoiy va oilaviy mas'uliyatlarni hisobga oladilar ya'ni ayollar muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan intilishlarida ko'proq ichki hissiyotlar va ijtimoiy qadriyatlarga tayanishadi. Bu esa ularning motivatsiyasi ichki muvozanat bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Ayollarning 45 foizida esa muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish yuqori ekanligi namoyon bo'ldi. Bu ko'rsatkich ularning ijtimoiy bosim, javobgarlik va oilaviy hayot bilan bog'liq stress omillari ta'sirida shakllanishini bildiradi. Ko'pincha ayollar muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqishda ko'proq ijtimoiy va oila-kasb ziddiyatlariga duch keladilar. Ular muvaffaqiyatsizlikni nafaqat shaxsiy muvaffaqiyatsizlik, balki o'z yaqinlari oldidagi yomon natija sifatida qabul qilishini kuzatishimiz mumkin.




2-rasm. A.AReanning Psixolog talabalarining kasbiy kutishlarini aniqlashda yosh xususiyatlari bo'yicha "Muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish so'rovnoma natijalari

Tadqiqotimizda psixolog talabalarining kasbiy kutishlarini aniqlashda yosh xususiyatlari bo'yicha 8–22 yosh oralig'idagi respondentlarda muvaffaqiyat motivatsiyasi 70 foiz bilan eng yuqori darajada

ekanligi aniqlandi. Bu yoshda energiya va umid hamda motivatsiya baland bo'lishi tabiiydir. 23–26 yoshli guruhida muvaffaqiyat motivatsiyasi 60 foizga tushgan bo'lsada, hali ham ustunlik qilishini ko'rsatdi. Bu bosqichda insonlar qiyinchiliklarga moslashish va real hayotga kirib borishni boshlaydi. 27–30 yosh oralig'ida muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish ko'rsatkichlari 50 foizdan tenglashgan. Bu yoshda insonlar hayotdagi barqarorlikka intilib, xatolardan ko'proq ehtiyot bo'ladilar.

**Tadqiqotimizning keyingi bosqichida** tadbirkorlik va boshqaruvning umumiy ulushi **43,3 foiz** bo'lib, respondentlarning deyarli yarmi ushbu yo'nalishlarga qiziqishini ko'rsatdi. Ilmiy va ijtimoiy yo'nalishlarning ulushi birgalikda 30,0 foizni tashkil etdi, bu intellektual va jamiyatga xizmat qilish sohalariga e'tibor hali ham yuqoriligini ko'rsatdi. Texnik, san'at va boshqa yo'nalishlarning umumiy ulushi **26,7 foizni** tashkil etdi, bu esa ushbu sohalarining nisbatan tor doiradagi auditoriyaga qiziq ekanini ko'rsatadi.



3-rasm. E.G. Sheyna tomonidan ishlab chiqilgan "Kariya yo'nalishlari" so'rovnoma ko'rsatkichlari.

**Xulosa va tavsiyalar.** Xulosa sifatida shuni qayd etish joizki, talaba yoshlarning kasbiy kutishlari muammosini ilmiy o'rganishning psixologik masalalari yuzasidan talaba yoshlarning kasbiy kutishlari muammosini o'rganish bo'yicha mavjud nazariy yondashuvlar, ilmiy konsepsiyalar va ijtimoiy-psixologik omillar tahlil qilinib, tadqiqot natijasida quyidagi muhim jihatlarini keltirdik.

Kasbiy kutishlarning mohiyati va ahamiyati bo'yicha

talaba yoshlarning kasbiy kutishlari ularning kelajakdagi kasbiy faoliyatini tanlash jarayoniga ta'sir qiluvchi markaziy psixologik omil ekanligi aniqlandi. Ushbu kutishlar, nafaqat shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga, balki uni o'rab turgan ijtimoiy muhitga ham bog'liqdir. Shuning uchun kasbiy kutishlarni o'rganish, nafaqat individual, balki ijtimoiy omillarni hisobga olishni talab qiladi.

Shaxsiy va ijtimoiy-psixologik omillarning ta'siri yuzasidan

bobda talabalarining kasbiy kutishlariga ta'sir qiluvchi omillar shartli ravishda ikki asosiy guruhga bo'lingan:

- o Shaxsiy omillar: o'zini anglash, shaxsiy qiziqishlar, qobiliyatlar va motivatsiya darajasi kabi individual xususiyatlar.

○ Ijtimoiy omillar: ota-onalar, do'stlar, o'qituvchilar va guruhdoshlar bilan bo'lgan o'zaro munosabatlar, shuningdek, ommaviy axborot vositalari va jamoatchilik fikri ta'siri.

Kasbiy kutishlarning shakllanishi bo'yicha esa, kasbiy kutishlar neytral, ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkinligi va bu holatlarning talabalarning psixologik xulq-atvori va kelajakdagi kasbiy yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatishi qayd etildi. Shaxsiy xususiyatlar va ijtimoiy muhit omillarining

birgalikdagi ta'siri orqali talabani kasbiy kelajakka bo'lgan qarashi shakllanadi.

Kasbiy kutishlarni o'rganishning dolzarbligi aniqlab, mazkur mavzuni o'rganishning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritildi. Talabalar orasida kasbiy kutishlarni to'g'ri shakllantirish ijtimoiy va psixologik jihatdan moslashuvchan mutaxassislar tayyorlashda muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga, ushbu jarayonni chuqurroq o'rganish uchun individual va ijtimoiy ta'sirchanlikni o'rganish bo'yicha kompleks yondashuv talab etiladi.

### **Adabiyotlar**

1. <https://regulation.gov.uz/uz/d/25665>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Aholiga psixologik xizmat ko'rsatish va psixologiya sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qonun loyihasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-iyundagi «O'zbekiston respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6017-son Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi «2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi o'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-son Farmoni.
4. Дружилов С.А. Индивидуальный ресурс профессионального развития как необходимое условие становления профессионализма человека. // Международный журнал прикладных и фундаментальных исследований. 2010. № 5. – С. 145-148.
5. Jalilova S.X., Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Kasb psixologiyasi. O'quv qo'llanma. 2010. Nizomiy nomidagi TDPU, 13-25.
6. Гайнутдинов Р.З. Диссертация... кандидата психологических наук: 19.00.03, -Ташкент: 2010. –С. 110.
7. Сапаров Ш.Б. Личности-профессиональные особенности преподавателей специальных дисциплин средних специальных профессиональных учебных заведений. Дис. к. психол. наук. – Ташкент: 1999. – С.156.
8. Asadov Yu.M. O'qituvchining individual psixologik xususiyatlari kasbiy mahoratni rivojlantirish omillari sifatida. Muallif. dis. ... samimiy. psixolog. Fanlar. – Toshkent: 2007. 25-b.
9. Abdurahmonova R.B. O'qituvchilar va psixologlarning kasbiy yo'nalishini shakllantirish. Dissertatsiya konspekti. dis. ... samimiy. psixolog. Fanlar. – Toshkent: 2005. 22-b.
10. Мухамедова Д.Г. Социально-психологические особенности эффективной управленческой деятельности менеджера образования. // Методика и технологии в образовании. – Воронеж: 2010. №6. - С. 51-54.

**REZYUME.** Maqolada psixolog talabalarni kasbiy kutishlarining ijtimoiy-psixologik omillari shakllashiga doir psixologik usul va vositalari, o'ziga xos xususiyatlari o'rganilgan. Talabalarni o'quv faoliyatida kasbiy kutishlarining ijtimoiy-psixologik jarayonida ilmiy yondashuvlar, empirik tahlillar, kasbiy faoliyatga ijtimoiy-psixologik tayyorgarlikni shakllantirish omillari va shartlarini aniqlash va o'rganilayotgan jarayon samaradorligini oshirish bo'yicha usul va vositalari tadqiq qilingan va samarali tavsiyalar keltirilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье исследованы психологические методы и средства, специфика формирования социально-психологических факторов профессиональных ожиданий студентов-психологов. Исследованы и даны эффективные рекомендации по научным подходам, эмпирическому анализу социально-психологического процесса профессиональных ожиданий учащихся в учебной деятельности, методам и средствам выявления факторов и условий формирования социально-психологической готовности к профессиональной деятельности и повышения эффективности изучаемого процесса.

**SUMMARY.** The article explores psychological methods and tools, specific features of the formation of socio-psychological factors of professional expectations of psychologist students. In the socio-psychological process of professional expectations of students in educational activities, scientific approaches, empirical analyzes, methods and tools for determining the factors and conditions for the formation of socio-psychological training for professional activities and improving the effectiveness of the process under study are researched and presented effective recommendations.

## **AUTIZM SPEKTRIDA BUZILISHI BO‘LGAN BOLALARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

**R.R.Vapoyeva – o‘qituvchi**

*Urganch ranch texnologiya universiteti*

**Tayanch so‘zlar:** autizm, intellekt, noverbal va verbal muloqot, anomal, integratsiya, diqqat, xotira nutq, tafakkur, sezgi, hissiy-irodaviy soha, agressiya, mexanik xotira, reabilitatsion.

**Ключевые слова:** аутизм, интеллект, невербальное и вербальное общение, аномальное, интеграция, внимание, память, речь, мышление, интуиция, эмоционально-волевая сфера, агрессия, механическая память, реабилитация.

**Key words:** autism, intelligence, nonverbal and verbal communication, anomalous, integration, attention, memory speech, thinking, intuition, emotional-volitional sphere, aggression, mechanical memory, rehabilitation.

Jamiyatning nosog‘lom insonlarni qabul qilish hamda ularning muammolarini to‘g‘ri tushunishga hali yetarli darajada tayyor emasligi mazkur mavzu bo‘yicha axborotga ega bo‘lish bilan bog‘liq sayozlik natijasi hisoblanadi. Jamoatchilikning nogironlik muammosi bilan bir qatorda autizm masalalari bo‘yicha ham muntazam ravishda va salohiyat bilan xabardor etib borilishi, aholining imkoniyati cheklangan insonlarni yanada yaxshiroq tushunishlariga yordam beradi. Muhim muammolardan biri sifatida autizm muammosining dolzarbligi Butunjahon sog‘liqni saqlash Tashkiloti tomonidan “Ruhiiy sog‘liq yili” deb nomlangan 2001 yilning o‘zidayoq e‘tirof etilgan. BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 2008 yilda 2 aprel – Autizm muammosi haqida ma‘lumotni tarqatish Xalqaro kuni deb qabul qilingan bo‘lib, shu vaqtdan boshlab bu kun har yili nishonlanib kelinmoqda.

Xalqaro kasalliklar klassifikatsiyasining XKT-10 tasnifiga ko‘ra F 84 –bolalardagi autizm 2-2,5 yoshda (ba‘zan 3-5 yoshda) namoyon bo‘ladigan va bolaning psixikasiga ta‘sir qiladigan umumiy rivojlanish buzilishi sifatida belgilab qo‘yilgan. Mazkur psixologik buzilishlar quyidagi holatlar bilan belgilanadi. a) bolada 3 yoshgacha namoyon bo‘ladigan anomoliyalar v) 3 ta sohadagi psixopotologik o‘zgarishlar: ekvivalent ijtimoiy hamkorlik o‘zaro ta‘sir buzilishi, muloqot va xulqiy funksiyalarida monotopik va steriotiplik kuzatiladi. Avvalo, muloqatga bo‘lgan ehtiyoj va hamkorlik qilish qobiliyati buziladi. Hulq- atvor, qiziqishlar va faollikda steriotiplar kuzatiladi. Muloqotdagi buzilish bu muloqat vositalaridagi patologiya (quloq va tildagi) emas, balki muloqotni o‘zini buzilishidir [9].

Autizm bolalarga psixologik-pedagogik yordam berish, ularning bilish jarayonlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarning yetarli emasligi muammoning dolzarb ekanligini anglatadi. Autizm bolalarda, avvalo, muloqatni shakllantirish eng muhim jarayondir, sababi noverbal va verbal muloqatning yetarlicha shakllanmaganligi bolaning diqqati, xotirasi, sezgisi, tafakkuriga ta‘sir qilishini ko‘rishimiz mumkin. Autizm tashxisli bolalar bilan ishlash jarayonida, bilish jarayonlarining rivojlantirish

orqali ularning ta‘lim-tarbiyasiga alohida e‘tibor qaratish mumkin.

O‘tgan asrlarda faoliyat yuritgan olimlar orasidan fransuz tadqiqotchisi J.M.Itar insonlardagi autizm bilan bog‘liq muammoga birmuncha o‘zgacha yondashib, bu holatni “Aqliy mutizm”, – deb ta‘riflaydi. Shu bilan u autizmdagi eng muhim belgilardan biri – aqliy buzilish mavjud bo‘lmagan holatda insonda nutqiy rivojlanmaganlik yoki nutqiy rivojlanishdan orqada qolish kabilarni ajratib ko‘rsatadi. Kasallikka doir “autizm” terminini fanga 1912- yilda E.Bleyler kiritgan. Autizmning sindrom sifatida bolalar psixiatri Leo Kanner tomonidan kiritilgan bo‘lib, bu uning 1943-yilda chop etilgan “Affektiv muloqot bilan bog‘liq autistik buzilishlar” nomli maqolasida keltirilgan. Autizmning klinik ko‘rinishlari bola hayotining birinchi yillarida namoyon bo‘ladi. Dastlab muloqatning va atrof-muhitga qiziqishni yo‘qligi bilan namoyon bo‘ladigan ushbu kasallik keyinchalik og‘ir shaklga aylana boshlaydi. Bu esa bolaning aqliy rivojlanishiga salbiy ta‘sir qiladi [3].


Rossiyalik mualliflarning bolalik autizmiga alohida muammo sifatida bag‘ishlangan birinchi nashrlari prof.S.S.Muxinin Kanner va Aspergerdan mustaqil ravshda 40- yillarda boshlagan dastlabki natijalarini jamladi. Ular muhokamaning boshlanishi bo‘lib xizmat qildi, uning doirasi hozirda juda keng.

J.Glatzel (1982) autizmni shaxs va atrof – muhit o‘rtasidagi axborotning buzilishi nuqtai nazaridan tahlil qildi. N.S.Salliva (1953) autizmni o‘ziga xos talqinini taklif qildi va uni ruhiy ontogeneznining dastlabki darajalariga regressiya oqibatlari bilan bog‘ladi. I.T.Viktorov (1980) shaxsiy moslashuv va autizm o‘rtasidagi munosabatlarga, S.F.Semenov esa “men” ongidagi buzilishlar va autizm o‘rtasidagi bog‘liqlikka e‘tibor qaratdi(1975) va boshqalar.

Respublikamizda alohida yordamga muhtoj bo‘lgan bolalarga ta‘lim-tarbiya berish, ularning nuqsonlarini yo‘qotish, oilada nogiron farzandni tarbiyalashning pedagogik xususiyatlari kabi masalalar S.Sh.Aytmetova, L.R.Mo‘minova, I.G.Radisheva, G‘.B.Shoumarov, D.A.Gordiyenko, A.Soatov, V.S.Raxmonova, A.V.Sosedova, Z.B.Em, G.A.Sodiqova, R.Sh.Shomaxmudova, P.M.Po‘latova,

L.V.Nazirova, D.A.Nurkeldiyeva, M.P.Xamidova, L.Sh.Nurmuhamedova, Sh.M.Amirsaidovalarning izlanishlarida tadqiq etilgan. N.R.Jumaniyazova autizm sindromli bolalar va ota-ona munosabatlarining psixologik xususiyatlari bo'yicha hamda E.A.Asrarxanova autizm spektrida buzilishi aniqlangan bolalari bor onalarning psixoemotsional holatini bola psixik taraqqiyotiga ta'siri yuzasidan tadqiqot ishlari olib borishgan [7] [8].

Tadqiqotda tanlangan keyingi metodika Segen doskasi metodikasidir. Bu metodika oligofrenopedagogika asoschilaridan biri E.Segen tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, bolaning shakllarni farqlash qobiliyatini aniqlashga, motorika xususiyatlarini o'rganishga qaratilgan (N.A.SHivarev, 1970). Qattiq qog'oz kartonga 1-rasmdagi figuralar chiziladi.



Keyin ular ehtiyotkorlik bilan qirqib olinadi. Har bir variant bir-biridan murakkabligi bilan ajralib turadi: 1 - doskada 10 ta har xil butun figuralar bor;

2-doskada 2 ta figura bo'lib, ularning har biri ikki qismdan iborat;

3-doskada har biri ikki va uch qismdan iborat 4 ta figura;

4-doskada ikki qismdan iborat 5 figura.

Bolaga 10 soniya davomida doska ko'rsatiladi. Keyin doskadagi figuralar stol ustiga tushadigan qilib ag'dariladi. Eksperimentator ularni aralashtirib, har bir figurani o'z joyiga qo'yishni so'raydi. Tajriba boshida eksperimentator 2-3 namunani ko'rsatib berishi mumkin. Keyin bolaning o'zi topshiriqni qanday bajarayotganini diqqat bilan kuzatadi. Bunda bola «sinash va xato qilish» kabi harakatlar qiladimi, figuralarni joyiga qo'yishda bola qanchalik diqqat-e'tiborli, buni u qanchalik o'rganadi, tadqiqotchi shu kabilarga e'tibor berib, kuzatishi kerak. Birinchi topshiriqni bajargandan so'ng, keyingi qiyinroq topshiriqqa o'tiladi. Sinaluvchining

har bir topshiriqni bajarish vaqti, uning qilgan harakatlari maxsus qog'ozga yozib boriladi. Sinaluvchi topshiriqlarni o'zi bajara olmasa, 1 daqiqadan so'ng unga yordamlashish mumkin. Bu metodika 3 yoshdan yuqori bolalarda qo'llanilishi mumkin.


### Segen doskasi metodikasi natijalar tahlili (Mann Uitni mezon bo'yicha n=31)

#### 1-jadval

| Shkalalar         | Jinsi       | N  | O'rtacha rang | Ranglar summasi | U      | p     |
|-------------------|-------------|----|---------------|-----------------|--------|-------|
| Diqqat xususiyati | O'g'il bola | 20 | 13,78         | 275,50          | 65,500 | ,040* |
|                   | Qiz bola    | 11 | 20,05         | 220,50          |        |       |
|                   | Jami        | 31 |               |                 |        |       |

Izoh: \* -  $p < 0,05$

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra diqqat xususiyati shkalasi o'g'il bolalar va qiz bolalar orasida ishonch darajasidagi tafovut kuzatildi ( $u=65,500$ ;  $p < 0,05$ ). Mazkur holat diqqat xususiyatining qiz bolalarda o'g'il bolalarga nisbatan yuqori darajada bo'lishi izohlaydi.



1- rasm. Segen doskasi metodikasi natijalar tahlili

G'arb mamlakatlarida autizm kasalligi bilan og'rgan insonlarning ta'limi, tarbiyasi hamda moslashuvi muammosiga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Ko'pincha chet el mutaxassislarining yondashuvi har bir insonning shubhasiz, o'zicha takrorlanmas va noyob inson ekanligini tan olish zaruriyatiga asoslanadi. Shuning uchun e'tiborni kamchiliklarni "tuzatish"ga emas, balki insonlar uchun alohida, ularning o'zligini saqlab qolgan holda erkin yashay olishi uchun sharoit yaratishga qaratish lozimligi taklif qilinadi.

#### Adabiyotlar

1. МКБ-10. Международная классификация болезней (10-й пересмотр). Классификация психических и поведенческих расстройств. Клинические описания и указания по диагностике. /Под. ред. Ю.Л.Нуллера и С.Ю.Циркина. – СПб.: «Оверлайн», 1994.
2. Башина В.М. О синдроме раннего детского аутизма Каннера. // Журнал невропатологии и психиатрии. 1974. Вып. 10. -С. 1538-1542.
3. Блейлер Е. Аутистическое мышление. Вопросы теории и практики психоанализа. Перевод с немецкого и предисловие д-ра Я.М.Когана. – Одесса: 1927. – С.81.
4. Богдашина О.Б. Аутизм: определение и диагностика. - Донецк: «Лебедь», 1999. –С. 112.
5. Raxmanova V.S. «Maxsus pedagogika». –T.: «G'.G'ulom», 2005.
6. Raxmanova V.S., Nurkeldiyeva D.A. Alohida yordamga muxtoj bolalar ijtimoiy rehabilitatsiyasi. -T.: «RBIMM», 2014.

7. Nurullayeva B.B., Jumanioyozova N.R. Autizm tashxisli bolalarning oilalariga psixologik yordam ko'rsatish masalalari. Global dunyoda psixologiya fani: nazariya va amaliyot, chaquruvlar va istiqbollar» professor E.G'oziyev xotirasiga bag'ishlangan ilmiy amaliy konferensiya materiallari. –Toshkent: 2022. 389-392-b.

8. Asrarxanova E. Autizm sindromining bola shaxsi psixik taraqqiyotiga ta'siri. «O'zbekiston respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Termiz davlat pedagogika instituti ta'lim tizimida psixologik xizmatning zamonaviy tendensiyalari: nazariya va amaliyot mavzusidagi Respublika II- ilmiy-amaliy konferensiya maqolalari to'plami». –T.: 2023. 12-13-may, 182-b.

9. Башина В.М., Симашкова Н.В. Современные подходы к проблеме детского и атипичного аутизма. Конгресс по детской психиатрии. - М.: РО- СИНЭКС, 2001. -С. 28-32.

**REZYUME.** Maqolada autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari, ularni chet el va O'zbekiston psixologlari tomonidan o'rganilganligi, klinik belgilari va ijtimoiy-psixologik xususiyatlari hamda intellekt darajasini aniqlovchi metodika tahlili sxema va jadvallar asosida keltirilgan.

**РЕЗЮМЕ.** В статье представлены психологические особенности детей с расстройствами аутистического спектра, их изучение зарубежными и узбекскими психологами, анализ клинических признаков и социально-психологических особенностей, а также методика определения уровня интеллекта на основе схем и таблиц.

**SUMMARY.** The article lists psychological characteristics of children with autism spectrum disorders, their study by psychologists from abroad and Uzbekistan, analysis of clinical signs and socio-psychological characteristics and methodology determining the level of intelligence based on schemes and tables.

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA “MEN” OBRAZINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI

G.S.Yuldasheva – o'qituvchi

*Abu-Rayxon Beruniy nomli Urganch davlat universiteti*

N.M.Quchqorova – pedagogika fanlari doktori, professor  
*Oriental universiteti*

**Tayanch so'zlar:** shaxs, “Men”-obrazi, o'z-o'zini anglash, nazariya, individuallashuv, qobiliyat.

**Ключевые слова:** личность, образ "Я," самосознание, теория, индивидуализация, способность.

**Key words:** personality, "I" image, self-awareness, theory, individualization, bility.

**Kirish.** Maktabgacha yoshdagi bolalarda “Men” obrazining shakllanishi ularning shaxsiyati va o'zini anglash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Ushbu davrda bolalar o'zlarini atrofda dunyo bilan bog'lab, o'z fazilatlarini, qobiliyatlarini va xatti-harakatlarini anglay boshlaydilar. O'zbekiston Respublikasining Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi Qonunining 3-moddasida “Maktabgacha ta'lim va tarbiya-bolalarga ta'lim va tarbiya berishga, ularni intellektual, ma'naviy-axloqiy, etik, estetik va jismoniy jihatdan rivojlantirish, bolalarni umumiy o'rta ta'limga tayyorlashga qaratilgan uzluksiz ta'lim turi ekanligi, 29-modda maktabgacha ta'lim va tarbiyaning davlat ta'lim dasturiga bag'ishlangan bo'lib, bunda bolalarni milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, O'zbekiston Respublikasida yashovchi millatlar va elatlarning urf-odatlarini va an'analari bilan tanishtirish, bolaning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirish” belgilangan [1].

**“Men”obrazining rivojlanishi:**

• **O'z-o'zini anglash:** Bolalar o'zlarini boshqa odamlardan ajratib, o'z xatti-harakatlari va his-tuyg'ularini tushuna boshlaydilar. Bu jarayon ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

• **Ijtimoiy munosabatlar:** “Men” obrazining shakllanishi bolalarning ijtimoiy munosabatlarida ham

namoyon bo'ladi. Ular o'zlarini guruhda qanday his qilishlarini, boshqalar bilan qanday munosabatda bo'lishlarini anglay boshlaydilar.

• **Axloqiy me'yorlar:** Bolalar o'z-o'zini anglash orqali axloqiy me'yorlarni o'zlashtiradilar. Ular to'g'ri va noto'g'ri xatti-harakatlarni ajratib, o'z xatti-harakatlarini boshqarishni o'rganadilar.

**“Men” obrazini rivojlantirishda ota-onalar va tarbiyachilarning roli:**

• **Hissiy qo'llab-quvvatlash:** Bolalarga o'z his-tuyg'ularini ifodalash va boshqarishda yordam berish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

• **Ijtimoiy faoliyatlar:** Bolalarni guruh faoliyatlariga jalb qilish, ularning ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi.

• **Axloqiy tarbiya:** Bolalarga axloqiy me'yorlarni o'rgatish, ularning shaxsiyati va “Men” obrazining shakllanishiga yordam beradi.

Uilyam Jeymsning shaxs nazariyasida shaxsning “Men” ikki asosiy komponentdan iborat deb ta'kidlanadi:

1. **“Men” (I) – Subyektiv o'zlik:** Bu insonning o'zini anglash va o'zini boshqarish qobiliyatini ifodalaydi. “Men” (I) shaxsning ichki tajribalari, his-tuyg'ulari va fikrlarini tashkil etadi.

2. **“Men” (Men) – Obyektiv o‘zlik:** Bu shaxsning atrof-muhit bilan o‘zaro aloqalari, jamiyatdagi roli va boshqalar tomonidan qanday qabul qilinishi bilan bog‘liq. “Men” (Men) shaxsning tashqi jihatlari, ya‘ni uning xatti-harakatlari, ijtimoiy roli va boshqalar bilan munosabatlarini o‘z ichiga oladi.

Jeymsning fikricha, shaxsning “Men” i uning ichki va tashqi jihatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar orqali shakllanadi. Ushbu ikki komponentning o‘zaro ta’siri shaxsning o‘zini anglashini va o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi.

Shaxsning “Men” i rivojlanishi uchun uning ichki va tashqi tajribalari o‘rtasidagi muvozanat muhimdir. Jeymsning nazariyasiga ko‘ra, shaxsning o‘zini anglash jarayoni uning ichki va tashqi dunyo bilan o‘zaro aloqalari orqali amalga oshadi [2].

Karl Yungning shaxs nazariyasida “Men” (I) va “Men” (Men) tushunchalari muhim o‘rin tutadi. “Men” (I) insonning ichki, subyektiv o‘zligini ifodalaydi, ya‘ni uning o‘zini anglash va o‘zini boshqarish qobiliyatini tashkil etadi. “Men” (Men) esa shaxsning tashqi, obyektiv o‘zligini anglatadi, ya‘ni uning ijtimoiy roli, boshqalar bilan munosabatlari va jamiyatdagi o‘rni bilan bog‘liqdir.

Yungning fikricha, shaxsning “Men” i uning ichki va tashqi jihatlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar orqali shakllanadi. Ushbu jarayon "individuallashuv" deb ataladi va shaxsning o‘zini anglash va o‘zini rivojlantirish yo‘lidagi asosiy jarayon hisoblanadi. Individuallashuv jarayonida shaxs o‘zining anglangan va anglanmagan elementlarini birlashtirib, o‘zining to‘liq va muvozanatli “Men” ini yaratishga intiladi. Yungning shaxs va “Men” haqidagi qarashlari uning analitik psixologiyasining asosiy tamoyillaridan biridir va inson psixikasining murakkabligini tushinishda muhim ahamiyatga ega.

Shaxsning o‘z-o‘zini anglash sohasi — bu “Men” obrazining yil sayin o‘zgarib borish jarayoni bo‘lib, bu jarayon davomida shaxs dastlab o‘zining boshqalardan farqliligini anglash bilan birga, o‘zini ko‘rsatishga harakat qilish, mustaqil fikr yurita olish qobiliyatini ham anglashga harakat qiladi. Undan so‘ng shaxsda o‘z-o‘zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, bular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismi sifatida qaraladi.

O‘spirinlik davriga xos bo‘lgan talabchanlik asosida u men o‘zimni yomon ko‘raman» deb gapirganda yoki o‘ylaganda, bunday baho berishni o‘spirinning “Men” siymosiga beradigan barqaror tasnifi sifatida tushunmaslik kerak. Ozgina vaqtdan keyin uning o‘zi haqidagi tasavvurlari butunlay qarama-qarshi tomonga o‘zgarib qolishi ham ko‘p kuzatiladigan holatdir [3].

L.S.Vigotskiyning ta’rifiga ko‘ra, o‘z-o‘zini anglash bu — insonning o‘zi haqidagi tasavvurlarining dinamik tizimi bo‘lib, o‘zining jismoniy, intellektual va boshqa turli sifatlarini anglash bilan yuzaga keladi.

Uslubiy sifatlariga o‘z-o‘ziga beradigan bahosida tashqi omillar, munosabatlar ham ta’sir etishi mumkin.

O‘z-o‘zini anglash ijtimoiylashuv va tarbiya jarayonlari bilan uzviy bog‘liq ekanligini ta’kidlash bu muammoning aynan ijtimoiy psixologik mohiyatga ega ekanligini anglashga yordam beradi. “Men” obrazi ma’lum vaziyatlarga qarab farqlanishi mumkin (masalan, individning o‘zini his qilishi, kayfiyati ham bunga ta’sir ko‘rsatadi), inson o‘zining muayyan fazilatlarini sezishi o‘z-o‘zini anglash natijasida yuzaga keladi [4].

Maktabgacha yoshdagi bolalar “Men” tasavvuri ularning o‘zligini anglash, o‘zlariga nisbatan munosabatlarini shakllantirish va boshqalar bilan aloqalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu davrda bolalar o‘zlarini kichik shaxs sifatida ko‘radilar va bu jarayon bir necha bosqichdan o‘tadi.

1. O‘z-o‘zini tanish: Bolalar o‘zlarini jins, yosh, rang, va boshqa fizik xususiyatlari orqali tanisha boshlaydilar. Ular “Men erkakman” yoki “Men ayolman” kabi oddiy iboralarni ishlatish orqali o‘z jinslarini anglaydilar.

2. O‘ziga xoslik: Bolalar o‘zlarining individual xususiyatlari haqida fikr yurita boshlaydilar: “Men kuchliman”, “Men chiroyli bo‘laman”. Bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini oshiradi.

3. Ijtimoiy identifikatsiya: Maktabgacha yoshdagi bolalar boshqa bolalarga nisbatan o‘zlarini qanday his qilishlarini aniqlay boshlaydilar. Ular do‘stlari bilan muloqot qilarkan, ularni qiziqtiradigan faoliyatlarda qatnashib, ijtimoiy rollarini shakllantira boshlaydilar.

4. Emotsional anglash: Bolalar o‘z his-tuyg‘ularini tan olish va ifoda etishni o‘rganadilar. Ular baxtli, g‘azablangan yoki qiziqqan paytlarida bu his-tuyg‘ularni qanday ifoda etishni bilishga harakat qiladilar.

5. Ona va otaga nisbatan munosabat: Maktabgacha yoshdagi bolalar ota-onalari orqali ko‘p narsalarni o‘rganadilar. Ota-onaning ularga bo‘lgan munosabati va tarbiyasi ularning “Men” tasavvurining asosiy qismi hisoblanadi.

Bu bosqichlar bolalarning shaxs sifatida rivojlanishi uchun juda muhimdir va ularning kelajakdagi ijtimoiy hayotida katta ahamiyatga ega bo‘ladi. Shuningdek, ota-onalarning va tarbiyachilarning rollari bu jarayonda muhim ahamiyatga ega — ular bolalarning o‘zligini anglashlariga yordam berishlari kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda “men” obrazini rivojlantirish jarayoni juda muhim va murakkab bosqichlardan iborat. Ushbu jarayon bolalar o‘z shaxsiyatini, ijtimoiy qobiliyatlarini va o‘zligini anglashlariga yordam beradi. Quyida bu rivojlanish bosqichlari keltirilgan:

1. O'zini anglash (2-3 yosh):

- Ushbu yoshda bolalar o'zlarini "men" sifatida tanishga kirishadilar.

- Ular o'z ismlarini aytish, jismoniy xususiyatlarini (masalan, rang, balandlik) tasvirlashni boshlaydilar.

- O'z hissiyotlarini ifoda etish va boshqalar bilan aloqada bo'lish qobiliyatlari rivojlanadi.

2. Ijtimoiy munosabatlar (3-4 yosh):

- Bolalar boshqalar bilan o'zaro munosabatlarni o'rganadilar.

- Ular do'stlar bilan o'yinlar o'ynashni boshlaydilar va ijtimoiy rollarni amalga oshirishga kirishadilar (masalan, ota-ona yoki do'st rolda).

- Ularning "men" tasavvurlari boshqalar bilan solishtiriladi va ijtimoiy identifikatsiya shakllanadi.

3. Shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlarni anglash (4-5 yosh):

- Bolalar o'z imkoniyatlari, kuchli tomonlari va zaif tomonlarini aniqlashni boshlaydilar.

- Ular turli faoliyatlarda qatnashib, qobiliyatlarini sinab ko'radilar (san'at, sport, musiqaga qiziqish).

- O'z-o'zini baholash darajasi oshadi, bu esa ularning shaxsiylikini mustahkamlaydi.

4. Qonun-qoidalar va axloqiyning tushunilishi (5-6 yosh):

- Bolalar jamiyatda qanday xulq-atvor qoidalari mavjudligini anglaydilar.

- Ular to'g'ri va noto'g'ri tushunchasini shakllantiradilar hamda axloqiy qadriyatlarni tushunishni boshlaydilar.

- Bu davrda ular boshqa odamlarning his-tuyg'ulariga nisbatan empatiya ko'rsatishni ham o'rganadilar.

5. Mustaqillik va qaror qabul qilish (6 yoshdan keyin):

- Maktabga tayyorgarlik jarayonida bolalarning mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi.

- Ular yangi vazifalarni bajarishda ko'proq mas'uliyat hissi bilan yondoshadilar.

- O'z maqsadlariga erishishda rejalashtirish va tashkillashtirish ko'nikmalarini rivojlantiradilar.

Bu bosqichlarda ota-onalar va tarbiyachilarning roli juda muhimdir. Ular bolalarga qo'llab-quvvatlash berib, ularning shaxsiy rivojlanishini rag'batlantirishi lozim. Shuningdek, bolalarga yordam berish uchun turli xil pedagogik usullarni qo'llash zarur: o'yin orqali ta'lim berish, ijodkorlik faoliyatlari tashkil etish, muloqot uchun imkoniyat yaratish kabi usullar orqali "men" obrazining rivojlanishini qo'llab-quvvatlash mumkin.

Shunday qilib, maktabgacha yoshdagi bolalarda "Men" obrazining shakllanishi ularning shaxsiyati va ijtimoiy moslashuvining asosini tashkil etadi. Bu jarayonni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatli hayoti uchun muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, bolani har tomonlama rivojlantirishda ijtimoiy-hissiy rivojlanish nuqtayi nazaridan "Men" konsepsiyasini shakllantirishda hissiyotlar va ularni boshqarish, ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqotni to'g'ri tashkil qilinishi katta ahamiyatga ega. Bu davrda "Men" konsepsiyasini shakllanishida o'z-o'zini anglashning rivojlanish bosqichlari, o'z-o'zini anglashning mazmuni, o'z-o'zini anglash funktsiyalari, o'z-o'zini anglash komponentlari, o'z-o'zini anglashning shakllanishi va jinsni aniqlash bilan tavsiflanadi.

**Adabiyotlar**

1. O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda «Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida»gi O'RQ-595-son Qonuni. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son).

2. Uilyam Jeyms. Umumiy psixologiya. O'quv qo'llanma, Sh.Rasulova tarjimas. 2002.

3. Karl Gustav Yung. Нераскрыта самость. А.Сечина tarjimas. 2022.

4. Mamadiyarova D.U., Muratova Sh.N. Psixologiya va pedagogika. Darslik. 2023.

**REZYUME.** Maqolada o'z-o'zini anglashni jismoniy, ijtimoiy, aqliy, emotsional ko'rinishlarida namoyon bo'lishi shuningdek, tarbiyalanuvchilarda "Men" obrazini shakllantirish ahamiyati haqida so'z boradi.

**РЕЗЮМЕ.** В статье говорится о проявлении самосознания в физических, социальных, умственных, эмоциональных видах, а также о значении формирования у воспитанников образа "Я."

**SUMMARY.** The article discusses the manifestation of self-awareness in physical, social, mental, and emotional aspects, as well as the importance of developing the "I" image in students.

## USTAZLAR SHEJIRESI

### ПЛИС НУРПЕИСОВ – ГОРДОСТЬ НАШЕГО НАРОДА

**К.М.Кощанов** – кандидат филологических наук, профессор

**М.А.Ганиева** – базовый докторант

**Н.М.Балтабаева** – студентка

*Нукусский государственный педагогический институт имени Аджинияза*

В этом году, 9 мая, исполняется 80 лет со дня победы в Великой Отечественной войне над фашизмом. Тогда погибло более 22 миллионов граждан Советского Союза; миллионы вернулись ранеными и инвалидами, миллионы детей остались сиротами. Были разрушены множество городов, деревень и сел, заводов и фабрик. Все граждане бывшего Советского Союза боролись с захватчиками как одна семья!

Защищать Родину из Каракалпакстана отправились на фронт более 20 тысяч каракалпакских ребят.

Было много добровольцев, ушедших на фронт. Это были преподаватели, студенты-выпускники того времени, имена которых высечены на памятнике, на территории бывшего Каракалпакского Государственного педагогического института, такие как А.Базаров-директор Каракалпакского Государственного педагогического института, Плис Нурпеисов, Герой Советского Союза; Е.Айымбетов, Ж.Алексеев, Т.Амиров, Г.Н.Вербицкий, Х.Х.Галимулин, М.Демесинов, Жумамуратов, А.Досбергенов, Ж.Кытайбеков, К.Мамутов, А.Тулегенов, А.Уханкин, Ф.З.Алтынбаев – это солдаты, которые сложили головы за ратную честь нашего народа.

Мы не можем не упомянуть о тех выпускниках и преподавателях Каракалпакского Государственного педагогического института, которые вернулись живыми и стали видными деятелями науки, это Нагмет Урумбаев – учёный, Айтмурат Турабаев – доцент, Отарбай Сейитов – автор учебников для студентов и учащихся школ и вузов Каракалпакстана. Это заслуженные учёные, авторы больших научных трудов, монографии и словарей.

Особо хотелось бы отметить, заслуги выпускника физико-математического факультета Каракалпакского Государственного педагогического института, который стал героем Советского союза.

Плис Нурпеисов, родился 23 декабря 1919 года, на берегу реки Билис по которому ему было дано имя-Плис. В том же году, осенью его отец Кольгельди и мать Альпеш переселились в Петро-Александровске (ныне Турткуль), являвшегося тогда столицей Каракалпакстана.

На войне он был лётчиком. Судя по рассказам родных, ныне живущих в Казахстане, он вместе со своим экипажем был сбит над Берлином и погиб

23 апреля 1945 года, то есть за считанные дни до Победы.

Плис Нурпеисов, незадолго до окончания войны, в декабре 1944года приезжал в отпуск на родину. Уже тогда у него на груди красовались два ордена Красного Знамени и орден Отечественной войны 1ой степени. По рассказам его племянников Аметбая и Жусипбая, Плис Нурпеисов рассказал о том, какие случаи с ним происходили на фронте.

В 1943 году, уже старший лейтенант, Плис Нурпеисов получил от маршала авиации Новикова Александра Александровича именные часы за доставку ценных сведений о расположении вражеских сил на районе Харькова. Тогда экипажу, где он был штурманом, дважды пришлось совершать полёты за линию фронта с целью произвести разведывательные авиа снимки, дающие представления о местах концентрации войск противника. Второй раз они летали туда потому, что Плису Нурпеисову показалось, обнаруженные ими в ходе первого полёта немецкой техники, представляют из себя деревянные макеты, установленные для заблуждения советской разведки. Он настоял на перепроверке, и командование согласилось. В ходе второго полёта, опасения Плиса Нурпеисова оправдались. Действительно, они оказались деревянными макетами для заблуждения разведчиков.

Другой случай тоже был связан с полётом в тыл врага. Командование тогда дало Плису Нурпеисову задание, отправиться в район расположения партизанских частей и доставить легендарного партизанского командира Ковпака прямо в Москву. А затем снова доставить его обратно в своё распоряжение. Это задание было успешно выполнено. Видимо, именно поэтому на него снова пал выбор, когда Ковпака вновь вызвали в Москву.

И Плис Нурпеисов целым и невредимым доставил известного партизанского командира в столицу и обратно...

В журнале "Советская авиация" был опубликован очерк лейтенанта Острерова "Песня героев". В нём рассказывалось о Плисе Нурпеисове.

О славных гвардейцах, героях крылатых.

О тех, кто победу на крыльях несёт,

О скромных, простых, но бесстрашных ребятах  
Победная слава вовек не умрёт.

Следующая история, рассказанная ветераном  
майором Марченко.

Пройдя путь от рядового воина до офицера  
военной авиации, Плис Нурпеисов, вместе с  
экипажем К.Дунаевским, С.Хожановым и  
М.Панджовом, направил свой подбитый горящий  
самолёт на эшелон вражеских танков, 23апреля  
1945года над Берлином. У Плиса Нурпеисова  
было два варианта: эвакуироваться с горящего  
самолёта и сдаться в плен или нанести еще больше  
урона врагам. Он выбрал не сдаваться в плен и  
сохранить честь офицера. Ему присвоили звание  
Героя Советского Союза, посмертно. Указ об этом  
вышел 20 августа1945 года.

Мы не знаем, сколько неизвестных солдат  
совершили героические подвиги, не знаем, сколь-  
ко солдат в каких местах простились своей жиз-  
нью. Слава, героям-студентам и преподавателям.

Мы, молодое поколение, будем всегда помнить  
о героических подвигах наших предков.

Имя и подвиги нашего соотечественника  
навсегда останутся в памяти народа, и будут  
служить примером для всех поколений.

Было бы очень уместно, имена таких героев,  
как Плис Нурпеисов и других наших земляков  
присваивать улицам, площадям, паркам наших  
городов и районов.

Имена героев навечно останутся в памяти  
нашего народа.

**M A Z M U N Í**  
**BAS MAQALA**

|                                                                       |   |
|-----------------------------------------------------------------------|---|
| <b>Кади́ров К.</b> Янги Ўзбекистон стратегиясида ёшлар тарбияси ..... | 3 |
|-----------------------------------------------------------------------|---|

**PEDAGOGIKA ILIMLERI**

**Pedagogika teoriyası hám tariyxı**


|                                                                                                                                                                                                               |    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Avezov M.A.</b> Dasturlash tillari resurslaridan foydalanib talabalarning malaka amaliyot jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish .....                                                                   | 5  |
| <b>Allaniyazov I.B.</b> Pedagogikalıq diagnostika mashqalarınıń ayırım aspektleri .....                                                                                                                       | 8  |
| <b>Базаров О.Х.</b> Шахснинг маънавий-ахлоқий компетенцияси тушунчаси ва унинг методологик асослари .....                                                                                                     | 10 |
| <b>Bekniyazov B.S.</b> Maktab direktorlarining taym-menejment diagnostikasi: hozirgi holatni tahlil qilish va takomillashtirish yo‘llari .....                                                                | 13 |
| <b>Bektursinova G.J.</b> Basshı mádeniyatı hám juwapkershiligi .....                                                                                                                                          | 15 |
| <b>Erkaboyeva F.G‘.</b> Sahnalashtirish faoliyatining ta'limdagi o‘rni va ahamiyati .....                                                                                                                     | 18 |
| <b>Ерлеспесова И.</b> Сторителлинг мактабда физикани ўқитишнинг инновацион методи сифатида .....                                                                                                              | 20 |
| <b>Камалов А.Б., Нажиматдинова Н.Ж.</b> Использование информационных технологий для преподавания физики в школьном образовании .....                                                                          | 23 |
| <b>Kamolova K.G‘.</b> Bilimlar jamiyati: falsafiy yondashuvlar, ijtimoiy ta’siri va zarurati .....                                                                                                            | 26 |
| <b>Khakimov K.A.</b> Improving efficiency: Exercises and activities aimed at developing students' english communication skills with electronic programs .....                                                 | 29 |
| <b>Qaljanov P., Qaljanov R.</b> Sport va atrof-muhitning o‘z aro ta’siri: talabalar fikri .....                                                                                                               | 31 |
| <b>Qurbonova F.M.</b> Talabalarda pedagogik kasbiy identlikni shakllanish bosqichlari .....                                                                                                                   | 33 |
| <b>Quchqorova N.M., Jumaniyazova G.B.</b> Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarini interdisiplinar yondashuv asosida o‘quv faoliyatiga jalb etish va kreativ fikrlashini rivojlantirish mexanizmlari ..... | 35 |
| <b>Маковчик А.В., Шеститко И.В.</b> Развитие подготовки педагогических кадров высшей научной квалификации на территории беларуси: анализ научных исследований .....                                           | 38 |
| <b>Mamataliyeva X.M.</b> Ingliz tili o‘qitish jarayonida kollaborativ ta’lim mohiyati va samaradorlikka erishish yo‘llari .....                                                                               | 40 |
| <b>Nishonov M.S., Tumanov U.F.</b> Kaykovusning «Qobusnoma» asarining pedagogik fikr taraqqiyotidagi tutgan o‘rni .....                                                                                       | 42 |
| <b>Orinbetov N.T.</b> Pedagogik kompetentlikning ilmiy-nazariy asoslari .....                                                                                                                                 | 45 |
| <b>Paluaniyazova S.K.</b> Baslawish klass oqıwshılarınıń kreativ pikirlew kónlikpelerin qalıplestiriw usılları .....                                                                                          | 48 |
| <b>Pazilov A.K.</b> Etnopedagogik qadriyatlardıń tikleniwi – ádep-ikram tárbiyasınıń girewi .....                                                                                                             | 50 |
| <b>Pirniyazova G.N., Bektursinova G.J.</b> Inklyuziv tálimde kitapqumarlıq mádeniyatın rawajlandırıwdıń pedagogikalıq tiykarları .....                                                                        | 53 |
| <b>Siddiqova S.G‘.</b> Dual ta’lim sifatini oshirishda axborot-ta’lim muhitini shakllantirish .....                                                                                                           | 56 |
| <b>Tohirova Sh.M.</b> O‘qituvchilarida pedagogik faoliyatni shakllantirishning o‘ziga xos xususiyatlari .....                                                                                                 | 59 |

**Tálim - tárbiya teoriyası hám metodikasi**

|                                                                                                                                      |    |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----|
| <b>Абдукаримов Н.А.</b> Педагогические принципы совершенствования уроков физического воспитания для учащихся начальных классов ..... | 62 |
| <b>Alaminov M.X.</b> Tarmoq texnologiyalarini o‘qitishdagi asosiy muammolar haqida .....                                             | 64 |
| <b>Asammadinova U.</b> Imkoniyati cheklangan o‘quvchilarga fizika fanini o‘qitishda interfaol texnologiyalarni qo‘llash .....        | 67 |
| <b>Atiyazov S.J.</b> Fe‘l so‘z turkumini o‘rganish metodikasi .....                                                                  | 69 |

|                                                                                                                                                                                 |     |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| <b>Bekmuratova M.</b> Umumiy fizika kursi bo'yicha talablarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish .....                                                              | 72  |
| <b>Boltayeva H.</b> Boshlang'ich ta'limda "4k" modeliga asosida dars tashkil etish usullari .....                                                                               | 73  |
| <b>Erkaboyev O.M.</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining jismoniy sifatlarini baholash tartibi .....                                                                            | 75  |
| <b>Xaytmetov I.S.</b> Oliy ta'lim muassasasida mumtoz raqs harakatlari orqali talabalarni koordinatsion qobiliyatini rivojlantirish .....                                       | 78  |
| <b>Ильцова З.К.</b> Информатикани ўқитишда рақамли таълим воситаларидан фойдаланиш муаммолари .....                                                                             | 80  |
| <b>Ismanova O.T.</b> Fizik bakalavrlarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda loyihaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash metodikasi .....                                            | 82  |
| <b>Masharipova X.F.</b> Kamoliddin Behzodning realistik san'ati va uning tarbiyaviy xususiyatlari .....                                                                         | 84  |
| <b>Orazimbetov Sh.A.</b> Inglis tilin oqitwda jergilikli mádeniyat (Desi - Rayan hám Gardnerdiń motivaciya teoriyalari misalında) .....                                         | 86  |
| <b>Turekeev X.S.</b> Fizika fanidan laboratoriya ishlarini bajarishda dasturiy tizimlardan foydalansih .....                                                                    | 89  |
| <b>Уразимова Т.В.</b> Эстетикалық тәрбия – инсанның руўхый мәдениятының кәлиплесиўиниң тийкарлары .....                                                                         | 90  |
| <b>Urazimbetov A.</b> "Mediasavodxonlik va axborot madaniyati" fani o'quv mashg'ulotlarini loyihalab o'qitish metodikasi .....                                                  | 93  |
| <b>Utepbergenov A.K., Bekmurzaev A.K.</b> Sportshilardiń ulıwma hám arnawlı tayarlıqlarınıń formaları .....                                                                     | 95  |
| <b>PSIXOLOGIYA ILIMLERI</b>                                                                                                                                                     |     |
| <b>Mamadaliyeva N.B.</b> Tayanch tushunchalarni loyihalab o'qitish jarayonida o'quvchilarning og'zaki nutq va fikrlash faoliyatini rivojlantirishning psixologik asoslari ..... | 97  |
| <b>Maxammatova S.S.</b> Psixolog talabalarni kasbiy kutishlarining ijtimoiy-psixologik omillari .....                                                                           | 100 |
| <b>Vapoyeva R.R.</b> Autizm spektrida buzilishi bo'lgan bolalarning psixologik xususiyatlari .....                                                                              | 104 |
| <b>Yuldasheva G.S., Quchqorova N.M.</b> Maktabgacha yoshdagi bolalarda «men» obrazining rivojlanish bosqichlari .....                                                           | 106 |
| <b>USTAZLAR SHEJIRESI</b>                                                                                                                                                       |     |
| <b>Коцанов К.М., Ганиева М.А., Балтабаева Н.М.</b> Плис Нурпеисов – гордость нашего народа .....                                                                                | 109 |

**«АНТОЛОГИЯ КАРАКАЛПАКСКОЙ ПОЭЗИИ»  
(«Qaraqalpaq poeziyasınıń antologiyası») toplamınıń 2-tomı jariq kórdi**



Rossiya Federaciyasınıń Moskva qalası «Ladomir» ilimiy-baspaxana orayında rus tilinde basıp shıǵarılǵan «Антология каракалпакской поэзии» («Qaraqalpaq poeziyasınıń antologiyası») toplamınıń ekinshi tomı da jariq kórdi. Toplamda XVIII ásirdeń baslap búgingi kúńge shekemgi qaraqalpaq shayırlarınıń dóretpeleri orın alǵan.

Toplamdı baspaǵa tayarlawda rossiyalı belgili shayır hám dilmash, ádebiyat tariyxshısı Mixail Sinelnikov, Ózbekstannıń Rossiyadaǵı elshixanası, Ózbekstan hám Qaraqalpaqstan Jazıwshılar awqamları, Rossiyadaǵı qaraqalpaq diasporasınıń belsendi aǵzaları qatnasıp, onı toplam etip basıp shıǵarıwǵa túp-tiykarı ózbekstanlı isbilermen Alisher Usmanovtıń «Kórkem óner, ilim hám sport» qayırqomlıq qorı qarjılay kómek berdi.

Bunnan aldın járiya etilgen birinshi tomında qaraqalpaq xalıq dástanları «Qırıq qız», «Qoblan», «Sháryar» hám xalıq qosıqları, sonıń ishinde, balalar folklorı úlgeriniń rus tiline awdarmaları orın alǵan edi.

## Rossiya mámleketlik neft hám gaz universitetiniń Tashkent qalasındaǵı filiali menen birge islesiw memorandumına qol qoyıldı



2025-jıl 26-aprel kúni I.M.Gubkin atındaǵı Rossiya mámleketlik neft hám gaz universitetiniń Tashkent qalasındaǵı filiali atqarıwshı direktori Abdulla Magrupov Ájiniyaz atındaǵı Nókis mámleketlik pedagogikalıq institutında ushırıw bolıp ótti.

Institut rektori Quvondiq Qodirov penen bolıp ótken ushırıwda eki joqarı oqıw ornı basshıları mámleketimizde joqarı bilimlendiriw sistemasın hár

tárepleme rawajlandırıw baǵdarında ámelge asırılıp atırǵan reformalar hám olardıń ámeliy nátiyjeleri haqqında sáwbetlesti.

Ushırıwda eki joqarı oqıw ornı arasında studentler, magistrantlar, doktorantlar almasıwın jolǵa qoyıw, professor-oqıtıwshılardıń qánigeligin jetilistiriw, qospa ilimiy-izertlew baǵdarlamaları hám joybarların ámelge asırıw, birgelikte ilimiy-ámeliy konferenciya, óz ara másláhátlesiwler ótkeriw, investiciyalıq joybarlardı ózlestiriwdiń áhmiyeti tuwralı pikir almasıldı.

## NMPI studenti Alfiya Amangeldieva «Digital Generation Girls – 2025» tańlawında jeńimpaz boldı



Ózbekstan Respublikası Mektepke shekemgi hám mektep bilimlendiriwi ministrligi tárepinen qızlardıń málimleme texnologiyaları boyınsha bilimlerin ele de arttırıw, olardı zamanagóy kásiplerge baǵdarlaw, aldınǵı ideyaların qollap-quwatlaw maqsetinde 2021-jıldan berli «Digital Generation Girls» («Sanlı áwlad qızları») joybarı turaqlı túrde ótkerilip kelinmekte.

Joybardıń 2025-jılǵı máwsimi Tashkent wálayatınıń Bostanlıq rayonındaǵı «Renessans»

balalar lagerinde bolıp ótti. Respublikamızdan, sonday-aq, sırt ellerden 7 mıńnan aslam qatnasıwshılar dizimnen ótken joybardıń juwmaqlawshı basqışına 120 dan aslam qızlar saylap alındı.

Bilimlendiriw, jasalma intellekt, jasıl ekonomika hám klimat ózgeriwi sıyaqlı baǵdarlarda tańlaw formatında ótken joybardıń final basqışında institutımız studenti Alfiya «Gidrogel járdeminde «EkoAral» jaratıw» joybarı menen jeńimpazlar qatarınan orın aldı hám qımbat bahalı sawǵalar jáne AQShqa bilimlendiriw sayaxatı jollamasın qolǵa kirgizdi.

## **Dıqqat, jazılıw – 2025!**

Húrmetli, jurnal oqıwshıları! Eger, Siz ilim, tálim-tárbiya hám oqıtıwdıń jańa zamanagóy usılları, jańalıqları menen óz waqtında jaqınnan tanıspaqsı, ózińizdiń usı tarawdaǵı jetiskenliklerińiz hám oy-pikirlerińiz benen ortaqlaspaqsı bolsańız, «Ilim hám jámiyet» jurnalına 2025-jıl ushın jazılıwǵa mirát etemiz.

Biziń jurnalımızda barlıq tarawlar boyınsha ilimiy, ilimiy-metodikalıq maqalalar járiyalanadı.

«Ilim hám jámiyet» jurnalı Ózbekstan Respublikası Ministirler kabineti janındaǵı Joqarı Attestaciya Komissiyası kollegiyasınıń qararı menen tómende kórsetilgen pánler boyınsha ilim doktorı dárejesin alıw ushın maqalalar járiyalanıwı tiyis bolǵan ilimiy basılımlar dizimine kirgizilgen:

- 01.00.00 – fizika-matematika ilimleri;
- 03.00.00 – biologiya ilimleri;
- 05.00.00 – texnika ilimleri;
- 07.00.00 – tariyx ilimleri;
- 10.00.00 – filologiya ilimleri;
- 11.00.00 – geografiya ilimleri;
- 13.00.00 – pedagogika ilimleri;
- 19.00.00 – psixologiya ilimleri.

**Jazılıw bahası - 400.000 (tórt jüz mıń) swm.**

|                                                                |                                                          |
|----------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------|
| <i>Redakciya mánzili: Nókis qalası, P.Seytov kóshesi, n/j.</i> | <i>«Ilim hám jámiyet» jurnalınıń esap beti:</i>          |
| <i>Indeks: 230100, Telefon: +998612294086; +998933652520.</i>  | <i>BANK: MB BB XKKM Toshkent shahri</i>                  |
| <i>JURNALDÍŇ BASÍP SHÍĞARÍLÍWÍNA</i>                           | <i>Esap beti: 2340 2000 3001 0000 1010</i>               |
| <i>JUWAPKER: Ájiniyaz atındaǵı NMPI baspaxanası.</i>           | <i>MFO: 00014; INN: 201 122 919</i>                      |
|                                                                | <i>Jeke esap beti: 4001 1086 0354 0170 9410 0350 005</i> |

|                                                                                                                                  |                                                                                                                                                           |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <i>Maqalalardıń mazmunına hám durıslıǵına avtorlar juwapker, olardıń pikirleri redakciyanıń pikirleri bolıp esaplanbaydı</i>     | <i>Jurnalǵa jıl dawamında jazılǵan avtorlardıń miynetleri birinshi gezekte járiyalanadı. Maqala kólemi 6 betten kem bolmaıwı, 8 betten aspaıwı kerek.</i> |
| <i>Jurnal 1992-jıldan shıǵa basladı<br/>ISSN 2010-720X<br/>Indeksi: Jeke puqaralar ushın – 2101.<br/>Mákemeler ushın – 2102.</i> | <i>Basıwǵa ruxsat etildi: 14.05.2025<br/>Buyırtpa: №0225 Format: 60x84 1/8<br/>Kólemi: 14 b/t. Jurnal jılına 8 márte shıǵadı.<br/>Reestr № 089632</i>     |